

46,200

TILSHUNOSLIK NAZARIYASI

N. ULUQOV

N. ULUQOV • TILSHUNOSLIK NAZARIYASI

TOSHKENT



ISBN 978-9985-11-358-9

81-2
U-45

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NOSIRJON ULUQOV

**TILSHUNOSLIK
NAZARIYASI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan universitetlarning 5120100 – filologiya va tillarni
o'qitish (o'zbek filologiyasi) bakalavriat ta'lim yo'naliishi 1-kurs
talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

JIZZAX DPI

Inv № 130285

Axborotniy eslatmani
BASMAKAZI

TOSHKENT – 2016

UO'K: 81'1(075.8)

KBK 81.2O'zb-923

U-45

U-45 N.Uluqov. Tilshunoslik nazariyasi. O'quv qo'llanma. – T.: «Barkamol fayz mediya», 2016, 192 het.

ISBN 978-9943-11-358-9

Universitetlarning 5120100 – filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek filologiyasi) bakkalavriat ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabulari uchun mo'ljalangan mazkur o'quv qo'llanmada tilshunoslik fani, uning yo'nalish va bo'limlari, til va jamiyat, til va tafakkur, til va nutq munosabati, til birliklari va nutq birliklari, tilning tizim sifatidagi ichki tuzilishi, tillar tasnifi kabi masalalar yoritilgan.

O'quv qo'llanmada tilshunoslik faniga oid asosiy terminlar lug'ati ham berilgan.

Данное учебное пособие предназначено для студентов 1-курса направления образования бакалавриата 5120100 – Филология и обучение языком (узбекская филология) и посвящено языкознанию, его направлениям и разделам, а также вопросам языка и общества, языка и мышления, относительной языка и речи, языковых единиц и речевых единиц, внутренней структуры языка как системы, классификации языков.

В учебном пособии также содержится словарь основных терминов языкоznания.

This manual is for the first course bachelor students on the specialty 5120100-philology and teaching languages (uzbek language) of higher education. The subject of linguistics, its directions and chapters, language and society, language and opinions, language and speech relationship, language units and speech units, inner structure as a system of the language and language classifications are given in this manual.

There is also the dictionary of main terms.

UO'K: 81'1(075.8)

KBK 81.2O'zb-923

Mas'ul muharrir:

Suyun Karimov – filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Sharifa Istanqarova – filologiya fanlari doktori, professor.

Huriniso Usmonova – filologiya fanlari doktori.

ISBN 978-9943-11-358-9

© «Barkamol fayz mediya» nashriyoti, 2016.

SO‘ZBOSHI

«Tilshunoslik nazariyasi» fanining asosiy maqsadi tilshunoslik sohasining predmeti va vazifalarini yoritish, fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, tilning ijtimoiy tabiatni, vazifalari, shakllanishi, taraqqiyoti, tilning ichki tuzilishi va sathlari, dunyo tillari, jumladan, turkiy tillar tavsifi hamda tasnifi haqida bilim berishdir.

«Tilshunoslik nazariyasi» fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabalarning o‘rta maktabda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida tilshunoslik fani bo‘yicha olgan bilimlarini nazariy hamda amaliy jihatdan boyitish;
- til va jamiyat, tilning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, tilshunoslik fani, uning boshqa fanlar bilan aloqasi, predmeti va sohalari, tarmoqlari, fanlar tizimidagi o‘rnini haqida tushunchalar berish;
- tilning fonetik-fonologik, leksik, grammatik sathiga oid nazariy-amaliy masalalar yuzasidan bilimlar berish;
- dunyo tillari, tillarning o‘zaro hamkorligi, tillar taraqqiyoti, tillar tasnifi, til oilalari haqida ma’lumot berish;
- talabalarni tilshunoslik fani bo‘yicha keyingi kurslarda o‘qitiladigan fanlarga nazariy jihatdan tayyorlash.

Mazkur o‘quv qo’llanma ana shu maqsad va vazifalarni e’tiborga olgan holda tayyorlandi. Qo’llanmada tilshunoslik fani, uning yo‘nalish va bo‘limlari, til va jamiyat, til va tafakkur, til va nutq munosabati, til birliklari va nutq birliklari mutanosibligi, tilning tizim sifatidagi ichki tuzilishi, til sathlari, tillar tasnifi kabi masalalar, tilshunoslikning boshqa sohalar bilan hamkorligi asosida yuzaga kelgan sohalarni, ta’lim yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlarini, tilshunoslik fanining so‘nggi yutuqlarini inobatga olgan holda yoritildi.

Mavzularni nazariy jihatdan yoritishda uzviylik, mantiqiy ketma-ketlik tamoyillariga rioya etildi, har bir mavzuga oid

mukammal rejalar tuzildi, tayanch so'z va iboralar belgilandi hamda nazariy masalalar ana shu rejalar asosida, tayanch so'z va iboralar negizida yoritildi. Mavzularning mazmun-mohiyatiga mutanosib jadvallar, chizmalar ham berildi. Har bir mavzudan keyin talabalarining o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun nazorat savollari, qo'llanma oxirida o'quv rejasida ajratilgan soatlar, fanning namunaviy o'quv dasturi talabalariga asoslangan holda mustaqil ish mavzulari va ularga doir savol hamda topshiriqlar, referat mavzulari, ularni bajarish yuzasidan tavsiyalar, fanga oid asosiy terminlar lug'ati ham berildi.

O'quv qo'llanmani nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirish, mukammallashtirishga doir taklif va mulohazalarni muallif mamnuniyat bilan qabul qiladi.

KIRISH

Tilshunoslik va uning fanlar tizimidagi o'rni

1. Fanlar sistemasi.
2. Tilshunoslik va uning predmeti.
3. Ferdinand de Sossyur nazariyasi va tilshunoslik taraqqiyoti.
4. Tilshunoslik fanining tarmoqlari va bo'limlari.
5. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi.
6. «Tilshunoslik nazariyasi» kursi va uning maqsadi, vazifasi va ahamiyatni.

Tayanch so'z va iboralar: *fan, ijtimoiy fanlar, tilshunoslik (lingvistika), semiotika, belgi, lingvist belgi, til, til lingvistikasi, nutq lingvistikasi, umumiy tilshunoslik, xususiy tilshunoslik, amaliy tilshunoslik, struktural lingvistika, matematik lingvistika, ekstralingvistika, intralingvistika, kompartavistika, areal lingvistika, tipologiya.*

Tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonuniyatları haqidagi bilimlar tiziminining tarmog'i, soha va yo'nalishlari **fan** deb yuritiladi. Fanlar tizimi o'zini o'rganish obyekti, predmeti, maqsad va mohiyatiga ko'ra quyidagi yirik guruhlarga bo'linadi:

- 1) tabiiy fanlar;
- 2) aniq fanlar;
- 3) ijtimoiy-gumanitar fanlar;
- 4) texnika fanlari.

Fanlar tabiat va jamiyatga bog'liq ma'lum masalalarni ilmiy yoki amaliy jihatdan o'rganishi nuqtayi nazaridan o'zaro aloqador bo'lib, hamkorlikda ish ohb boradi, biri ikkinchisining xulosalariga asoslanadi. Shu bois fanlar majmui sistema hisoblanadi. Sistemning ichki bo'linuvchanlik xususiyatiga ko'ra har qanday fan ma'lum yo'nalish, tarmoq va sohalarga bo'linadi. Bunday xususiyat tilshunoslik faniga ham xos.

Tilshunoslik – tilning ijtimoiy tabiat, vazifasi, ichki tuzilishini, tillarning ish ko‘rish (faoliyat) qonunlari va tarixiy taraqqiyotini o‘rganuvchi fan. Deinak, tilshunoslik inson tilini o‘rganadigan mustaqil fandir. **Tilshunoslik** termini bilan bir qatorda ilmiy adabiyotlarda **lingvistika** (< fran. *linguistique* < lot. *lingua* – til) termini ham qo‘llaniladi.

Til – nutq tuzib, fikr, his-tuyg‘u, istak kabilarni ifodalashda xizmat qiladigan fonetik, leksik va grammatik vositalar tizimi; kishilar orasida asosiy va eng muhim aloqa-aratashuv, fikrlashuv quroli bo‘lib xizmat qiladigan ijtimoiy hodisa. Bundan ko‘rinadiki, til kishilik jamiyatidagi ikkilamchi **yozuv** va **belgilar, signallar, imo-ishora, mimika** kabi yordamchi aloqa vositalariga nisbatan eng muhim aloqa vositasi bo‘lib, jamiyat tomonidan yaratilgan hamda unga xizmat qiladi. Shuning uchun ham uni o‘rganadigan tilshunoslik falsafa, psixologiya, tarix kabi **ijtimoiy fanlar** qatoriga kiradi.

Tilshunoslik fani qadimiy tarixga ega. Tilshunoslik fanining predmeti, tilning tabiati va mohiyatini har xil tushunish natijasida **naturalizm, psixologizm, logisizm, sotsiologizm, strukturalizm** kabi turli ilmiy maktablar hamda oqimlar vujudga kelgan.

Qadimgi davrlardan boshlab til tilshunoslik fanining predmeti, o‘rganish manbai sanaladi.

Tilshunoslik fanining asosiy muammolaridan biri tilning ushbu fanning predmeti sifatidagi ta’rifidir. Tabiiy inson tili faqat tilshunoslikda emas, balki bir qator fanlar tomonidan o‘rganiladigan murakkab hodisa bo‘lib, har bir fanning tilga bergan ta’ifi turlichadir. Tilning ta’ifi masalasi tilshunoslik fani tarixidagi eng mubim masalalardan biri bo‘lib, fan tarixida turlicha talqin qilingan va hozirgi kunda ham turli ilmiy maktablar hamda oqimlar orasida keskin bahslarga sabab bo‘lib kelmoqda.

Buyuk tilshunos Ferdinand de Sossyurning nazariy qarashlari bu masalaga oydinlik kiritdi va tilshunoslik tarixida yangi bir davrni boshlab berdi.

Ferdinand de Sossyur (1857 – 1913) Shveytsariyada tug‘ilgan. U 1876-yili Leypsigda Leskin, Ostgof, Brugman kabi «Yosh grammatikachilar» oqimi asoschilarining ma’ruzalarini tinglagan. Uning 1879-yilda nashr etilgan «**Hind-Evropa tillari unililarining**

dastlabki tizimi haqida ma'lumotlar» kitobi tilshunoslikda ma'lum va mashhur bo'lib, hind-evropa tillari tadqiqida hamda qiyosiy-tarixiy metod tarqqiyotida alohida o'rinni tutadi.

Ferdinand de Sossyur 1880-yilda Leypsigda doktorlik dissertasiyasini himoya qiladi, 1881-yilda Parijga kelib german tillari, hind-evropa tillari qiyosiy grammatikasi bo'yicha ma'ruzalar o'qiydi, 1891-yildan Jenevada professor lavozimida ilmiy, pedagogik faoliyatini davom ettirgan.

Ferdinand de Sossyur Parijda 1906 – 1911-yillarda uch marta «Umumiyl Tilshunoslik» kursidan ma'ruzalar o'qigan. Bu ma'ruzalarni o'zlarini tinglamagan shogirdlari Sharl Balli va Albert Seshe 1916-yili Ferdinand de Sossyur vafotidan keyin u o'qigan ma'ruzalarni kitob qilib chiqardilar. Kitob «Cours de Linguistique generale» («Umumiyl Tilshunoslik kursi») deb nomlanadi. Kitob o'z mazmun-mohiyati, ilmiy-nazariy g'oyalari bilan e'tirofga sazovor bo'ldi.

Olim til (langue), nutq (parole) va nutq faoliyatini (langage) farqlaydi. Uning fikricha, til – bu grammatic tizim va lug'at tarkibidir. Nutq faoliyati esa muayyan xalqning ifoda imkoniyatlari tizimidir. Til bilan nutq sotsial hamda individual xususiyatlari ko'ra farq qiladi. Bundan tashqari, Ferdinand de Sossyur ichki va tashqi lingvistikani farqlaydi. U til tarixini jamiyat tarixi, kishilik madaniyati tarixi bilan bog'laydi. Uning e'tiroficha, millatning urfdodatlari tilda o'z aksini topadi. Shuningdek, olim tilga sinxronik, diaxronik aspektlarda yondashuv masalalarini yoritadi. Sinxroniya – tilning bir davrda mavjudligi, diaxroniya – til dalillarining izchil zamonda ko'rinishi, tarixiy yoki dinamik aspekti.

Olimning fikricha, til kishilik jamiyatida bajaratdigan vazifasiga ko'ra aloqa quroli, inson fikrini ifodalaydigan vositadir. Ijtimoiy tabiatni jihatidan qaraganda, til madaniy, tarixiy va ijtimoiy hodisadir. Ichki tuzilishiga ko'ra til sof belgi-ishoralar tizimidir. Ferdinand de Sossyur: «Til g'oyalarni ifodalovchi belgilar sistemasidir» degan g'oyani ilgari suradi. Til ham axborot beruvchi vositalar sirasiga kiradi. Avvalo, o'zi va shu bilan birga borliqdagi boshqa narsa-buyumlar, hodisalar haqida ma'lumot beruvchi vositalar, ya'ni sotsial axborotning har qanday moddiy ifodalovchilari belgi hisoblanadi.

Belgi moddiy, hissiy idrok etiladigan predmet, voqeya yoki harakatdir. Belgi tushunchasi serqirra bo'lib, falsafa, mantiq, tilshunoslik, psixologiya, sotsiologiya fanlari tomonidan tahlil qilinadi. Predmet, xossa va munosabatni ifodalovchi moddiy-ideal hosila; ifoda va mazmun jihatiga ega bo'lgan birlik **til belgisi** deb ataladi.

Ferdinand de Sossyur ta'tificha, tilshunoslik fanining manbai shartli ishora-belgilarni tizimi bo'lgan tilni o'rganishdir. Shu bois tilshunoslik ishoralarini o'rganadigan semiotik (semiotika yoki semiologik – belgi-ishoralar tizimini o'rgauadigan fan) fanlar turkumiga kiradi.

Semiotika (yun. *semeiotikos* – belgilarni haqidagi ta'limot) – axborot, ma'lumotlarni saqlash va uzatishga xizmat qiluvchi belgilarni tizimini o'rganuvchi soha. Semiotikaning lisoniy belgini o'rganuvchi yo'nalishi **lingvistik semiotika** hisoblanadi.

Semiotikaning umumiy qoidalari, xususiyatlari dastlab amerikalik mantiqshunos Ch.S.Pire va tilshunos F.de Sossyur asarlarida yoritilgan. Ch.S.Pire «semiotika», F.de Sossyur «semiologiya» terminini qo'llagan.

Ferdinand de Sossyur tilning sistemaviy xarakteri va uning belgi sifatidagi tabiatini asoslab berdi. Til sistema bo'lib, u mavhum belgilardan iborat. Til belgi-si, bir tomondan, erkin, shartli (belgi tanlashga nisbatan), lekin ikkinchi tomondan til jamiyat uchun majburiy hisoblanadi. Olim til belgisi nazariyasini yaratdi va uni sintagmatik hamda paradigmatic tushunchalar bilan bog'ladi. O'z ustozlari qarashlarini bevosita Sh.Balli, A.Seshe rivojlantirdilar. Ular Jeneva maktabi vakillari hisoblanadilar. Ferdinand de Sossyurning sotsiologik g'oyalari asosida ish olib borgan tilshunoslari qatoriga A.Meye, J.Vandries, A.Sammerfeldt, E.Benvenist va boshqalar kiradi. Demak, XX asrdan boshlab mashhur Ferdinand de Sossyur nazariyasi tilshunoslik fanining predmetini aniqlashda yangi davomi boshlab berdi. Xuddi shu nazariya ta'sirida tilshunoslik fanining predmeti masalasi yangicha tus oldi. Olim birinchilar qatorida tilning murakkab hodisa ekanligini anglagan holda mukammal va aniq shakllangan umumiy tilshunoslik nazariyasini yaratdi. Ferdinand de Sossyurning ilmiy qarashlari tilning murakkab, ziddiyatlarga boy, ko'p qirrali hodisa ekanligiga asoslangan.

Tilning turli qirtalarini uzviy tarzda birlashtirib, uni bir butunlik, bir sistema sifatida o'rganuvchi tilshunoslik asrimizning 20-yillarida sistem-struktur tilshunoslik nomi bilan mashhur bo'ldi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, Ferdinand de Sossyur asos solgan XX asr sistem tilshunosligi bag'rida o'nlab yangi lingivistik oqim va mакtablar vujudga keldi, bu sohada ulkan zamonaviy yutuqlar qo'lga kiritildi. Tilshunoslik fanining chegarasi va predmetini aniqroq ta'riflash maqsadida Ferdinand de Sossyur Vilgelm fon Gumboldt kabi antinomiya (qarama-qarshi qo'yish) metodidan foydalaniб, til va nutqni ajratib, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi. Uning fikricha, til nutq faoliyatining faqat bir tomonini tashkil etadi. Til nutqqa zid. Til va nutqning asosiy farqi – til ijtimoiy, nutq esa individual hodisadir. Olim til va nutq o'rtaсидagi o'zaro bog'lanishni, munosabatni inkor etmagan holda, ikkala hodisani alohida-alohida o'rganishni tavsiya etadi va til lingvistikasi hamda nutq lingvistikasi terminlarini muomalaga kiritadi. Ferdinand de Sossyur fikriga ko'ra, tilshunoslik fanining asosiy vazifasi va predmeti til lingvistikasini o'rganishdan iboratdir.

Nutq lingvistikasi esa tilshunoslik uchun ikkinchi darajali masala bo'lib, falsafa, psixologiya, fiziologiya, antropologiya, filologiya kabi boshqa fanlar tomonidan o'rganilishi mumkin. Chunonchi, Ferdinand de Sossyur lingvistikaning ichki va tashqi lingvistikaga ajratib, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi. Uningcha, tilshunoslik fanining asosiy bo'limi tilning ichki ko'rinishini o'rganadigan ichki lingvistikadir, tashqi lingvistika esa tilni xalq tarixi, madaniyati bilan aloqasini o'rganadigan lingvistika bo'lib, u tilshunoslik fani uchun ikkinchi darajali hodisadir. Ferdinand de Sossyurning til substantsiya (mohiyat) emas, balki shakldir, degan tezisi struktural g'oyalarning rivojlanishida asosiy omil bo'ldi.

Ferdinand de Sossyurdan keyingi tilshunoslikda «struktura» tushunchasi asosiy masala deb qaratadi va til tuzilishi til nazariyasining asosi deb e'lon qilindi. Tilshunoslik fanining predmeti esa struktural lingvistika uchun «struktura» tushunchasiga teng bo'lib qoldi. Hozirgi Praga, Kopengagen, Amerika strukturalizm maktablari kabi oqimlar umumiy xususiyatlari bilan bir nuqtaga birlashadi. Qisqasi, Ferdinand de Sossyurning «Umumiy

tilshunoslik kursi» asarida o‘z ifodasini topgan barcha g‘oyalar Boduen de Kurtene, N.V.Krushevskiy, U.D.Uitni, E.Dyurkcheym kabi yetuk olimlarning mantiqiy, qa‘tiy tizimga solingan, rivojlantirilgan va izchil bayonidir.

Maqsadi, vazifasi va boshqa belgi-xususiyatlariga ko‘ra tilshunoslikning bir necha yo‘nalishlari bor:

- a) umumiy tilshunoslik;
- b) amaliy tilshunoslik;
- c) xususiy tilshunoslik;
- d) struktural lingvistika;
- e) matematik lingvistika.

Umumiy tilshunoslik – xususiy tilshunoslikdan farqli holda, tilni umuman insonga xos hodisa sifatida o‘rganuvchi tilshunoslik yo‘nalishi. Umumiy tilshunoslik dunyo tillariga xos umumiy belgi-xususiyatlarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Siz 4-kursda «Tilshunoslik nazariyasi» fanida mazkur yo‘nalishga doir bilimlar olasiz.

Xususiy tilshunoslik – ma‘lum bir tilning belgi-xususiyatlarini o‘rganuvchi soha. Masalan, *o‘zbek tilshunosligi, rus tilshunosligi* kabi.

Amaliy tilshunoslik – tilshunoslikning lingvistik masalalarni amaliy yo‘l bilan o‘rganuvchi yo‘nalishi bo‘lib, u eksperimental fonetika, leksikografiya, lingvostatistika, grafika kabi sohalarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, transkripsiya, transliteratsiya masalalari bilan ham amaliy tilshunoslik shug‘ullanadi.

Struktural lingvistika (strukturalizm) – tilshunoslikning o‘z tekshirish manbaini tildagi ichki munosabatlar va aloqalar bilan chegaralovchi, til va tafakkurning o‘zaro munosabati, tilning jamiyat bilan aloqasi kabi masalalarni chetlab o‘tuvchi sohasi.

Matematik lingvistika – tilshunoslikning tilni tadqiq etish va tasvirlashda matematik metodlardan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganuvchi sohasi.

Tilshunoslik fani taraqqiyotida yuzaga kelgan turli lingvistik maktab va oqimlar tilga qanday yondoshish hamda tablil metodlarini turlicha bo‘lishidan qat‘i nazar hozirgi zamон tilshunosligi quyidagi uch asosiy tarmoqqa bo‘linadi:

- 1) ekstralolingvistika;
- 2) intralingvistika;

3) komparativistika.

Til ilmida bularning birinchisi **tashqi lingvistika**, ikkinchisi **ichki lingvistika**, uchinchisi **qiyosiy-tarixiy tilshunoslik** deb ham ataladi.

Ekstralingvistika (lot. *extra* – tashqi + fran. *lingistique* – tilga xos) tilni ijtimoiy hodisa sifatida o'rganib, sotsiolingvistika (ijtimoiy tilshunoslik) va mentalingvistika (menta < lot. *mens, mentis* – ang – tafakkur)ni o'zida birlashtiradi.

Sotsiolingvistika tilning tabiatini va ijtimoiy vazifasini, **mentalingvistika** til va tafakkur, tilning mazmun tomonini nutq faoliyati, kontekst va situatsiya bilan aloqasini o'rganadi.

Intralingvistika (ing.) tilning ichki tuzilishini, uning birliklarini va kategoriyalarini, til sathlari va ularning tuzilishini nolisoniy omillarga bog'lamasdan o'rganadi. Fonologiya, leksikologiya va grammatika intralingvistikaning asosiy bo'limlari hisoblanadi.

Komparativistika (lot. *comparativus* – qiyosiy) – tilshunoslikning qarindosh tillarni qiyosiy-tarixiy o'rganish bilan shug'ullanuvchi tarmog'i. Komparativistika qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, areal lingvistika, tipologiya (universal lingvistika) ni o'z ichiga oladi.

Qiyosiy tilshunoslik qiyosiy-tarixiy va chog'ishtirma tilshunoslikka bo'linadi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik qarindosh tillarni o'rgansa, chog'ishtirma tilshunoslik turli tizimdag'i tillarni chog'ishtirib, ularning o'xhash va noo'xhash tomonlarini aniqlaydi. Masalan, *rus-o'zbek tillarining qiyosiy grammatikasi* kabi.

Tilshunoslik fani bo'limlari

| No | Soha nomlari | O'rganadigan masalalari |
|----|-------------------|--|
| 1 | Fonetika | Nutq tovushlarining artikulatsion va akustik xususiyatlarini, bo'g'in, urg'u, ohang va fonetik hodisalarini o'rganadi. |
| 2 | Fonologiya | Fonema, fonemalar tasnifi va ular o'rtaсидаги munosabat masalalarini o'rganadi. |
| 3 | Grafika | Yozuv turlari, yozuv birliklari, alifbo, harf, tovush va harf munosabatlari kabi masalalarini o'rganadi. |

| | | |
|-----------|--|---|
| 4 | Orfoepiya | Adabiy tilga xos talaffuzni va talaffuz me'yordarini o'rganadi. |
| 5 | Orfografiya | Imlo qonun-qoidalari va tamoyillarini o'rganadi. |
| 6 | Leksikologiya | So'z, so'zning lug'aviy ma'nosi, ma'no tuzilishi, shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini, tilning lug'at tarkibini va uning taraqqiyotini o'rganadi. |
| 7 | Paremiologiya | Tildagi barqaror birkimlar: maqol, matal va aforizmlar (hikmatli so'zlar)ni o'rganadi. |
| 8 | Frazeologiya | Frazeologizm (ibora)larni, frazeologizmlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini o'rganadi. |
| 9 | Etimologiya | So'z va morfemalarning kelib chiqishi hamda tarixini o'rganadi. |
| 10 | Dialektologiya | Tildagi sheva va lahjalarni o'rganadi. |
| 11 | Terminologiya | Termin va unung turlarini hamda termin tuzish, qo'llash masalalarini o'rganadi. |
| 12 | Leksikografiya (lug'atshunoslik) | Lug'at, lug'at turlarini, lug'at tuzish amaliyoti va nazariyasini o'rganadi. |
| 13 | Morfemika (so'z tarkibi) | So'zning tarkibiy tuzilishini, morfema va uning turlari: yetakchi morfema va affikslarni, so'zlarining tuzilishiga ko'ra turlarini o'rganadi. |
| 14 | So'z yasalishi | So'z yasalishi va so'z yasash usullarini o'rganadi. |
| 15 | Grammatika: - morfologiya - sintaksis | So'z turkumlari va so'zlarining grammatick shakllarini o'rganadi. So'z birikmasi, gap va uning turlarini o'rganadi. |
| 16 | Punktuatsiya | Tinish belgilari va ularning qo'llash qoidalarini o'rganadi. |
| 17 | Uslubiyat (stalistika) | Til birliklarining uslubiy imkoniyat va xususiyatlarini, uslubiy bo'yogi hamda nutq uslublarini o'rganadi. |

Areal (lot. *areal* – maydon) lingvistika dunyodagi tillarning xaritasi, turli mamlakatlarning til tomonidan tavsifi, ayrim tillar va til guruhlari hamda sheva, lahjalarning tarqalish doirasini o'rganadi.

Tipologiya (grek. *typos* – iz, *shakl*, namuna + *logos* – ta'limot) tillarni tipologik tasnif qilish tamoyillarini o'r ganuvchi sohasi. Hozirda tilshunoslikning bu tarmog'i rivojlanmoqda.

Tilshunoslikning barcha tarmoqlari, yo'naliш va bo'limgari tilni har tomonlaima chuqur o'rganish bilan shug'ullanadi. Demak, tilshunoslik fanining asosiy predmeti murakkab, muhim ijtimoiy hodisa sanalmish til bo'lib, tilning barcha qirralari, belgixususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti shu fan tarmoqlari va sohalari tomonidan o'rganiladi.

Insonning nutqiy faoliyati *so'zlashish, eshitish, sezish va o'qish* kabi murakkab jarayonlarni ham o'z ichiga oladi. Bu jarayonlar faqat tilshunoslikda emas, balki boshqa fanlarda ham o'rganiladi. Shunga ko'ra, inson tili mustaqil manba sifatida bir necha fanlarning predmetini tashkil etadi.

Tilshunoslik til bo'yicha tadqiqot ishlari olib borganda boshqa fanlarning xulosalariga ham suyanadi va aksincha, barcha fanlar ham til materiallaridan foydalanadi. Bundan ko'rindaniki, tilshunoslik deyarli barcha fanlar bilan aloqada, hamkorlikda ish olib boradi.

Til falsafa, psixologiya (ruhshunoslik), sotsiologiya, mantiq (logika) kabi fanlar tomonidan ham o'rganiladi. Tilni o'rganishda ishtirok etadigan har bir fanning tilga nisbatan o'z munosabati bor. Bu munosabat har bir fanning tilni qaysi tomoni yoki aspektini o'rganishi bilan belgilanadi va ushbu fanning predmetini tashkil etadi.

Tilshunoslik, ayniqsa, falsafa bilan chambarchas bog'liqidir. O'tmishda tilshunoslik hain falsafa fanining bir tarmog'i bo'lgan, keyinchalik mustaqil fan maqomini olgan. Falsafa tilshunoslikning metodologiyasini belgilab beradi. U turli fanlar, jumladan, tilshunoslik uchun xarakterli bo'lgan tahlil tamoyillari va metodlarini tanlash hamda belgilashda yordam beradi.

Tilshunoslikning mantiq fani bilan aloqadorligi shundaki, til – fikr ifodalash quroli, fikr esa mantiq fanining o'rganish manbaidir. Fikr va til o'zaro bog'liq bo'lgani kabi grammatik va logik kategoriyalari ham o'zaro bog'liqidir.

Tilshunoslik ruhshunoslik bilan ham uzviy bog'liqidir. Ruhshunoslik inson ruhiy (psixik) jarayonlarining qonuniyatlarini

o'rganadi. Insoning ruhiyati tilda, nutqda o'z ifodasini topadi. Til va ruh o'rtaсидаги масалалар **psixolingvistikada** о'рганилади. Demak, psixolingvistika psixologiya bilan lingvistikaning sintezi sifatida yuzaga kelgan bo'lib, nutqni qabul etish, tilni egallah kabi masalalarni o'рганиади. Darhaqiqat, inson ma'lum miqdordagi tajriba, qoidalar yordamida yangidan-yangi jumلالарни yaratish qobiliyatiga ega. Psixolingvistika fanining asosiy maqsадларидан бирі ана шу qobiliyatning tabiatini va rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy o'рганишдир.

Psixolingvistika til birliklaridan nutqiy jarayonda foydalanish va ularda shaxsning xususiyatlari, ruhiyati va tafakkuri, xarakteri va kayfiyati bilan bog'liq ma'no, tushuncha ifodalanishi kabi masalalarni o'рганиади.

Shuningdek, tilshunoslik tarix, arxeologiya, adabiyotshunoslik kabi ijtimoiy, fiziologiya, fizika, kibernetika, matematika kabi tabiiy, aniq fanlar bilan ham bog'liq.

Siz o'рганишни boshlayotgan «Tilshunoslik nazariyasi» kursi tilshunoslik nazariyasi, umumiy tilshunoslik fanlarining alifbosi, debochasi, til haqidagi dastlabki ilmiy-nazariy, amaliy bilim beruvchi, tilshunoslikda qo'llaniladigan asosiy ilmiy termin va tushunchalar bilan tanishtiruvchi fan bo'lib. tilshunos-likning asosiy qismlarini va xususiy tilshunoslikda o'рганиладиган масалаларни o'zlashtirish uchun nazariy asos beradi, sizni keyingi kurslarda o'qitiladigan tilshunoslikning u yoki bu sohasiga oid fanlarga tayyorlaysidi.

Nazorat uchun savollar:

1. Tilshunoslik fani qanday masalalarni o'рганиади?
2. Ferdinand de Sossyur nazariyasi haqida nimalarni o'rgandingiz?
3. Tilshunoslik fani qanday tarmoqlarga bo'linadi?
4. Tilshunoslik fani maqsadi, vazifasi va xususiyatlariiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
5. Til tilshunoslikdan tashqari yana qaysi fanlar tomonidan o'рганилади?

6. «Tilshunoslik nazariyasi» fani qanday masalalarini o'rganadi?

7. Kursning maqsadi, vazifasi va ahamiyati nimalardan iborat?

Tilning ichki tuzilishi va vazifalari. Til va nutq

1. Aloqa vositalari:

- a) asosiy aloqa vositalari;
- b) yordanichi aloqa vositalari.

2. Tilning asosiy vazifalari va boshqa aloqa vositalaridan afzallikkleri.

3. Tilning ichki tuzilishi.

4. Til – sistema.

5. Tilning sathlari.

6. Tilning vazifalari.

7. Til va nutq.

8. Til birliklari va nutq birliklari.

Tayanch so'z va iboralari: aloqa vositalari, til, sistema, struktura, aloqa vositalari, tilning vazifalari, tilning nominativ (atash) vazifasi, tilning kommunikativ vazifasi, tilning ekspressiv vazifasi, yozuv, signallar, mimika (imo-ishora), nutq, til birliklari, nutq birliklari.

Insonlar o'zai oloqa-aratashuv jarayonida foydalanadigan vositalar majmui aloqa vositalari hisoblanadi va ular bir nechta bo'lib, o'z xususiyati, mobiyati, aloqa jarayonida qo'llanish darajasiga ko'ta farqlanadi.

Kishilar o'z tarixiy taraqqiyoti davomida quyidagi aloqa vositalaridan foydalanganlar va foydalanmoqdalar:

1. Signallar.

2. Belgilar.

3. Mimika (imo-ishora).

4. Yozuv.

5. Til.

Bular ichida til muhim, yozuv unga nisbatan ikkilamchi aloqa vositasi, qolganlari esa yordamchi aloqa vositalaridir. Kundalik

iste'molda asosan til va yozuvning qo'llanishi qolgan aloqa vositalari keraksiz degani emas, albatta, ularning ham o'ziga xos o'mi bor.

Signallar, belgilar, mimika kabi yordamchi aloqa vositalari qo'llanish doirasining chegaralanganligi bilan tildan farq qiladi. Til jamiyat faoliyatining hamma sohasida eng muhim aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi.

Til so'z, morfema va fonemalarning oddiy yig'indisi emas. U bir butun sistemadir. Tilning sistemaliligi uning ichki tuzilishida namoyon bo'ladi, chunki u ham ichki tuzilishiga ega bo'lib, bu ichki tuzilish pog'onaviylik xususiyatiga ega. Har bir pog'onaga xos birlik ikki va undan ortiq uzvlarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlikdir. So'z morfologik sath birligi sifatida ikki va undan ortiq morflarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik, morfema esa ikki va undan ortiq morflarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik sanaladi.

Ko'rindiki, til bir butun sistema sifatida ichki bo'linuvchanlik xususiyatiga ega. Tilning ichki bo'linishi pog'onaviylik kasb etadi. Til ichki bo'linishining eng oxirgi nuqtasi shakliy tomondan *fonema* (*fon*), mazmuniy tomondan *sema* bilan yakunlanadi.

Til ichki tuzilishining pog'onaviylik tabiatni butunlik deb olinayotgan birlikning nisbiyligini ko'rsatadi. Butunlik deb qaralayotgan obyekt faqat tilning ma'lum pog'onasiga nisbatan olinadi. Bir pog'onada butunlik sifatida qaralayotgan obyekt o'zidan yuqori pog'onaga, ya'ni katta butunlik tarkibiga uning elementi bo'lib kiradi. Masalan, morfema morfemik sathda ikki va undan ortiq fonema (*fon*)larning munosabatidan tashkil topgan butunlik sifatida, morfologik sathda esa so'z (so'zshakl)ning bir elementi sifatida qaraladi.

Bu esa tilning sistemalar sistemasi ekanligidan dalolat beradi.

Tilning sistemaviylik tabiatini yoritishga ilk bor F. de Sossyur e'tibor qaratdi. U sistemaniнg ikki mubim xususiyatini ko'rsatadi:

- a) sistemaning barcha a'zolari tenglikka ega;
- b) sistema yopiq hisoblanadi.

Lekin keyinchalik til sistemasida ochiq sistemalar ham borligi aniqlandi.

F.de Sossyur konsepsiyasida **sistema** termini bilan birgalikda struktura termini ham muhim ahamiyatga ega. Sistema va struktura terminlarini farqlash lozim.

Sistema (yun. *systema* – yaxlit; qismlardan tarkib topgan) so'zi o'zbek tilida polisemantik so'z sifatida o'nlab ma'nolarda qo'llanadi. Uning muqobili sifatida *tizim* so'zi ham qo'llanadi. Tilshunoslikda sistema termini «*o'zaro uzviy bog'langan qismlardan, unsurlardan tarkib topgan butunlik*», ya'ni *bir butun bo'lib uyushgan til unsurlari majmui*» ma'nosida qo'llanadi.

Struktura (lat. *structura* – tuzilish; *bog'lanish*) so'zi «*muayyan narsalarning tuzilishi, qurilishi; tarkibiy qismlarning o'zaro bog'tigligi*» ma'nosini anglatadi. G.P.Melnikovning talqinicha, struktura deganda, o'zaro aloqada bo'lgan qismlardan tarkib topgan va o'zaro aloqadorlikka ega bo'lgan murakkab birlik, butunlik tushuniladi. Struktura sistemaga xos, uni xarakterlovchi xususiyatlardan biridir¹. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan struktura deganda tilning tuzilishi yoki ayrim til birliklarining qurilish tarixi tushuniladi.

Bir xil qiymatga ega bo'lgan til birliklari majmui **til sathlari** deb yuritiladi.

Til ichki tuzilishiga ko'ra bir-biriga bog'liq, biri ikkinchisini taqozo etuvchi sathlardan iboratligiga ko'ra sistemadir.

Til sistema sifatida quyidagi sathlarga bo'linadi:

- 1) fonetik-fonologik sath;
- 2) lug'aviy sath;
- 3) grammatick sath.

Tilning har bir sathi o'z birliklariga ega. Masalan, *fonema* – fonologik sath birligi.

Tilshunoslik fani bir necha bo'limlarga bo'linadi va ularning har biri tilning sathlari bilan bog'liq ma'lum masalalarni o'rGANADI.

Til nutq tuzib fikr, his-tuyg'u, istak, g'am, shodlik kabilarni ifodalashda xizmat qiladigan fonetik, leksik va grammatick vositalar tizimi, kishilar orasida asosiy va eng muhim aloqa-aratlashuv, fikrlashuv quroli bo'lib xizmat qiladigan ijtimoiy hodisa sifatida bir qator vazifalar (funksiyalar)ni bajaradi. Nutq jarayonida – turli
JIZZAX DPI

¹ Bu haqidagi qarang. Hujiev A. O'zbek tili morfologiya, morfo-sintaks, yozishning nazarini masalalari. Toshkent. Fan. 2010. – B. 15.

maqsadlarda til vositalarining imkoniyat xususiyatlaridan foydalanish **tilning vazifalari** deyiladi.

Tilning jamiyatda aloqa quroli vazifasini bajarishi uning kommunikativ vazifasini tashkil qiladi. Bu tilning asosiy ijtimoiy vazifasidir. Demak, tilning aloqa-aratashuv vositasi sifatidagi asosiy vazifasi tilning **kommunikativ** (lot. *communicatio* – xabar, aloqa) **vazifasi** deyiladi.

Tilning kommunikativ (nutqiy aloqa) vazifasida ikki hodisa farqlanadi:

1. Fikr olishuv (aloqa-aratashuv) vazifasi.
2. Xabar vazifasi.

Fikr olishuv vazifasi tilning asosiy vazifasi bo'lib, til jamaasining o'zaro fikr olishuvidan iborat kommunikativ vazifasidir.

Tilning mantiqiy (logik) mazmunini yetkazish (bildirish)dan iborat kommunikativ vazifasi tilning **xabar vazifasi** deyiladi.

Aloqa-aratashuvda til vositasida turli his-tuyg'u, emotsiya, ta'sirchanlik ham ifodalanadi va bu tilning estetik yoki **ta'sir etish vazifasi** deyiladi. Ayrim adabiyotlarda esa tilning estetik vazifasi **ekspressiv vazifasi** deb ham ataladi.

Til aloqa-munosabat vositasi, hissiy ta'sir ifodasi bo'lib qolmay, toplash vazifasini bajaruvchi muhim manba hamdir. Til millatlararo aloqa-munosabat vositasi, toplash bilim va tajribalarni avloddan avlodga yetkazish vositasi hisoblanadi. Tilning ushbu vazifasi bilish jarayonidagi muhim ahamiyatga ega bo'lib, tilning **kommulyativ vazifasi** hisoblanadi.

Sistem tilshunoslikning asosini til va nutq oppozisiyasi tashkil etadi.

Til va nutq hodisalarini o'zaro farqlab yondashish VIII-LX asrlarda arab tilshunosligida, keyinchalik V.Gumbold, A.Shteyntal, Boduen de Kurtene ta'limotlarida kuzatilgan. Lekin ilmiy adabiyotlarda til bilan nutq hodisalarini va ularga xos birlıklarni to'mma'noda ilmiy-nazariy hamda amaliy farqlash; til va nutq birlıklarining mohiyatini ochish yo'llari, «til» va «nutq» tushunchalariga batamom yangi mazmun berilishi F.de Sossyur va uning izdoshlari yaratgan ta'limot bilan bog'liqidir.

Hozirgi davr sistem tilshunosligida til va nutq oppozisiyasidan kelib chiqib, nutq faoliyati quyidagi uch tarkibiy qismidan iborat, deb ko'rsatiladi:

- a) til;
- b) tildan foydalanish ko'nikmasi va malakasi;
- c) nutq.

Yuqorida aytilganidek, til – nutq tuzib fikr, his-tuyg'u, istak kabilarni ifodalashda xizmat qiladigan fonetik, leksik va grammatic vositalar tizimi; kishilar orasida asosiy va eng muhim aloqalaralashuv, fikrlashuv quroli, ijtimoiy hodisa. Bundan ko'tinadiki, til kishilik jamiyatida belgilat, signallar, imo-ishora, mimika, yozuv kabi yoidamchi aloqa vositalariga nisbatan eng muhim aloqa vositasi bo'lib, jamiyat tomonidan yaratilgan va unga xizmat qiladi.

Ferdinand de Sossyurning ilmiy qarashlari tilning murakkab, ziddiyatlarga boy, ko'p tomonlama hodisa ekanligiga asoslangan.

Tilshunoslik fanining chegarasini, predmetini, aniqroq ta'riflash maqsadida Ferdinand de Sossyur Vilgelm fon Gumboldt kabi antinomiya (qarama-qarshi qo'yish) metodidan foydalanib, til va nutqni ajratib, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi. Uning fikricha, til nutq faoliyatining faqat bir tomonini tashkil etadi. Til nutqqa zid. Til va nutqning asosiy farqi – til ijtimoiy, nutq esa individual hodisadir.

Olim til va nutq o'itasidagi o'zaro bog'lanishni, munosabatni inkor etmagan holda, ikkala hodisani alohida-alohida o'rganishni tavsiya etadi va til lingvistikasi hamda nutq lingvistikasi terminlarini muomalaga kiritadi.

Til va nutq qanday birlklarga egaligi nuqtayi nazaridan ham farqlanadi. **Til birlklari** deganda nutqqa zid qo'yilgan tilning birlklari tushuniladi. Shuningdek, tilshunoslikdagi ilmiy manballarda **lingvistik birlik** degan tushuncha ham kuzatiladi. A.Nurmonovning ko'rastishicha, bu tushuncha til birlklarini ham, nutq birliklarini ham qamrab oladi. Tilning sistemaviylik tabiatи shundaki, u sanoqli figuralar, ya'ni birlklarning turli kombinatsiyalari orqali cheksiz axborotlarni uzatish imkoniyatiga ega. Shuning uchun til birlklarining miqdori cheklangan, barmoq bilan sanarlidir. Imkoniyat tarzidagi bu sanoqli birliklar nutq jaroyonida xilma-xil

shaklda voqelanadi. Til birliklarining nutqiy jarayondagi real ko'rinishlari **nutq birliklari sanaladi**¹

Ferdinand de Sossyur fikriga ko'ra, tilshunoslik fanining asosiy vazifasi va predmeti til lingvistikasini o'rganishdan iboratdir.

Nutq lingvistikasi esa tilshunoslik uchun ikkinchi darajali masala bo'lib, falsafa, psixologiya, fiziologiya, antropologiya, filologiya kabi boshqa fanlar tomonidan o'rganilishi mumkin. Chunnonchi, Ferdinand de Sossyur lingvistikaning ichki va tashqi lingvistikaga ajratib, ularni bir-bitiga qarama-qarshi qo'yadi. Uningcha tilshunoslik fanining asosiy bo'limi tilning ichki ko'rinishini o'rganadigan ichki lingvistikadir, tashqi lingvistika esa tilni xalq tarixi, madaniyati bilan aloqasini o'rganadigan lingvistika bo'lib, u tilshunoslik fani uchun ikkinchi darajali hodisadir.

Jahon, jumladan, o'zbek tilshunosligida til va nutq birliklari xususida turlicha talqinlar kuzatiladi. Ferdinand de Sossyur til-nutq dixotomiyasini shatranj o'yini qoidalari misolida tushuntirib berishga harakat qilgan. Haqiqatan ham, shatranj taxtasidagi 64 katak teng holatda ikki xil rangda ikki guruhga o'ttiz ikkitadan ajratilib, qarama-qarshi qo'yiladi, har ikki guruhdagi donalar vazifasi va qiymati jihatidan bir-biriga teng, donalarning o'ziga xos joylashish tartibi va yurish qoidalarga bir xil bo'ysunsa ham, o'yinchilarning mahoratiga ko'ra biri kuchli, ikkinchisi kuchsiz mavqeda bo'ladi.

Til va shatranj qurilmalari o'zaro muqoyasa etiladigan bo'lsa, avvalo, ularning birliklari (tasbkil etuvchilar) orasida umumiyo'xshashliklar mavjudligini ta'kidlash lozim. Har ikkala qurilma ham birliklar sistemasi va birliklarining vazifalari bilan ish ko'radi.

Tilshunoslikda shu kunga qadar til va nutq hodisalarining farqlanishini mashhur nemis olimi Vilgelm Gumboldt boshlagan va bu Ferdinand de Sossyur ta'limotining asosini tashkil qiladi, deb hisoblanadi. Vaholanki, Alisher Navoiy ulardan ancha oldin til va nutq hodisalarini farqlagan.

Alisher Navoiy o'zining lug'atchilik va tilshunoslik sohasidagi yarim asrlik tajribasini «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida umumlashtiradi.

¹ Nurmonov A. Lingvistik belgi nazarivysi. – Toshkent: Fan, 2008. – R. 34.

Alisher Navoiy imkoniyat tarzidagi so'z (til birligi) so'zlovchi tomonidan turli xil jilvalantirilishi (nutq birligi sisatida reallash-tirilishi) mumkinligini aytadi.

Uning tushunishicha, til ijtimoiy hodisadir. Til insonni hayvondan ajratib turadigan «gavhari sharif»dir. U ma'noni birlamchi, shaklni ikkilamchi deb hisoblaydi, ma'noga «so'zning joni» deb baho beradi.

Til va nutq masalasi o'zbek tilshunosligida Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, A.Nurmonov, H.Ne'matov, O.Bozorov kabi olimlarning ishlarida keng va atroflicha tahlil qilingan.¹

Lingivistik belgining tuzilishi masalasida tilshunostlar ikki xil fikr bildiradilar. Ularning bir guruhi lingivistik belgi bir tomonlama mohiyat, u faqat ifodalanmishni o'z ichiga oladi, desalar, ikkinchi guruhi tilning ikki tomonlama mohiyat ekanligini, ifodalovchi va ifodalanmish bir butunligidan iborat ekanligini bayon etadilar.

A.Nurmonov lingivistik belgi tahliliga bag'ishlangan ishida til va nutq birliklari masalasi haqida ham fikr yuritib, tilshunoslikdagi nazariy qarashlarni umumilashtiradi hamda til belgisi va til birliklari o'rtasidagi farqli jihatlarni ko'rsatadi, xulosalarini bayon etadi. Uningcha, lingivistik belgining ifodalovchi va ifodalanmishi o'rtasida qisman motivatsiya munosabati bo'lsa ham, umuman olganda ular o'trasidagi munosabat erkindir.

Olim til va nutq birliklarini quyidagicha ko'rsatadi:

Til va nutq birliklari

| Nº | Til birliklari | Nutq birliklari |
|-----------|-----------------------|--|
| 1 | Fonema | Tovush (fonema varianti, allofon, fon) |
| 2 | Morfema | Morfema (morf, allomorf) |
| 3 | Leksema | Leksema varianti (leks yoki aloleks) |
| 4 | Frazema | Frazema varianti (allofrazema) |

¹ Qarang: Ne'matov IL, Bozorov O. Til va nutq. - Toshkent: O'rqiuvchi, 1993. - 32 h.; Rahmatullayev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. - Toshkent: Universitet, 2002. - 28 h.; Nurmonov A. Lingivistik belgi nazariyasi. - Toshkent: Fan, 2008. - 48 h.; Hojlyev A. O'zbek tili morfoloyiyasi, morfenikasi va so'z yasalishining nazarty masalalari. - Toshkent: Fan, 2010. - 256 b.

| | | |
|----------|---------------------|----------------|
| 5 | Konstruksiya | |
| 5.1. | So'z modeli | So'z shakli |
| 5.2. | Birikma modeli | So'z birikmasi |
| 5.3 | Gap yoki gap modeli | Jumla |

Bu birliklar, o'z navbatida, ma'lum vazifa va funksiyaga ega, bir-biridan amaliy jihatdan farqlanadi. Ba'zan esa bir-birini to'ldiradi.

Til va nutq munosabatlarini umumiylar tarzda yuqorida qayd etilgan manbalarga asoslangan holda quyidagicha izohlash mumkin.

Til va nutq o'zaro aloqador hodisalar sifatida e'tirof etilgan. Til – ijtimoiy, nutq – xususiy hodisa. Tilning butun imkoniyatlari nutqda ifodalanadi. Til va nutqning o'ziga xos jihatlarini quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Til – munosabat asosi; nutq munosabat ifodasidir.
2. Til jamiyatda shakllanadi; nutq esa har bir shaxs faoliyatida namoyon bo'ladi.
3. Tilning mavjudlik davri uzoq, ijtimoiy hayot bilan bog'liq; nutqning mavjudlik davri qisqa, u aytilgan paytdagina mavjud.
4. Bir shaxs ayni zamonda bir necha tilga ega bo'la oladi; shaxsning nutqi esa faqat bitta bo'ladi, negaki nutq ma'lum makonda yuz beradi.
5. Tilning hajmi noaniq, chegaralanmagan; nutqning hajmi aniq; u dialog, monolog, ayrim matn, kitob ifodalari bo'ladi.
6. Til qat'iy, turg'un hodisa; nutq o'zgaruvchan harakatdagi hodisadir.

Nazorat uchun savollar:

1. Kishilar o'zaro fikrlashuv jarayonida qanday aloqa vositalardan foydalanadilar?
2. Til nima uchun eng muhim aloqa vositasi sanaladi?
3. Tilning ichki tuzilishi qanday?
4. Til nima uchun sistema ?
5. Til sistema sifatida qanday sathlarga bo'linadi?
6. Til qanday vazifalarni bajaradi?
7. Tilning asosiy vazifasi nimadan iborat?

Til va jamiyat. Sotsiolingvistika

1. Tilning tabiatı.
2. Til va jamiyat.
3. Til – ijtimoiy hodisa.
4. Sotsiolingvistika va u o'r ganadigan masalalar.
5. Adabiy til va sheva, lahjalar.

Tayanch so'z va iboralar: *til, jamiyat, tabiiy hodisa, ijtimoiy hodisa, adabiy til, dialekt, sheva, sotsiolingvistika, sotsiologizm, mikrosotsiolingvistika, makro-sotsiolingvistika, standart tillar, klassik tillar, mahalliy tillar, kreol tillar, sun'iy tillar.*

Tilning paydo bo'lishi, uning takomil topib borishi, odamzotning bu ne'matga moyil bo'lishida ijtimoiy muhitning, kishilik jamoasining, uy-xonodon degan birlikning hal qiluvchi omil ekanligi inkor etib bo'lmaydigan haqiqat. Professor N. Mahmudovning aytishicha, eramizdan oldin ham, bizning eramizda ham dunyoning turli burchaklarida ana shu haqiqatni izlab turli tajribalar o'tkazilgan. Masalan, «Mo'g'ullar imperiyasining umumiy tarixi» (Parij, 1705) nomli kitobda XVI asrda Akbarshoh tomonidan o'tkazilgan bir g'aroyib tajriba haqida bat afsil yozilgan.

Ulug' shoh «Biror-bir tilga o'rgatilmagan odamning tabiiy tili yahudiy bo'ladi» degan g'ayriilmiy gapni eshitib qoladi. Shunda Akbarshoh bolaga hech qanday til ataylab o'rgatilmasa, u qaysi tilda gapiradigan bo'lishini bilishni istaydi. Ana shu maqsadda shoh o'n ikki emizikli bolani ajratib olib, Agradan 6 mil uzoqlikdagi qal'aga joylashtiradi, ularni tarbiyalashni o'n ikki soqov enagaga topshiradi. Tilsiz qorovulga qal'a darvozasini ochish qat' iyan ta'qilnadi, darvoza ochilsa, uning boshi sapchaday uzib tashlanishi aytildi. Bolalar o'n ikki yoshga yetganda, shoh ularni huzuriga keltiradi. Hind faylasuflari bu bolalarning tili sanskrit bo'lib chiqadi deb hisoblaydilar. Amino bolalar shoh huzuriga kelganda, barcha hayratdan tosh qotib qoladi.

Chunki bola bechoralar hech bir tilda gapirmas edilar. Ular o'z enagalaridan fikrlarni turli imo-ishoralar bilan ifodalab, hech qanday tilsiz muomala qilishni o'rgandilar. Ular bu notanish begona jamoadan qo'rqib-qo'rqib turardilar. Ochilmay turgan bu tillarning

tugunini yechmoq tamoman mushkul edi. Bu tillarga nutq tovushlarini ayttirmoqlik zamoni o'tib bo'lgan edi.¹

Juda katta shov-shuvga sabab bo'lgan Tarzan haqidagi «Mutloq hukmronlik» filmidagi voqealar, bo'ri uyasidan topilgan Kamola va Amola taqdiri til jamiyatdagina shakllanadi, tilsiz jamiyat, jamiyatsiz til bo'lmasligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Til jamiyatga xizmat qilar ekan, jamiyatdagи barcha o'zgarishlar tilda o'z ifodasini topadi va til jamiyat hayoti bilan bog'liq ravishda rivojlanadi hamda taraqqiy etadi.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida vujudga kelgan yirik davlatlar yemirilishi bilan, ularning aloqa vositasi bo'lgan tillar, chunonchi qadimiy fors tili (miloddan avval IV-VI asr), finikiylar tili (miloddan avval VII-I asr), sug'dlar tili (miloddan avval VI asrdan to eramizning X asrigacha), lot. tili (miloddan avvalgi VI asrdan to eramizning IX asrigacha) iste'molda bo'lib, keyin o'lik tillarga aylangan. Lekin bu tillar butunlay dom-daraksiz yo'qolib ketmagan.

Tilshunoslik fani tarixida tilning tabiatni, ijtimoiy mohiyati kabi eng muhim masalalarni o'rganishda turli nazariyalar va oqimlar mavjud bo'lgan. Jumladan, nemis olimi Avgust Shleyxer (1821-1868) nomi bilan bog'liq naturalistik oqim tilni tirik organizm deb tushungan. U o'zining «Darvin nazariyasi va tilshunoslik» (1863) nomli asarida Darvining jonivor va o'simliklarning turlari haqidagi ta'limoti ham tilga tadbiq qilinishi kerak deb da'vo qilgan. Uning fikricha, tilning paydo bo'lishi, rivojlanishi va evolyutsiyasi, tabiat qonunlariga bo'ysungan holda ro'y beradi, til tirik organizm kabi paydo bo'ladi, rivojlanadi va o'ladi. Ammo keyinchalik fan taraqqiyoti tilning tabiatni va mohiyati haqidagi A. Shleyxer nazariyasining noto'g'ri ekanligini isbotladi.

Tilshunoslik sohasida eng to'g'ri qarash bu tilni jamiyat taraqqiyotining mahsuli deb tushunishdir.

Umuman, tilning asosiy va muhim xususiyati shundan iboratki, til kishilik jamiyatni tomonidan yaratilgan bo'lib, eng muhim aloqa vositasi sifatida xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir.

Til ijtimoiy hodisa sifatida tabiiy hodisalardan ajralib turadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, insonnинг biologik xususiyatlari

¹ Bu ma'lumotlar quyidagi manbadan olindi: Mahmudov N. Til. – Toshkent: Yozuvehi, 1998. - 40 b.

kishilik jamiyatidan tashqari jamiyatga bog'liq bo'lmagan holda; masalan, yangi tug'ilgan go'dak hayotning takomili (nafas olishi, ko'rishi, ovqat yeyishi, asta-sekin yurib ketishi va hokazolar) tabiat qonunlariga muvofiq holda taraqqiy etaveradi, o'saveradi, ammo til bunday tabiiy hodisa emas, so'zlashish va fikrlash uchun kishilik jamiyati bo'lishi shart. Til kishilarning bir-biri bilan aloqa qilish va fikr almashish ehtiyojlari natijasida paydo bo'lган.

Til nasldan-naslga, avloddan-avlodga o'tadigan irsiy hodisa ham emas, aksincha, til jamiyat taraqqiyotining mahsulidir. Bolaning qaysi tilda so'zlay boshlashi, uni o'rab turgan til muhitiga bog'liq. Masalan, o'zbek bolasi go'dakligidan xitoylar orasida tarbiyalansa, u faqat xitoycha so'zlab o'z ona tilini bilmasligi mumkin. Ammo bolaning biologik belgilari: yuz tuzilishi, soching rangi va boshqalar o'zgarmagan holda saqlanib qoladi.

Yana bir dalil: hindistonlik psixolog Rid Sing 1920-yilda bo'ri uyasidan ikki bo'ri bolasi va ikki qizchani topib oladi. Qizchalarining kattasi Kamola o'zini bo'ri sifatida tutgan. U bo'rilari bilan hayot kechirgan, gapirishni butunlay bilmagan. Uni «codamlashtirish» juda sekinlik bilan amalga oshgan. Qizchaning qiliqlari bo'rimikidan farq qilmas edi. Uni tik turishga, ovqatni qo'll bilan ushlab yeyishga o'rgatish juda qiyin kechdi. 1923-yil 10-iyun kuni u birinchi marta birovning ko'magisiz 5 minut qaddini rostladi, ayniqsa Kamolaning gapira olish va gaplarni tushunish borasidagi taraqqiyoti katta ahamiyatga ega bo'ldi. U faqat bo'triga o'xshab tovush chiqara olardi, xolos. 1926-yilning boshiga kelib 11 yoshga yetganda Kamola 30 ga yaqin so'z o'rgandi. 1929-yil 26-sentyabr kuni Kamola ich terlama bilan og'ridi. Ana shu kasallik mobaynidagi u tilni o'zlashtirishda ancha taraqqiyotga erishdi. U faqat so'zlarini aniq talaffuz etibgina qolmay idrok etib gapirishni ham o'rgandi. Kamola shu yilning 13-noyabrida vafot etadi.

Sotsiologiyaga oid ilmiy adabiyotlarda xuddi shunday yana bir tajriba xususida ma'lumot kuzatiladi. Unda aytishicha, Uoshu ismli bir shimpanzeni kar-soqovlar uchun mo'ljallangan amerikacha belgili alifbo yo'damida tilga o'rgatishadi; u yuzga yaqin so'zni o'rganadi. Hatto Uoshu bir necha jumlalar ham tuza olgan, bir gunoh ish qilib qo'yganida kechirim so'ramoqchi ekanini «*Bir mahkam quchoqla, kechir, kechir*» jumlesi bilan ifodalagan.

Lekin Uoshu grammatik qoidalarni o'zlashtira olmagan, o'zi o'rgangan so'zlarni boshqa shimpazelarga ham o'rgata olmagan. U til o'rganish bilan bir necha yil shug'ullangan bo'lsa-da, uning til o'rganish qobiliyati ikki yosh bolanikidan ham past bo'lgan.¹

Yuqorida keltirilgan dalillar ham tilning jamiyat bilan bog'liqligini, uni jamiyatdan ajratish mumkin emashagini ko'rsatib turibdi. Shunday qilib, til o'z tabiatiga va kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasiga ko'ra ijtimoiy hodisadir. Ammo ijtimoiy hodisa sifatida til boshqa ijtimoiy hodisalardan ajralib turadi, ya'ni til o'ziga xosligi bilan jamiyat faoliyatining barcha sohalariga xizmat qiladi.

Til sinfiy xarekterga ega emas. Dastlabki davrlarda jamiyatning qarama-qarshi guruhlarga bo'linishiga qaramay, til birgina guruh ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilmaydi, u jamiyat a'zolarining barchasiga bab-baravar xizmat qiladi. Chunonchi, til kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonida ma'lum bir guruh tomonidan emas, balki butun jamiyat tomonidan yaratilgan, sayqal topgan ijtimoiy hodisadir. Shu bilan birga, til biror davrning, biror ijtimoiy-iqtisodiy jamiyatning mahsuli bo'lmay, balki butun jamiyat tarixi jarayonidagi bir qancha davrlarning mahsulidir.

Til doimo jamiyatda rivojlanadi. Til kishilik jamiyatigagina xos hodisasiadir. Odamlar til orqali axborot oladi, munosabat bildiradi. Shuning uchun, til paydo bo'lgandan boshlab, taraqqiyot jarayonida jamiyatda tilni har tomonlama o'rganishga ehtiyoj ortib bordi.

XX asr boshlarida tilshunoslikda tilni ijtimoiy hodisa deb hisoblashga asoslangan sotsiologizm ta'limoti yaratildi. Bu ta'limotning asoschilari Ferdinand de Sossyur va uning shogirdi fransuz tilshunosi Antuan Meyelardir. Ular yangi tilshunoslik yo'nalishiga «sotsiologik lingvistika» nomini berdilar.

Sotsiolingvistikaning rivojlanishida A. Meyerning ishlari salmoqli o'rinn tutadi. Uning «So'z semantikasining o'zgarishi» nomli asarida jamiyat va til o'rtaсидаги bog'lanishlar mavjudligi yorqin ko'rsatib beriladi. Uning fikricha: «Til insonlar uchun jamiyatning asosiy mezoni bo'lib, u jamiyatda eng kerakli (muomila) qurolidir».

¹ Bu haqidu iqtiroq Giddens Enlon. Sotsiologiya: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llumma / Taz. N. Mamatov va J. Hugmatov. – Toshkent: Sharq, 2002. – B. 61-62.

A Meye tilni jamiyatdan tashqarida tasavvur qilinishi mumkin bo'Imagan ijtimoiy fakt deb hisoblaganida, tilsiz kishilik jamiyatining ham mavjud emasligini ta'kidladi. A Meyening fikricha, tilda yuz beradigan hodisalarни ijtimoiy sharoit yuzaga keltiradi; tildagi o'zgarishlarni kishidagi fiziologik va psixologik sabablar emas, jamiyat tuzumidagi o'zgarishlar belgilaydi. Til faktlarning bir tildan ikkinchi bir tilga o'tishiga ham Meye sotsiologik pozitsiyadan yondoshidi.

Sotsiolingvistika (lot. *societas* – jamiyat + lingvistika) tilshunoslik va sotsiologiya fanlari aloqasi asosida yuzaga kelgan bo'lib, tilning ijtimoiy tabiatni, ijtimoiy vazifalarini, til taraqqiyotidagi ekstralolingvistik omillarni, til siyosatini, lisoniy muhitni hamda tilning jamiyat hayotidagi o'mi bilan bog'liq muammolarni o'rjanuvchi soha.

Ilmiy manbalarda va tilshunoslikka oid terminologik lug'atlarda sotsiolingvistika *lingvosotsiologiya* va *lingvistik sotsiologiya*, *til sotsiologiyasi*, *sotsiologik lingvistika*, *sotsial tilshunoslik*, *lingvistik sotsiologiya*, *lingvosotsiologiya* kabi nomlanib kelgan. Shuningdek, o'zbek tilshunosligida sotsiolingvistikaning muqobili sifatida *ijtimoiy tilshunoslik* termini ham qo'llanadi.

Sotsiolingvistika o'z mohiyat-mazmuniga ko'ra sotsiologiya, antropologiya, etnologiya, psixologiya, geografiya, tarix kabi fanlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shu fanlar tutashmasida rivojlanib boradi. Uning fan sifatidagi vazifasi jamiyatning til bilan bog'liq barcha qirralarini ilmiy tadqiq etishdan iborat. Bundan tashqari, mazkur fan jamiyatning o'zgarib borishi natijasida tilda kechayotgan o'zgarishlarni ham tadqiq etadi. Demak, sotsiolingvistika jamiyat va til o'rtasidagi umumiyligi o'zgarishlarni o'rjanuvchi fandir.

Hozirgi zamon tilshunosligida sotsiolingvistik tadqiqotlarga qiziqishning kuchayib borayotganligi quyidagi ikki sabab bilan izohlanadi:

a) hozirgi jamiyatda ilmiy asoslangan til siyosatiga ehtiyoj kundan-kun ortib bormoqda;

b) struktural tilshunoslik shu vaqtga qadar faqat tilning ichki tuzilishini o'rGANISH bilan qiziqib keldi, tilning jamiyat bilan, o'sha

til egasi bo'lgan xalq tirixi, urf-odati bilan munosabati muammosi tilshunoslari e'tiboridan chetda qolib keldi.

Sotsiolingvistika fani yutuqlari shuni ko'rsatadiki, tillar bir-biriga leksik jihatdangina ta'sir etib qolmay, bir-birining ichki tuzilishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shunga muvofiq hozirgi zamon tilshunosligida «tillar ichki tuzilishining o'zaro hamkorlik jarayoni» degan tushuncha shakllangan. Mamlakatlararo aloqalarining rivojlanishi o'sha mamlakatlarda yashovchi xalq va elatlar madaniyatining yaqinlashuviga zamin hozirlaydi, natijada tillar ham bir-biriga ta'sir ko'rsatadi, bunday hamkorlik, o'z navbatida, tillarning ichki rivojlanishini ta'minlaydi.

Chet ellarda, ayniqsa, AQShda sotsiolingvistika bo'yicha ko'p ishlar amalga oshirilgan. AQSh tilshunosi R.T.Bell ta'kidlashicha, ijtimoiy tilshunoslik sohasida AQShda ikki yo'naliш mavjud:

a) sof sotsiolingvistika, bunda gapiruvchi va tinglovchi grammatikasi, bir-biriga ta'siri, hamkorligi o'r ganiladi;

b) til sotsiologiyasi, bunda til ishoralari, belgilarining jamiyat-dagi turli ijtimoiy jabhalarda ishlatilishi masalalari o'r ganiladi.

AQShda birinchi yo'naliш **mikrosotsiologiya** deb yuritiladi, u bilan asosan tilshunoslari shug'ullanadilar. Ikkinchisi esa **makrosotsiologiya** deb nomlanadi, bu muammolar bilan sotsiologlar shug'ullanadilar.

Mikrosotsiolingvistika kichik ijtimoiy guruhlarni tashkil etuvchi shaxslarning nutqiy hamkorlik munosabatlarini o'r ganadi. Makrosotsiolingvistika esa bir ijtimoiy guruh bilan ikkinchi guruh o'rtasidagi nutqiy muloqotni tadqiq etadi. Mikrosotsiolingvistika erishgan yutuqlar makrosotsiolingvistik tadqiqotlar uchun ilmiy zamin bo'lib xizmat qiladi. Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy muhitga ko'ra o'zgarish xususiyatlarini atroflicha tadqiq etadi. Bu tilshunoslikda tilning o'zgarish nazariyasi deb yuritiladi.

Sotsiolingvistika fani tillar tipologiyasi muammosi bilan ham shug'ullanadi. Tillarning sotsiolingvistik tipologiyasi uning jamiyat-dagi ijtimoiy mavqyeini inobatga oluvchi tipologiyadir. Bunday tipologiyaga quyidagi to'rt mezon asos qilib olinadi:

1. Standartlashtirish – bunda ma'lum bir tilda gaplashuvchilar tomonidan qabul qilingan adabiy til tushuniladi. Standartlash-

tirishning asosiy omili tilning grammatikasini va lug'atini yaratishdir.

2. Hayotiylik – bunda ma'lum bir tilda gaplashuvchi jamiyatning bor-yo'qligi inobatga olinadi. Agar til hayotiy, tirk bo'lsa, bu tilni ona tilim deb biladigan, uni e'zozlaydigan jamiyat ham mavjud bo'ladi. Ba'zan ilgari o'lik tilga aylangan tillar ham qaytadan hayotiylik kasb etishi mumkin. Masalan, ivrit tili eramizdan oldingi 1 ming yillikda qadimgi Falastin aholisining tili bo'lgan, 1948-yilda Isroil davlati bu tilni ayrim o'zgarishlar bilan davlat tili sifatida qabul qiladi.

3. Tarixiylik – bunda ma'lum bir tilning jamiyat tomonidan ishlatilishi natijasida uning mo'tadil, bir tekis rivojlanib turishi nazarda tutiladi.

4. Avtonomlik – bunda ma'lum ijtimoiy guruh uchun ona tili sifatida xizmat qilayotgan u yoki bu til boshqa tillardan tuzilishi jihatdan tubdan farq qilishi yoki bir tilning varianti sifatida namoyon bo'llishi tushuniladi. Masalan, o'zbek, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq tillari o'zaro qiyoslanganda ular orasidagi fonetik, leksik, grammatick farqlar ko'zga tashlanadi, ya'ni bu tillar avtonom, mustaqil tillar degan xulosa kelib chiqadi. Ammo o'zbek tilining Samarqand, Andijon, Xorazm mintaqalarida yashovchi xalqlar tillari garchi o'zaro farqli xususiyatlarga ega bo'lsa-da, avtonom bo'la olmaydi. Chunki sheva bilan milliy adabiy til o'rtaida leksik, ayrim grammatik farqlar bo'lgani holda, umumiyl tuzilish jihatidan o'zgarishlar ko'zga tashlanmaydi.

Ana shu tipologik xususiyatlardan kelib chiqib, tillarning sotsiolingvistik tasnifi amalga oshiriladi. Hozirgi zamон tilshunosligi tillarni sotsiolingvistik jihatdan quyidagi 7 tipga ajratadi:

1. Standart tillar. Me'yordarga solingan, jamiyatda adabiy til, davlat tili sifatida xizmat qiluvchi tillar. Masalan, *o'zbek, rus tillar* kabi.

2. Klassik tillar. Takomilga, o'z yozuviga ega bo'lgan, ma'lum davrda unda buyuk asarlar yaratilgan tillar. Masalan, *lotin tili, sanskrit tili, qadimgi yunon tili, sugd, xorazmiy tili* kabi. Bu tillar hozirda iste'molda bo'lmaganligi uchun o'lik tillar hisoblanadi.

3. Mahalliy tillar. Son jihatdan ko'p bo'lmagan kichik millatlarga, xalqlarga xizmat qiluvchi, o'z yozuviga ega bo'lmagan tillar.

4. Kreol tillar. Mustamlakachilik natijasida Amerika, Afrika, Sharq mamlakatlari xalqlari tillari bilan evropa (ingliz, fransuz, ispan, portugal) tillari elementlari aralashuvidan tashkil topgan tillar. Masalan, Amerikadagi Gaiti orolida mahalliy aholi bilan fransuz tili aralashuvi natijasida gatti – kreol tili shakllangan. Lotin Amerikasidagi mahalliy aholi tili aralashuvi natijasida ispan-nautl kreol tili yuzaga kelgan. Amerikadagi Aruba, Bonayre orollarida negr va ispan tillari aralashuvi bilan papiamento kreol tili shakllangan. Bunday kreol tillari grammatik sistemasi soddalashgani, aloqa uchun qulaylashgani bilan ajralib turadi.

5. Pijin tillari. Xitoy tilining yevropa tillari bilan chatishuvi natijasida yuzaga kelgan aralash tillardir. Pijin va kreol tillari o'xshash hamda farqli tomonlarga ega. Agar kreol tilida so'zlashadigan, uni ona tili deb hisoblaydigan aholi bo'lsa, pijin tili bunday xususiyatga ega emas. Pijin tillaridan ikkinchi aloqa vositasi sifatida katta port shaharlarida foydalaniadi. Umuman olganda, pijin tili kreol tillarining paydo bo'lishida boshlang'ich bosqich sanaladi. Hozirgi vaqtida eng ko'p tarqalgan pijin tillaridan biri «pijin-english» deb nomlanuvchi janubiy Xitoy portlarida qo'llanadigan tildir. Shuningdek, XIX asr o'rtafarda S.I.Cherepanov tomonidan o'rganilgan «rus tilining xitoy dialekti», ya'ni kyaxta deb ataluvchi pijin tili ham mavjud (Rossiya va Xitoy chegarasidagi Kyaxta shahrida yashovchi aholining o'ziga xos «tili»). Yamayka, Gaiti singari orollarda mahalliy aholi bilan francuz, ispan, portugal tillari aralashuvidan yuzaga kelgan pijin tillari hozir ham keng qo'llanadi.

6. Sun'iy tillar. Tabiiy tillar unsurlari asosida maxsus yaratilgan xalqaro aloqa tillari. Sun'iy xalqaro tillar aloqa-aralashuv uchun maxsus shakllantirilgan yasama kommunikativ tizimlardir. Masalan, *volapyuk*, *esperanto*, *ido* va boshqalar.

1879-yilda yaratilgan *volapyuk* ham og'zaki, ham badiiy ijod sohasida qo'llangan dastlabki sun'iy tildir.

Esperanto 1887-yilda polyak shifokori L.L.Zamengof tomonidan yaratilgan, ancha keng targalgan, yevropa tillari uchun

umumiyligi bo'lgan, so'z yasalishi va grammatik qurilishi agglyutinatsiya tamoyillariga asoslangan sun'iy til. Bu tilda gazeta va jurnallar, badiiy asarlari nasht etiladi.

Ido 1907-yilda fransuz Lui de Bofton tomonidan esperantoning varianti sifatida yaratilgan xalqaro sun'iy til. Bunday sun'iy tillar qatoriga yana *okcidental*, *inter-lingva*, *neo* kabi tillarni ham kiritish mumkin.

7. Dialekt (grek. *dialektoς* – sheva, lahja) umumxalq tilining hududiy, ijtimoiy jihatdan umumiylikka ega bo'lgan kishilar foydalanadigan ko'rinishi; bir-biriga yaqin shevalar majmui. Dialekt o'mida ilmiy manbalarda **lahja** termini ham ishlataladi.

Ma'lum hududdagi kishilarning jonli tili, mahalliy dialektning fonetik, leksik, grammatik jihatdan umumiylikka ega bo'lgan, bir yoki bir necha qishloqni o'z ichiga oladigan kichik bir qismi, guruhi **sheva** deyiladi.

O'zbek tili quyidagi dialect – lahjalarga bo'linadi:

- a) qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi;
- b) qipchoq lahjasi;
- v) o'g'iz lahjasi.

Sheva va lahjalar tilshunoslikning dialektologiya bo'limida o'rganiladi.

O'zbek tilining dialect va shevalari Y.D.Polivanov, A.K.Borovkov, K.K.Yudaxin, G'ozzi Olim Yunusov, V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, F.Abdullayev, A.Ishayev, S.Ibrohimov, A.Aliyev, N.Rajabov, X.Doniyorov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.¹

Umumxalq tilining fonetik, leksik, grammatik jihatdan ishlangan, ma'lum me'yorga solingan, sayqallangan oliy shakli **adabiy til** deyiladi.

Adabiy tilning ikki xil: og'zaki va yozma shakli mavjud.

¹ Reshetov V. V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.; Shoabdurahmonov Sh. O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari. – Toshkent: O'zb.FA, nashriyoti, 1962. – 346 b.; Muhammedjonov Q. Janubiy Qozog'istonidagi o'zbek shevalari morfologiysi. – Toshkent: Fan, 1983.; Ishayev A. Qoraqalpog'istonidagi o'zbek shevalari. – Toshkent: Fan, 1977. – 175 b.; Ishayev A. O'zbek dialektal leksikografiysi. – Toshkent: Fan, 1990. Ibrohimov S. Farg'onan shevalarining kasb-hunar leksikasi. – Toshkent, 1975.; Doniyorov X. Qipchoq dialektlarning leksikasi. – Toshkent: Fan, 1979.; Aliev A.Yu. O'zbek dialektologiyasidan materiallar (Namangan shevalari). – Toshkent: Fan, 1974. – 220 b.; Rajabov N. O'zbek shevashunesligi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 304 b.; Rajabov N. O'zbek xalq shevalarida telning morfoloq tuzilishi. – Toshkent: Fan, 1990.

Adabiy tilning og'zaki shakli orfoepiyaga, ya'ni to'g'ri talaffuz me'yoriga, yozma shakli orfografiyaga – imlo qonun-qoidalariga asoslanadi. Demak, adabiy til ma'lum qoidalariga asoslangan, hamma uchun tushunarli va umumiy bo'lgan tildir.

Adabiy til umumxałq tili – sheva va lahjalar asosida yaratiladi.

Qarluq lahjasи o'zbek adabiy tiliga asos qilib olingan Andijon, Farg'ona, Toshkent shevalarini o'z ichiga oladi.

Yuqoridagilardan ko'rindan, til kishilarning eng muhim aloqa vositasi: til aloqaning kishilik shakli. Haqiqatdan ham yuqorida aytib o'tilganidek, insonlar o'zaro aloqada turli vositalardan foydalananadilar. Lekin bular ichida til eng muhimi va mukammalidir. Til faqat kishilargagina xos, u faqat insonlar aloqasi uchun xizmat qiladi.

Globallashuv davrida lisoniy muhitga ilm-fan va texnika ta'sirining ijobiy va salbiy qirralarini, buning sabablarini, ona tiliga munosabat, tilning sofliji, nutq madaniyati va imloviy savodxonlik muammolarni o'rGANISH zamonaviy sotsio-lingvistikaning muhim vazifalaridir.

Nazorat uchun savellar:

1. Til va jamiyat o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
2. Nima uchun til jamiyatdagina shakllanadi deb hisoblanadi?
Bu fikrni isbotlovchi qanday dalillarni o'rgandingiz?
3. Ijtimoiy hodisa deganda nimani tushunasiz?
4. Nima uchun til ijtimoiy hodisa hisoblanadi?
5. Til ijtimoiy hodisa sifatida boshqa hodisalardan qanday farqqa ega?
6. Sotsiolingvistika qanday soha? U qanday masalalarni o'rGANADI?
7. Dialekt (lahja) deganda nimani tushunasiz?
8. Sheva deganda-chi?
9. Adabiy til deganda qanday tilni tushunasiz?
10. O'zbek adabiy tiliga qaysi dialekt va shevalar asos qilib olingan?

Til va tafakkur

1. Til va tafakkur.
2. Til va tafakkurning bog'liqligi haqidagi qarashlar.
3. Til va tafakkur birliklari.
4. Mentalingvistika va u o'rzanadigan masalalar.

Tayanch so'z van iboralar: *til, tafakkur, til birliklari, tafakkur birliliklari, dialektik munosabat, tushuncha, so'z, fikr, hukmi, gap, mentalingvistika*

Til va tafakkurning o'zaro munosabati masalasi fanda uzoq tarixga ega. Bu masalaga doir munozaralarda «Til va tafakkur bir narsami yoki ular o'zaro bog'langan, boshqa-boshqa narsalarmi?», «Til va tafakkur doimo o'zaro bog'langanmi yoki tafakkur tilsiz, til tafakkursiz zuhur etadimi?», «Agar til va tafakkur alohida-alohida hodisalar bo'lib, ular o'zaro bog'langan bo'lsa, fikrlash jarayonida tilning, so'zlash jarayonida tafakkurning roli qanday?», «Til va tafakkurning bog'liqligi nimalarda ko'rindi?» kabi savollar doirasida munozaralar bo'lgan.

Til va tafakkur masalalari nihoyat darajada murakkab jarayon bo'lib, u tilshunoslikdan tashqari falsafa, mantiq, psixologiya, fiziologiya fanlari bilan bevosita aloqadordir.

Ibn Sinoning til haqidagi ta'limoti mantiqiy nuqtayi nazarga asoslanadi. Uningcha, fikr belgisi haqidagi ta'limot til haqidagi ta'limotdir. U tilni tabiiy va sun'iy tillarga bo'ladi. Tabiiy til tafakkur belgisi sifatida Ibn Sino tomonidan har tomonlama o'rjanilgan. Ibn Sino ta'kidlashicha, fikr va nutq, til va tafakkur o'rtasida doimiy aloqa mavjud.

Alisher Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayin» asarida til va tafakkur to'g'risida ham fikr yuritadi. Uning fikricha, til tafakkurning ifoda qurolidir. Kishining ko'ngli (fikri) daryodir, so'z esa dur, so'zlovchi g'avvosdir. Dur xilma-xil bo'lGANI singari, so'z ham har xil bo'ladi. Bundan ko'rindaniki, Alisher Navoiy til va tafakkurni bir-biridan ajratmaydi, balki ularni uzviy birlikda oladi.

V.Humboldtning 1820-yilda Berlin akademiyasida «Tillar taraqqiyotining turli davrlarida ularni qiyosiy-tarixiy o'rjanish haqida» mavzusidagi ma'tuzasi uning tilga oid dastlabki tadqiqoti

bo'lib, unda til haqida alohida, mustaqil fan yaratish zarurligi g'oyasini o'rta ga tashlaydi va uni asoslab beradi.

Shuningdek, olim ma'ruzasida qarindosh va qarindosh bo'lmanan tillarning tipologik qiyosiy grammatikasini yaratish tarafdoi bo'lib chiqadi. U o'zigacha bo'lgan, ya'ni har bir tilning o'ziga xosligini, mustaqilligini tan olmaydigan, barcha dunyo tillarini tayyor mantiqiy jadvallarga majburan kiritishga intiluvchi deduktiv umumiy grammatikani – Por Royal grammatikasini inkor qiladi. V.Humboldt turli tillardagi aynan bir tushunchani – fikrni ifoda etishning, yetkazishning turlicha usullarini aniqlashga intiladi.

V.Humboldt hayotining oxirgi yillarida o'zining eng muhim uch tomli «Yava orolidagi kavi tili haqida» nomli salmoqli asari ustida ish olib boradi. Bu asar uning vafotidan so'ng akasi A.Humboldt tomonidan 1836-1840-yillarda nashr qilindi.

Ishning kirish qismi «Inson tili tuzilishining har xilligi va uning inson naslining ma'naviy taraqqiyotiga ta'siri» deb nomlanib, turli tillarga, jumladan, 1859-yilda esa rus tiliga tarjima qilinadi.

V.Humboldt aynan mana shu asarida, ayniqsa, uning kirish qismida o'zining tilga bo'lgan nazariy-falsafiy qarashlarini mukammal bayon etadi.

V.Humboldt tilni mukammal o'rganishda, unga xos belgixususiyatlarni, boshqa hodisalar bilan aloqasini, o'ziga xosligini aniqlash va ochishda antinomiya metodini, ya'ni o'zaro zid, qaramaqarshi qo'yish usulini qo'llaydi. U ushbu usul orqali tilga xos xususiyatlarni, uning eng muhim jihatlarini birma-bir bayon etadi. Shuningdek, til nazariyasi haqidagi mukammal ta'limotlarni, g'oyalarni yaratadiki, bu ta'limot va g'oyalari nazariy tilshunoslikning taraqqiyotida yangi-yangi qarashlarni ochishda xizmat qildi. Til va tilga yondosh hodisalarning, til bilan bevosita aloqador, bog'liq jarayonlarning o'zaro dialektik munosabatda ekanligi ma'lum bo'ldi.

Xullas, V.Humboldtning tilni o'rganish jarayonida belgilagan, qayd etgan antinomiyasi – til hodisalariga dialektik zidlik asosida yondashishi jahon tilshunosligi lisoniy tafakkur taraqqiyotida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Til va tafakkurning o'zaro bog'liqligini Humboldt ular bajara-digan vazifalar hamohangligida ko'radi, zero, til ham xuddi tafakkur singari ijodiy jarayondir.

V. Humboldtning til va tafakkur antinomiyasi haqidagi qarash-lariga ko'ra, til tafakkursiz, tafakkur esa tilisiz mavjud emas. Biri ikkinchisini taqozo qiladi, talab qiladi. Inson hayotida, insonning lisoniy va aqliy faoliyatida til va tafakkur alohida, yakka holda mavjud emas, ular birgalikda, o'zaro bog'liqlikda «yashaydi», insonga xiznat qiladi. Ayni vaqtida ularning har biri o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Demak, bundan til va tafakkurning dialektik munosabati – o'zaro ajralmasligi, bog'liqligi va shu bilan birga ichki zidligi, qarama-qarshiligi g'oyasi kelib chiqadi. Tilning (tovushning) moddiyligi, tafakkurning esa psixik hodisaligi ma'lum bo'ladi.

V. Gumboldt til va tafakkurning bog'liqligi haqida fikr yuritar ekan: «Til oddiy tafakkur quroli bo'lib qolmasdan, balki tafakkurni tarkib toptiruvchi organdir. Aqliy faoliyat nutq tovushi vositasida moddiylashadi va hissiy idrok manbaiga aylanadi», – deb yozadi.

Til va tafakkurning dialektik birligi, ajralmasligi birining ikkinchisisiz mavjud emasligida, biri, tabiiy ravishda, ikkinchisini talab qilishida, biri ikkinchisi orqali namoyon bo'lishida: ularning dialektik zidligi, ichki qarama-qarshiligi esa tilning moddiy, «tashqi» hodisaligida, tafakkurning esa ruhiy, «ichki» hodisaligida ko'rindi, ya'ni til ham, tafakkur ham muayyan bir butunlikning o'zaro ajralmas va ayni vaqtida o'zaro zid, qarama-qarshi ikki tomonidir.

O'z davrining buyuk tilshunosi A.Shleyxer «Qiyosiy-lisoniy tadqiqotlar» va «Nemis tili» asarlarida til va tafakkurni dialektik munosabatda olib, tilni «talaffuz qilingan tovushlar orqali fikr ifodalash» deb ta'riflaydi. «Til bu fikrning tovush orqali ifodalanishidir», – deb yozadi u. Ayni fikrlardan til va tafakkurning o'zaro bog'liqligi, «bir butunligi», ajralmas munosabatda ekanligi, shuningdek, tovushning moddiy hodisa sifatida til va nutqning materiali, moddiy asosi, moddiy «quvvati» ekanligi kabi fikrlar, xulosalar kelib chiqadiki, bu o'z davri uchun yuksak, ilg'or g'oyalar edi.

Til va tafakkur munosabati masalasi A.A.Potebnya ta'limotining bosh g'oyasi hisoblanadi, uning asarlarida markaziy o'rinni egallaydi.

A.A.Potebnya til va tafakkur munosabatiga to'xtalar ekan, fikrning hosil bo'lishi va o'zining ifodasini topishi, vogelikka aylanishi faqat til yordamida, til materialida yuz berishini ko'rsatadi. Shuningdek, u tilning faqat tafakkur – fikrlash jarayoni bilangina emas, balki umuman inson psixikasi bilan bog'liqligini qayd etadi.

Olim o'zining lisoniy qarashlarida, ta'limotida tilshunoslik fanining murakkab va muhim masalalari haqida chuqur fikr yuritib, tilshunoslikdagi psixologizm oqimining vakillaridan farqli holda til va tafakkurni o'zaro bog'liq holda oladi, ularning birini ikkinchisidan ajratmaydi. Ayni vaqtida mantiqiy va lisoniy kategoriyalarning ham o'ziga xosligini ta'kidlaydi.

Yuqoridagi talqin va qarashlardan anglashiladiki, til yordamida kishilar fikr almashadilar, o'z istaklarini, hissiyotlarini ifoda qiladilar. Demak, til tafakkur bilan chambarchas bog'liq bo'lib, fikri moddiylashtiradigan, aniqlashtiradigan, kishilarning fikr almashishlarini ta'minlab beradigan quroldir.

Til va tafakkur bir-birini taqozo etadigan ajralmas hodisadir. Tilsiz tafakkur bo'lmanidek, til ham tafakkursiz bo'lmaydi.

Tafakkur mavjud, vogelikning, borliqning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi faol in'ikos jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati; fikrlash, o'ylash, fikr yuritish, muhokama tushunchalarini anglatadi.

Tafakkur inson oliy nerv (asab) tizimining (bosh miyaning) faoliyati bo'lib, so'z, so'z birikmalari va gaplarda, ya'ni tilda o'z ifodasini topadi.

Tafakkurning moddiy qobig'i tildir. Shunday ekan, tafakkur bilan til birini ikkinchisidan ajratib bo'lmaydigan dialektik birlikni tashkil etadi. Lekin ayrim tilshunoslari, jumladan, N.Y.Marr til bilan tafakkurni ajratib qo'yadi. U shunday yozadi: «Bo'lajak til tabiiy borliqdan holi bo'lgan, texnikada o'sib borayotgan tafakkurdir». Uningcha, go'yo kishilar kelajakda o'z qobig'idan holi bo'lgan tafakkur bilan ish ko'raverar emish. Bu til va tafakkur munosabatini buzib talqin qilish edi. Oradan uzoq vaqt o'tsa-da, Marr fikrining ro'yobga chiqmagani ham buning yorqin isbotidir.

Ong amalda til shaklida mavjud, demak, til materialarisiz fiki shakllanmaydi. Bu hol fikrni til bazasidagina o'rganishni taqozo qiladi. Shuningdek, tafakkur ham, til ham borliqdagi narsa-buyum va hodisalar bilan bevosita munosabatda bo'ladi. Garchi til va tafakkur bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ajralmas birlikni tashkil qilsada, ularni aynan bir hodisa deb tushunish ham noto'g'ridir.

Til fonetika, grammatika qonunlari asosida tashkil topgan tovushlar tiziini sifatida mavjud bo'lgan material -- hodisa bo'lsa, tafakkur mavjud borliqning inson miyasida aks etishining oliy shakli sifatida ideal hodisadir. Til qonunlari bilan tafakkur qonunlarining tuzilishi va rivojlanish xususiyatlari ham bir xil emas. Tilning qurilish qonunlarini grammatika fani o'rganadi. Tafakkur qonunlari va birliklari (tushuncha, hukm) esa mantiq (logika) fanida o'rganiladi. Xullas, til bilan tafakkur bir-biridan ajralmasdir. Lekin til va tafakkurni bir hodisa deb tushunish qanchalik xato bo'lsa, ularni bir-biridan ajratish ham shunchalik xatodir. Til fikrning shakllanishida bevosita ishtirok etuvchi hodisa va vosita hamdir. Rus fiziologi I. P. Pavlovning fikricha, insonning fikrlash jarayonida tilning ahamiyati katta va fikrlar til orqali amalga oshirilishi mumkin.

I. Pavlov ta'limoti bo'yicha inson obyektiv borliqni ikki xil yo'l bilan qabul qiladi:

a) narsa-buyum va hodisalarining kishining sezish organlariga (eshitish, sezish, ko'rish) bevosita ta'siri -- birinchi signal sistemasi orqali;

b) so'zlarining ta'siri -- ikkinchi signal sistemasi orqali.

Ikkinci signal sistemasi I. Pavlov fikricha, til tushunchasi bilan teng bo'lib, obyektiv borliqni bilishda muhim ro'l o'yaydi.

Birinchi signal sistemasi ham hayvonlarga, ham insonlarga xos bo'lsa, ikkinchi signal sistemasi esa faqat insonga xosdir. Demak, obyektiv borliqni o'rganishda tilning tafakkur vositasi sifatidagi roli nihoyatda buyukdir.

Til va tafakkur o'zaro bog'liq, ammo ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga, jihatlarga ham ega.

Til tafakkur bilan bevosita bog'langan. Tilni tafakkursiz, tafakkurni tilsiz rivojlantirib bo'lmaydi.

Inson tafakkur vositasida tabiat va jamiyatdagi naisa-hodisa-larning o'xhash va farqli tomonlarini ajratadi, ularni taqqoslaydi, tahlil va sintez qiladi. Bular til vositasida reallashadi, kishilar uchun tushunarli bo'ladi.

Til kishilik jamiyatida eng muhim aloqa vositasi sisatida xizmat qiladigan qurol bo'lib, uning yordamida kishilar fikr almashadilar, o'z istaklarini, hissiyotlarini, kayfiyatlarini ifoda qiladilar. Demak, til tafakkur bilan chambarchas bog'liq bo'lib, fikrni moddiylash-tiradigan, reallashtiradigan, kishilarning fikr almashishlarini ta'minlab beradigan quroldir.

Til bo'lmasa, jamiyat a'zolari orasida ijtimoiy aloqa va munosabat ham, odamlar yashayotgan jamiyatning o'zi ham bo'lmas edi. Til vositasida bir-birimizning fikrimizni anglaymiz, kundalik ishlarnimizni olib boramiz, narsa va hodisalarining mohiyatini chuqurroq biliib olamiz. Bu jarayon tafakkur yordamidagina amalga oshiriladi. Insonning amaliy faoliyati tafakkursiz kechmaydi.

Til tafakkur bilan mustahkam bog'liq bo'lib, fikrni moddiylash-tiradigan, kishilarning fikr almashishlarini ta'minlab beradigan quroldir. Shu jihatdan til va tafakkurni bir-biridan ajratib bo'lmaydigan dialektik birlik deb qarash lozim.

Til abstrakt, umumlashma tafakkurning amalga oshishi va mavjud bo'lishi uchun asosiy vositadir.

Til va tafakkur dialektik aloqada, dialektik birlikdadir. Bu shakl va mazmun munosabatiga ham aloqador. Mazmun qanchalik chuqur va to'g'ri bo'lsa, shakl shunchalik ixcham bo'ladi. Mazmun qanchalik hayotiy bo'lsa, shakl shuncha aniq bo'ladi. Mazmun qanchalik aktual bo'lsa, shakl shunchalik tushunarli bo'ladi.

Umumiylit tafakkurning o'ziga xos belgilardan biri hisoblanadi. Bu umumiylit buyum va hodisalar turlarining muhim belgilariiga, mohiyatiga asoslanadi. Ana shunday umumlashtirish xususiyati tilda ham, so'zda ham mavjud.

Gnoseologik muammo bilan shug'ullanuvchi olimlarning diqqat markazida til va mantiqning o'zaro munosabati masalasi turadi. Ilmiy tadqiqotning metodologiyasiga bog'liq holda til kategoriysi va mantiq kategoriyalari o'zaro chog'ishtiriladi, tenglashtiriladi yoki qarama-qarshi qo'yiladi.

Grammatik kategoriya bilan mantiqiy kategoriya orasidagi munosabat ham murakkabdir. Grammatik kategoriyalarni mantiqiy kategoriyalarga, mantiqiy kategoriyalarni grammatic kategoriyalarga bo'ysundirish yoki ularni qorishtirish mumkin emas. Mantiqiy kategoriylar til vositalari orqali ifodalanigan grammatic kategoriya ga aylanadi.

Til va tafakkurning aloqasi masalasiga gnoseologik asosda yondashuv so'z va tushuncha, gap va hukm haqida ilmiy izlanish olib borishga sabab bo'ldi.

Til va tafakkur dialektik birlikdadir. Tilni tushuncha bilan bog'lab tekshirish, tilning o'z xususiyatlarini tashlab, uning qonunlarini to'la ravishda tafakkur qonunlari bilan o' Ichash, ularni tenglashtirish emas.

Til bilan tafakkur, gap bilan mantiqiy hukm to'la teng kelmaydi. Buni A.A.Potebnya ham ta'kidlaydi: «Grammatik gap mantiqiy hukm bilan butunlay teng va parallel emas».

Hukm tafakkurning borliqni bilish shakllaridan bo'lib, unda predmet, hodisa kabilarning belgilari tasdiq yo'inkor yo'li bilan ifodalanadi.

Belgining predmetda borligi yoki yo'qligini, unga xosligi yoki xos emasligini tasdiqlash yoki inkor qilish bilan predmetlarning o'xhashligi yoki farqi ko'rsatiladi. Fikrning hukmdan tashqari so'rash va undash shakllari ham mavjud.

Til va tafakkurning bir-biri bilan bog'liqligi fikrning til orqali ifodalanishidangina iborat emas. Tafakkurning o'zi til bazasida tug'iladi, fikr tilsiz yashamaydi. Bundan tilning tafakkur bilan, gapning fikr bilan o'zaro bog'liqligi anglashiladi.

Tafakkur subyektning faoliyati bo'lishi bilan birga, borliqning – predmet, hodisa va boshqalarning in'ikosidir, obrazidir. Borliqning bu in'ikosi til orqali, uning bir parchasi – gap orqali ifodalanadi.

Til bilan tafakkur, grammatica bilan mantiq bir-biriga bog'liq, lekin ularning har biri o'z xususiyatlariga ega. Mantiqiy va grammatic kategoriylar bir-biri bilan aloqador, lekin ular doim bir-biriga mos kela bermaydi.

Hukm mantiqiy kategoriya bo'lib, uning ifodalanish shakli gapdir. Lekin gapni hukm bilan tenglashtirib bo'lmaydi.

Tasdiq va inkor hukmnинг zarur belgisidir.

Hukmning ifodasini darak gaplarda ko'ramiz. Gapning so'toq, buyruq kabi turlarida hunday bevosita ifodalanish aniq ko'rinnmaydi.

Hukmni o'rganuvchi mantiqning, gapni o'rganuvchi grammaticanining o'z kategoriyalari mavjud.

Mantiqiy kategoriya hukmda ikki asosiy birlik (subyekt, predikat) va bog'lama mavjud. Bog'lamaning vazifasi subyekt bilan predikat orasidagi aloqani ko'rsatish, predikatdag'i belgining hukm predmetiga xos yo xos emasligini – fikrning tasdiq-inkorini belgilashdir.

Grammatik kategoriya sifatida gapda uch asosiy birlik – ega, kesim va ikkinchi darajali bo'lak mavjud.

Gap va hukm bir-biriga mos keladi.

Gap va hukm bir-biriga mos kelmaydi: *Rasm bolalar tomonidan ishlandi*. Bunda ega (rasm) mantiqiy obyektni, ikkinchi darajali bo'lak esa (bolalar) mantiqiy subyektni ko'rsatadi.

Xullas, turli tillarda gapning sintaktik strukturasi turlicha bo'lsa ham, gapning mantiqiy-grammatik jihatdan bo'linishi, fikrning mantiqiy strukturasi barcha tillar uchun universal bo'ladi.

Hamma jonli narsalar ichida faqat odamgina gapirish qobiliyatiga egadir. Hayvonlarda tom ma'nodagi til ham, tafakkur ham yo'q.

Til sitemasining asosiy komponentlari ong, fikr, tafakkur, miya faoliyati bilan, miyaning funksional bosil bo'lish o'rni bilan bog'liq. Bu jarayon neyrolingvistikaga suyanib ish ko'radi. Neyrolingvistika – tilshunoslikning eng yangi sohasi sifatida ma'lum bo'lib, u miyadagi neyronlarning tilni bosil qilishdagi xizmatini o'rganuvchi sohadir.

Tashqi dunyoning kishiga ta'siri uning miyasida gavdalanadi. Shuning uchun ham kishilar tabiatdagi voqealar, hodisalar haqida ma'lum bir tafakkurga ega bo'lar ekanlar, uni faqat til orqali ro'yobga chiqaradilar va bu haqda boshqalar bilan aloqa bog'laydilar, fikrlashadilar.

Til va tafakkurning eng muhim elementi ichki nutq hisoblanadi. Ichki nutq inson ongi va aqliy faoliyatining asosiy, universal qurolidir, unda fikr va **til** birgalikda tafakkurning nutq mexanizmini harakatga keltiradi. Ichki nutq inson ongining muhim omillaridan biridir.

Ichki nutqni tekshirish jarayonida tilshunoslik bilan psixologiya fanlarini bir-biriga uzviy bog'laydigan yangi fan – psixolingvistika paydo bo'ldi.

Inson ma'lum tajriba va qoidalar yordamida cheksiz miqdorda yangidan-yangi jumlalarni yaratish qobiliyatiga ega. Psixolingvistika fanining asosiy maqsadlaridan biri ana shu qobiliyatning tabiatini va rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy o'rghanishdir. Shuningdek, bu fan tilning real psixik birligi muammosi, nutq hosil qilish modeli: nutq madaniyati, nutq patologiyasi, fikr va nutq o'rtaсидagi o'zaro munosabat, nutq genezisi yoki nutqning paydo bo'lishi kabilarni o'rghanadi.

Til va millat, til va xalq, til va shaxs, til va tafakkur, til va jamiyat kabi tushunchalar bir-biridan ajralmas, bir-biriga ma'no jihatdan bog'langan bo'lish bilan birlikda, shu o'mida bir-birini boyitib, to'ldirib boruvchi hodisalardir.

Kishilar til yordamida fikr almashadilar. Til tafakkur bilan chambarchas bog'liq bo'lib, fikrni moddiylashtiradigan, reallashtiradigan vositadir. Fikr faqat til orqali reallahshadi va tilsiz fikr mavjud bo'la olmaydi.

Tafakkur inson oliy nerv sistemasining faoliyati bo'lib, tilda o'z ifodasini topadi. Uning moddiy qobig'i tildir. Ong amalda til shaklida mavjud. Demak, til materialarisiz fikr yuzaga chiqmaydi. Til bilan tafakkur bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ajralmas birlikni tashkil qilsa ham, ular bir xil hodisa emas. Til bilan tafakkur murakkab qarama-qarshiliqlarga boy bo'lgan dialektik birlikni tashkil etadi.

Til fonetika, grammaтика qonunlari asosida tashkil topgan material hodisa bo'lsa, tafakkur borliqning inson miyasida aks etishining oliy shakli sifatida ideal hodisadir. Tilning qurilish qonunlari grammaтика o'rGANILSA, tafakkur qonunlari va birliklari logikada o'rGANILADI. Ularni bir-biriga qorishtirish mumkin emas.

Til bilan tafakkurning aloqasini va shunga bog'liq masalalarni o'rGANUVCHI tilshunoslik bo'limi **mentalingvistika** (lot. *mens, mentis* – ong, tafakkur + lingvistika) deb ataladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Til va tafakkur tushunchalari o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
2. Alloma va tilshunoslar til bilan tafakkur masalasida qanday fikrlarni bildirganlar?
3. N. Ya. Marning til va tafakkur masalasida qarashlari qanday edi? Bu qarashning xatosi nimada edi?
4. Til va tafakkurning bog'liqligi nimalarda ko'rindi?
5. Tafakkur birliklariga nimalar kiradi?
6. Tafakkur birliklar qanday til birliklari vositasida ifodalanadi?
7. Mentalingvistika qanday soha?

Dunyoning lisoniy xaritasi. Tillar tasnifi

1. Dunyo tillari.
2. Tillar tasnifi.
3. Tasnif turlari.
4. Tillarning geneologik tasnifi.
5. Til oilalari va qarindosh tillar.
6. Turkiy tillar oilasi.
7. Tillarning morfologik tasnifi.
8. Millatlararo tillar.
9. Xalqaro tillar.

Tayanch so'z va iboralar: *dunyo tillari, xalqaro tillar, o'lik til, tirik til, davlat tili, rasmiy til, tillar tasnifi, til oilalari, tillarning genisiologik tasnifi, tillarning tipologik tasnifi, amorf tillar, agglyutinativ tillar, flektiv tillar, polisintetik tillar, qarindosh tillar, bobo til, turkiy tillar oilasi, millatlararo tillar, xalqaro tillar.*

Tillar hozirda qo'llanish-qo'llanmasligiga ko'ra quyidagi tur-larga bo'linadi:

- 1) tirik tillar;
- 2) o'lik tillar.

Hozirgi kunda ma'lum xalq yoki bir necha xalqlar uchun mutoqot vositasi bo'lib xizmat qilayotgan tillar **tirik tillardir**. Masalan, *rus*, *ingliz*, *qirg'iz*, *qozoq*, *o'zbek tili* va boshqalar.

Hozirda hech bir xalq uchun muomala vositasi bo'lib qo'llanmaydigan tillar esa o'lik tillar hisoblanadi. *Lotin*, *sanskrit* (*qadimgi hind*), *qadimgi slaviyan*, *qadimgi turkiy*, *qadimgi xorazmiy tillari* o'lik tillardir.

Olimlar qadimgi davrlardan boshlab dunyo tillari va ularning taixi, kelib chiqishi, taraqqiyoti bilan qiziqib keladilar. Tillarning kelib chiqishi, geografik joylashuvi, fonetik, morfologik, grammaticus xususiyatlarini hisobga olgan holda guruhash, til oilalariga ajratish tillar **tasnifi** deyiladi.

Tillar tasnifining ikki asosiy turi mavjud:

1. **Geneologik tasnif.** Bu tillar orasidagi fonetik, leksik, grammaticus o'xshashlikka asoslanadi.

2. **Morfologik (tipologik) tasnif.** Bu esa tillarning tuzilish tomonidan o'xshashligiga asoslanadi.

Tillarning kelib chiqishi va qarindoshligiga ko'ra oilalarga va guruhlarga ajratilishi **geneologik tasnidir**. Tillar geneologik tasnif bo'yicha til oilalariga bo'linadi. Kelib chiqish asosining umumiyligi, fonetik, leksik va grammaticus jihatdan o'zaro o'xshashligi, yaqinligi bilan izohlanadigan tillar guruhi **tillar oilasi** deyiladi. Tillarning geneologik tasnifini yuzaga kelishi qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Tillarning genealogik tasnifi termini o'rniда ayrim manbalarda **tillarning shajaraviy tasnifi** terminini qo'llash kuzatiladi.¹

Tilshunoslikka oid ilmiy adabiyotlarda dunyo tillarini 16, ba'zi olimlar 20-25 oilaga bo'ladilar. Bizningcha, bipinchim qarash to'g'riroq.

Har bir til oilasi o'nlab tillarni o'z ichiga oladi. Tillarning genealogik tasnifiga ko'ra, qarindosh tillar qarindoshlik darajasiga qarab oilalarga, bir oila doirasidagi qarindosh tillar tarmoqlarga, taqmoqlar guruhi va guruhchalarga ajratiladi. Hozirgi zamon tilshunosligida oiladan kattaroq tasnifiy birliklar: til oilalari, makrooilalar va boshqalarini aniqlash, belgilashga urinishlar ham kuzatiladi.

¹ Hojiev A. Tilshunoslik terminlarning ro'hani log'ika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – B. 105.

Tillarning genealogik tasnifiy birliklari

| № | Tasnifiy birliklar |
|---|-------------------------------|
| 1 | Tillar makrooilasi |
| 2 | Til oilasi |
| 3 | Til tarmoqlari (shaxobchalar) |
| 4 | Til guruh |
| 5 | Til guruhchasi |
| 6 | Til |
| 7 | Lahja |
| 8 | Sheva |

Jahon tillarining umumiy soni manbalarda 2500 dan 5000 gacha va undan ortiq deb ko'rsatiladi.

Jahon tillari ichida so'zlashuvchilar soniga ko'ra *xitoy, ingliz, rus, ispan, hind, urdu, indonez, arab, bengal, portugal, yapon, nemis tillari* keng tarqalgan tillar hisoblanadi.

So'zlashuvchilar soniga ko'ra dunyoda eng keng tarqalgan tillar:

1. Xitoy tili (1 mlrd. 300 mln.)
2. Ingliz tili (450 mln.)
3. Ispan tili (250 mln.)
4. Hind tili (200 mln.)
5. Arab tili (150 mln.)
6. Bengal tili (150 mln.)
7. Rus tili (150 mln.)
8. Yapon tili (130 mln.)
9. Portugal tili (130 mln.)
10. Nemis tili (100 mln.)

Xalqaro kengashlarda, simpoziumlarda ishlatiluvchi, Birlashgan Millatlar Tasbkiloti tomonidan rasmiy tan olingan, xalqlararo faol qo'llanuvch tillar **xalqaro tillar** hisoblanadi. Bunga *ingliz, ispan, xitoy, fransuz, rus, arab tillari* kiradi.

Globallashuv davrida ingliz tilining mavqeい yanada ortdi. Hozirga kelib ingliz tili eng keng tarqalgan va qulay tilga aylandi.

Hozirgi davrda jahondagi ilmiy va texnikaviy adabiyotlarning o'rta hisobda 80 foizi ingliz tilida chop etiladi. Xalqaro anjumanlar,

kongresslar, sessiyalar, konferensiyalar, subbatlar, rasmiy muzokalar va boshqa tadbirlar asosan inliz tilida olib boriladi. Demak, xalqaro tillar orasida ham ingliz tilining qo'llanish darajasi keng, mavqeiyi juda baland.

Hozirgi vaqtida tarixi o'rganilib, bir-biri bilan qarindosh ekanligi aniqlangan tillar oilasi quyidagilardan iborat:

1. Hind-yevropa tillari oilasi. Hind-yevropa tillari oilasi – Yevrosiyoda mavjud bo'lgan, keyingi besh asr mobaynida esa Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya, qisman, Afrikada ham tarqalgan yirik til oilalaridan biri.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik hind-yevropa tillarini o'rghanish asosida paydo bo'lgan. Shu bois hind-yevropa tillari genetik aloqalariga ko'ra tillarning alohida birlashish shakli sifatida faraz qilingan dastlabki til oilasi hisoblanadi. Tilshunoslikda boshqa til oilalarini ajratish, belgilash bevosita yoki bilvosita hind-yevropa tillarini o'rghanish tajribasiga tayanadi.

Hind-yevropa guruhiqa quyidagi tillar kiradi:

1) *xett-luviy* yoki *anotoliy* guruhi: *mixxathli xett, mixxatli luviy, palay tillari*; IX-VIII asrlardagi ieroglifik *xett tili*; miloddan oldingi VII-III asrlarda mavjud bo'lgan *likiy, lidiy, kariy, sidet* va boshqa qadimgi tillar;

2) *hind* yoki *hind-oriy* guruhi. Bular qadimgi *veda tili, sanskrit*; o'rta davrga mansub prakritlar – o'rta hind tillari: *pali, payshchi, magadhi, apabhransha* va boshqa tillar; yangi davrga mansub *hindiy, bihar, bengal, assom, oriy, marathiy, singal, sindhi, lendi, panjobi, rajasthan, gujorot, khandeshi, paxari, nepal, pariya, lo'li tillari*;

3) eroniy guruhdagi tillar ham uch davrga mansub bo'lib, bular quyidagilar: a) qadimgi davrdagi *avesto tili, qadimgi fors, midiy, skif tillari*;

b) o'rta eroniy davr: *o'rta fors (pahlaviy), parfiya, sug'd, xorazmiy, baqtriya, alan tillari*;

d) yangi eroniy davr tillari: *fors (forsiyi dariy), tojik, pushtu (pashto'), afg'on), yozuviga ega bo'Imagan luriy va baxtiyoriy lahjalari, baluj (baluch), tot, tolish, gilon va mozandoron, Markaziy va G'arbiy Eron lahjalari, parachi, ormuri, qumzori, munjon, yag'nob, osetin tillari va ko'plab pomir tillari*;

4) *toxar guruhi*;

5) *arman (qadimgi va yangi) tili*;

6) *frigiy tili*;

7) *frakiy tili*;

8) *illiriy guruhi*;

9) *alban tili*;

10) *venet tili*;

11) *yunon (grek) guruhi*: asl yunon, Gomer dostonlari tili, o'cta grek tili kabi o'lik hamda yangi, zamonaviy *grek tilini* qamrab oladi;

12) *italiy guruhi* qadimgi davrdagi *lot. tilini, osk, falisk, umbr, sikul tillarini* hamda yangi davrdagi *roman tillarini* qamrab oladi; roman guruhi *fransuz, oksitin, ispan, katalan, galitsiya, portugal, italyan, sard, reto-poman, rumin, moldovan, arumin* tillaridan iborat;

13) *kelt guruhi*: *gall (o'lik), uels, breton, korn (o'lik), irland, shotland (gel), kelt, keltiber, men (o'lik)* va boshqa tillar kiradi;

14) *german guruhi*, o'z navbatida, uch guruhga bo'linadi: a) *sharqiy german guruhi*: *got, vandal, burgunt (o'lik tillar)*; b) *g'arbiy german guruhi*: *yuqori nemis, nemis, idish (yangi yahudiy), quyi nemis, niderland (golland), flamand, afrikaans (bur), qadimgi ingliz (o'lik), ingliz, friz tillari va shimoliy german (island, dan, shved, norveg guruhchalar)*;

15) *boltiq guruhi g'arbiy boltiq (prus, yatvyaj (sudav), galind (golyad), shalav kabi o'lik tillar) va sharqiy boltiq (litva, latish (tirik tillar) kursh, selon (o'lik tillar) guruhchalariga ajraladi;*

16) *slavyan guruhi* ham uch guruhchaga bo'linadi: a) *janubiy slavyan tillari guruhchasi (eski slavyan (o'lik) va tirik: bolgar, makedon, serb-xorvat, sloven tillari)*;

b) *g'arbiy slavyan tillari guruhchasi (chex, slovak, polyak, kashub)*;

d) *sharqiy slavyan tillari guruhchasi (rus, ukrain, belorus tillari)* kabi.¹

II. Xitoy-tibet tillari // sin-tibet tillari oilasi jahondagi eng yirik til oilalaridan biri; XXR, Myanma (Birma), Nepal, Butanda va Hindistonning shimoliy qismi tay-xitoy va tibet tiharqiy qismida

¹ Hind-Yevropa tillari ta'sifi quyidagi manbalalar asosida tayyorlandi: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. — Toshkent, 2000-2005. — I-11-jildlar.

tarqalgan 100 dan ortiq qabilaviy va milliy tilni o'z ichiga oladi. Xitoy-tibet tillarida so'zlashuvchilar umumiyligi soni so'ngi ma'lumotlarga ko'tra, 1 milliard 360 milliondan ortiq (shundan 1 milliard 320 milliondan ortiqroq kishi xitoy tilida so'zlashadi).

Xitoy-tibet tillari o'mniga qarab quyidagi ikki asosiy tarmoqqa ajratiladi:

- 1) *xitoy tillari tarmog'i*;
- 2) *tibet-birma tillari tarmog'i*.

Ba'zi tasnlislarda *dungan tili* ham xitoy tillari tarmog'iga mansub deb qaratildi. Ayrim manbalarda birinchi tarmoq *tay-xitoy guruhiga* deb ham yuritiladi.

Tay-xitoy gutuhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *xitoy tili*. Xitoy Xalq Respublikasining (poytaxti Pekin) rasmiy davlat tili bo'lib, bu tilda 1 milliard 320 milliondan ortiqroq kishi so'zlashadi. Xitoy tili, shuningdek, Indoneziya, Kambodja, Laos, Vietnam, Myanma, Malayziya, Tailand, Singapur, Bruney, Syangan, Aomin, Filippin, Yaponiya, Koreya va dunyoning boshqa mamlakatlarida tarqalgan. BMTning rasmiy va ishchi tillaridan biri.

Xitoy tili bir necha mustaqil dialektlarga bo'linadi. U juda qadimgi (eramizdan ikki yarim ming yil burungi) tillardan biri bo'lib, boy yozuv-yodgorliklariga egadir.

b) *dungan tili*. Bu tilda so'zlashuvchilarning soni 3,5 million kishidan ortiq bo'lib, ular, asosan, Xitoy Xalq Respublikasida yashaydi;

g) *vietnam tili*. Vietnam Xalq demokratik Respublikasining (poytaxti Xanoy) davlat tili bo'lib, bu tilda 30 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

d) *tay (siam) tili*. Taylandning (poytaxti Bangkok) davlat tili bo'lib, bu tilda 46 millionga yaqin kishi so'zlashadi.

2. *Tibet-birma tillari tarmog'i*. Bu tilda so'zlashuvchilarning umumiyligi soni 70 million kishiga yaqin. Tibet-birma tillari asosan, Myanma, Xitoy, Hindiston va Nepalda tarqalgan. Tibet-birma tillari tarmog'i *lolo-birma, tibet, kuki-naga, karen, sharqiy himolay, g'arbiy himolay* kabi bir necha asosiy guruhlarga bo'linadi.

Tibet-birma tillari tarmog'idagi keng tarqalgan asosiy tillar quyidagilar:

- a) *birma tili* – Myanma (sobiq Birma) davlatining (poytaxti Rangun) rasmiy tili (35 millionga yaqin kishi so'zlashadi);
- b) *tibet tili* – asosan, XXRda, qisman, Nepal, Butanda, Hindistonning Kashmir hududida tarqalgan (6 millionga yaqin kishi so'zlashadi);
- c) *karen tillari* – Myanma va Tailandda tarqalgan (3,5 milliondan ortiq kishi so'zlashadi);
- d) *xani* – XXRda tarqalgan (1,5 millionga yaqin kishi so'zlashadi);
- e) *manipuri* – Hindistonning Assom va Tripuri shtatlarida tarqalgan (1 million 300 mingga yaqin kishi so'zlashadi);
- f) *bodo (kachari)* – Hindistonda tarqalgan (800 ming kishi so'zlashadi);
- g) *garo* – Hindistonda tarqalgan (800 ming kishi so'zlashadi) va *szinpo, lisu, nevar, guriun tillari*.

III. Som-hom tillari oilasi. Bu til oilasini manbalarda *hom-som*, *xom-som* tarzida berishlar ham kuzatiladi. Bizningcha, *som-hom tillari oilasi* varianti to'g'ri.

Som-hom tillari qo'llanish hududiga nisbat berib, **Afrika-Osiyo tillari** // **Afroosiyo tillari** deb ham ataladi. Som-hom tillari Afrikaning Atlantika okeani qirg'ogi va Kanar orollaridan Qizil dengiz qirg'ogigacha bo'lgan shimoliy qismida, G'arbiy Osiyo hamda Malta orollarida tarqalgan. Bu tillarda so'zlashuv-chilarning umumiy soni 320 million kishidan ortiq.

Bu tillar quyidagi 5 tarmoqqa bo'linadi:

1) *som tillari tarmog'i: sinikiy, oromiy, ugarit, qadimiy yahudiy, nabotiy, falastin (o'tik tillar), arab, malta, amxara, ivrit* va kam sonli aholi so'zlashadigan *mehriy, jibboliy, so'qo'tra, tigray, tigre, argobba tillari*;

2) *Misr tarmog'i: qadimgi misr hamda qibtiy (kopt – XVII asrda iste'moldan chiqqan, lekin hozirgacha Misrdagi pravoslav cherkovining ibodat tili);*

3) *barbar-liviy tarmog'i: barbar xalqlarining tashelxit, tuareg tillari, zenit tillari, zenaga, tamazigxit* va boshqa tillar;

4) *kushit tarmog'i: somali, oromo, badaviya, sidamo, afar-saxo* kabi 50 dan ortiq til va lahjalar;

5) chad tarmog'i: g'arbiy chad, markaziy chad, sharqiy chad
guruhiga mansub tillari.

Som-hom tillari oilasida som tarmog'iga mansub arab tili keng tarqalgan tildir. Arab tili Yaqin va O'rta Sharq hamda Afrika shimalidagi yigirmadan ortiq mamlakatning davlat tilidir. Bu tilda 200 milliondan ortiqroq kishi so'zlashadi.

IV. Turkiy tillar oilasi. Turkiy tillar oilasiga quyidagi tillar kiradi: *qirg'iz, qozog, turkman, usmonli turk, ozarbayjon, qoraqalpoq, uyg'ur, boshqird, tatar, chuvash, yoqun, qorachoy, balqar, tuva, oltoy, xakas, gagauz, shor, karaim, qo'miq, no'g'ay, ayrot, karagas va o'zbek tili.* Mazkur tillar bir oilaga mansubligiga ko'ta qarindosh tillar hisoblanadi.

Ma'lum tillarning paydo bo'lishi va shakllanishi uchun manba, asos bo'lgan til **bobo til** hisoblanadi. Masalan, turkiy tillar oilasi uchun asos til hisoblanadigan, V-VII asarlarda qo'llangan, bizgacha qadimgi turkiy yodgorliklar hisoblanmish Bilga hoqon, Kultigin, To'nyuquq bitigtochlari, ya'nii Urxun-Enasoy (runiy) yozuvi vositasida yetib kelgan qadimgi turkiy til bobo tidi.

Turkiy xalqlar, asosan, MDH hududidagi Ozarbayjon, Turkmaniston, Qirg'iziston, Qozog'iston, O'zbekiston Respublikalarida va Turkiya, Sharqiy Turkiston, Yevropa, Afrika, Avstraliya, Amerika kabi xorijiy mamlakatlarda yashaydi.

Hozirgi turkiy tillar tarkibiga O'rta Osiyo, Qozog'iston va Sharqiy Turkistondagi o'zbek, qozog, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman va uyg'ur tillari, Kavkazdagagi ozarboyjon, qo'miq, qorachoy-balkar, turuxman, gagauz va no'g'ay kabi tillar; Volgabo'yni va Uraldagi tatar, boshqira va chuvash tillari; Sibirdagi yoqut (saxa), tuva, to'fa, xakas, kangmaji, shor, chulim tillari; Ukraina, Moldova va Gruziyadagi uruni, qrim va qarayim tillari; Turkiya va Bolqondagi turk tili kiradi. Shunday qilib, turkiy tillar oilasi yozga yaqin jonli tillarni o'z ichiga oladi. Butun dunyoda turkiy tillarda bir necha yuz million kishi gaplashadi. Turkiy tilli aboli Uzoq Sharqdan Markaziy Yevropagacha, Taymir yarimorolidan Bolqon yarimoroligacha tarqalgan.

Turkiy tillar oilasi 6 ta guruh va guruhchalarga bo'linadi. O'zbek tili o'ziga eng yaqin bo'lgan uyg'ur tili bilan bu oilaning qailuq guruhini tashkil etadi. Ammo hozirgi o'zbek tilida qarluq

lahjasidan tashqari, qipchoq lahjasi va o'g'uz lahjasi xususiyatlari ham mujassamlashgan, chunki bozirgi o'zbeklar tarkibiда qipchoq va o'g'uz gurublарining vakillari ham bor.

Turkiy xalqlar ichida o'zbeklar eng ko'p sonni tashkil etadi. O'zbeklar O'zbekiston respublikasidan tashqari, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston respublikalarida, shuningdek, Xitoy Xalq respublikasining Sinszyan viloyatida, Afg'oniston Respublikasida. Epon va Turkiyada ham yashaydilar. Yuqoridagi ma'lumotlар turkiyzabon xalqlar yashaydigan hududlar geografiyasи kengligidan dalolat beradi.

Turkiy tillar oilasiga mansub tillarning tarqalish areali va ularda so'zlashuvchilar miqdori quyidagicha:

- a) *ozarbayjon tili*. Bu tilda so'zlashuvchilarning soni 15 milliondan osbadi. Bulardan 9 milliondan ko'prog'i Eronda, 6 milliondan ko'prog'i esa Ozarbayjonda yashaydi. Bu til Ozarbayjon Respublikasining (poytaxti Boku) davlat tilidir;
- b) *turk (usmonli turk) tili*. Bu til Turkiyaning davlat tili bo'lib, unda 40 millionga yaqin kishi so'zlashadi;
- c) *turkman tili*. Bu til Turkmaniston Respublikasi (poytaxti Ashxobod) davlat tili bo'lib, unda 2 millionga yaqin kishi so'zlashadi;
- d) *o'zbek tili*. Bu til O'zbekiston Respublikasining davlat tili bo'lib, unda 16 milliondan ortiq kishi so'zlashadi;
- e) *qozoq tili*. Bu til Qozog'iston respublikasining davlat tili bo'lib, unda 10 millionga yaqin kishi so'zlashadi;
- f) *qirg'iz tili*. Bu til Qirg'iziston Respublikasining (poytaxti Bishkek) davlat tili bo'lib, unda 1,5 milliondan ortiq kishi so'zlashadi;
- h) *tatar (Qozon tatarlari) tili*. Bu til Tatariston Respublikasining asosiy davlat tili bo'lib, unda so'zlashuvchilar 6,5 milliondan ortiqdir;
- i) *uyg'ur tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 5 milliondan ortiqroq bo'lib, ular asosan Xitoy Xalq Respublikasining Sin szan-uyg'ur avtonom tumanida yashaydilar;
- j) *chuvash tili*. Bu til Chuvash Respublikasida yashovchi xalqning tili bo'lib, unda 1,5 milliondan ko'proq kishi so'zlashadi;

k) *boshqird tili*. Bu til Boshqirdiston respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo'lib, unda 1 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

l) *yogut tili*. Bu til Yoqtiston respublikasida yashovchi xalqning tili bo'lib, unda 300 mingdan ko'p kishi so'zlashadi;

m) *qoraqalpoq tili*. Qoraqalpog'istonda yashovchi xalqlarning tili bo'lib, unda 200 mingdan ortiq kishi so'zlashadi;

n) *tuva tili*. Tuva respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo'lib, unda 150 mingdan ko'proq kishi so'zlashadi.

Shuningdek, qo'miq tili (310 ming kishi so'zlashadi), qorachoy tili (100 mingcha kishi so'zlashadi), balqar tili (50 ming kishi so'zlashadi), xakas tili (60 ming kishi so'zlashadi) va yana bir qancha boshqa tillar hamda o'lik tillardan o'rxo'n, pechena, qipchoq, qadiangi uyg'ur, bulg'or va xazar tillari ham turkiy tillar oilasiga kiradi.

V. Mo'gul tillari oilasi. Mo'gul tillarida so'zlashuvchilarning umumiy soni 7 million kishidan iborat.

Mo'g'ul tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *xalxa-mo'g'ul tili* // *xalxa-mongol tili*. Mo'g'uliston Respublikasining (poytaxti Ulan-Bator) rasmiy tili bo'lib, bu tilda 5 milliondan ortiqroq kishi so'zlashadi. Bu tilda so'zlashuvchilarning bir qanchasi Xitoy Xalq Respublikasida Ichki Mongoliya hududida ham qabilalar tili sifatida qo'llanadi;

b) *buryat tili*. Buryatiya respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo'lib, bu tilda 500 mingdan ortiqroq kishi so'zlashadi;

d) *qalmoq tili*. Rossiya Federatsiyasining Qalmog'iston Respublikasida, Astraxan va Rostov viloyat hamda Stavropol o'lkasida, qisman XXR va Qirg'izistonda tarqalgan. Qalmog'iston Respublikasining davlat tili. Qalmoq tilida so'zlashuvchilarning umumiy soni 180 ming kishiga yaqin.

VI. Tungus-manjur tillari. Tungus-manjur tillariga Sibir va Uzoq Sharqdagi yaqin qarindosh tillar kiradi. Bu tilda so'zlashuvchilarning umumiy soni 70 ming (RF da 60 ming).

Tungus-manjur tillari RFning O'rta va Sharqiy Sibirdagi tayga hududlarida, Xitoyning shimoliy-sharqida, Sintszyan-Uyg'ur muxtor rayonida, Mongoliyaning Bargi tumanida tarqalgan. Tungus-manjur tillari adabiyotlarda 3, ayrimlarida 5 va boshqa bir o'rinda 11 tarmoqqa ajratiladi

Ana shu tarmoqlar quyidagi tillarni o'z ichiga oladi:

a) *evenk tili*. Rossiya Federatsiyasining Evenk milliy okrugida hamda mamlakatimizning shimoli-sharqiy tumanlarida yashovchi xalqning tili bo'lib, bu tilda 20 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

b) *even tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 10 mingcha kishi bo'lib, ular asosan Rossiya Federatsiyasining Even, Oxot, Chukotka, Koryak milliy okruglarida yashaydi.

d) *manjur tili*. Xitoy Xalq Respublikasining Shimoli-Sharqiy qismida yashovchi xalqning tili bo'lib, bu til hozir o'lik tillar qatoriga o'tyapti;

e) *nanay tili*. Rossiya Federatsiyasining Quyi Amur milliy okrugida yashovchi xalqning tili bo'lib, bu tilda 8 ming kishi so'zlashadi.

*Udey, ulq, oroch tillaci ham manjur guruhi*ga kiradi.

VII. Kavkaz tillari oilasi (Iboriy-kavkaz tillari). Kavkaz tillari Kavkazdag'i 50 ga yaqin tillarning majmui. Kavkaz tillari Shimoliy Kavkaz, Turkiyada va kichik guruhlari Suriya, Eron va ba'zi Yaqin Sharq mamlakatlarida tarqalgan. Kavkaz tillari 3 guruhga bo'linadi:

1) abxzaz-edigey (G'arbiy Kavkaz) guruhi:

a) *abxzaz tili*. Bu til Abxaziya Respublikasida yashovchilarning xalq tili bo'lib, bu tilda 70 mingdan ko'proq kishi so'zlashadi;

b) *abaza tili*. Bu til Cherkas Avtonom Respublikasida yashovchi xalqlarning davlat tili bo'lib, bu tilda 25 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

d) *adigey tili*. Bu til Adigey va Qorachoy-Cherkasiya Respublikalarida yashovchi adigey xalqining tili bo'lib, bu tilda 80 mingdan ortiq kishi so'zlashadi;

e) *kabardin-cherkes tili*. Bu til Kabarda-Balkariya va Cherkas Respublikalarida yashovchi xalqlarning davlat tili bo'lib, bu tilda 250 mingdan ortiq kishi so'zlashadi.

2) kartvel (Janubiy Kavkaz) guruhi:

a) *chechen tili* (bu til Chechen Respublikasida yashovchi xalqlarning davlat tili bo'lib, unda 500 mingga yaqin kishi so'zlashadi);

b) *ingush tili* (bu tilda 100 mingdan ko'proq kishi so'zlashadi, ular Ingush respublikasida yashaydi);

d) *basbi tili* (bu tilda so'zlashuvchilar Chechen va Ingush Respublikalarida yashaydi);

e) *gruzin tili* (Gruziya Respublikasining (poytaxti Tbilisi) davlat tili bo'lib, bu tilda 3917.7 ming kishi so'zlashadi). Shuningdek, 110 ming kishi so'zlashadigan *chan tili*, 290 ming kishi so'zlashadigan *migrel tili* va 15 ming kishi so'zlashadigan *svan tili* ham janubiy guruhga kiradi.

3) *nax-dog'iston (Sharqiy Kavkaz) guruhi*. Bu guruh *Dog'iston tillar guruhi* deb ham ataladi. Dog'iston tillarida so'zlashuvchi elatlar Dog'iston, Shimoliy Ozarbayjon, Gruziyaning ayrim hududlarida, Checheniston, Ingushiya hududlarida tarqalgan. Bu tillarda so'zlashuvchilarning aksariyati Dog'iston Avtonom Respublikasida yashaydi.

Dog'iston tillar guruhi quyidagi ayrim guruhchalarga bo'linadi:

a) *avar-andidoy (sez)guruhchasi*. Bu tilda 300 mingga yaqin kishi so'zlashadi. Bu guruhga *avar*, *and*, *botlix*, *karatin*, *axvax*, *bagulal*, *tindin*, *chamalin*, *godoberi*, *didoy*(sez, *xvarshi*, *gimix*, *bejitin*, *gunzuh*) tillari kiradi;

b) *darg'in tili*. Bu tilda 160 ming kishi so'zlashadi;

d) *lazgin tillari*. Bu tilda 230 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

e) *iat tili*. Bu tilda 70 ming kishi so'zlashadi;

Bulardan tashqari, nufuzi kam bo'lgan bir qancha tillar ham Dog'iston guruhiga kiradi.

VIII. Fin-ugor tillari oilasi. Ayrim tilshunoslar fin-ugor tillarini guruh hisoblab, *samodiy tillari* bilan *ural tillari birlashmasini* tashkil etadi deb hiseblaydilar.

Fin-ugor tillari manbalarda 5 guruhga ajratiladi:

1) *boltiqbo'y-i-fin guruhi*: *fin*, *ijor*, *karel* va *veps tillari* *shimoliy guruhchani*; *eston*, *vod*, *liv tillari* janubiy guruhchani tashkil etadi;

2) *volga guruhi*: *marfy tili*, *mordva tillari*;

3) *perm guruhi*: *udmurt*, *komi-ziryan*, *komi-permyak tillari*;

4) *ugor guruhi*: *xanti* va *mansi tillari*, *venger tili*;

5) *saam guruhi*: *garbiy* va *sharqiy lahjali saam tillari*.

Samodiy tillari an'anaviy tarzda 2 tarmoq yoki guruhga bo'linadi:

1) shimoliy samodiy tillar guruhi: *nenets, nganasan, enst tillari;*

2) janubiy samodiy tillar guruhi: *selkup* va yaqinda yo'qolgan *kamasin tili*.

IX. Niger-kordofan tillari makrooilasi. Mazkur tillar makrooilasi ikki oilaga bo'linadi:

1. Niger-kougo tillari oilasi. Niger-kongo tillari Afrikaning Sahroi Kabir janubrog'dagi katta hududda (Markaziy Sudan, Sharqiy va Janubiy Afrikaning ba'zi mintaqalari bundan mustasno) keng tarqalgan. Bu tillarda 350 milliondan ortiq kishi so'zlashadi.

Niger-kongo tillari amerikalik tilshunos J. Grinberg tasnifi bo'yicha 6 ta kichik oilaga bo'linadi:

- 1) *g'arbiy atlantika tillari;*
- 2) *mande tillari;*
- 3) *gur (volta) tillari;*
- 4) *kva (gvineya) tillari;*
- 5) *benue-kongo tillari;*
- 6) *adamaua-sharqiy tillari.*

Niger-kongo tillari oilasiga *akan, bamana, volof, zande, igbo, yoruba, lingala, malinke, nyanja, rundi, sango, suaxili, fula, shona, eve* kabi 2,5 milliondan 20 milliongacha kishilar so'zlashuvchi tillar kiradi.

2. Kordofan tillar oilasi. Sudanning sharqidagi va Kordofan tog'li o'lkasidagi kichkina hududda tarqalgan. Kordofan tillari 5 guruhga bo'linadi va 30 dan ortiq tilni o'z ichiga oladi.

X. Sudan tillari. Sudan tillari Sahroi Kabirning janubidagi huddudan g'arbda, Gvineya qirg'oqlaridan sharqda Efiopiya tog'liklarigacha tarqalgan. Demak, sudan tillarida so'zlashuvchilar Afrikada yashaydi.

Sudan tillar to't yirik guruhiga bo'linadi:

- a) *nigrit tillari;*
- b) *mande tillari;*
- c) *turkumli tillar;*
- e) *ichki Sudan tillari.*

Chunonchi, nil-chad, nil-abissan, nil-ekvator, kardofan, nil-kongo, ubang, shor niger-chad, niger-kamerun, quy'i-niger, dago-mey, niger-latgal, liberia va senegal gviney guruhiari kabi.

X. Indeys tillari oilasi. Amerika tub aholisining tili. Bu tillarda 35 mln.ga yaqin kishi so'zlashadi(1992).

Indeys tillari oilasi tugal tadqiq etilmagan, genetik aloqalari xususida to'liq va aniq ma'lumotlar yo'q. Indeys tillari oilasi *nadane*, *alkonkin-ritvan*, *pentuan*, *xokaltek*, *kado-irokaz*, *siu*, *yutatstek*, *maya-soke*, *chibcha*, *aravak* kabi 14 ta guruhga bo'linadi.

XI. Malay-polinez tillari oilasi// Avstronez tillari oilasi. Bu tillarda so'zlashuvchi kishilar soni hali yaxshi aniqlanmagan.

Avstronez tillari oilasi quyidagi 4 guruhga bo'linadi:

- 1) *indonez guruhi*;
- 2) *polinez guruhi*;
- 3) *melenez guruhi*;
- 4) *mikronez guruhi*.

Bu tillarning o'zagini *malay-polinez tillari* tashkil etadi. Shu bois bu til oilasi *malay-polinez tillari oilasi* deb ham yuritiladi. Umuman, malay-polineziya tillarida 90 milliondan ortiq kishi so'zlashadi. Shuningdek, madura, bali, yavan, tagalog, maori, samoa va uvea kabi bir qancha tillar ham shu oilaga kiradi.

XII. Paleoosiyo tillari. Genetik jihatdan o'zaro bog'liq bo'Imagan chukcha-kamchatka tillari, eskimos-aleut tillari, yenisey tillari, yugakir-chuvyan tillari va alohida nivx tilini birlashtiruvchi, shartli belgilangan til oilasi.

Bu tillarda so'zlashuvchilar Rossiya Federatsiyasining shimoli-sharqida yashaydi.

Paleoosiyo tillari ikki guruhga bo'linadi:

1. *Chukot guruhiiga* chukot tili (1,5 ming kishi so'zlashadi), koryak tili (7 ming kishi so'zlashadi), kamchadal tili (2,5 ming kishi so'zlashadi) kiradi.

2. *Sibir guruhiiga* odul tili (ming kishi so'zlashadi), nivx tili (4 ming kishi so'zlashadi), ket tili (2 ming kishi so'zlashadi) kiradi.

Eskimos-aleut guruhi. Bu tillar guruhiiga: eskimos va aleut tillari kiradi. Eskimos til Chukotka muxtor okrugida va Magadan viloyatining janubi-sharqida, AQSHda Alyaska va unga yaqin orollarda, Kanadada va Grenlandiyaning shimoliy hududlarida tarqalgan. Eskimos tilda so'zlashuvchilarning umumiy soni 115 ming.

Aleut tili (bu tilda so'zlashuvchilar Komandor va Aleut orollarida yashaydi) kiradi.

XIII. Bantu (benue-kongo) tillari. Bu tillarda so'zlashuvchilar Markaziy va Janubiy Afrikada yashaydi. Bu tillarda 150 milliondan ortiq kishi so'zlashadi.

Bantu tilining eng ko'p tarqalganlari: niyamvezi, sukuma, kikuyyu, kamba, kongo, ngala, luba, mbundu, rundi, ruanda, ganda, kosa, zulu, duala, evondo, bulu, suto, chuana, shona tillar guruhi va boshqalardir.

XIV. Papuas tillari. Papuas tillari – Yangi Gvineya orolida va Tinch okeanining bir qancha boshqa orollarida tarqalgan tillar guruhi va yakka-yakka tillarning umumlashma nomi. Bu tillar hali yaxshi o'rganilmagan.

Papuas tillarining umumiyligi soni 750 tadan 1000 tagacha yetadi, ularda so'zlashuvchilarning umumiyligi soni 5 million kishiga yaqin. Ularning malay-polinez va Avstraliya tillari bilan qarindoshligi taxmin qilinadi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, papuas tillari 12 ta guruhga ajratiladi. Ulardan yirigi Yangi Gvineya hududini qamrab oluvchi fila (yun. *phyle* – qabila) guruhidir.

XV. Dravid tillari oilasi. Dravid tillariga quyidagi tillar kiradi:

a) *tamil tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 3,5 millionga yaqin bo'lib, ular Hindistonning janubi-sharqida va Seylon orolinining shimolida yashaydi;

b) *malayalam tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 13 milliondan ko'proq kishi bo'lib, ular Hindistonning janubi-g'arbida yashaydi;

d) *kannara tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 14,5 million kishi bo'lib, ular G'arbiy Hindistonda yashaydi;

e) *telugu tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 31 million kishi bo'lib, ular Hindistonning janubi-sharqida yashaydi;

f) *braxim tili* (260 mingga yaqin kishi so'zlashadi) va boshqa bir qancha kichik tillar dravid tillar oilasiga kiradi.

XVI. Avstraliya tillari oilasi. Bu oilaga garade, narineri, mudura, aranda, vadyug va boshqa qabilalarning tili kiradi. Bu tillar oilasi yaxshi o'rganilmagan.

XVII. Paleoafrika tillari oilasi. Bu tillarda so'zlashuvchilar ham Afrikada yashaydi. Ular ikki guruhga ya'ni bushmen va gottentog tillari guruhiga bo'linadi.

XVII. Amerika hindularining tillari. Amerika hindularining tillari 200 dan oshiq bo'lib, ular uch guruhga:

- 1) *Shimoliy Amerika*;
- 2) *Markaziy Amerika*;
- 3) *Janubiy Amerika* guruhlariga bo'linadi.

XVIII. Austr-Osiyo tillari. Bu tillarga: mon-kxmer (6 millionga yaqin kishi so'zlashadi), bunda (6 milliondan ko'p kishi so'zlashadi), malakk, markaziy va janubi-sharqiy tillar guruhini kiradi.

XIX. Hech qanday tillar guruhiga kirmagan Uzoq Sharq tillari:

1) *yapon tili*. Yaponianing (poytaxti Tokio) davlat tili bo'lib, bu til, asosan Yaponiyada, shuningdek, Osiyo, Amerika va Yevropaning bir qancha mamlakatlari (AQSh, Kanada, Braziliya, va boshqa)da, Avstraliyada tarqalgan. So'zlashuvchilarning umumiy soni 126 million kishidan ortiqroq;

2) *ryukyu tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar Ryukyu orolida yashaydi;

3) *koreys tili* – Koreya Xalq Demokratik Respublikasining (poytaxti Pxen'yan) va Koreya Respubilkasining (poytaxti Seul) rasmiy tili. Bu tilda 60 million kishi so'zlashadi. Oltoy tillariga, ba'zan tungus-manjur tillariga kiradi, deb taxmin qilinadi. Uning genetik jihatdan boshqa tillar bilan bog'liqligi aniqlanmagan;

4) *ayn tili* – Yaponianing shimolidagi Xokkaydo orolida yashaydigan xalq tili. Bu tilda so'zlashuvchilar 20 mingga yaqin;

5) *bask tili* – Basklar (Euskadi) mamlakatining (ispan tili bilan bir qatorda) rasmiy tili. Bask tilida 1,25 million kishi so'zlashadi.

XX. Burjaski tili. Bu til ham hech qaysi til guruhiga kirmaydi. Bu tilda so'zlashuvchilar 30 mingga yaqin kishi bo'lib, ular Hindistonning shimolida, Qorakorum dovonlarida yashaydi.

Tillarning grammatik shakl hosil qilish usullarida farq qilishiga ko'ra guruhlarga ajratilishi **morfologik (tipologik) tasnif**.

Morfologik tasnifga ko'ra tillar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Amorf tillar.

2. Agglyutinativ tillar.
3. Flektiv tillar.
4. Polisintetik tillar.

Affikslarga ega bo'lmagan, so'zlar orasidagi grammatik aloqalar bitishuv yo'li bilan yoki yordamchi so'zlar vositasida ifodalananadigan tillar **amorf** (yun. *amorphos* – shaklsiz, shaklga ega bo'lmagan) **tillar** hisoblanadi. Masalan, xitoy tili.

So'z yasalishi va shakl yasalishi agglyutinatiya yo'li bilan, ya'ni so'zning asosiga turli affikslarni ketma-ket qo'shish orqali hosil bo'ladigan tillar **agglyutinativ tillardir**. Masalan, *fin-ugor tillari, turkiy, jumladan, ozbek tili*.

Agglyutinativ tillarning xususiyati shuki, affikslar bevosita asosga qo'shiladi. Morfologik tasnifga ko'ra yapon, manjur, dravid, fin-ugor tillari qatori tupkiy tillar ham agglyutinativ tillar guruhiga kipadi.

Flektiv tillar. Grammatik ma'nolar fleksiya (*lat. flexio – egish, burish; o'zgarish*) yo'li bilan, ya'ni bir shakl vositasida ifodalananadigan tillar **flektiv tillar** bo'lib, ularga *hind-evropa va som-xom oilalariga* mansub tillar kiradi. Bunday tillar affikslarni asosga birikib ketishi bilan tavsiflenadi.

Polisintetik tillar. So'z gap tarkibida o'ziga xos strukturaga ega bo'lувчи tillar. Mas., *ba'zi hindu tillari*.

Bit mamlakat, davlatda turli millat vakillari tomonidan muloqot, aloqa vositasi sifatida soydaşaniladigan til **millatlararo aloqa tili** hisoblanadi.

Millatlararo aloqa vositasi sifatida tavsiya etiladigan sun'iy tillar xalqaro tillardir.

Turli xalqlarning aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladigan tillar xalqaro tilladir. Xalqaro tillar ikkiga bo'linadi:

- 4) tabiiy xalqaro tillar;
- 5) sun'iy xalqaro tillar.

Xalqaro kengashlarda, simpozium, anjumanlarda qo'llanadigan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YUNESKO tomonidan rasmiy tan olingan tillar xalqaro tillar hisoblanadi. Hozirgi kunda *ingliz, ispan, xitoy, fransuz, rus, arab tillari* Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy va ishchi tillari bo'lganligi bois xalqaro tillardir.

Nazorat uchun savollar:

1. Tillar tasnifi deganda nimani tushunasiz?
2. Tillar tasnifining qanday turlari bor?
3. Tillar hozirda qo'llanish-qo'llanmasligiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
4. «Tirik» va «o'lik» til tushunchalarini izohlang.
5. Qaysi «o'lik» tillarni bilasiz?
6. Tillarning geneologik tasnifi qanday tamoyillarga asoslanadi?
7. Qanday tillar qarindosh tillar hisoblanadi?
8. Til oilasi tushunchasini izohlang.
9. Dunyodagi tillar geneologik tasnifga ko'ra qanday til oilalariga ajratiladi?
10. Tillarning morfologik (tipologik) tasnifi deganda nimani tushunasiz?
11. Flektiv til, agglutinativ til, o'zak(ajratuvchi) til, polisintetik til terminlarini izohlang.
12. O'zbek tili tillarning tipologik (morfologik) tasnifiga ko'ra qanday tillar sirasiga kiradi?
13. Turkiy tillar oilasi haqida ma'lumot bering.
14. O'zbek tili qaysi tillar bilan qarindosh hisoblanadi?
15. O'zbek tili qaysi tillar bilan bir guruhgaga kiradi? Nima uchun?

Fonetika. Fonologiya. Nutq tovushlarining tasnisi

1. Fonetika haqida umumiyl tushuncha.
2. Fonetikaning turlari, soha va bo'limlari.
3. Eksperimental fonetika.
4. Nutq apparati va talaffuz a'zolari.
5. Akustik fonetika haqida. Tovushning akustik belgisi.
6. Tovush va sonema.
7. Tasnif tushunchasi.
8. Unli tovushlar tasnifi.
9. Undosh tovushlar tasnifi.
10. Fonologik nazariyalar

Tayanch so'z va iboralar: *fonetika, tilning fonetik birlikkari, nutq apparati, tovush, talaffuz a'zolari, eksperimental fonetika, akustik fonetika, nutq tovushlarini artikulyatsion tomoni, nutq tovushlarining fonologik tomoni, tafsif, unli tovush, undosh tovush, portlovochi undoshlar, sirg'ahuvchi undoshlar, affrikatalar, sonorlar, jarangli undoshlar, jarangsiz undoshlar, fonologiya, fonologik tushunchalar, fonema, fonema variantlari, fonologik nazariyalar.*

Fonetika (yun. *phonetike* – tovushga oid) nutq tovushlari va tovush vositalari haqidagi tilshunoslik sohasidir. Fonetika quyidagi masalalarni o'rganadi:

- nutq tovushlarining akustik va artikulyatsion xususiyatlarini;
- bo'g'in, uning tur va tiplarini;
- urg'u va uning turlarini;
- fonetik hodisalarni;
- ohang va uning vazifalarini.

Yuqoridaqgi masalalarni o'rganvchi fonetika sohalari **artikulyatsion fonetika, akustik fonetika va fonologiya** nomlari bilan ham ataladi. Ular nutq tovushlari, bo'g'in, urg'u va intonatsiyani alohida tafsif qilish metodlariga ega bo'lib, bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbek tili fonetikasi Sh.Shoabdurahmonov, A.Mahmudov, M.Mirtojiyev,¹ fonologiyasi A.Abduaazizov, A.Nurmonovlar² tomonidan o'rganilgan.

O'zining o'rganish sohasi va maqsadiga ko'ra fonetika ikki turli bo'ladi:

1) **umumiy fonetika** jahondagi barcha tillarga xos talaffuz xususiyatlarini o'rganadi;

2) **tasviriy fonetika** biron tilga xos talaffuz alomatlarini o'rganadi. Masalan, *rus tili fonetikasi, o'zbek tili fonetikasi* kabi.

Qo'yilgan maqsadga ko'ra fonetika ikki turli bo'ladi:

¹ Shoabdurahmonov Sh. Fonetika. O'zbek tili fonetikasini doir ayrim masalalar. – Toshkent, 1953; Mahmudov A. O'zbek tilida so'z urg'usi. – Toshkent, 1960.; O'zbek tili unflari. – Toshkent, 1968.; O'zbek tili sonorlari. – Toshkent, 1980.; Mirtojiev M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Fonetika. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.; O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Universitet, 1996.

² Abdulaazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.; Nurmonov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Andijon, 1992.

1) nazariy sonetika biror tilning talaffuz alomatlarini nazariy jihatdan tasnif etadi;

2) amaliy yoki me'yoriy sonetika esa biror tilning talaffuziga o'rgatish maqsadida tuziladi. Masalan, *ingliz tilining amaliy sonetikasi* rus yoki o'zbek tilini o'rganuvchilar uchun sodda shaklda mashqlar vositasida izohlab berilgani kabi.

Alohiba apparatlar yordamida nutq tovushlari, bo'g'in, urg'u va intonatsiyadagi artikulyatsion-akustik xususiyatlarni o'rganuvchi soha **eksperimental fonetika** deb yuritiladi. Yuqorida ko'rsatilgan sonetika turlarining barchasi kuzatishlar yordamida til talaffuzidagi xususiyatlarni ancha aniq tekshiradigan eksperimental fonetika natijalariga asoslanadi.

Fonetikaning nutq tovushlarining hosil bo'lishi va ularning xususiyatlarini o'rganuvchi yo'nalishi **segmental sonetika** deyiladi.

Fonetikaning nutq tovushlaridan katta bo'lgan birliklarni, ya'ni bo'g'in, takt va frazalarni o'rganuvchi yo'nalishi esa **supersegmental sonetika** yoki **prosodika** deb ataladi.

Fonologiya alohiba fan sifatida ham qaraladi. Bunday qarash fononologiyani ham ikkiga bo'lishni talab qiladi:

1) tovushlarning tildagi funksional tomonlarini o'rganuvchi bo'limi – **segmental fonologiya** yoki **fonemika, fonematika** deb yuritiladi.

2) bo'g'in, urg'u va intonatsiyaning funksional alomatlarini o'rganuvchi sohasi **supersegmental fonologiya** yoki **prosodika** deb ataladi.

Fonetika morfologiya va sintaksis, leksikologiya va uslubiyat bilan uzviy bog'liq, chunki tildagi barcha birlıklar (so'z, so'z shakli, so'z birikmalari va frazalar) tovushlar vositasida naimoyon bo'ladi.

Fonetika artikulyatsion-akustik xususiyatlarni, ularning hosil bo'lishida nutq organlarining xizmati va fizik tebranishlarni o'rghanishda biologiya, fiziologiya, fizika va akustika fanlari bilan ham bog'lanadi.

Tildagi fonetik xususiyatlarning tarixiy aspektida o'rganuvchi soha **tarixiy** (yoki **diasvronik**) **sonetika** deb ataladi. Bunda tildagi tovushlar sistemasining taraqqiyoti qadimiy obidalar va qo'lyozmalar hamda tarixiy dalillar asosida tadqiq etiladi.

Hozirgi davr tilshunosligida jahon tillarining o'xshash va farqli alomatlarini o'rganish **tillar tipologiyasi** deb atalib. bu sohaning fonetikaga doir bo'limi **qiyosiy-tipologik fonetika** yoki **qiyosiy-tipologik fonologiya** deb ataladi. Masalan, *rus*, *o'zbek* va *ingliz* tillarining qiyosiy-tipologik *fonetikasi* yoki *fonologiyasi* kabi.

Nutq tovushlari talaffuz a'zolarining ma'lum xizmati natijasida hosil bo'ladi. Tovushlarning hosil bo'lishida ishtirop etuvchi nutq a'zolari harakatining yig'indisi **artikulyatsiya** deb ataladi. Jahondagi barcha kishilarning nutq a'zolari bir xil tozilgan bo'lsa ham, har bir tildagi tovushlarning talaffuzida ularning harakati o'sha tilga xos va odatiy bo'lishi mumkin. Biror tilning talaffuzida odat bo'lib qolgan nutq a'zolari odatiy harakatlarining yig'indisi o'sha tilning **artikulyatsion bazasi** hisoblanadi. Har xil tillar bir-biridan artikulyatsion bazalaridagi ba'zi xususiyatlар bilan farq qilishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi til oldi undoshlari apikal (lot. *arex* – til uchi) artikulyatsiyaga ega bo'lsa, *o'zbek* va *rus* tillaridagi bunday undoshlarning talaffuzida til uchi tishlaiga tegib, uning o'rta qismi ishtirop etadi, ya'ni dorsal artikulyatsiya qilinadi. Unli tovushlarning talaffuziga ko'ra ingliz va fransuz tillari bir-biridan katta farq qiladi. Ingliz tilidagi lablangan unlilarning talaffuzida lablar juda kuchsiz harakat qiladi. Fransuz tilidagi lablangan unlilar esa, lablarning kuchli harakati bilan ajralib turadi.

Nutq tovushlarning uch tomoni mavjud:

1) fiziologik (talaffuz) tomoni – nutq tovushlarini insonning nutq a'zolari harakati natijasida hosil bo'lishi;

2) akustik tomoni – nutq tovushlarini havoning tebranishi natijasida hosil bo'lishi, shunga ko'ra tovushlarning balandlik, kuch (tezlik), miqdor, tembr kabi belgilarga ega bo'lishi;

3) lingvistik (vazifaviy, ma'no farqlash) tomoni – nutq tovushlarini so'z ma'nolarini farqlashga xizmat qilishi.

Nutq tovushlarning asosiy xususiyati *ma'no farqlashdir*, shu jihat bilan ular boshqa tovushlardan farqlanadi.

Nutq tovushlari nutq apparatining faoliyati natijasida hosil bo'ladi. Nutq tovushlarini hosil qiluvchi inson a'zolari – **nutq a'zolari**, ularning majmui **nutq apparati** deyiladi.

Nutq tovushlari hosil bo'lishida ishtirok etuvchi quyidagi a'zolar nutq a'zolaridir: *o'pka*, *tovush paychalari*, *og'iz bo'shlig'i*, *burun bo'shlig'i*, *til*, *kichik til*, *tanglay*, *lab*, *tish*, *bo'g'iz*.

Nutq a'zolari nutq tovushlari hosil bo'lishida ishtirok etish darajasiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. **Faol nutq a'zolari:** *til*, *lablar* va *tovush paychalari*.

2. **Nofaol nutq a'zolari:** *o'pka*, *og'iz bo'shlig'i*, *kichik til*, *yumshoq* va *qattiq tanglay*, *yuqori* va *pastki tishlar*, *burun bo'shlig'i*, *bo'g'iz*.

Insonning nutq apparati to'rt bo'shliqni o'z ichiga oladi:

- 1) *bo'g'iz bo'shlig'i*;
- 2) *burun bo'shlig'i*;
- 3) *og'iz bo'shlig'i*;
- 4) *bo'yin bo'shlig'i*.

O'pkadan chiqqan havo bo'yin bo'shlig'iga keladi. Bo'yining chetlarida tovush paychalari joylashgan bo'lib, ular bir-biriga to'la yoki deyarli to'la jipslashib tegib turishi mumkin. Bu holatda bo'g'iz undoshi hosil bo'ladi, biroq tovush paychalari bir-biriga yaqinlashib taranglashisbi va titrashi yoki yaxshi titramasligi mumkin. Tovush paychalarining titrashi davomiy tebranishlarni va bu esa, o'z navbatida, asosiy tonni hosil qiladi. Tovushlarning hosil bo'lishida tovush paychalari ko'pincha ishlab turadi. Faqatgina jarangsiz undoshlarning talaffuzida tovush paychalari tebranmaydi.

Bo'yin bo'shlig'idan keyin havo bo'g'iz bo'shlig'iga o'tadi. Havo oqimining bo'g'izdan keyingi yo'nalishi yumshoq tanglayning holatiga bog'liq. Agar yumshoq tanglay tepaga ko'tarilsa, u havoni burun bo'shlig'idan o'tishini to'sadi va havo oqimi to'g'ri og'iz bo'shlig'idan o'tadi. Bunday holatda og'iz undoshi (*h*) hosil bo'ladi. Agar yumshoq tanglay pastga tushsa, havo oqimi bir yo'la burun va og'iz bo'shliqlaridan o'tadi. Bu holatda esa, burun undoshlari (*m*, *n*, *ng*) hosil bo'ladi.

Tovushlarning hosil bo'lishidagi farqlarni bilishda, ayniqsa, og'iz bo'shlig'i va undagi zaruriy tallafuz a'zolari: *til*, *kichik til*, *qattiq* va *yumshoq tanglay lablarning* harakati hamda holati katta ahamiyatga egadir. Og'iz bo'shlig'inинг katta yoki kichikligi harakat qiluvchi (faol) nutq a'zolari va talaffuzda bevosita harakat qilmovchi (nofaol) nutq a'zolariga bog'liqdir. Barcha talaffuz

a'zolari ichida eng faol harakat qiluvchisi **tildir**. Uning har xil yon (gorizontal) va tik (vertikal) harakati natijasida turli shovqin hosil bo'ladi va bu tovushlarning, ayniqsa, unli tovushlarning talaffuzi va eshitilishida turli tonni vujudga keltiradi. Pastki va yuqori lablar ham talaffuzda ishtirok etishi va etmasligi bilan alohida ahamiyatga egadir. Shu tufayli ba'zan ikki lab orasidagi bo'shliqning shakli ham unlilar talaffuzida hisobga olinadi. Barcha nutq nutq a'zolari va ularning ayrim qismlari o'tasida ma'lum munosabat mavjud bo'lib, odam talaffuzida bir yo'la bir qancha a'zolarning harakati vujudga keladi.

Anatomik jihatdan odam va maymunning talaffuz apparati uncha katta farq qilmaydi, biroq ular o'tasidagi asosiy farq, fiziologik tomondan, odam nutq a'zolarining aniq va farqli harakati bosh miya orqali bajarilishi bilan izohlanadi.

Ton va shovqin tovushlarni farqlash uchun zarur bo'lgan akustik xususiyatlardir. Masalan, unda tovushlar tonga, jarangsiz undoshlar esa shovqinga egadir. Jarangli undoshlar bir yo'la ton va shovqinga ega bo'lib, keyingisini bosib ketadi. Sonor tovushlar (*l, r, m, n, ng*)da shovqin va ton birlikda bo'lib, ton shovqindan ustun keladi.

Tovushning cho'ziqligi yoki qisqaligi uning miqdor belgisi deb yuritiladi. Bu tebranish harakatining vaqt bilan aniqlanadi va u millisekund bilan o'lehanadi. Tovushning kuchi, baland yoki pastligi va hokazolar uning sifat **belgisi** deb yuritiladi. Tebranish amplitudasi bilan aniqlanuvchi tovush kuchi dinamik **urg'uga** ega bo'lgan tillar uchun xarakterlidir. Bunda urg'uli bo'g'in urg'usiz bo'g'inga qaraganda katta kuch bilan talaffuz etiladi.

Tovushning tembri tebranish davomida maxsus tonni hosil qilish bilan belgilanadi. U ba'zan nutqda his-hayajonni ifodalovchi akustik belgi sifatida ham qaraladi. Tovushni hosil qiluvchi bo'shliqlar (*og'iz, burun, bo'g'iz va h.k.*) ma'lum **akustik rezonatorlar** deb yuritiladi, chunki ular o'z shakli va o'lechovi bilan nutq tovushini hosil qiluvchi akustik kanallar vazifasini o'taydi.

Tebranish sodda va murakkab bo'lishi mumkin. Akustikada murakkab tovush tebranishining chastotasi bilan boshqa akustik vositalarni kelishtirib turuvchi mexanizm **filtr** deb ataladi.

Odamning og'iz va burun bo'shlilari unlilarni hosil qiluvchi akustik filtrni tashkil etadi.

Tovushning tembrini ifodalovchi va uni boshqa tovushlarni tembridan farqini ko'rsatuvchi chastotalar **formantlar** deyiladi. Formantlar nutq tovushlarining akustik xususiyatlarini bilish manbai hisoblanadi. Tovush formantlari maxsus eksperimental apparat-spektrograf yordamida aniqlanadi. Har xil unlilarning formantlari (odatda, ular uchta formantga ega bo'lib, F1, F2, F3 deb ko'rsatiladi), vertikal shkala bo'yicha turli holatda bo'ladi.

Tovushlarning akustik belgilari ularning artikulyatsion xususiyatlari bilan uzviy bog'liqidir. Nutq a'zolarining turlicha harakati nutq tovushlarining akustik belgilarini, ularning sifat va miqdor belgilarini o'zgartirib yuboradi.

Ma'lumki, jism tebranganda havoni to'lqinlantiradi va tovush hosil bo'ladi va buni biz eshitamiz. Akustika ana shu narsa bilan bog'liqidir. Akustik jihatdan tovushning balandligi, kuchi, tembri, qisqa yoki cho'ziqligi farqlanadi. Tovushning balandligi tebranishning miqdoriga bog'liq bo'ladi. Tebranish qancha ko'p (salmoqli) bo'lsa, tovush shuncha baland bo'ladi.

Nutq, tovushining kuchi tebranishning shiddatiga bog'liq bo'ladi. Tebranish darajasi qanchalik katta bo'lsa, shiddatli bo'lsa, tovush ham shunchalik kuchli bo'ladi. Tovushning kuchi havoning nutq organlarimizga qanday zarb bilan urilishiga qarab har xil bo'ladi.

Nutq tovushining tembri(ya'ni sifati) asosiy ton bilan qo'shinchcha tonlarning (oberton va rezonator tonlarning) va shovqinning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Tovushning tembri rezonator vazifasini bajaruvchi og'iz bo'shlig'i va burun bo'shlig'inинг shakli hamda hajmiga, tovush paychalarida hosil bo'ladigan asosiy tondan tashqari, obertonlarga, shuningdek, og'iz bo'shlig'i va bo'g'izda hosil bo'ladigan shovqinlar hamda ovozga ham bog'liq.

Tovushning cho'ziqlik darajasi tebranish davom etgan vaqt bilan o'lchanadi.

Nurq tovushlari artikulyatsion-akustik xususiyatlariga ko'ra har xil tiplarga bo'linadi. Birinchi navbatda tovushlar unli va undoshlarga bo'linadi. Artikulyatsion, akustik va eshitib his etilishi

hamda tildagi funksional xizmati jihatdan unli va undosh tovushlar o'rtasida katta farq bor.

Artikulyatsion jihatdan unli tovushlar o'pkadan chiqib kelayotgan havoning hech qanday to'siqqa uchramasdan o'tishi, aksincha, undoshlar talaffuzida havo oqimining biror to'siqqa duch kelishi bilan izohlanadi. Akustik xususiyatlarga ko'ra unlilar talaffuzida havo oqimi kuchsiz tebranishga, aksincha, undoshlar unlilarga qaraganda kuchli tebranish va shovqin yordamida hosil bo'ladi. Eshitib his etilishi jihatdan ham undoshlar kuchli shovqini bilan unlilardan farq qiladi. Unlilar musiqa ohangiga jo'r bo'la oluvchi mayin ohangga egadir. Ko'pincha jahon tillarida undosh tovushlar unlilardan ko'proq uchraydi va shu tufayli ularning funksional xizmati ham ko'prokdir. Odadta obyektiv borliqdagi mavjud narsa va hodisalarни har xil guruh va tiplarga tasnif qilinganidek, nutq tovushlari ham artikulyatsion-akustik xususiyatlarga ko'ra bir necha kategoriyalarga bo'linadi.

Jahon tilshunosligida unlilar majmuini **vekalizm (V)**, undoshlarni esa **konsonantizm (C)** deb atash qabul qilingan.

Sof ovozdan hosil bo'lgan tovushlar **unli tovushlar**, ovoz va shovqinning birikuvidan hosil bo'lgan tovushlar **undosh tovushlar** hisoblanadi.

Unli va undosh tovushlar o'zaro quyidagi xususiyatlariga ko'ra farqlanadi:

| Nº | Farqlovchi jihatlar | Unli tovushlar | Undosh tovushlar |
|-----------|------------------------------------|---|---|
| 1 | Tarkibiga ko'ra | Sof ovozdan hosil bo'ladi. | Ovoz va shovqinning birikuvidan hosil bo'ladi. |
| 2 | Hosil bo'lish usuliga ko'ra | Unli tovushlarni hosil bo'lishida o'pkadan kelayotgan havo hech qanday to'siqqa uchramaydi. | Undosh tovushlarni hosil bo'lishida o'pkadan kelayotgan havo malum to'siqqa uchraydi. |
| 3 | Vazifasiga ko'ra | Bo'g'in hosil qiluvchi asosiy vosita. | Yakka holda bo'g'in bosil qila olmaydi. |

Yugorida ko'rsatilgan belgilari asosida nutq tovushlari unli va undoshlarga va o'z navbatida, bular ham ayrim guruhlarga bo'linadi. Quyida unli va undosh tovushlarning tasnifini ko'rib o'tamiz.

Unli tovushlaring hosil bo'lishida havo oqimi to'siqqa uchramaydi va tovush paychalari titraydi. Har bir unli tovush o'zining ovoz toni bilan farq qiladi. Unlilarning talaffuzida tilning harakati, labning holati, og'izning ochilishi va hokazolar xarakterlidir. Nutq a'zolarining holatiga ko'ra unlilarning sifati (tembri) va miqdor belgilari (cho'ziqlik va qisqaligi) o'zgaradi. Shu sababli unlilarni artikulyatsion va akustik xususiyatlari, sifat va miqdor belgilariga ko'ra tasnif qilinadi. Unlilarning artikulyatsiyasi tasnifi chet tilning talaffuziga o'rnatishda amaliy ahamiyatga egadir. Bunday tasnif tilning harakati, lab va yumshoq tanglayning holatiga asoslanadi. Yumshoq tanglayning pastga tushishi natijasida havo burun bo'shlig'i orqali o'tadi va bu holatda burun unlilari yoki nazalizatsiyalashgan (lot. *nasalis* - burun bo'shlig'i) unlilar hosil bo'ladi.

Til eng faol nutq a'zosi bo'lib, og'iz bo'shlig'in shakli va katta-kichikligi, tilning holatiga bog'liq. Til gorizonttal va vertikal harakat qiladi va tilning holatiga, lablarning ishtirokiga ko'ra tasnif qilinadi.

Unli tovushlarning quyidagicha tasnifi:

| Tilning vertikal holatiga ko'ra Lablarning ishtirokiga ko'ra | Tilning gorizontal holatiga ko'ra | |
|--|--------------------------------------|----------|
| | Til oldi | Til orqa |
| Yuqori (yopiq) | i | u |
| O'rta (varim yopiq yoki ochiq) | e | o' |
| Quvi (ochiq) | a | o |

Nutq organlarining bir-biriga tegishi natijasida o'pkadan chiquvchi havo oqimi to'siqqa uchrashi, undoshlarning hosil bo'lishida xarakterlidir. Undosh tovushlarning sifati nutq organlarining harakati, og'iz va burun bo'shliqlarining shakli va tovush paychalarining holatiga bog'liq.

O'zbek tilida undosh tovushlar 24 ta: *b, v, g, d, j, dj, y, z, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x, ch, sh, ng, g'*, *h, q*.

Undosh tovushlar quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Hosil bo'lish o'rniiga ko'ra:

a) lab undoshlari:

- lab-lab undoshlari: *b, p, m;*
- lab-tish undoshlari: *f, v.*

b) til undoshlari:

- til oldi undoshlari: *d, t, z, s, sh, j, dj, ch, n, l, r;*
- til o'rta undoshi: *y;*
- til orqa undoshlari: *g, k, ng;*
- chuqur til orqa undoshlari: *q, g', x.*

d) bo'g'iz undoshi: *h.*

2. Hosil bo'lish usuliga ko'ra:

a) portlovchilar: *b, p, d, t, g, k, j, q, m, n, ng;*

b) sirg'aluvchilar: *v, f, z, s, y, p, l, sh, g', x, h;*

d) qorishiq: *dj, ch.*

Undosh tovushlar tovush psychalarining, ya'ni ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi:

1) jarangli undoshlar – tarkibi shovqin va ovozdan iborat bo'lgan undoshlar;

2) jarangsiz undoshlar – tarkibi shovqinning o'zidan iborat bo'lgan undoshlar.

Jarangli va jarangsiz undoshlar o'zaro juftlik hosil qiladi, ammo sonorlarning jarangsiz jufti yo'q:

| | | | | | | | | | | | | | | |
|--------------------------------|----------|----------|----------|----------|----------|-----------|-----------|----------|-----------|----------|----------|----------|----------|----------|
| Jarangli undoshlar | <i>b</i> | <i>v</i> | <i>d</i> | <i>g</i> | <i>z</i> | <i>j</i> | <i>dj</i> | <i>y</i> | <i>g'</i> | <i>l</i> | <i>m</i> | <i>n</i> | <i>n</i> | <i>r</i> |
| Jarangsiz undoshlar | <i>p</i> | <i>f</i> | <i>t</i> | <i>k</i> | <i>s</i> | <i>ch</i> | <i>s</i> | <i>q</i> | <i>x</i> | | | | | |

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra undosh tovushlar sonorlar va shovqinli tovushlarga bo'linadi.

Asosan ovozdan, qisman shovqindan hosil bo'lgan undosh tovushlar sonorlar deyiladi. Ular quyidagilar: *m, n, ng, l, r.* Bularдан *l* – yon tovush, *r* – titroq tovush, *n, ng, m* – burun tovushlari.

Shovqinli undosh tovushlarda ovozga nisbatan shovqin ko'proq bo'ladi: *k*, *p*, *t*, *sh* kabi.

Avvalgi ma'ruzalarda nutq tovushlari va ularning vositalari turli aspektida o'r ganilishini aytib, ularning to'rtinchisini fonologik (sotsial va funksional) aspekt deb atagan edik. Nutq tovushlari, bo'g'in, urg'u va intonatsiya jamiyat tilining tushunarli va aniq bo'lishi uchun muhim xizmat qiladi. Ular tiidagi so'z, so'z shakllari, so'z birikmalari, fraza va gaplarni farqlash vazifasini bajaradi. Shu tufayli bu aspektni sotsial yoki funksional deb atab, til bosqichi sifatida «fonologiya» termini (grek. *phone* – tovush, *logos* – ta'limot) ishlataladi. Nutq tovushlari ayrim holda (a,o,u) hech qanday ma'noga ega emas. Nutq tovushlari ma'lum tartibda birikib so'z va boshqa yirik til birliklarini hosil qiladi va ularning ma'nolari bilan bog'lanadi.

So'z, so'z shakllari va morfemalami tashkil etuvchi va ularning ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiluvchi eng kichik boshqa bo'laklarga bo'linnovchi til birligi **fonema** (grek. *phone* – tovush ovoz) deyiladi. Masalan, *til* – *tol*, *ket* – *kul* so'zlari unli fonemalar yordamida farqlanadi; *tog'* – *dog'*, *bor* – *zor*, *bod* – *bot*, *yo'q* – *cho'q* kabi so'zlar tarkibidagi undosh fonemalar yordamida farqlanadi.

Fonemaga tegishli barcha artikulyatsion-akustik belgilar uning **sonetik tasnisi** deyiladi. Masalan, *p* fonemasining fonetik tavsifi uning lab-lab, portlovchi, jarangsizlik belgilarini o'z ichiga oladi. Fonologik jihatdan fonemalar bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi (*p* – *t*, *s* – *sh*, *x* – *k*, *a* – *o*, *u* – *i* kabi). Bunday fonemalarning qarama-qarshi qo'yilishi **fonologik oppozitsiya** deyiladi. Fonologik oppozitsiya yordamida fonemalarni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiluvchi artikulyatsion-akustik belgilar **fonologik** yoki **farqlanish alomatlari** deyiladi. Masalan, *p* – *t* oppozitsiyasida lab-til oldi artikulyatsiyasi fonologik jihatdan ahamiyatlidir. *P* – *t* oppozitsiyasidagi ularning har ikki a'zosi ham portlovchi va jarangsiz ekanligi **fonologik bo'linagan** yoki **farqlanovchi alomatlar** deb yuritiladi. Har bir fonema fonologik oppozitsiyaning a'zosi hisoblanadi. Tildagi barcha fonemalar o'zaro oppozitsiyalarni tashkil etadi va bu fonemalarning bog'lanishi hamda aloqalari yig'indisi **fonologik tizim** yoki **fonematik tizim** deb yuritiladi.

Fonemalarning o'zaro bog'lanish xarakteri, ya'ni ularning qanday ichki aloqada ekanligi fonologik yoki fonematik tuzilish deb ataladi. Har bir fonema fonologik birlik yoki element deviladi. Har bir til o'zining fonologik tizimiga ega bo'lib, undagi har bir fonemaning o'z o'mi va vazifasi bor. Bir tildagi fonema ikkinchi tilda bo'lishi mumkin emas. Ikki tildagi fonemalar o'z artikulyatsion-akustik xususiyatlari bilan o'xshash bo'lishi taqat tasbqi jihatdan to'g'ri kelish hisoblanadi. Ularning ichki bog'lanishlarini, ya'ni fonologik oppozitsiyalar tizimini o'rGANISH orqali juda ko'p farqlarni aniqlash mumkin bo'ladi. Ulardagi ba'zi o'xshashliklar nutq organlarining barcha odamlarda bir xil tuzilganligi bilan izohlanadi.

Tildagi bir qancha tovushlar(ularning sonini aniqlab bo'lmaydi) soni va artikulyatsion-akustik xususiyatlari aniq bo'lgan fonemalarga birlashadi. Bir fonema bir qancha tovushlarda namoyon bo'ladi. Ko'pincha bir fonemani ifodalovchi tovushlar artikulyatsion va akustik jihatdan yaqin bo'ladi. Biroq bir fonema bir necha har xil artikulyatsion va akustik xususiyatlarga ega bo'lgan tovushlarda ifodalanishi ham mumkin. Masalan, rus tilida (g) va (g') tovushlari. Bitta (g) fonemasining vakilidir: *gorod* (*gorot*), (*g'oret*) kabi.

Tildagi so'z va so'z shakllarini tashkil etuvchi fonemalarni go'yo g'ishtlarni yonma-yon qo'ygandek ko'rinishga ega sifatida tasvir qilish mumkin emas. Chunki fonemalar bir-biriga birikish jarayonida har xil o'zgarishlarga uchraydi. Fonemalar tilning eng kichik bo'linmas segment birliklaridir. Masalan, *paxta* so'zi p-a-x-t-a 5 ta fonemaga bo'linadi, biroq undagi har bir fonema boshqa kichik bo'laklarga bo'lmaydi. Har bir fonema o'zining fonologik (farqlanuvchi) va fonologik bo'lmannan (farqlanmovchi) alomatlariga ega. Har xil fonemalarni qarama-qarshi qo'yilganda bu belgilarni aniqlash mumkin. Masalan, *b* – *p* fonemalari jarangli jarangsiz belgilari bilan farqlanadi. Ularning qo'igan belgilari, *lab* va portlovchi xususiyatlari har ikkisiga ham xos, ya'ni fonologik emas. *B* - *d* oppozitsiyada artikulyatsiya o'mi, ya'ni lab va til oldi (dorsal) belgilari fonologik alomatlardir. Ularning har ikkisi jarangli portlovchi ekanligi fonologik alomat emas. Boshqa *b* – *k* oppozitsiyasida bir yo'la artikulyatsiya o'mi, ya'ni lab (*b*) va til orqa (*k*) jarangli va jarangsiz fonologik alomat hisoblanadi. Artikulyatsiya usuliga ko'ra (*b-k*) dagi portlovchi belgisi fonologik

emas. Ko'rinadiki, har bir fonologik oppozitsiya foneima o'zining ma'lum farqlovchi va farqlamovchi belgilari bilan ishtirok etadi. Har xil tillarning fonologik tizimlarini qiyoslaganda, bunday belgilarni aniqlasni ayniqsa zarurdir. Xususan, rus tilidagi yumshoq va qattiq undosh fonemalar o'zbek tilidagi bir fonemaga to'g'ri keladi. Chunki o'zbek tilida yumshoq va qattiq fonologik belgilar yo'q.

Tildagi fonologik oppozitsiyalar ikki a'zodan iborat bo'lsa, **binar oppozitsiya** (lot. *binarius* – ikki qismli + *oppositio* – qarama-qarshi qo'yish) deyiladi: *b* – *p*; *t* – *d*; *i* – *u* kabi.

Fonologik oppozitsiyalar uch a'zodan iborat bo'lsa, **ternar** (lot. *terni* – uch qismli) oppozitsiya deyiladi: *p* – *t* – *k*; *i* – *e* – *a* kabi. Uchtadan ortiq a'zoga ega bo'lgan fonologik oppozitsiyalar **ko'p a'zoli oppozitsiyalar** deyiladi: *b* – *d* – *g* – *x* kabi. Tildagi fonologik oppozitsiyalarni binar, ya'ni ikkitadan a'zoga ega bo'lgan shaklda tasnif etish ancha qulaydir. Shu tufayli ko'p a'zoli oppozitsiyalarni binar yoki dixotomik (lot. *dixotomiya* – teng ikkiga bo'lish) holatga keltiriladi: masalan, *b* – *d* – *x* – *g* oppozitsiyasini *b* – *d*; *b* – *g*; *b* – *x*; *d* – *g*; *d* – *x*; *g* – *x* binar oppozitsiyalarga bo'lish mungkin. Bunda fonemalarni farqlanuvchi va farqlanmovchi belgilarni aniqlash ham osonlik tug'diradi. Ba'zi fonologik oppozitsiyalarda bir qancha fonemalar juft holda binar qilib beriladi. Masalan, o'zbek tilidagi jarangli va jarangsiz belgilarga ega bo'lgan undoshlar (*p* – *b*), (*t* – *d*), (*f* – *v*), (*s* – *z*), (*sh* – *j*), (*ch* – *dj*) ana shunday binar oppozitsiyalardir. Keltirilgan juft oppozitsiyalar yig'indisi **korrelyatsiya** deyiladi. Ularni qarama-qarshi qo'yishda asos bo'lgan jarangli va jarangsizlik belgilari **korrelyatsion belgi** deb ataladi.

Fonologik oppozitsiyalar doimiy va neytralizatsiyalashuvchi bo'ladi. Ba'zi tillarda jarangli undoshlar so'z oxirida jarangsizlashadi. Masalan, rus tilida *lug* (*luk*), *grad* (*grat*) kabi. O'zbek tilida *kitob* (*kitop*), *qand* (*qant*) kabi. Bunday xususiyat **fonologik neytralizatsiya** deyiladi. Bu holatda *b* – *p*, *t* – *d* undoshlari bir xil artikulyatsion-akustik xususiyatga ega bo'lib, ularning fonologik belgilari o'xshash bo'lib qoladi.

Bunday fonologik birlik **arkifonema** deyiladi. Arxivonema ikki fonemaga tegishli bo'lgan fonologik belgilarning yig'indisidan iborat. Biz yuqorida fonologik oppozitsiya a'zolarining soniga ko'ra binar, trenar va ko'p a'zoli oppozitsiyalar turlarini ko'rib o'tdik.

Fonologik oppozitsiya a'zolarining farqlanish belgilari o'tasidagi munosabatga asoslangan boshqa turli tasniflar ham mavjud.

Tildagi fonemalar bir qancha tovushlarda namoyon bo'ladi. Fonemalar bo'g'inlar, so'zlar, so'z birikmalari va frazalarning tarkibida joylashgan. Ular har xil o'tinlarda yoki holatlarda uchraydi. Odadta bu holatlар pozitsiya deyiladi. Fonemalarning har xil aytilish shartlari bo'yicha taqsimlanishi ularning distributsiyasi deyiladi. Fonemalar ochiq yoki yopiq bo'g'inlarda, so'z boshi, o'tasi va oxirida, urg'uli yoki urg'usiz holatda uchraydi. Bu pozitsiyalarda fonemalar har xil o'zgarishlarga duch keladi. Foneinalarning pozitsiyalari ikki turli bo'ladi. Fonemalar deyarli ko'p o'zgarishlarga uchramaydigan holatni kuchli pozitsiya; foneinalar ko'p o'zgarishlarga uchraydigan holat – kuchsiz pozitsiya deb ataladi. Kuchli pozitsiyada fonemaning asosiy vakili namoyon bo'ladi. Kuchsiz pozitsiyada esa, fonemaning ottenkasi yoki variatsiyalari uchraydi. Masalan, o'zbek tilida (*i*) fonemasi uchragan pozitsiyasiga ko'ra har xil talaffuz etilishi mumkin: *birinchi* (*berinché*) so'zida (*e*) (*i*) fonemasining varianti yoki allafoni hisoblanadi. Biroq shu (*i*) fonemasi doirasida unga artikulyatsion-akustik xususiyatlari bilan o'xshash bo'lган va so'zlarning ma'nolarini farqlashga xizmat qila olinaydigan aytilishlar fonemaning variatsiyalari deb yuritiladi.

Odatda foneinalarning pozitsion o'zgarishlarga uchragan vakili pozitsion varianti, nutqda kombinator o'zgarishlarga uchragan fonemaning vakili – kombinator varianti deb yuritiladi. Foneemaning sifat o'zgarishlariga uchragan vakili uning varianti yoki allofoni (yun. *allo* – boshqa + *phone* – tovush), miqdor o'zgarishiga uchragan (cho'ziq-qisqaligi o'zgargan) fonemaning vakili – allochron deb yuritiladi.

Fonemalar har xil o'tinlarda, xususan, so'z boshi, o'tasi va oxirida bir-birlari bilan birikib kelishi mumkin. Foneinalarning birikmalarini (ts, dz, kt, vz, kg, gg kabi) o'r ganuvchi fonologiya qismi fonoteknika deyiladi. Har bir tilda fonemalar birikmalari o'ziga xos tarzib va xususiyatlarga egadir.

Nutq jarayonida real talaffuz qilinuvchi, eshtilish xususiyatiga ega, boshqa mayda bo'laklarga bo'linmaydigan og'zaki nutqning eng kichik birligi tovush hisoblanadi.

Bevosita kuzatishda bir nechta tovushlar orqali talaffuz qilinuvchi so'z va uning ma'noli birliklarini shakkantirish hamda farqlash vazifasini bajaruvchi, boshqa mayda bo'laklarga bo'linmaydigan eng kichik tilning fonetik-fonologik birligi **fonemadir**. Demak, foneima – til birligi, tovush – nutq birligi.

Tilshunoslik tarixida tovush tizimini o'rghanish ikki davrga bo'linadi:

1) **«fonema» tushunchasi paydo bo'lguncha bo'lgan davr.** Bu davrda fonema va tovush hamda harflar o'rtaсидаги farq aniq ko'rsatilmay, tovushlar talafuzining so'zlardagi ma'lum holatlarda etimologik o'zgarishlarga ko'proq e'tibor berilgan;

2) **fonologiya nazarivalarining yuzaga kelish davri.** Bu davr XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, XX asrda ham davom etdi. Bu davrda tovush va harf hamda foneima tushunchalari o'rtaсидаги farqlar oydinlashdi va keyincha bo'g'in, urg'u hamda intonatsiyaning tildagi funksional tomonlari o'rganila boshlandi. «Fonema» tushunchasi va terminini birinchi taklif etganlar qatorida fonologiyaning asoschisi mashhur rus va polyak olimi I. A. Boduen de Kurtene (1845-1929), uning talantli shogirdi N. V. Kurshevskiy (1851-1887), fransuz olimi P. Passi, ingliz tilshunosi G. Suit, shveysariyalik taniqli tilshunos Ferdinand de Sossyur, rus olimi P.K. Us kabilarning nomlari bor. Shu kungacha foneima tushunchasiga bir qancha ta'riflar berildi, biroq termin o'zining chuqur negiziga ega bo'lgani tusayli saqlanib kelmoqda.

Hozirgacha tilshunoslikda quyidagi fonologiya nazarialari yaratildi:

1) I. A. Boduen de Kurtenening psixologik fonologiya nazarialiysi. Bu nazariyaga ko'ra «fonema» tildagi tovushlarning psixik ekvivalenti yoki tovush tushuuchasining kishi ongida his etilgan birligidir. I. A. Boduen de Kurtene ko'rsatishicha, fonema tildagi morfologik, sintaktik va sematsiologik (ma'no-mazmun tomoni) tushunchalar bilan bog'langan fonetik birlikdir. U morfemalardagi tovush almashinuvida ayniqsa ahamiyatlidir. I. A. Boduen de Kurtenening fonologik nazariyasi keyingi tilshunoslikdag'i ilmiy qarashlarning kelib chiqishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

2) I. A. Boduen de Kurtenening talantli shogirdi akademik L.V. Shcherba (1880-1944) o'z ustozining qarashlarini rivojlantirdi

va fizik fonologiya nazariyasini yaratdi. L.V.Shcherba ko'rsatishicha, har bir nutq tovushi urningan boshqa nutq tovushlari kabi qandaydir fizik, mexanik hodisa hisoblanadi. Jonli nutqda juda ko'p turli tovushlar talaffuz etiladi. Bu tovushlar tildagi so'z va so'z shakllarining ma'nolarini farqlay oluvchi soni jihatdan kam bo'lgan tovush tiplariga birlashadi. Bunday tovush tiplari fonemalar deyiladi. Ummiy tushuncha hisoblanuvchi fonemaning yakka holda nutqda talaffuz qiluvchi vakili fonemaning ottenkasi deb ataladi. L.V.Shcherba bu ta'rifda dialektikaning umumiylig, yakkalik va alohidalik kategoriyasini fonologiyada qo'llagan. Uning ilmiy qarashlaridan hozir ham rus tilshunosligida foydalani moqda.

3) L.V. Shcherbaning shogirdlari keyingi rus tilshunosligida ikki fonologik oqimga bo'lindilar. Bu ikki oqim bir-biriga zid bo'l-magan va faqat ilmiy bahs yordamida rus tilshunosligini rivojlan-tirishga katta hissa qo'shayotgan Moskva va Peterburg fonologiya maktablari nazariyalarini tashkil etadi. Moskva fonologiya maktabining vakillari mashhur rus tilshunoslari – A. A. Reformatskiy (1900-1978), P. S. Kuznetsov (1899-1968), V. N. Sidorov, R. I. Avanesov, M. V. Panov, A. M. Suxotin va boshqalardir. Peterburg fonologiya maktabining vakillari taniqli rus tilshunoslari – L. V. Zinder, M. I. Matusevich, A. N. Gvozdev, V. I. Litkin, Y.S.Maslov va boshqalardir.

4) S.I. Bernshteyn tomonidan taklif etilgan fonologiya nazariyasi alohida qarashlari bilan ajralib turadi va u konkret tillarni tadqiq etishda juda kam qo'llangan. Turkiy tillar fonetik va fonologiyasini yoritishda I.A. Boduen de Kurtene va L.V. Shcherba an'analariga asoslangan nazariya va metodlarni mashhur turkolog olimlar V. V. Radlov (1837-1918), V. A. Bogoroditskiy (1857-1941), Y. D. Polivanov (1891-1938) kabilar rivojlanlardilar. O'zbek tili va shevalarini o'rGANISHDA katta xizmat qilgan Y. D. Polivanov ham Boduen de Kurtenening talantli shogirdlaridan biri edi. Y.D.Polivanov alohida fonologiya nazariyasini yaratmagan bo'lsa ham ustozining fonemaga psixologik va morfologik qarashlarini ko'proq funksional jihatdan asoslashga urindi va ularni turkiy tillar hamda boshqa ko'pgina tillar misolida izohlab berdi. *Fonema* termini va tushunchasini turkologiyaga birinchi marta 1920-yillarda taniqli olim N. K. Dmitriev kiritgan bo'lsa, uni o'zbek

tilshunosligida birinchi bor o'sha yillarda professor Y.D.Polivanov qo'llagan.

Chet el tilshunosligida keng tarqalgan fonologiya nazariyalari quyidagilardir:

1. Praga jingvistik matabining fonologiya nazariyasi jahonda eng dong chiqargan hisoblanadi. Bu matabning xususan N.S.Turbetskoyning fonologik nazariyasi va metodlari bir necha tillarni ilmiy o'rganishga tadbiq etilgan va hozirgi davrda ham qo'llanilib kelinmoqda. Praga fonologiya maktabi fonologik oppozitsiyalar klassifikatsiyasi fonologik neytralizatsiya, korrelyatsiya, fonemalarning birikmalari va boshqa qator masalalarni ilmiy tadbiq etish nazariyasi va metodlarni taklif etgan. Bu matabning qarashlari jahon tilshunosligida ham keng o'rinn olgan.

2 London fonologiya maktabi va uning yirik namoyandasini D.Jounz tomonidan taklif etilgan fizik (akustik) fonologiya nazariyasi (Angliya). Bu nazariyaga asosan fonema akustik jihatdan bir xil bo'lgan «tovushlar oilasi» hisoblanadi.

3. Distributiv fonologiya nazariyasi (AQSh) bu nazariyaga asosan fonema akustik jihatdan bir xil bo'lgan «tovushlar sinfi» yoki «allofonlar sinfi» deb ta'rif beriladi.

4. Dixotomik fonologiya nazariyasi (AQSh)da ham keng tarqalgan bo'lib, u jahon tillaridagi fonemalarni o'n ikki juft binar farqlanish belgilari asosida tasnif etish metodini taklif etdi, biroq nazariyadagi ba'zi kamchiliklar, xususan, barcha farqlanish belgilarining binar, ya'ni ikkitadan qarama-qarshilik asosida berilgani, ularni spektral tahlil qilish natijalari, barcha tillar uchun bir xil emasligi, terminlarning noqulay va tushunarsizligi kabi qator masalalar tuzatishlarni talab qiladi. Bu kamchiliklarni tuzatish natijasida uni ko'pgina tillarning fonemalar tizimini tadqiq qilishda qo'llanib kelmoqda Boshqa keng tarqalmagan fonologik nazariyalari quyidagilardir:

1. Makro va mikrofonema nazariyasi (AQSh).
2. Glossematik fonologiya nazariyasi (Daniya).
3. Ikki pog'onali fonologiya nazariyasi.
4. Generativ fonologiya nazariyasi (AQSh).

Bu fonologiya nazariyalari ichida alohida qarashlar va oqimlar ham bor. Ularda tilning fonologik tizimini juda mavhum tadqiq qilishda qo'llanib kelmoqda.

lish va sxematik ravishda qarash hollari mavjud. Bunday kamchiliklar ularni konkret tillarga tadqiq etishda qiyinchilik tug'diradi. Haqiqiy fonologiya nazariyalarini chuqur ilmiy asoslangan va tillarni tadbiq etishda qulay metodlarni taklif etgan bo'lmog'i lozim.

Nazorat uchun savollar:

1. Fonetika qanday masalalarni o'rganadi?
2. Fonetika o'rganish sohasi va vazifalariga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
3. Artikulyatsiya nima?
4. Nutq apparati qanday a'zolarni o'z ichiga oladi?
5. Tovush tembri nima?
6. Tovushning miqdor va sifat belgisi deganda nimani tushunasiz?
7. Tovushning akustik belgisi qanday izohlanadi?
8. Supersegmental fonetika nimani o'rganadi?
9. Nutq tovushlari tasnifi deganda nimani tushunasiz?
10. Unli va undosh tovushlar qaysi jihatlarga ko'ra tasnif qilinadi?
11. Unli tovushlar qanday xususiyatlari bilan undoshlardan farqlanadi?
12. Undosh tovushlar qanday xususiyatlarga ega?
13. Unli tovushlar qanday tasnifga ega?
14. Sonor tovushlar deganda nimani tushunasiz?
15. Fonologiya qanday soha? U qanday masalalarni o'rganadi? Fonologiyaning asoschisi kim?
16. Fonema nima?
17. Fonetika va fonologiya sohalari qanday umumiy hamda farqli xususiyatlarga ega?
18. Hozirga qadar qanday fonologiya nazariyalarini yaratildi?
19. O'zbek tilshunosligida fonologiya sohasi qaysi tilshunoslar tomonidan o'rganildi?

Nutqning sonetik bo'linishi

1. Nutqning sonetik bo'linishi va sonetik birliklari.
2. Bo'g'in va uning turlari. Sillabika bo'limi.
3. Bo'g'ining tuzilishiga ko'ra tiplari.
4. Urg'u va uning turlari. Aksentologiya.

Tayanch so'z va iboralar: *til, nutq, til-nutq dixatomiyasi, til birliklari, nutq birliklari, nutqning sonetik bo'linishi, nutqning sonetik birliklari, bo'g'in, ochiq bo'g'in, yopiq bo'g'in, takt, fraza (jumla), sillabika, segmentatsiya.*

Nutq so'zlovechining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shunday jarayon natijasida yuzaga keladigan hodisa.

Nutqda tovushlar alohida-alohida talaffuz qilinmaydi. Ular ma'lum tartibda ketma-ket bir-biriga birikkan holda keladi. Aniqrog'i, nutq ketma-ket kelgan tovushlarning yig'indisi yoki ma'lum tartibda birikuvidan iborat bo'lib, u talaffuz jarayonida oldinma-keyin kelgan sonetik birliklarga bo'linadi. Nutqning ana shunday katta va kichik birliklarga bo'linishi uning **sonetik bo'linishi** deb ataladi. Bunday bo'linish tilshunoslikda **segmentatsiya** (lot. *segmentum* – bo'lak) deb yuritiladi. Demak, segmentatsiya tushunchasi nutqning sonetik bo'laklarga bo'linishi demakdir. Bo'linish natijasida hosil bo'lgan har bir bo'lak segment deb qaraladi. Har bir sonetik birlik artikulyatsion-akustik va eshitilish xususiyatlariga egadir.

Nutq quyidagi sonetik birliklardan iborat:

- 1) fraza;
- 2) takt;
- 3) bo'g'in;
- 4) tovush.

Odatda, ifoda materiali mavjud bo'lgan sonetik unsurlarni segment unsurlar deb ataladi. Bu jihatdan nutq tovushlarining barchasi segment unsurlaridir. Supersegment unsurlar deganda esa, ifoda materiali bo'ligan unsurlarni tushunamiz.

Umuman olganda, nutqni kichik va katta bo'laklarga bo'lish jarayoni **segmentatsiya** deb ataladi va mazkur bo'laklar **segmentlar** deb nomlanadi.

Supersegment unsurlar jumlasiga, odatda, bo'g'in, urg'u va ohang kiritiladi. Bu vositalar segment unsurlar evaziga mavjuddir, ular go'yo segment unsurlar ustida joylashgandek ko'rindi.

Bo'g'in bu jihatdan o'zining ifoda materialiga egadek tasavvur etilsa ham, bu holat real emas. Boshqacha aytganda, bo'g'inning ifoda materiali tovush deb o'ylashimiz mumkin. Lekin tovush segment element sanaladi. Demak, bo'g'in supersegment vosita sifatida tovushlar evaziga yashaydi.

Nutqimiz turlicha hajmdagi fonetik bo'laklardan tashkil topadi. Ular quyidagilardan iboratdir:

- 1) fraza (jumla);
- 2) takt;
- 3) so'z;
- 4) bo'g'in;
- 5) tovush.

Fraza nutqimizning ikki pauzasi oralig'idagi ohang butunligi bo'lib, ko'pincha bir gapga teng bo'ladi: *Otang bolasi bo'lma / odam bolasi bo'l!* (Maqol) Mazkur maqolda ikkita fraza bor.

Takt frazaning ikki qisqa pauzasi oralig'idagi ohang butunligidir. Takt bir (bosh) urg'u bilan aytildi va u bir so'zdan yoki bir necha so'zdan iborat bo'lishi mumkin: *Toza havos, tsazi suv, Ozod Vatan seniki* (G'. G'ulom) She'riy parchada to'rtta takt bor.

So'z taktning ham, frazaning ham asosiy material qismini taqozo etadi. U takt ichida yoki o'zicha alohida urg'u bilan aytildigan bo'lakdir. Biroq yordamchi so'zlar ko'pincha mustaqil so'zlarning urg'ularidan foydalanib nutqqa kiradi. Ular o'zicha urg'u ololmaydi: *sen bilan, maktab tomon, dadam kabi* va h.k.

Har ikki tomondan «chuqu», aniq va tugal pauza bilan bo'lingan eng katta fonetik birlik – segment **fraza** (grekcha *phrasis* so'zidan olingan bo'lib, ifoda, nutq oboroti degan ma'nolarni anglatadi.) deb ataladi.

Har bir pauza davrida so'zlovchi kelgusi frazaning talaffuzi uchun nafas oladi. Masalan, *O'zga yurtda shoh bo'lgimcha,*

Oz yurtingda gado bo'l! (Maqol)

Bu gapda ikkita fraza bor. Ko'rib turganingizdek, har bir fraza tugal pauza bilan bo'linib turibdi.

Nutqda ko'pincha fraza gapga mos keladi. Yuqorida keltirilgan matndagi har ikki fraza sodda gapga teng keladi. Lekin fraza va gapni bir xil hodisa deb tushunish noto'g'ri. Gap sintaktik birlik hisoblanadi. Fraza esa aktuallashgan gap bo'lib, uning mazmuni, tugallanganligi intonatsion vositalar orqali ifodalanadi. Shunga ko'ra, fraza fonetik birlik deb qaraladi. Demak, fraza nutqning aloqa qilish birligi sifatidagi, eng kichik mustaqil birlik. Fraza termini hozirda **jumla** deb ham yuritiladi.

Fraza taktlarga bo'linadi. Takt nutqning talaffuz jihadan yaxlitlangan va pauza bilan ajratiladigan parchasi. Umuman, takt frazaning bir bo'lagi hisoblanib, bir urg'u yordamida bir yoki bir necha bo'g'inlarning ularishidan tashkil topadi. Frazada har bir takt kichik, «qisqa» pauza orqali bo'linib turadi:

1. *Sevish /bir-birovingga/ qarash emas, /balki birgalashib/ bir tomonga/qarash demakdir.* (A.Sent – Ekzyuperi).
- 2.. *Go'zallik ham /hayo bilan/ sevish demakdir.* (F.Petrarka).
3. *Yaxshi so'z/ kishiga/ baxt keltiradi.* (Magol)

Turkiy tillarda mustaqil so'zlar, ayniqsa ot turkumiga mansub so'zlar alohida takt hosil qiladi. Bunday vaqtida bu so'zlar asos urg'udan tashqari frazaviy urg'u ham oladi.

O'zbek tilida ko'makchilar oldingi mustaqil so'zga ulanib, takt hosil qiladi: *Zilola uchun, qishloq tomon, yotoqxonaga qadar* kabi.

Taktlar odatda bo'g'inlarga ajraladi. Bo'g'in – so'zning nutqda alohida (ajratib) talaffuz qilish mumkin bo'lgan eng kichik bo'lagi. So'zлarni talaffuz qilganda o'pkadan chiqayotgan havo oqimi muayyan oraliqda, ya'ni bir tovush yoki tovushlar birikmasidan so'ng bo'linib-bo'linib, goh kuchli, goh kuchsiz zarb bilan o'tadi va bo'g'in hosil qiladi. Demak, bo'g'in bir yoki bir necha tovushlardan tarkib topib, bir nafas chiqarish bilan talaffuz etiladigan so'zning bir bo'lagidir.

Bo'g'inlarning tuzilishida unli tovushlar muhim rol o'ynaydi – unli tovushlarsiz bo'g'in tuzilmaydi. Bo'g'in bir tovushdan iborat bo'lganda unli tovushga teng keladi. So'zdagi bo'g'inlar soni unli harflar soniga teng bo'ladi. Masalan, *o'-quv-chi, a-shu-la* so'zlarida 3 ta unli, 3 ta bo'g'in bor.

O'zbek tilida so'zlar bir bo'g'inli va ko'p bo'g'inli bo'ladi. So'z bir zarb(nafas chiqarish) bilan aytilsa, bir bo'g'inli (*u, o'i, bu*), bir

necha zarb bilan aytilda, ko'p bo'g'inli hisoblanadi. So'zlar bir bo'g'inli yoki ikki, uch, to'rt, besh, olti va undan ortiq bo'g'inli bo'ladi. Masalan, *non*, *choy*, *yur*, *tur*, *kel*, *eh* so'zлari bir bo'g'inli; *uzum*, *ko'-zim*, *tar-vuz*, *o-ta*, *o-na*, *ol-ma* so'zлari ikki bo'g'inli, *sozan-da*, *te-mir-chi*, *ti-lak-dosh* so'zлari uch bo'g'inli; *min-nat-dor-chi-li-gi-miz-ning*, *hu-quq-shu-nos-la-ri-miz-ga* so'zлari sakkiz bo'g'inli so'zlardir.

Bo'g'inlar unli yoki undosh tovush bilan tugaydi, shunga ko'ra ular ikki xil bo'ladi: ochiq va yopiq bo'g'in.

Unli tovush bilan tugagan bo'g'inlar **ochiq bo'g'in** hisoblanadi: *lo-la*, *be-da-na*, *a-na*, *o-na*.

Undosh bilan tugagan bo'g'inlar **yopiq bo'g'in** sanaladi: *anhор*, *meh-nat-kash*, *mak-tab* kabi.

Bir unlining o'zidan tashkil topgan bo'g'inlar ochiq bo'g'inga kiradi: *u-ka*, *a-ka* so'zлarining birinchi bo'g'inlari kabi. So'zlar nuqul ochiq yoki yopiq bo'g'indan iborat bo'lgani kabi so'z tarkibida ochiq va yopiq bo'g'inlar aralash holda ham kela oladi: *ba-land*, *ta-nish*, *bi-lish* so'zлarining birinchi bo'g'inlari ochiq, ikkinchilari yopiq.

O'zbek tilida bo'g'inlarning bir necha tiplari kuzatiladi. Bo'g'in tiplarini izohlashda quyidagi qisqartmalardan foydalaniiladi.

V – lot. *vokalizm* – unli tovushlar tizimi; C – lot. *konsonantizm* – undosh tovushlar tizimi.

O'zbek tilida bo'g'inlarning quyidagi tiplari uchraydi:

1. Faqat bir unlini o'zidangina tuzilgan bo'g'inlar: *o'-tin*, *i-chak*, *u*, *a-ka*. **Tuzilishi:** V

2. Bir unli va bir undoshdan iborat bo'lgan bo'g'in. Bunday bo'g'in undosh va unlidan iborat (ochiq) va unli va undoshdan iborat (yopiq) bo'lishi mumkin. Unli – undosh: *ish*, *osh*, *uch*. **Tuzilishi:** VC. Undosh – unli: *ta-na*, *to'-ra*, *to-g'a*, *ko'-cha*. **Tuzilishi:** CV.

3. Bir unli va ikki undoshdan iborat bo'lgan bo'g'in. Bunday bo'g'in unli, undosh, undoshdan iborat (yopiq); undosh, unli, undoshdan iborat (yopiq) va undosh, undosh, unlidan iborat (ochiq) bo'lishi mumkin: Unli – undosh – undosh: *ayt*, *ilm*, *erk*, *ost*. **Tuzilishi:** VCC. Undosh – unli – undosh: *bor*, *ber*, *bur-gut*, *bul-bul*. **Tuzilishi:** SVC.

Undosh – undosh – unli: *sta-kan*, *pre-zident* so‘zlarining birinchi bo‘g‘ini **Tuzilishi:** CCV. Ko‘rib turganiningizdek, bo‘g‘inning bu shakli o‘zlashma so‘zlarda uchraydi.

4. Bir unli va uch undoshdan iborat bo‘lgan bo‘g‘in: Undosh – unli – undosh – undosh (yopiq bo‘g‘in): *shart*, *barg*, *to‘rt*, *qurt*. **Tuzilishi:** CVCC.

Undosh – undosh – unli – undosh (yopiq bo‘g‘in): *plan*, *krem*, *prob-lema*. **Tuzilishi:** CCVC.

5. Bir unli va to‘rt undoshdan iborat bo‘lgan bo‘g‘in: unli – undosh – undosh, undosh – undosh (yopiq, bo‘g‘in): *Ernst*. **Tuzilishi:** VCCCC; undosh – unli – undosh – undosh – undosh (yopiq bo‘g‘in): *tekst*, *punkt*. **Tuzilishi:** CVCCC;

Undosh – undosh – unli – undosh – undosh (yopiq bo‘g‘in): *front*, *start*, *trans-port*. **Tuzilishi:** CCVCC.

Bo‘g‘in va uning tuzilishi boshqa tillarda ham tilimizdag‘i kabi, lekin o‘z navbatida, farqli tomonlar ham mayjud. Masalan, fors tilida ham so‘zlar bir bo‘g‘inli va ko‘p bo‘g‘inli bo‘ladi. Fors tilida ham bo‘g‘in, o‘zbek tilidagi kabi, unlilar yordami bilan hosil bo‘ladi. Har bo‘g‘inda bitta unli bo‘lishi shart. Shuningdek, o‘zbek tilidagidek, ochiq va yopiq bo‘g‘inli bo‘ladi:

| Yopiq bo‘g‘inli: | Ochiq bo‘g‘inli: |
|---------------------------|-----------------------------|
| <i>Roh</i> – <i>yo’l</i> | <i>po</i> – <i>oyoq</i> |
| <i>bog’</i> – <i>bog’</i> | <i>ohu</i> – <i>olxo’ri</i> |

Bulardan tashqari, bo‘g‘inlar fors tilida uzun va qisqa bo‘g‘inga bo‘linadi. Agar bo‘g‘in tarkibida cho‘ziq unli bo‘lsa, uzun bo‘g‘in, qisqa unli bo‘lsa, qisqa bo‘g‘in deyiladi:

| Uzun bo‘g‘inli: | Qisqa bo‘g‘inli: |
|-----------------------------|---------------------------------|
| <i>ob</i> – <i>suv</i> | <i>lab</i> – <i>lab</i> |
| <i>osheq</i> – <i>oshiq</i> | <i>ashk</i> – <i>ko‘z yoshi</i> |

Arab tilida esa har bir bo‘g‘inda unli bilan birga undosh ham bo‘lishi shart. Bo‘g‘inlar undoshlardan boshlanadi. Shuni aytish kerakki, arab fonologiyasidagi bo‘g‘in tushunchasi o‘zbek tilida-

gidan bir muncha farq qiladi. Chunonchi, o'zbek tilidagi qoidaga asosan, bo'g'in yasash uchun birligina unli kifoya.

Arab tilida bo'g'inlarning uch turi mavjud: qisqa, cho'ziq, o'ta cho'ziq.

1. Qisqa bo'g'in tuzilishi : -ka-ia-ha, -da-ra-sa.

2. Cho'ziq bo'g'in tuzilishi :

a) yopiq: -dar-sim, -bay-tum;

b) ochiq: -ka-la, -na-ma;

3. O'ta cho'ziq bo'g'in tuzilishi: -dal-lun, -mar-run.

Jumladan, rus tilida ham bo'g'in tuzilishi o'zbek tilidagidan farqlanmaydi va unda ham unli bilan tugagan bo'g'inlar ochiq, undosh bilan tugagan bo'g'inlar yopiq bo'g'in hisoblanadi.

| Ochiq bo'g'inli: | Yopiq bo'g'inli: |
|------------------|------------------|
| go-lo-va | chet-verg |
| go-ra | tok |

Shuni alohida aytish joizki, yuqorida tilga otingan bo'g'in tuzilishi tiplarining hammasi rus tili uchun xos.

Bo'g'in savod o'rgatishda, yozuvda so'zlarini bir satrdan ikkinchi satrga ko'chirishda, adabiyotshunoslikda she'r vaznlarini belgilashda amaliy ahamiyatga ega.

Fonetikaning bo'g'in, uning turlari va tiplarini o'rganuvchi bo'limi **sillabika** (grek. *syllabika* – bo'g'inga teng) deb ataladi. Tilshunoslik va adabiyotshunoslikda *sillabik yozuv*, *sillabik she'r* kabi terminlar ham qo'llanadi.

So'z tarkibidagi bo'g'inlardan yoki gap tarkibidagi bo'laklardan birini boshqalaridan ajratib, alohidalab kuchli talaffuz qilish **urg'u** deyiladi.

Urg'u uch turga bo'linadi:

a) dinamik urg'u;

b) musiqiy urg'u;

c) kvantitativ urg'u.

Tovush kuchining o'zgarishiga asoslangan urg'u **dinamik urg'u** deyiladi. Dinamik urg'u tushgan bo'g'in boshqa bo'g'inqarga

nisbatan kuchli talaffuz qilinadi. *Rus, ukrain, polyak, nemis, fransuz, lot., ispan, fors* tillaridagi urg' u dinamikdir.

Musiqaviy urg' uda ovoz tonining ko'tarilishi yoki pasayishi kuzatiladi. Bu urg' u xitoy, vietnam tillarida uchraydi. Uni **tonik urg'u** deb ham atashadi.

Tillar erkin va turg'un urg' uli bo'lishi ham mumkin. Masalan, o'zbek, fransuz, polyak tillari **turg'uu urg'uli** bo'lsa, rus, ingлиз, nemis tillari **erkin urg'uli** sanaladi.

Urg' u qanday birliklarda bo'lishiga ko'ra ikki turli bo'ladi:

- 1) so'z urg'usi;
- 2) ma'no urg'usi.

So'zdagi bo'g' inlardan birini alohidalab, kuchliroq talaffuz qilish **so'z urg'usi** deyiladi. Masalan, *paxtakor, ishchi, suvchi* kabi.

So'z urg'usi **teksik urg'u** deb ham yuritiladi.

Hozirgi o'zbek tilida so'z urg'usi quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Urg' u asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi: *suvchi, g'allazor, aqli* kabi.

2. So'zga qo'shimcha qo'shilish bilan urg' u so'zning oxirgi bo'g'iniga ko'chib boradi: *ishchi - ishchilar, paxtakor - paxtakorlar, ishchilarimiz - ishchilarimizga, paxtakorlarimiz - paxtakorlarimizga* kabi.

3. O'zbek tiliga arab, fors-tojik, rus va boshqa xorijiy tillardan o'zlashgan so'zlarda so'z urg'usi birinchi va o'rta bo'g' inlarga ham tushishi mumkin: *hamma, hatto, anno, zero, traktor* kabi.

4. Urg' u so'z ma'nosini farqlashga xizmat qiladi: *qo'llar (ot) - qo'llar (fe'l), olma (ot) - olma (fe'l), yigitcha (ot) - yigitcha (ravish)* kabi.

5. O'zbek tilida quyidagi qo'shimcha va vositalar so'z urg'usini olmaydi:

- a) fe'llardagi shaxs-son qo'shimchalari: *-man, -san, -dir, -miz, -siz: yozaman, o'qiyman, yozamiz, yozasiz* kabi;

- b) dona va chama son shaklini yasovchi qo'shimchalar: *ikkov, minglab, o'ntacha* kabi;

- d) ravish yasovchi qo'shimchalar: *-cha, -day, -dek: yigitcha, oydek, gulday* kabi.

- e) fe'lning bo'lishsizlik shaklini yasovchi *-ma* qo'shimchasi: *borma, yozma, o'qima* kabi;

f) yuklamalar: -*u*, -*yu*, -*ku*, -*mi*, -*chi*, -*oq*, -*yoq*: *sen-chi*, *bor-mi*, *bor-ku* kabi.

Masalan, *gapirmasinni* so'zida fe'lning bo'lishsizlik shakli -*ma*, shaxs-son qo'shimchasi -*sin*, -*mi* yuklamasi urg'u olmasligi bois urg'u ikkinchi bo'g'inga; *osmon uzra* qo'shilmasida esa *uzra* ko'makchisi urg'u olmasligi bois *osmon* so'zining oxirgi bo'g'iniga tushadi.

Gapdag'i bo'laklardan birining ma'nosini ta'kidlash maqsadida kuchliroq ohang bilan aytilishi ma'no urg'usi deyiladi. Ma'no urg'usi gap urg'usi, mantiqiy (logik) urg'u, frazaviy urg'u deb ham ataladi.

Ma'no urg'usi olgan bo'lak gapda ko'pincha kesimdan oldin keladi: *Men Sizni ko'rgani boraman. Sizni ko'rgani men boraman.*

Urg'uning tabiatini, tur va tiplarini hamda vazifasini fonetikaning aksentologiya (lot. *accentus* – urg'u; *logos* – ta'llimot) bo'limi o'rghanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Segmentatsiya nima?
2. Nutqning fonetik bo'linishi deganda nimani tushunasiz?
3. Nutq qanday fonetik birliklarga bo'linadi?
4. Fraza nima?
5. Takt deb nimaga aytildi?
6. Bo'g'in qanday ta'riflanadi?
7. Bo'g'inning qanday tur va tiplari bor?
8. Bo'g'in boshqa tillarda qanday ko'rinishga ega?
9. Sillabika bo'limi qanday masalalarni o'rghanadi?
10. Bo'g'in qanday amaliy ahamiyatga ega?
11. Urg'u deb nimaga aytildi?
12. O'zbek tilidagi urg'u qanday xususiyatlarga ega?
13. Urg'uning qanday turlari bor?

Fonetik hodisalar

1. Fonetik hodisa tushunchasi.
2. Tovushlarning nutqdagi pozitsion o'zgarishlari. Reduksiya.
3. Nutqdagi tovushlarning kombinator o'zgarishlari.

4. Akkomodatsiya.
5. Assimilyatsiya.
6. Fonetik o'zgarishlarning boshqa turlari.
7. Tovushlarning almashinuvi.

Tayanch so'z va iboralar: *fonetik hodisa, pozitsion o'zgarishlar, reduksiya, kombinator o'zgarishlar, akkomodatsiya, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, gaplogiya, singarmonizm, metoteza, diereza, epenteza, proteza.*

Nutqdagi turli omillar natijasida tovushlar bir-biriga ta'sir qildi. Bunday omillardan biri tovushning o'mi, unga qo'shni tovushlar ta'siri, tovushlarning birikuvi va urg'uning tabiatiga bog'liq.

Talaffuzda yengillik va soddalikka intilish, nutq tovushlarining o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan o'zgarishlar **fonetik hodisalar** deyiladi. Ayrim adabiyotlarda fonetik hodisalar termini o'mida **fonetik o'zgarishlar**, **tovush o'zgarishlari** kabi terminlar ham qo'llanadi, biroq bunga qo'shilib bo'lmaydi, tovush o'zgarishi fonetik hodisalarining bir turi hisoblanadi. Shu bois biz **fonetik hodisalar** terminini qo'lladik.

Fonetik hodisalarining quyidagi turlari mavjud:

- 1) tovush orttirilishi;
- 2) tovush tushishi;
- 3) tovush almashishi;
- 4) tovush o'zgarishi.

Tilshunoslikda bu hodisalar ilmiy terminlar bilan ataladi.

Bir gapda bir necha fonetik hodisalar kuzatiladi: *Og'zaki nutqi yaxshi bo'lgani uchun davraga boshlovchilik qilish unga topshirildi.* Gapdag'i so'zlar tarkibida 3 ta fonetik hodisa: tovush almashishi (*boshla + vchilik – boshlovchilik*) , tovush tushishi (*og'iz + aki – og'zaki*) va tovush orttirilishi (*u + ga – unga*) kuzatiladi.

Tilshunoslikda tovushlarning pozitsion va kombinator o'zgarishlari farqlanadi.

Tovushlarning ma'lumi holatda ro'y beruvchi o'zgarishlari **pozitsion o'zgarishlari**. *Reduksiya, proteza* hodisalari pozitsion o'zgarishlardir.

Pozitsion o'zgarishlar uch turga ega:

1) urg'uga nisbatan urg'uli va urg'usiz unlilar farqlanadi;

2) bo'g'in va uning tabiatiga ko'ra ochiq va yopiq hamda berkitilgan va berkitilmagan bo'g'inlar farqlanadi;

3) so'zdagi o'rniغا ko'ra so'z boshi, o'rtasi va oxiridagi tovushlar hamda uning birikmalari farqlanadi

Unli tovushlarning urg'usiz bo'g'inlarida kuchsizlanishi yoki o'zgarishi **reduksiya** deyiladi. Odatda sifat va miqdor reduksiyasi farqlanadi. Urg'usiz yopiq bo'g'inlarda unlilar cho'ziqligining qisqarishi va kuchli artikulyatsiya qilinishining yo'qolishiga **miqdor reduksiyasi** deb ataladi. Masalan, *sanash* so'zining boshidagi urg'usiz (*a*) oxiridagi (*a*) ga qaraganda ancha kuchsiz va qisqaroq talaffuz etiladi.

Tovushlarning urg'uga nisbatan o'rniغا ko'ra ikki xil pozitsiya farqlanadi: urg'uli bo'g'indagi holati **kuchli pozitsiya** deb, urg'usiz bo'g'indagi holati **kuchsiz pozitsiya** deb ataladi. Kuchli pozitsiyada unlilar o'z artikulyatsion-akustik xususiyatlarini saqlab qoladi. Kuchsiz pozitsiyada unlilar miqdor va sifat belgilarini yo'qotadi, ya'ni reduksiyaga uchraydi.

Yuqorida ko'rsatilgan miqdor reduksiyasidan tashqari sifat reduksiyasi ham bor. Sifat reduksiyasida bir yo'la tovushning artikulyatsiyasi kuchsizlashadi va tovushning sifati o'zgaradi. Masalan, rus tilidagi *voda*, *vodo*, *vodyanoy*, *vodovoz* so'zlaridagi urg'usiz unlilar (*o,a*) tovushlari doirasida o'zgaradi. O'zbek tilida bunday xususiyat yetarli darajada ko'zga tashlanmaydi. Reduksiyaga uchragan tovushlar urg'uli tovushlarga qaraganda aniq bo'limgan kuchsiz va qisqaroq talaffuzga ega.

Reduksiyaning darajasi faqat tovushning holatiga emas, balki talaffuz usuliga ham bog'liq. Odatda to'liq talaffuz usulida reduksiya minimal darajada bo'lib, og'zaki nutq usulida esa, u maksimal darajada ro'y beradi. Undan tashqari reduksiyaning darajasi unlilarning tilning ko'tarilishiga ko'ra belgilariga (yuqori, o'rta, quyi) ham bog'liq.

Undosh tovushlar ham pozitsion o'zgarishlarga uchrashi imumkin. O'zbek tilida so'z oxiridagi jarangli undoshlar jarangsizlashishi bunga misol bo'la oladi: *kitob* – *kitop*, *qand* – *qant* kabi. Ba'zan ko'p bo'g'inli so'zlarda so'z oxiridagi jarangsiz undoshlar jarangli

bo'lib talaffuz etiladi: *bilak* – *bilagi*, *kurak* – *kuragi*, *tilak* – *tilagi* kabi.

Epiteza (yun. *epi* – keyin + *thesis* – holat) ma'lum fonetik sabablarga ko'ta so'z oxirida tovush orttirilishi: *disk* – *diska*, *tank* – *tunka*, *kiosk* – *kioska*, *bank* – *banka* kabi. Ayrim manbalarda epiteza austeza deb ham ataladi.

Prokopa (ankopa) (yun. *prokope* – oldindan qisqarish) so'z boshida ba'zan unli yoki undosh tovushning tushib qolish hodisasi: *yig'ach* – *ig'ach*, *yiroq iroq*, *yuz* – *uz*, *hilvira* – *ilvir*, *hid* – *id* kabi.

Sinkopa (synkope) (yun. *synkope* – oradan qisqarish) so'z o'rtaсидаги tovush yoki tovushlar guruhining tushishi: *arslon* – *aslon*, *olmish* – *otmish*, *birlan* – *ilan* kabi.

Apakopa (apokope) (yun. *apokope* – qisqartirish) hodisasi so'z oxiridagi tovush yoki qo'shma so'z qismlaridan birining tushirilishi: *to'ri* – *to'r*, *daraxt* – *darax*, *Samargand* – *Samarqan* kabi.

Qo'shma so'z qismlarining tushurib qoldirilishi asosan rus tilidan o'zlashgan so'zlar tarkibida kuzatiladi: *kilogramm* – *kilo*, *metropoliten* – *metro* kabi.

Sinerezis – so'z o'rtaсида yonma-yon kelgan ikki unlining biri kuchsizlanib, nutqda tushib qolishi va ikkinchi unlining cho'ziqroq talaffuz qilinishiga: *saodat* – *so:dat*, *matbaa* – *matba:*, *maorif* – *mo:rif* kabi.

Sinerezis ba'zan ikki unli orasidagi undoshning tushib qolishi hisobiga yuz berishi ham mumkin: *zahar* – *za:r*, *shahar* – *sha:r* kabi. Bu hodisa, asosan, o'zlashma so'zlar tarkibida kuzatiladi.

Nutqda tovushlarning qo'shni tovushlar ta'sirida miqdor va sifat belgilarining o'zgarishi **kombinator o'zgarishlar** deyiladi. Nutqda tovushlarning kombinator o'zgarishlariga *akkomodatsiya*, *assimilyatsiya*, *dissimilyatsiya*, *diereza*, *epenteza*, *gaplogiya*, *proteza*, *metateza* kabi fonetik hodisalar kiradi. Ba'zan bu hodisalarни o'rjanuvchi bo'lim **kombinator fonetika** deb ham yuritiladi.

Akkomodatsiya, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, diereza, epenteza, gaplogiya, proteza, metateza kombinator o'zgarishlar hisoblanadi.

So'zdagi yondosh tovushlar artikulatsiyasining o'zaro moslashuvi **akkomodatsiya** (lot. *accomadatio* – moslashuv) keng tarqalgan fonetik hodisalardan biri bo'lib, talaffuz iqtisodi bilan

- 1) urg'uga nisbatan urg'uli va urg'usiz unlilar farqlanadi;
- 2) bo'g'in va uning tabiatiga ko'ra ochiq va yopiq hamda berkitilgan va berkitilmagan bo'g'inlar farqlanadi;
- 3) so'zdag'i o'miga ko'ra so'z boshi, o'rtasi va oxiridagi tovushlar hamda uning birikmalari farqlanadi

Unli tovushlarning urg'usiz bo'g'inlarida kuchsizlanishi yoki o'zgarishi **reduksiya** deyiladi. Odatda sifat va miqdor reduksiyasi farqlanadi. Urg'usiz yopiq bo'g'inlarda unlilar cho'ziqligining qisqarishi va kuchli artikulyatsiya qilinishining yo'qolishiga **miqdor reduksiyasi** deb ataladi. Masalan, *sanash* so'zining boshidagi urg'usiz (*a*) oxiridagi (*a*) ga qaraganda ancha kuchsiz va qisqaroq talaffuz etiladi.

Tovushlarning urg'uga nisbatan o'tniga ko'ra ikki xil pozitsiya farqlanadi: urg'uli bo'g'indagi holati **kuchli pozitsiya** deb, urg'usiz bo'g'indagi holati **kuchsiz pozitsiya** deb ataladi. Kuchli pozitsiyada unlilar o'z artikulyatsion-akustik xususiyatlarini saqlab qoladi. Kuchsiz pozitsiyada unlilar miqdor va sifat belgilarini yo'qotadi, ya'ni reduksiyaga uchraydi.

Yuqorida ko'rsatilgan miqdor reduksiyasidan tashqari sifat reduksiyasi ham bor. Sifat reduksiyasida bir yo'la tovushning artikulyatsiyasi kuchsizlashadi va tovushning sifati o'zgaradi. Masalan, rus tilidagi *voda*, *vodo*, *vodyanoy*, *vodovoz* so'zlaridagi urg'usiz unlilar (*o,a*) tovushlari doirasida o'zgaradi. O'zbek tilida bunday xususiyat yetarli darajada ko'zga tashlanmaydi. Reduksiyaga uchragan tovushlar urg'uli tovushlarga qaraganda aniq bo'limgan kuchsiz va qisqaroq talaffuzga ega.

Reduksianing darjasи faqat tovushning holatiga emas, balki talaffuz usuliga ham bog'liq. Odatda to'liq talaffuz usulida reduksiya minimal darajada bo'lib, og'zaki nutq usulida esa, u maksimal darajada ro'y beradi. Undan tashqari reduksianing darjasи unlilarning tilning ko'tarilishiga ko'ra belgilariga (yuqori, o'rtा, quyi) ham bog'liq.

Undosh tovushlar ham pozitsion o'zgarishlarga uchrashi mumkin. O'zbek tilida so'z oxiridagi jarangli undoshlar jarangsizlashishi bunga misol bo'la oladi: *kitob* – *kitop*, *qand* – *qant* kabi. Ba'zan ko'p bo'g'inli so'zlarda so'z oxiridagi jarangsiz undoshlar jarangli

bo'lib talaffuz etiladi: *bilak* – *bilagi*, *kurak* – *kuragi*, *tilak* – *tilagi* kabi.

Epiteza (yun. *epi* – keyin + *thesis* – holat) ma'lumi fonetik sabablarga ko'ra so'z oxirida tovush orttirilishi: *disk* – *diska*, *tank* – *tanka*, *kiosk* – *kioska*, *bank* – *banka* kabi. Ayrim manbalarda epiteza austeza deb ham ataladi.

Prokopa (*ankopa*) (yun. *prokope* – oldindan qisqarish) so'z boshida ba'zan unli yoki undosh tovushning tushib qolish hodisasi: *yig'ach* – *ig'ach*, *yiroq iroq*, *yuz* – *uz*, *hilvira* – *ilvir*, *hid* – *id* kabi.

Sinkopa (yun. *synkope* – oradan qisqarish) so'z o'rtaсидаги tovush yoki tovushlar guruhining tushishi: *arslon* – *aslon*, *oltmish* – *otmish*, *birlan* – *bilan* kabi.

Apakopa (yun. *apokope* – qisqartirish) hodisasi so'z oxiridagi tovush yoki qo'shma so'z qismalaridan birining tushirilishi: *to'rt* – *to'r*, *daraxt* – *darax*, *Samarqand* – *Samarqan* kabi.

Qo'shma so'z qismalarining tushutib qoldirilishi asosan rus tilidan o'zlashgan so'zlar tarkibida kuzatiladi: *kilogramm* – *kilo*, *metropoliten* – *metro* kabi.

Sinerezis – so'z o'rtaсида yonma-yon kelgan ikki unlining biri kuchsizlanib, nutqda tushib qolishi va ikkinchi unlining cho'ziqroq talaffuz qilinishiga: *saodat* – *so:dat*, *matbaa* – *matba:*, *maorif* – *mo:rif* kabi.

Sinerezis ba'zan ikki unli orasidagi undoshning tushib qolishi hisobiga yuz berishi ham mumkin: *zahar* – *za:r*, *shahar* – *sha:r* kabi. Bu hodisa, asosan, o'zlashma so'zlar tarkibida kuzatiladi.

Nutqda tovushlarning qo'shi tovushlar ta'sirida miqdor va sifat belgilaring o'zgarishi **kombinator** o'zgarishlar deyiladi. Nutqda tovushlarning kombinator o'zgarishlariga *akkomodatsiya*, *assimilyatsiya*, *dissimilyatsiya*, *diereza*, *epenteza*, *gaplogiya*, *proteza*, *metateza* kabi fonetik hodisalar kiradi. Ba'zan bu hodisalarni o'rGANUVchi bo'lim **kombinator fonetika** deb ham yuritiladi.

Akkomodatsiya, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, diereza, epenteza, gaplogiya, proteza, metateza kombinator o'zgarishlar hisoblanadi.

So'zdagi yondosh tovushlar artikulatsiyasining o'zaro moslashuvi **akkomodatsiya** (lot. *accomadatio* – moslashuv) keng tarqalgan fonetik hodisalardan biri bo'lib, talaffuz iqtisodi bilan

uzviy bog'liqdir. Masalan, *qafas* so'zida q chuqur til orqa undosh tovushidan keyin til oldi a unli tovushining til orqa unlisi kabi talaffuz qilinishi.

Keyingi tovushning ekskursiyasi o'zidan oldin kelgan tovushning rekursiyasiga moslashsa, **progressiv akkomodatsiya** deyiladi. Aksincha, agar oldingi tovushning rekursiyasi keyingi tovushning ekskursiyasiga moslashsa, **regressiv akkomodatsiya** deyiladi. Akkomodatsiyada unlilarning undoshlarga va undoshlarning unlilarga moslashuvi ro'y berishi mumkin. O'zbek tilida chuqur til orqa undoshlardan (*x,g',q*) til oldi undoshlari, til oldi unlilari (*i,e,a*) til orqa unlilari bo'lib talaffuz etiladi, ya'ni ularning talaffuzi moslashadi. Aksincha, til orqa unlilari (*o', u, o*) til oldi undoshlaridan keyin til oldi unlilari bo'lib artikulyatsiya qilinadi. O'zbek tilidagi bu xususiyat akkomodatsiyaga misol bo'la oladi. Unli tovushlar burun undoshlaridan oldin **nazalizatsiya** qilinishi regressiv akkomodatsiyaga misoldir: *qon, tong, tom* kabi. *Non, nom, ming* so'zlarida bir yo'la progressiv va regressiv akkomodatsiya kuzatiladi, chunki ikki burun undoshi orasidagi unli nazalizatsiya qilinadi.

O'zbek tilidagi *qurt, bolta, qatra, mingta, kamchil* so'zlaridagi undosh birikmalarining har ikki elementi bir-biriga ta'sir qilib jarangsiz undoshlar sonorlarni qisman jarangsizlashtiradi va o'z navbatida, sonorlar ham jarangsiz undoshlarda ovoz tonini kuchaytirib shovqinni pasaytiradi. Bu hodisa o'zaro akkomodatsiyaga misol bo'ladi.

Akkomodatsiya tovushlarning hosil bo'lish o'rni va usuli, labning holat va tovush psychalarining tebranishi va yaxshi tebranmasligiga ko'ra moslashuv orqali amalga oshiriladi. Nutqdagi barcha tovusblar bir-biri bilan artikulyatsiya fazalari orqali bog'lanadi va bu artikulyatsiya tuzilishini tashkil etadi. Tovushlar o'rtasidagi bog'lanishning artikulyatsiya tuzilishini chuqur o'rGANISH yordamida fonetik hodisalar oydinlashadi.

Assimilyatsiya (yun. *assimilatio* – o'xshab ketish) – so'z tarkibidagi tovushlarning o'zaro ta'siri natijasida birini ikkinchisiga o'xhashlik tomon o'zgarishi. Masalan, *ishni* – *ishshi*, *ochdi* – *ochtii*, *otdan* – *ottan*, *otni* – *otti*, *bizni* – *bizzi*, *ketdi* – *ketti* kabi.

Assimilyatsiya hodisasi yo'nalishiga qarab ikki xil bo'ladi:

1) **progressiv assimilyatsiya** – oldingi tovushning keyingi tovushni o'ziga moslashtirishi: *ketdi* – *ketti*, *ekgan* – *ekkan* kabi.

2) **regressiv assimilyatsiya** – keyingi tovushning oldingi tovushni o'ziga moslashtirishi: *taqsimot* (*taksimot*), *utug'sifat* (*uluxsifat*), *o'taketgan* (*o'taketkan*), *o'qchi* (*o'xchi*), *tanbur* (*tambur*) so'zlarida regressiv assimilyatsiya kuzatiladi.

Shuningdek, *surnay* (*sunnay*), *karnay* (*kannay*), *tipirlatmoq* (*tipillatmoq*), *mahkam* (*makkam*) (Toshkent shevasida) kabilar to'la regressiv kontakt assimilyatsiyaga misoldir.

Tovushning o'zgarish darajasiga ko'ra assimilyatsiya yana ikki turga bo'linadi:

1) **to'liq assimilyatsiya** – kuchli va kuchsiz pozitsiyadagi tovushlarning bir-biriga aynan moslashuvi: *kissa* – *kista* kabi.

2) **to'liqsiz assimilyatsiya** – kuchli va kuchsiz pozitsiyadagi tovushlarning bir-biriga qisman moslashuvi: *tanbur* – *tambur*, *shanba* – *shamba* kabi.

Dissimilyatsiya (lot. *dissimilatio* – noo'xhash) – so'zdagi bir xil yoki o'xhash tovushlardan birining artikulyatsion-akustik jihatdan boshqa bir tovush tomon o'zgarishi. Masalan, *zarur* – *zarul*, *zarar* – *zaral*, *damba* – *danba*, *musulmon* – *musurmon*, *ambar* – *anbar* kabi.

Tovushning o'zgarish darajasiga ko'ra dissimilyatsiya yana ikki turga bo'linadi:

1) **to'liq dissimilyatsiya** – ikkita bir xil tovushdan birini noo'xhash tovushga aylanishi: *kissa* – *kista* kabi.

2) **to'liqsiz dissimilyatsiya** – so'z tarkibidagi tovushning artikulatsion xususiyatlaridan ayrimlarini o'zgarishi: *uchta* – *ushta* kabi.

Diereza. So'z tarkibidagi undosh tovushlarning tushib qolishi. Masalan, *go'sht* – *go'sh*, *do'st* – *do's*, *sust* – *sus*, *to'rt* – *to'r* kabi.

Epenteza (yun. *epenthesis* – kiritish) so'z o'rtasida tovush orttirilishi.

Ikki undosh qator kelganda, ular orasida *i*, *u*, *a* unliси orttiriladi: *ilm* – *ilim*, *sinf* – *sinif*, *fikr* – *fakir*, *hukm* – *hukum* kabi.

So'zning boshlang'ich qismiga tovushlarni qo'shib aytilsa, **proteza** deyiladi. Turkiy tillarda, xususan o'zbek tilida (og'zaki nutqda) rus tilidan kirgan so'z boshida kelgan undosh tovushlar

birikmasi oldidan *i*, *u* unlilarini qo'shib aylish protezaga misoldir: *stantsiya*, *sistansa*, *istansiya*, *stol* (*ustol*), *stul* (*ustul*), *spravka* (*isparapka*) kabi.

Arabcha o'zlashmalar tarkibida ikki onli orasida bir undoshning orttirilishi ko'proq kuzatiladi: *oila* - *oyila*, *foiz* - *foyiz*, *Saida* - *Sayida*, *soat* - *sog'at* kabi.

Gaplologiya (yun. *gaplos* - oddiy; *logos* - tushuncha, ta'limot) yasama so'zda bir xil yoki o'xhash bo'g'inlardan birining tushirib qoldirilishi: *mineralogiya* - *mineralologiya*, *morfonologiya* - *morfosonologiya*, *sarig'yog'* - *sariyog'* kabi.

Proteza (yun. *prothesis* - oldida turuvchi) so'z boshida tovush orttirilishi. Turkiy tillarda, xususan o'zbek tilida (og'zaki nutqda) *r*, *n*, *l* tovushlar birikmasi oldidan *i*, *u*, *o*' unlilari orttiriladi: *rus* - *o'ris*, *rizq* - *iris*, *nor* - *anor*, *loy* - *iloy* kabi.

O'zlashma so'z boshida sirg'aluvchi va portlovchi undosh qator kelganda undan avval unli orttiriladi: *stantsiya* - *istansa*, *istansiya*, *stol* - *ustol*, *shkaf* - *ishkaf*, *shtraf* - *ishtraf* kabi.

Metateza (grek. *metathesis* - o'rin almashtirish) nutq jaryonida so'zdagi tovushlarning o'rin almashinuvi. Masalan, *tuproq* > *turpoq*, *nusqa* > *nuxsa*, *to'g'ramoq* > *to'rg'amoq*, *qirg'iy* > *qiyg'ir*, *kunjut* > *kunduch* kabi.

Metotezaning 2 xil ko'rinishi mavjud:

1) **kontakt (yondosh) metateza** - yonma-yon kelgan tovushlarning o'rin almashinuvi: *daryo* - *dayro*, *o'rgat* - *o'grat*, *surpa* - *supra* kabi;

2) **distant (oraliq) metateza** - bir-biridan uzoqroqda joylashgan tovushlarning o'rin almashinuvi: *paypoq* - *payqop*, *aylanayin* - *aynalayin* kabi.

Aferezis - oldingi so'zning so'nggi tovushi ta'sirida keyingi so'z boshidagi tovushning tushishi: *ne uchun* - *nechun*, *mulla aka* - *mullaka* kabi.

Eliziya (lot. *elision* - siqmoq, itarib chiqarmoq) unli tovush bilan tugagan so'zga unli bilan boshlangan so'zning qo'shilishi natijasida bir unli tovushning tushish hodisasi: *bora oladi* - *boroladi*, *ko'ra olmoq* - *ko'rolmoq*, *dili orom* - *Dilorom* kabi.

Geminatsiya (qo'sh undoshlilik) – so'z tarkibida ikkita bir xil undoshning qavatlanishi: *rosa* – *rossa*, *toza* – *tozza*, *maza* – *mazza* kabi.

Diereza (yoki tushirib qoldirmoq) hodisasi undosh tovushlarni talaffuzdan tushirib qoldirish bilan izohlanadi: *go'sht* (*go'sh*), *rost* (*ros*), *surtmoq* (*surmoq*), *tandir* (*tanir*) kabi.

Nazorat uchun savollar:

1. Fonetik hodisa deganda nimani tushunasiz?
2. Fonetik hodisalar qanday omillar va sabablarga ko'ra yuzaga keladi?
3. Fonetik hodisalarning qanday turlari bor?
4. Pozitsion o'zgarishlarga qanday hodisalar kiradi?
5. Kombinator o'zgarishlar deganda nimani tushunasiz?
6. Assimilyatsiya nima? Uning qanday turlari bor?
7. Dissimilyatsiya qanday hodisa?
8. Reduksiya qanday hodisa?
9. Metateza nima?
10. Ditreza hodisasini izohlang.
11. Fonetik hodisalarning yana qanday turlari bor?

Grafika. Yozuv va uning turlari

1. Grafika haqida tushuncha.
2. Yozuv va uning turlari.
3. Yozuv birliklari.
4. O'zbek yozushi.
5. Yozuvning maxsus turlari. Transkripsiya.

Tayanch so'z va iboralar: *grafika*, *yozuv*, *yozuv ashyolari*, *piktografika yozuv*, *logografik yozuv*, *ieroglifik yozuv*, *fonografik yozuv*, *alfavit (alifbo)*, *yozuv birliklari*, *grafemalar*, *harf*, *tinish belgilari*, *stenografiya*, *transkripsiya*, *fonetik transkripsiya*, *fonologik transkripsiya*, *transkription belgilar*, *transliteratsiya*.

Grafika (yun. *grapfike* – yozma) termini tilshunoslikda quyidagi maʼnolarda qoʻllanadi:

1. Nutq tovushlarini yozuvda ifodalash vositalarining muayyan tizimi: *oʼzbek grafikasi, rus grafikasi* kabi.

2. Tilshunoslikning alifbodagi harflar tarkibini, yozilish shakllarini, harf va tovush munosabatlarini oʼrganuvchi sohasi.

Demak, yozuv, yozuv bilan boʼgʼliq masalalar, yaʼni harflarning yozilish shakllari, turlari, xususiyatlari, soʼzlardagi oʼmi va ular ifodalagan tovushlarning xususiyatlari kabi masalalar grafika sohasida oʼrganiladi. Grafika tilshunoslikning sonetika, fonologiya, orfoeziya, orfografiya sohalari bilan hamkorlikda ish olib boradi.

Nutqni qogʼozda aks ettirish uchun xizmat qiladigan harfiy grafik shakllar tizimi va shu tizimga asoslanuvchi aloqa vositasi **yozuv** deyiladi. Yozuv tilning makon (masofa) va zamon (vaqt) jihatdan chegaralanganlik qirralarini toʼldiruvchi ikkilamchi aloqa vositasidir. Yozuv jamiyat tarixi, adabiyot va sanʼat tarixi, til tarixini oʼrganishda muhim manbadir. Yozuv oʼz tarixiga ega. Yozuvning hozirgi koʼrinishlari uzoq izlanishlar va takomillashtirib borishlar mahsulidir.

Insonlar oʼtmishda piktografik, logografik, ieroglifik, fono-grafik, mixsimon yozuv turlaridan foydalanganlar.

Nutq mazmuni jonli va jonsiz narsalarning rasmi, shartli tasvir tarzidagi grafik shakllar asosida ifodalanadigan yozuv **piktografik** (lot. *pictus* – chizilgan va grek. *grapho* – yozaman) yozuv deyiladi. Mazkur yozuv birliklari **pikto-grammalar** deb ataladi.

Yozuvning bu turi mukammal boʼlmay, u rasmlar orasidagi munosabatlarni, ularning tarkibini koʼrsata olmaydi. Shuningdek, bu yozuvda mavhum tushunchalarni aks ettirish imkonи deyarli yoʼq edi. Bu holatlar mazkur yozuvdagи matnni bir necha xil oʼqishga, talqin qilishga olib keladi.

Piktografik yozuvning mukammallashib borishi natijasida **ideografik** (grek. *idea* – nishuncha va *grapheo* – yozaman) yozuv paydo boʼlgan. Manbalarda bu yozuv turi **logografik** (grek. *logos* – soʼz va *grapheo* – yozaman) yozuv deb ham ataladi. Bu yozuvda maʼlum ramzlardan foydalilanadi, ramzlar borliqdagi narsalarni aks ettirib qolmay, tildagi soʼzlarni ham ifodalaydi, tildagi har bir soʼz oʼz ramziga ega boʼladi. Logografik yozuv birliklari **logogram-**

malar deyiladi. Masalan, qadimgi arablar «yuz ming» sonini *itbaliq* shakli orqali ifodalashgan. Xitoyliklar esa «yaxshi» so'zini *ayol kishi, bola* ramzları orqali ifodalaganlar.

Logografik yozuvning biroz mukammallashgan shakli **ieroglifik yozuv**. Bu yozuvda qadimgi Arabistonda keng foydalanganlar. Hozirgi xitoy yozuvi shu tipdagı yozuvdir.

Agar logografik yozuvda ba'zi mavhum tushunchalarni ifodalash qiyin bo'lgan bo'lsa, endi, ieroglifik yozuvda bu masala ham uzul-kesil hal bo'ldi. Bu yozuvda alfavit tushunchasi ham paydo bo'la boshladi.

Yozuvning yuqoridagi keltirilgan barcha turlari o'qish va o'qitish ishlarini ancha qiyinlashtiradi. Yozuvning ommaviylash-tirish uchun uni osonlashtirish, soddalashtirish va qulaylashtirish lozim edi. Ana shu hayotiy ehtiyoj va talablar mahsuli sifatida **fonografik yozuv** yaratildi. Nutq tovushlarni ma'lum harflar vositasida ifodalashga asoslangan yozuv **fonografik yozuv** deyiladi. Fonografik yozuv **harf-tovush yozuvi** deb ham ataladi. Bu yozuvning eng mukammal shaklidir. Dunyo ahii keng foydalanadigan arab, rus kirillitsasi, hind, lot. yozuvlari ham fonografik yozuvlar sirasiga kiradi. O'zbek xalqi o'z tarixida foydalangan arab va lot. yozuvlariga asoslangan yozuvlar ham fonografik yozuvdir.

Harf-tovush yozuvi alfavitni vujudga keltirdi. Harflarning muayyan tartibdagı majmui **alfavit yoki alifbo** deyiladi.

Harf va tinish belgilari fonografik yozuv birliklari hisoblanadi. Ayrim ilmiy manbalarda yozuv birliklari **grafemalar** deb ataladi. Nutq tovushlari (fonemalar)ni yozuvda ifodalash uchun xizmat qiladigan grafik shakl, shartli belgi **harf** deyiladi. Masalan, hozirgi lot. yizuviga asoslangan yangi o'zbek fonografik yozuvida 26 ta harf va 3 ta harfiy birikma bor.

Tilning umumiyligi yozuv tizimida alohida guruhni tashkil etuvchi va yozma nutqda harflar yoki boshqa yozuv ifodalari bilan berib bo'lmaydigan tomonlarni ifodalash uchun xizmat qiluvchi belgilar **tinish belgilaridir**. O'zbek tili yozuv tiziunda quyidagi 10 ta tinish belgisidan foydalaniлади: . , : ; ... ? ! Ø - ««.

O'rta Osiyoda foydalanilgan fonografik yozuvlar

| | | |
|----------|---|----------------------------------|
| 1 | Oromiy yozuvi | Miloddas oldingi III-I asrlarda |
| 2 | Sug'd yozuvi | Eramizning I-VI asrlarida |
| 3 | Xorazm yozuvi | II-III asrlarda |
| 4 | O'rxun-Enasoy yozuvi (runik, turk-run, dulbajin) | V-VIII asrlarda |
| 5 | Uyg'ur alifbosi | VI-VII asrlardan XII asrgacha |
| 6 | Arab alifbosi | VII-VIII asrlardan 1929-yilgacha |
| 7 | Lot. lashtirilgan o'zbek alifbosi | 1929-1940-yillarda |
| 8 | Rus-kirill yozuvidagi o'zbek alifbosi | 1940-yildan to hozirgacha |
| 9 | Lot. yozuvi asosidagi o'zbek alifbosi | 1996-yil sentyabridan |

Yuqorida tilga olingan yozuvlardan tashqari hozirgi vaqtida maxsus yozuvlardan ham keng foydalaniladi. Stenografiya va transkripsiya yozuvning ana shunday maxsus turiga kiradi.

Tildan keyingi ikkilamchi aloqa vositasi yozuvning taraqqiyoti va takomilida yozuv ashyolari ham muhim ahamiyatga ega. Yozuv taraqqiyoti bilan bog'liq tarzda ular ham takomillashib, mukammallashib borgan.

Dastlab osuriyaliklar yozuv materiali sifatida sopol taxtachalardan foydalanganlar. Yahudiylar esa qo'rg'oshin plastinkalarga yozganlar. Rim imperatorligida mis va asl metallar – kumush, oltin ishlatilgan. Keyinchalik yozuv ashyolari olinadigan eng qulay manba o'simliklar dunyosi bo'lib qolgan. G'arb xalqlarining ko'pchiligi yozish uchun daraxt po'stlog'i va taxtachalardan foydalanganlar. Rimliklar birinchi bo'lib taxtachalarga yoza boshlaganlar. Ular qoraqayin, gipsdan kitob shaklida taxtachalar tayyorlab, sirtiga mum surtganlar va yozuv materiali sifatida ishlatganlar. Sharq mamlakatlarda taxtachalar o'miga palma bargi qo'llangan. Shuningdek, surp va shohilarga ham yozganlar. Qadimgi arablar esa suyakka, ayniqsa fil suyagiga xat bitganlar. Misrliklar yozuv uchun

papyrusni ixtiro qilishgan. Ular papirusdan qayiq yasashgan, bo'yra va ip to'qishgan, poyabzal tikishgan. Papirusning eng yaxshi poyalaridangina qog'oz tayyorlangan. Papirusdan qog'oz tayyorlash usuli qat'iy sir saqlangan. O'sha paytlarda papirus savdoda zig'irdan keyin ikkinchi o'rinda turgan.

Papirus so'zi asli yunoncha (papuros) bo'lib, *qog'oz* degan ma'noni anglaadi. Papirus so'zi o'zbek tilida quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

1) tropik va suptropik man'lakatlarda o'sadigan qamishsimon ko'p yillik o'simlik;

2) qadimgi misrliklar va boshqa xalqlar tomonidan shu o'simlik poyasi tilimlarini yelmlab yopishtirib, o'rana shaklida tayyorlangan, qog'oz o'rniда foydalanilgan material;

3) shunday materialga yozilgan qadimgi matn.

Shuningdek, tilimizda papirus so'zi asosida yuzaga kelgan *chekish uchun ichiga tamaki tiqilgan qog'oz naycha* ma'nosidagi *papiroso* so'zi ham mavjud bo'lib, so'z yunon tilidan lot. tiliga, undan nemis tiliga va rus tili vositasida o'zbek tiliga o'zlashgan.

Yunon tarixchisi Gerodot, Pliniy Starshiy qo'lyozmalarida qog'oz o'simlikning mag'zidan tayyorlanishi aytilgan. Unda yozilishicha, oq po'stloqdan mag'izni ajratib olib, uzoq vaqt ivitilgan. So'ngta uni zig'ir tolasidan to'qilgan gazlama ustiga tik va yonbosh qilib taxlangan, ustidan silliq g'o'lacha yurgizib, og'ir narsa ostiga bostirib qo'yilgan. Ma'lum bo'lishicha, qadimgi misrliklar papirus tayyorlashda o'simlik poyasidan foydalanishar ekan. Oktyabr-dekabr oylarida kesib olingan o'simlik poyasida yopishqoq shira bo'lib, bosim ostida u qatlamlarni bir-biriga yelmlar ekan. Yopishqoq shira o'simlikda faqat oktyabr-dekabr oylaridagina yaxshi to'planar ekan.

Misrliklar tayyorlangan papirus qog'ozga siyoh bilan yozishni ham kashf etganlar. Hozirgi kunda Berlin muzevida miloddan bir qancha asr ilgari Misr podsholarining o'n sakkizinchı xonadoniga qarashli fir'avnning papirusga yozilgan tarjimai holi saqlanmoqda.

Papirus mo'rtligi sababli tez sinavergan; yozuvni o'qishda katta noqulaylik tug'dirgan. Keyinchalik papirusning o'rniiga pergament yuzaga kelgan. Pergament undan ko'ra qulayroq va chidamliroq

bo'lgan. Uning hamma tomoniga yozish va buklab qo'yish mumkin bo'lgan.

Pergament so'zi yunoncha, Kichik Osiyoda ayni shu material keng qo'llangan shahar – Pergam nomidan olingen bo'lib, quyidagi ma'nolarni anglatadi:

1) qog'oz ixtiro qilingunga qadar maxsus yo'l bilan tayyorlangan va qog'oz o'rniда ishlatalgan hayvon terisi; teri qog'oz;

2) shunday teriga yozilgan qadimgi qo'lyozma;

3) suv va moy o'tkazmaydigan pishiq yupqa shaffof qog'oz.

(УТИЛ. – Тошкент: Узбекистон миллый енциклопедияси, 2007. – 3-ж. – Б. 247.)

Pergament qo'y, echki, quyon kabi hayvonlar terisidan ishlanib, yozadigan holatga kelgach, bozorga chiqarilgan. Ayrim manbalarda ko'rsatilishicha, pergament buzoq terisidan tayyorlangan. Pergamentga yozilgan xat uzoq saqlanuvchanligi, chidamliligi tufayli juda qimmat baholangan. Arablar Qur'on va dinka oid kitoblarni, xristianlar esa o'z Injillarini pergamentga yozdirganlar. X asrning oxirlarida xitoyliklar paxtadan ishlangan qog'ozni Yevropaga keltirib, uni grek pergamenti deb e'lon qilganlar.

Birinchi qog'ozni konfutsiychi-olim, ko'zga ko'ringan davlat amaldori Say Lun' eramizning 2-asrida 105-yilda ixtiro qilgan. U o'simlik tolalarining suvli bo'tqasini to'rdan o'tkazib, qog'oz olishga muyassar bo'lgan. Xitoy tilida qog'ozni «chji» deb atashgan. Qog'ozni avvallari ipak chiqindisidan, losdan, bambuk va tut po'stlog'idan tayyorlashgan. Chji papirusdan yengil va pishiq bo'lgan. Uni daftardek buklash mumkin bo'lgan.

Paxtadan qog'oz yasash usuli keng avj olib, hatto kanop, zig'ir keyinchalik turli xil polotnolardan ishlana boshlagan. Eramizning II asridan qog'oz dunyodagi hamma mamlakatlarga tarqala boshlagan va XIV asrda pergament butunlay iste'moldan siqib chiqarilgan. Uning o'rmini XII asrdan boshlab keng ko'lamda paper qog'ozini egallagan. Ipakdan qog'oz yasash usulini xitoyliklar o'zlashtirgan bo'lsalar, turklar bu jarayonni takomillashtirib, paxtadan ishlashni kashf etganlar. Bu usul keyinchalik arab va ispanlarga, undan keyin butun Yevropaga keng tarqalgan.

Qrim, Kavkaz va O'rta Osiyoda tutdoshlar oilasiga mansub qog'ozdaraxt, qog'oztut ham o'stiriladi. Qog'oztut asosan qog'oz

tayyorlashda ishlataladi. Uning po'stlog'idan a'llo sifatli qog'oz (qog'oz pullar va qimmatbaho qog'ozlar) ishlab chiqariladi.

Qog'oz kashf etilgandan so'ng yozuv quroli ham takomillashib bordi. Ularning shakli ham qaysi materialga ishlatalishiga qapab o'zgardi. Qattiq, cho'ziluvchan materiallarga po'lat igna, toshga esa temirdan yasalgan asbob, taxtaga temirdan yoki suyakdan ishlangan bir uchi o'tkir, qirrali, ikkinchi tomoni yassilangan yozuv quroli ishlatilgan. Papirus bilan pergamentga esa qamish yoki qo'g'ani tarashlab yozishgan.

Rimda kundalik yozuvar uchun yuziga mum surtilgan taxtachalar ishlatilgan. Mum qatlamiga o'tkir uchli cho'p – stil bilan yozilgan. Yozuv o'z vazifasini bajarib bo'lgach, stilning to'mtoq uchi bilan mum qatlami tekislangan va zarur paytda unga yana yozilgan.

XIV asrga kelib peroda yoza boshlangan. A. Rustamov ta'kidlaganidek, rus tilida pero so'zi uchi o'tkirlashtirilgan qush patlariga nisbatan ham qo'llangan. Aniqrog'i, Yevropada pero yasalgunga qadar oqqush yoki g'oz patidan foydalanganlar. O'zbek tilida pero so'zi faqat temirdan tayyorlangan yozuv quroliga nisbatan qo'llanadi.

Peroni **po'lat qalam** deb ham ataydilar. Po'lat pero birinchi marta 1780-yili Angliyada paydo bo'ldi, ammo u qirq yillardan keyin ommalashdi. XV asrga kelib hozirgi yozuv quroli – **qalam** kashf etildi.

Grafitdan, ya'ni to'q kulrang yoki qora tusli mineraldan yasalgan qalam **grafit** yoki **grifel** deb ataladi. Demak, grafit – tosh qalam.

Birinchi avtoruchka 1880-yili Amerikada kashf etilgan, sharikli ruchka esa XX asr ixtirosi.

Siyoh ham bir necha bor sifati va tarkibiga qarab turlanib kelgan. Rimliklar qurum, yelim va suv aralashmasidan ishlangan to'q jigarang bo'yoqdan foydalanganlar. Xitoyliklar mo'yqalam bilan suyultirilgan tushda yozishgan.

Ko'rindiki, buyumli, belgili, rasmli yozuv turlari hayotiy elтиyojlar asosida mukammalashib, hozirda faol iste'molda bo'lgan harf-tovush (fonografik) yozuvi yaratulgunga qadar bo'lgan davr oralig'ida yozuv ashyolari ham takomillashib borgan. Yozuv ash-

yolari takomili va taraqqiyoti yozuv tasviriy san'at bilan bog'liq holda, uning bag'rida paydo bo'lganligini yana bir bora tasdiqlaydi.

Til ikki shaklga ega: og'zaki va yozma nutq shakli. Tovushlar og'zaki nutqda, harflar esa yozma nutqda ishlataladi. Yozma nutq shakli ma'lum tilning alfaviti, grafika va orfografiyasidagi tartib va qoidalarni o'z ichiga oladi. Og'zaki nutq shakli esa, maxsus belgilar yordamida yozib olinadi. Ma'lum til yoki shevadagi tovushlar talaffuzini maxsus belgilar yordamida yozib olish transkripsiya deyiladi. Transkripsiya til yoki shevaning talaffuzini ilmiy tadqiq qilishga va chet tillarining talaffuziga o'rnatishda katta ahamiyatga egadir. Transkripsiya ma'lum prinsip yordamida tuziladi. Shu sababli bir tilda bir necha turli transkriptsiya turlari ishlataladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Grafika sohasi qanday masalalarni o'rGANADI?
2. Yozuv deb nimaga aytildi?
3. O'tmishda yozuvning qanday turlari mavjud bo'lgan?
4. Fonografik yozuv qanday yozuv?
5. Fonografik yozuv qanday birliklarga asoslanadi?
6. Harf deb nimaga aytildi?
7. Tinish belgilari deb-chi?
8. Stenografiya nima? Transkriptsiya nima? U qanday ahamiyatga ega?
9. Fonetik transkripsiya deganda nimani tushunasiz? Fonologik transkriptsiyanı izohlang.

Orfoepiya va orfografiya

1. Orfoepiya sohasi.
2. Orfoepik me'yori.
3. Orfografiya.
4. Imlo tamoyillari.
5. O'zbek imlosi.

Tayanch so'z va iboralar: imlo, imlo qoidalari, imlo tamoyillari, fonetik tamoyil, morfologik tamoyil, tarixiy-an'anaviy tamoyil,

shakliy (grafik-etimologik) *tamoyil*, *farglash* (differensiyalash) *tamoyili*.

Har bir adabiy til unda gapiruvchi barcha kishilar tomonidan ongli ravishda qabul qilingan talaffuz me'yoriga egadir. Tilning talaffuzi og'zaki nutq shakliga, imlo esa yozma nutq shakliga xos bo'lib, ular bir-biriga doim to'g'ri kelavermaydi. Orfoepiya (grekcha *orthos* – to'g'ri va *epos* – nutq) ma'lum tilningg to'g'ri talaffuz me'yor va qoidalari hisoblanib, unda so'zlovchilarning barchasi uchun tushunarli me'yor qabul qilingan bo'ladi. Orfoepiyaning asosini tilning fonetik tizimi, ya'ni undagi tovushlar, bo'g'in, urg'u, intonatsiya tashkil etadi. To'g'ri talaffuz etishni odatda tilning orfoepik me'yori deb yuritiladi. Albatta orfoepik me'yordan chetga chiqish hollari ham mavjud. Chunonchi, shevalar talaffuzi, vulgar yoki buzib talaffuz qilish kabilat. Odatda ba'zi tayanch shevalar talaffuzi adabiy til talaffuz me'yoriga yaqin turadi. Masalan, rus adabiy tilining talaffuziga Moskva va Peterburg talaffuzi asos qilib olingan. O'zbek adabiy tilining talaffuziga Toshkent va Farg'ona vodiysi shevalarining talaffuzi asos qilib olingan. Har bir til o'zining ma'lumi davrdagi orfoepik me'yoriga ega bo'lib, davrlar o'tishi bilan undagi fonetik va boshqa o'zgarishlar natijasida uning orfoepik me'yori ham o'zgarishi mumkin. Fonetika va fonologiyadagi nazariy tamoyillarga asoslanib, orfoepiya tilning talaffuz me'yorlarini amaliy jihatdan qanday bo'lishini belgilab beradi. Ba'zan chet tilidan ona tiliga kirgan so'zlarning talaffuzi ham shu qabul qilgan tilning orfoepik me'yoriga moslashtirib talaffuz etiladi. (masalan, vokzal, rel's, miniatyura, jyuri kabi) haqiqiy turkiy so'zlarda urg'u asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. Biroq rus tili va u orqali chet tillardan kirgan so'zlarda urg'u har xil bo'g'inalarda bo'lishi mumkin. Bu esa o'zbek tilining orfoepik me'yorida urg'uning ko'chma, ya'ni so'zlarning har xil bo'g'inalariga tushish tartibini keltirib chiqardi (Masalan, fizik, Vashington, London kabi). Qo'shma so'zlarning har bir qismi o'zining alohida urg'usi bilan talaffuz etiladi. *taonnomia*, *gultojixo'roz* kabi.

Orfoepik me'yor og'zaki so'zlashuv nutqida va rasmiy nutqda ba'zi o'zgarishlarga uchraydi. Orfoepiya teatr, kino, radio, televi-

deniya va notiqlik san'ati va nutq madaniyatidagi barcha talaffuz xususiyatlarining yig'indisini adabiy me'yorga solib turuvchi mezon hisoblanadi.

Orfografiya (grek. *orthos* – to'g'ri + *grapho* – yozamau) – tilshunoslikning mustaqil sohalaridan biri. Orfografiya termini o'rniда **imlo** termini ham qo'llanadi: *o'zbek orfografiysi* – *o'zbek imlosi*, *orfografiya qoidalari* – *imlo qoidalari* kabi.

Imlo (arabcha) – to'g'ri, xatosiz ma'lum qonun-qoidalarga muvofiq yozish.

Orfografiya adabiy tilning yozma shakli uchun xos.

Orfografiya bo'limi quyidagi masalalarni o'rghanadi:

1) unli va undosh harflar imlosini;

2) bosh harflar imlosini;

3) bo'g'in ko'chirish qoidalalarini;

4) asos va qo'shimchalar imlosini;

5) so'zлarni qo'shib, ajratib va chiziqcha bilan yozish qoidalari (qo'shma, juft, takroriy so'zlar imlosi)ni;

6) qisqartma so'zlar imlosini.

Qisqasi, orfografiya to'g'ri yozish – imlo qoidalarini o'rghanadi.

Orfografiya to'g'ri yozish qoidalarini belgilashda ma'lum tamoyillaiga asoslanadi. Tilshunoslikda orfografiyaning quyidagi tamoyillari qayd qilinadi: fonetik, fonematik yoki morfologik, tarixiy yoki an'anaviy, ideografik yoki ramziy tamoyillar, lekin bularning mavqeiyi hamma tillarda ham bir xil emas: har bir tilning orfografiyasiga uchun u yoki bu tamoyil asos qilib olinadi.

O'zbek orfografiysi quyidagi tamoyillarga (printsipler)ga tayangan holda ish ko'radi:

1) fonetik tamoyil;

2) morfologik tamoyil;

3) tarixiy-an'anaviy tamoyil;

4) shakliy (grafik-etimologik) tamoyil;

5) farqlash (differentsiyalash) tamoyili.

Ayrim darslik va qo'llanmalarda **tamoyil** termini o'rniда **yozuv** termini qo'llangan: *fonetik tamoyil* – *fonetik yozuv* kabi.

Yozuvda so'z asos va qo'shimchalarning talaffuziga, aytilishiga muvofiq yozish **fonetik tamoyil** deyiladi. Masalan, *Yashil bo'yog bilan bo'yalgan, ust tononi qayrilgan o'ymakor panjarali*, katta va

og'ir darvozaga yetganda, yigitning yuragi biroz o'ynab ketdi. Gapdagi *bo'yalgan, qayrilgan, yuragi, o'ynab so'zları* sonetik tamoyil asosida yozilgan.

Rus tilidan o'zlashgan *minuta, sekunda* so'zları ham o'zbek tilida shu tamoyil bo'yicha *minut, sekund* shaklida yoziladi. Shuningdek, quyidagi so'z, asos va qo'shimchalar imlosi sonetik tamoyilga asoslangan:

1) *shahar, qorin, burun* so'zlariga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, asosdagi unli talaffuzda tushib qoladi va shunday yoziladi: *shahar + i - shahari, qorin + im - qornim, burun + i - burnim* kabi;

2) *k, q* undoshi bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, *k, q* undoshlari talaffuzda *g, g'* ga o'tadi hamda shunday yoziladi: *yurak + i - yuragi, bilak + im - bilagim, qishloq + i - qishlog'i* kabi;

3) ayrim so'zlardan *-a, -la* qo'shimchalari bilan fe'l yasalganda asos tarkibidagi *o* unlisi *a* talaffuz qilinadi hamda xuddi shunday yoziladi: *son + a - sona, ong + a - angla* kabi.

Yozuvda so'z, asos va qo'shimchalarni talaffuziga emas, asliga muvofiq yagona tanlangan, umumiy shaklda yozish **morfologik tamoyil** deyiladi. Masalan, *uchta, ketdi, yuribdi, kitob, kulib, guliston, uchinchi* so'zları *uchta, ketti, yuripti, kitop, kulip, guliston, uchunchi* tarzida aytilsa ham, yuqorida keltirilganidek, yagona tarzda yoziladi. Bu tamoyil o'zbek va rus tillari orfografiyasida asosiy tamoyil hisoblanadi. Masalan, *deraza* so'zi *akno* deb talaffuz qilinsa ham, *okno* tarzida; *suv* so'zi *vada* bo'lib eshitilishiga qaramay, *voda* tarzida.

Rus tilining *vokzal, doroga, tovar, komanda* kabi so'zlarida **o**; *bagaj, vagon, kabinet* kabi so'zlarida **a**; *injener, revizor, kefir* kabi so'zlarida **e**; *mesyats, zayats* kabi so'zlarida **ya**; *gorizont, ideya* kabi so'zlarida **i** harflarining yozilishi ham morfologik tamoyilga asoslangan. Umuman, rus tilida bu tamoyilga asoslangan imlo qoidalari, A.N.Gvozdevning qayd qilishicha, umumiy orfografik qoidalarning 71,4% ini tashkil qiladi.

Yozuvda so'z, asos va qo'shimchalarni tarixiy an'analarga aylanib qolgan qoidalarga muvofiq yozish **tarixiy-an'anaviy tamoyil** deyiladi. Demak, bu tamoyilda so'zlarning talaffuzi, yagona

shakllari ham e'tiborga olinmaydi. Masalan, *kaptar*, *nevara*, *odob*, *arava* tarzida yozish bilan bir qatorda, an'anaga muvofiq *kahutar*, *nabira*, *odob*, *aroha* tarzida yozilishi kabi.

O'zbek tilida *taqozo*, *musicha* so'zlarining yozilishi ham mana shu tamoyilga ko'radir: *taqozo* so'zi *taqoza*, *musicha* so'zi *musicha* shaklida talaffuz etilsa ham, an'anaga ko'ra *taqozo*, *musicha* tarzida yoziladi.

Ko'p G'arbiy Yevropa tillarida, shu jumladan, ingliz, fransuz tillarida shu tamoyilga amal qilinadi.

Yozuvda o'zbek tiliga boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarni o'sha tilda qanday bo'lsa, shu shaklda yozish **shakliy (grafik-etimologik) tamoyil** deyiladi. Masalan, *mayor*, *gramm*, *tramvay*, *trolleybus* so'zları kabi.

Yozuvda so'zlarni fonetik va boshqa vositalar yordamida farqlab yozish: *lola* (*o'simlik*) – *Lol a* (*ism*), *asal* – *Asa l* (*ism*), *tesha* (*ashoh*) – *Tesha* (*ism*) kabi.

O'zbek tilida atoqli otlarning bosh harf bilan yozilishi ham ramziy tamoyilga asoslangan. Bu yo'l bilan o'zbek tilidagi atoqli otlar turdosh otlardan farqlanadi: *temir* – *Temir*, *bolta* – *Bolta*, *lola* – *Lola*, *nilufar* – *Nihifar* kabi.

Ramziy tamoyil orqali fonetika ajrata olmaydigan leksik omonimlarning farqi ko'rsatiladi. Ramziy tamoyil bo'yicha omonimlar ham yozuvda shartli belgilar bilan farqlanadi: *atlas* (*mato*) – *atlas* (*geografik xarita*), *yangi* (*sifat*) – *yangi* (*ravish*).

Har bir yozuv hukumat tomonidan tasdiqlangan imlo qoidalariga amal qiladi.

Kirill yozuviga asoslangan «**O'zbek orsografiyasining asosiy qoidalarি**» 1956-yil 7-aprelda tasdiqlangan. Kirill yozuvidan foydalanganda ana shu imlo qoidalariga amal qilinadi.

Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga oid O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustda «**O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida**» qarori qabul qilingan «**O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarি**» 82 banddan iborat. Ana shu imlo qoidalariga amal qilish hozirgi yozumiz mukammalligini ta'minlaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. Orfoepiya sohasi qanday masalalarni o'rganadi?
2. Orfoepik me'yor nima?
3. Orfografiya sohasi qanday masalalarni o'rganadi?
4. Orfografiyaning qanday tamoyillari mavjud?
5. O'zbek orfografiyasi qanday tamoyillarga asoslanadi?

Leksikologiya. Leksemaning ma'no tuzilish

1. Leksikologiya va u o'rganadigan masalalar.
2. Leksikologiyaning bo'limlari.
3. Tilning lug'aviy birliklari.
4. Leksema va so'z.
5. Leksemaning shakliy va ma'noviy tuzilishi.
6. Leksemaning mazmuni.

Tayanch so'z va iboralar: *leksikologiya, semasiologiya, onomasiologiya, onomastika, leksema, so'z, tilning lug'aviy birliklari, lug'aviy ma'no, o'z ma'no, ko'chma ma'no, birma'nolilik (monosemiya), ko'pma'nolilik (polisemiya), leksemaning mazmuni, sema, semema, so'z ma'nosining ko'chish usullari, metaspora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik.*

Leksikologiya (*yun. lexikos – lug'atga oid + logos – ta'limot*) tilshunoslikning leksema, leksik (lug'aviy) ma'no, lug'aviy birliklarning ma'no tuzilishi, shakl va ma'no munosabatiga ko'ja turlari, ularning hududiy va ijtimoiy qatlamlari, yangi so'zlarning paydo bo'lishi kabi masalalarni o'rganuvchi bo'limi. Demak, leksikologiya tilning lug'at tarkibini o'rganadi.

Leksikologiya sohasiga oid masalalar Sh.Rahmatullayev, E.Begmatov, M.Mirtojiyev, H.He'matov, R.Rasulovlar tomonidan tadqiq etilgan.¹

¹ Janba. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1983. – 312 b. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 1980. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1984. – 216 b.; Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'ati. – Toshkent: O'zbek FA nashriyoti, 1963. – 260 h.; Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilning leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985. – 200 h.; Mirtojiyev M. O'zbek tilida polisemiya. – Toshkent:

Leksikologiyaning, o‘z navbatida, semasiologiya, leksikografiya, etimologiya, frazeologiya, onomasiologiya, onomastika kabi bo‘limlari bor.

Semasiologiya (*yun. semasia – ifodalash + logos – tushuncha, ta’limot*) leksikologiyaning til birliklarining, birinchi navbatda, lug‘aviy birliklarning semantik tuzilishi va u bilan bog‘liq masalalarni, jumladan, ma’no taraqqiyoti, **birma’nolilik** (monosemiya) va **ko‘pma’nolilik** (polisemiya) hodisalarini o‘rganuvchi bo‘limi. O‘zbek tili semasiologiyasi masalalari Miraziz Mirtojlyev tomonidan o‘rganilgan.

Onomasiologiya leksikologiyaning lug‘aviy birliklarning nomlash va tushuncha anglatish taimoyillari hamda qonuniyatlarini o‘rganuvchi bo‘limi.

Onomastika tilshunoslikning tildagi har qanday (barcha tipdag‘i) atoqli otlarni tadqiq qiluvchi sohasi.

Demak, onomasiologiya va onomastika bo‘limlarini farqlash lozim. Onomasiologiyada narsa-buyumlar va hodisalarga nom berish jarayoni, onomastikada esa narsa-hodisalarning maxsus nomlari - atoqli otlar o‘rganiladi.

Leksikografiya lug‘at va uning turlarini, lug‘at tuzishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganuvchi bo‘lim.

Etimologiya (*yun. etimologia < etimon – haqiqat, so‘zning haqiqiy ma’nosи + logos – tushuncha, ta’limot*) so‘z va morfema-larning kelib chiqishi va tarixini o‘rganuvchi soha.

O‘zbek tilshunosligida etimologiya sohasi rivojida Sh. Rahmatullayevning xizmatlari katta. Olim bir necha jildlik etimologik lug‘atlari yaratdi.¹

Tilning hozirgi holati va tarixiy bosib o‘tgan yo‘li jihatidan leksikologiya tarixiy va zamонавиу leksikologiya deb ataluvchi alohida sohalarga ham bo‘linadi. Tilning lug‘at boyligi tasnifiy va qiyosiy talqin etilishi mumkin. Ayrim olingan tilning lug‘at boyligini har tomonlama o‘rganuvchi soha **tasnisiy leksikologiya**,

Fan, 1975 : Mirtojlyev M. O‘zbek tilt semasiologiyasi. – Toshkent: Fan. 2008 : Ne’matov H., Ravilov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi. 1992. – 128 b.

¹ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘atlari (turkiy so‘zlar). – Toshkent: Universitet, 2000. – 600 b. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘atlari (arab so‘zlar va ular bilan hissilar) – Toshkent: Universitet, 2003. – 600 b.; Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘atlari (forscha so‘zlar va ular bilan hissilar). – Toshkent: Universitet, 2003 – 600 b.

ikki yoki undan ortiq tillarning lug'at boyligini qiyosiy tekshiradigan soha **qiyosiy leksikologiya** deb ataladi.

Tilning lug'aviy (leksik) birligi leksemadir. **Leksema** so'zning grammatik ma'no bildiruvchi qoshimchalarsiz qismi; tilning lug'at tarkibiga xos birlik.

Leksema anglatadigan ma'no, ma'lum tovushlar majmuini muayyan obyektiv voqelikka bog'lash bilan kishi ongida yuzaga keladigan mazmun, ya'ni undan anglashiladigan narsa-buyum, voqeysa-hodisa, belgi-xususiyat **leksik ma'no** (lug'aviy ma'no) deb ataladi. Masalan, *suvdon* so'zi «*aqushlarga suv beriladigan idish*», *suvchi* so'zi «*ekinlarni, xususan g'o'zalarni sug'oruvchi dehqon, sug'orish bo'yicha mutaxassis*» lug'aviy ma'nolarini anglatadi.

Ilmiy manbalarda leksik ma'no **semema** deb ham yuritiladi. Leksik ma'no, ya'ni semema **semalardan** tarkib topadi.

Sema leksik ma'no (semema)ni hosil qiluvchi ma'no bo'laklaridir. Mas., *tun* leksemasining ma'nosи – *suhaning kim botishidan kun chiqqungacha, oqshomdan tong otar vaqtigacha bo'lgan qismi*. Mazkur semema «*qorongi*», «*vagt*», «*kabi* semalardan tarkib topgan.

Ilmiy manbalarda leksik ma'no quyidagi nuqtai nazarlardan turlarga ajratiladi:

- 1) yasalish munosabatiga ko'ra;
- 2) obyektni ifoda etishiga ko'ra;
- 3) nutqda vogelashishiga ko'ra.

Yasalish (hosil bo'lish) munosabatiga ko'ra leksik ma'no ikki turli bo'ladi:

- a) asos ma'no;
- b) yasama ma'no.

Leksemaning boshqa ma'nolatini kelib chiqishiga asos bo'lib xizmat qiladigan ma'nosи **asos ma'no** hisoblanadi. Masalan, *bosh* so'zining *tananing bo'yindan yuqorigi, oldingi qismi; kalla* ma'nosи uning asos ma'nosidir.

Leksemaning yasama ma'nosи **hosila ma'no** deb ham ataladi. Masalan, *bosh* so'zining *aql-hush, miya (Tog'ning ko'rki tosh bilan, odanning ko'rki bosh bilan. Maqol); boshliq, rahbar (Yaxshi yigit – davraning boshi. Maqol); lavozim, mansab jihatdan katta (bosh vrash qabulida bo'ldim); ulkan, katta, asosi (Shaharning bosh*

darvozasi shu);, eng muhim, asosiy, yetakchi (O'qish – bosh vazifa) kabi o'nlab ma'nolari uning hosila ma'nolaridir.

Albatta, asos ma'no va yasama ma'no ko'p ma'noli so'zlar uchun xos.

Obyektni ifoda etishiga ko'ta ham leksik ma'no ikki turli bo'ladi:

- 1) nominativ ma'no;
- 2) figural ma'no.

Leksemaning vogelik bilan bevosita bog'lanadigan, narsa-buyum, belgi, harakatning nomi bo'lib xizmat qiladigan ma'nosini **nominativ ma'no** deyiladi. Masalan, *ko'z leksemasingin ko'rish a'zosi, ruchka* leksemasingin *yozuv qiroli* ma'nolsi nominativ ma'nodir.

Leksemaning vogelik bilan bevosita bog'lanmagan, narsa-buyum, belgi, harakatning nomiga aylanmagan ma'nosini **figural ma'no** deyiladi. Masalan, *Hayyat o'z yo'lidan borar, bahor bolalarga o'z qurvonchi, o'z shodliklarini saxiylik bilan taqdim etgan edi.* (O'Hoshimov) *Bechora xotinlar bo'lsa, erlaridan bekitib yurgan pullarini da'vo qilolmay, damlari ichlariga nishib, kuyib qola berdilar.* (P.Tursun. O'qituvchi) *O'zi bilmaydi-yu, menga o'rgatganiga kuyaman!* (A. Qahhor. San'atkori)

Gaplarda yo'l leksemasi *yo'nalish, kuymoq so'zi ajrab qolmoq, alam qilmoq* kabi figural ma'nolarda qo'llangan.

Nutqda vogelashishiga ko'ta leksik ma'no ikki turga bo'linadi:

- a) erkin ma'no;
- b) bog'li ma'no.

Erkin ma'no narsa-buyum, belgi, harakat bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning vogelashuvi uchun ma'lum so'zlar qurshovi shart emas. Leksemaning erkin ma'nesi u alohida olinganda anglashilaveradi. Masalan, *do'ppi leksemasingin milliy bosh kiyim, og'iz so'zining ovqat hazmi qilish a'zosi* ma'nolari erkin ma'no.

Demak, leksemaning erkin ma'nesi boshqa so'zlar yoki so'zlar qurshovi (kontekst)ga bog'liq bo'lmaydi.

Leksemaning biror narsa-buyum, belgi, harakat bilan bevosita bog'liq bo'lgan, ma'lum so'z va so'zlar qurshovidagina vogelashidigan ma'nosini **bog'liq ma'no** deb yuritiladi. Masalan, *Imsizlikni*

nochorlik va noshudlik, alam va sitam, xo'rlik va baxtsizlik manbai deyishadi. (F. Musajonov, Himmel)

Gapdag'i *manbai* leksemasining bir necha so'zlar qurshovida ifodalagan *ish-harakatning yuzaga kelish uchun asos – omil bo'lgan sabab* ma'nosi uning bog'liq ma'nosi hisoblanadi.

Semantik maydon. Ma'lum arxisema asosida birlashuvchi so'z va iboralar majmui. Masalan, oziq-ovqat nomlari: *patov, lag'mon, sho'rva, mastava, qotirma, manti* kabi.

Leksema va so'z tushunchalarini farqlash lozim.

So'z – leksemaning nutqda ma'lum shakl va vazifada vogelangan ko'rinishi. O'z tovush qobig'iga ega bo'lgan, narsa-buyum, belgi, hajakat haqidagi tushunchani, ular o'rtasidagi aloqani yoki ularga munosabatlarni ifodalay oladigan, turli grammatik ma'no va vazifalarda qo'llanadigan eng kichik nutq birligi. Demak, leksema va so'z bir-biriga bog'liq, aloqador birliklar bo'lsa-da, aynan bir xil birlik emas. Leksema – til birligi, so'z – nutq birligi. Leksema tilshunoslikning leksikologiya, so'z morfologiya sohasida o'rganiladi.

Eslatib o'tilgani singari, so'z tilshunoslik fanining barcha bo'limlari uchun asosiy tekshiruv obyekti hisoblanadi. Masalan, fonetik jihatdan olganda, so'z tovushlarning real qo'llanishi uchun asosiy obyekt bo'lib, u fonetik butunlikni tashkil etadi.

Morfologik jihatdan so'z alohida ahamiyat kasb etadi. Morfologiyada uning shakllanishi, tuzilishi va turkumlarga bo'linishi kabi qator masalalar o'rganiladi. Sintaksida esa so'zlarning o'zaro munosabatga kirishuvi tekshiriladi. Ammo shuni ham aytish kerakki, so'z har qanday obyekt tarkibida o'rganilganda ham, uning til belgisi sifatida shakl va ma'no birligi to'liq saqlanadi.

Tilshunoslikda **signifikat** termini ham qo'llanadi. Leksema ifodalydigan tushuncha **signifikat** deb ataladi. Leksema vositasida nomlanuvchi, ataluvchi narsa-buyum yoki hodisa **denotat** hisoblanadi. Denotat bilan bog'liq, uni bevosita bildiruvchi ma'no esa **denotativ ma'no** deb yuritiladi.

Bunda quyidagi uchburchak hosil bo'ladi:

So‘z

Stol

Buyum turi

Denotat

Signifikat

Narsa

Tushuncha

Ko‘rinadiki, so‘z shakl, narsa (hodisa) va mazinundan tashkil topadi.

Leksema bilan denotat va signifikat o‘rtasida nisbiy bog‘lanish mavjud, ya’ni biz biror tushunchaga ega bo‘lish maqsadidagina ma’lum bir leksema vositasida niniani-dir aytamiz va bu haqda ma’lum bir tushunchaga ega bo‘lamiz. Aslida esa so‘z bilan u atayotgan narsa o‘rtasida hech qanday bog‘lanish yo‘q.

So‘z va narsa o‘rtasidagi muammo juda ko‘p davrlar mobaynida tortishuvlarga sabab bo‘lib keldi. Hatto XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Avstraliyada Rudolf Meringer boshliq «So‘z va narsa» nomi bilan ataluvchi maxsus maktab ham vujudga kelgan.

Shunday qilib, so‘z vogelikdagi biror narsani, voqeani, hodisani nomlaydi. Ana shu jarayonda so‘zning ma’nosini shakllanadi.

Leksik ma’no boshqa ma’nolarga qaraganda konkret va individualdir. Har bir leksik ma’no muayyan bir so‘zga tegishli bo‘ladi va tilda virtual, ya’ni umumlashtiruvchi, mayhum holatda yashaydi. Masalan, *qanot* so‘zi orqali qushlarning, samolyotning qanotlarini tushunish mumkin. *Dasta* so‘zi orqali ketmonning, belkurakning, choynakning ma’lum bir moslamasini tushunamiz.

So‘zning leksik ma’nosini xususida gap borganda, dastlab uning tildagi va nutqdagi ma’nolarini farqlamoq darkor. So‘zning umumlashgan va nisbatan mayhum ma’nolari tilga oid bo‘lib, ular **lug‘aviy ma’no** deb ataladi. Har bir so‘zning konkret ma’nosini faqat nutqda belgilash mumkin. Masalan, *Yo‘lingizdan golmang. Men mashinaga minib jo‘nadim.*

Keltirilgan misollardagi *yo‘l* va *minib* so‘zlariga e’tibor beraylik. Bu so‘zlar ayni paytda o‘z lug‘aviy ma’nolaridan ancha yiroqlashgan, chunki bu o‘rinda *yo‘l ish* so‘zi bilan, *minib* so‘zi esa *o‘tirmoq* so‘zi bilan ma’nodosh bo‘lib kelmoqda.

Ba'zan nutq jarayonida so'zlarning lug'aviy ma'nosi me'yor darajasidan chiqib ketishini ham kuzatish mumkin. Masalan, *yuragi yorilayozdi*, *qulog'i og'ir*, *ichiga o't tushdi* kabi iboralarda *yorilmoq*, *og'ir*, *o't tushmoq* kabi so'zlarning ayni paytdagi leksik ma'nolari ularning lug'aviy ma'nolariga to'g'ri kelmaydi.

Shunday qilib, so'zlarning leksik ma'nolarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Atash ma'nosi: *arslon*, *bo'ri*, *ayiq*, *inson*, *hayvon*, *tosh*, *tuproq*, *suv*, *olov*, *ko'l*.

2. Ko'rsatish ma'nosi: *u*, *bu*, *shu*, *o'sha*, *ana bu*, *o'shal* (*bul*, *shul*).

3. Ko'chma ma'no: insonga nisbatan: *tulki*, *chayon*, *latta*, *olov*, *maymun*; harakatga nisbatan: *yondirmoq*, *suv sepmoq* va h.k.. Ko'chma ma'noni ayni paytda ma'noning bir predmetdan ikkinchisiga ko'chirilishi deb tushunmoq kerak. Chunki ma'noning ko'chirilishi frazeologik iboralarda so'zlarning ko'chma ma'noda ishlatalishi bilan mushtarak bodisa (lar) emas.

So'zlar nutqda o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llanadi. So'zning alohida olinganda anglatadigan ma'nosi o'z ma'no hisoblanadi. Masalan, *gap* – so'zlar orqali bayon qilingan fikr; *bol* – asal, o'simliklar gulidagi shiraning asalarilar organizmida qayta ishlanishidan hosil bo'ladigan shirim, suyuq oziq mahsuloti.

So'zning nutq tarkibida boshqa so'zlar qurshovida (kontekstda) o'z ma'nosidan tashqari anglatadigan qo'shimcha ma'nosi ko'chma ma'no hisoblanadi. Masalan,

1. *O't ishi* – qovurmoq. *Qalbida ishq o'ti alangaladi*. Gaplardagi o't so'zi ko'p ma'noli bo'lib, birinchi gapda o'z ma'nosida, ikkinchi gapda ko'chma ma'noda qo'llangan.

2. *Bol* so'zi quyidagi gaplarda *tot*, *lazat* kabi ko'chma ma'nolarda qo'llangan: *Til bor* – *bol keltirar*, *Til bor* – *balo keltirar* (Maqol). *Tilingda bo'lsa boling*, *Kulib turar iqboling*. (Maqol).

So'zning ko'chma ma'nolari ma'no ko'chishi asosida yuzaga keladi.

So'z ma'nosi quyidagi usullar bilan ko'chadi:

- 1) **metafora;**
- 2) **metonimiya;**
- 3) **sinekdoxa;**

4) funksiyadoshlik (vazifadoshlik).

Piedmetlarning belgi-xususiyatlarining nisbiy o'xshashligiga ko'ra birining nomini ikkinchisiga ko'chishi **metafora** (grek. *metathora* – ko'chirish) deyiladi. Masalan, *dalaning etagi, qozonning qulog'i, ariqning labi, bulogning og'zi* birikmalarida *etak, qulog, lab, og'iz* so'zlarining shakliy o'xshashlik asosida boshqa predmetga nom bo'lib ko'chgani kabi.

Metafora nutq uslublariga xoslanganligiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

- 1) oddiy metafora;**
- 2) badiiy (poetik) metafora.**

Kundalik muloqotda, so'zlashuvda qo'llanadigan metafora **oddiy metafora** hisoblanadi. Masalan, *I. Daryoning yoqasida bir chol o'tirardi.*

2. O'choq og'zidagi o'nga qo'yilgan qumig'on qaynamogda. Mazkur gaplardagi *yoqa, og'iz* so'zları ma'nosi metafora usulida ko'chgan.

Badiiy nutqda – nasriy va she'riy asarlarda badiiylik, obrazlilik va ta'sirchanlikni ta'minlash, ifodalash uchun qo'llanuvchi metafora **badiiy metafora** deyiladi. Masalan, *oltin kuz, zumrad bahor, kumush qish* birikmalaridagi *oltin, zumrad, kumush* so'zlarining ma'nosi badiiy metaforaga misol bo'la oladi.

Bir predmet, belgi, harakat nomini o'zaro tashqi va ichki bog'liqlik, aloqadorlik asosida boshqa predmet, belgi yoki harakatga nisbatan qo'llash, shunday qo'llash asosida nom ko'chishi **metonimiya** (grek. *metonymia* – qayta nomlash) deyiladi. Masalan, *samovar so'zining choyxona* (*Samovarda o'tirdik. Kecha samovarga chiqdim. Samovarda osh yedik kabi*), *zal so'zining odamlar* (*Zal kildi. Butun zal oyoqqa turdi*) ma'nosida qo'llanishi.

Metonimiya usulida so'z ma'nosining ko'chishi ko'p kuzatiladi:

I. Fuzuliyini oldim qo'limga,

Majnum bo'lib yig'lab qichgirdi. (E. Vohidov)

Baytda *Fuzuliy* so'zi metonimiya usulida *shoir asarlari, dostonlari* ma'nosida qo'llangan.

2. Mehmon kirishi bilan zal oyoqqa turdi. Gapda *zal* so'zi *odamlar* ma'nosida qo'llangan.

Predmetning butuni orqali qismini, qismi orqali butunini ifodalash; bir predmet nominining boshqa predmetga butun va qism

munosabati asosida ko'cbishi **sinekdoxa** (grek. *synecdoche* – birgalikda anglash) deyiladi. Masalan, *U tirnoqqa zor*. Gapdag'i *tirnoq* so'zi sinekdoxa asosida *farzand*, *bola*, ya'ni butun ma'nosida qo'llangan.

Sinekdoxaning quyidagi ko'tinislari bor:

1) qism nomini butunga ko'chishi:

Men ham tirnoqqa zor emasman.

Quynoq tongning oltin bo'sag'asida

Tongni kutar quynoq ming-ming ko'z.

2) butun nomining qismiga ko'chishi:

Yigit qizning qo'liga uzuk taqdi. Besh qo'l barobar emas.

Gapda qo'l so'zining *barmoq* ma'nosida qo'llanganı kabi.

Predmetlarning vazifalarining bir xilligi, o'xshashligiga ko'ra so'z ma'nesi (nomi) ning ko'chishi **funksiyadoshlik** yoki **vazifadoshlik** deyiladi. Masalan, *Oush qanot qoqdi. Samolyotning qanoti sindi* kabi. Gapda *qushning uchishi uchun xizmat qiluvchi a'zosi* ma'nosidagi *qanot* leksemasining shunday vazifani bajaruvchi samolyot qismiga nisbatan qo'llanishi kabi.

Nazorat uchun savollar:

1. Leksikologiyaning tekshiruv obyekti nimalardan iborat?
2. Leksikologiyaning qanday bo'limlarini bilasiz?
3. So'z – signifikat – denotat tushunchalarini izohlang.
4. Leksik ma'no deganda qanday manoni tushunasiz?
5. So'z va tushuncha xususida ma'lumot bering.
6. Leksik ma'noning qanday turlarini bilasiz?
7. So'z ma'nosining ko'chirilishi qanday hodisalar doitasida ro'y beradi?

Barqaror birikmalar va frazelogizmlar. Paremiologiya. Frazelogiya

1. Barqaror birikmalar va ularning lisoniy xususiyatlari.
2. Paremiologiya sohasi.
3. Maqol, matal, hikmatli so'zlar.
4. Frazelogiya sohasi va u o'r ganadigan masalalar.

5. Frazelogizm va uning belgi-xususiyatlari.
6. Frazelogizmlarning boshqa til birliklaridan farqli jihatlari.

Tayanch so'z va iboralar: *barqaror birikmalar, maqol, metal, hikmatli so'zlar (aforizmlar), paremiologiya, paremalar, frazelogiya, frazelogizm (frazema), sinonim frazemalar, omonim frazemalar, antonim frazemalar, parafraza (tasviriy ifoda).*

Ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari **barqaror birikmalar** deyiladi.¹

Barqaror birikmalar sirasiga frazeologizmlar, maqol va matalar, aforizmlar kiritiladi.

Maqol, matal va aforizmlar **paremalar** deb ham yuritiladi. Paremiologiya frazeologiya bilan chambarchas bog'liq sohadir.

Maqol, matal va aforizmlar – **paremalar** quyidagi lisoniy xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

1. Tuzilishi va tarkibi barqaror, quyma, «qotib» qolgan holda bo'ladi.
2. Ma'no butunligiga ega.
3. Nutqda o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llanadi.
4. Tuzilishiga ko'ra birikma va gap shaklida bo'ladi.
5. Xalq donishmandligi, mantiqiy fikrlash mahsuli.
6. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjud bo'lib, nutqqa tayyor holda olib kiriladi.
7. Fikri ta'sirchan, mazmunli, obrazli ifodalashga xizmat qiladi.
8. So'zlashuv, badiiy va publisistik nutq uslublarida faol qo'llanadi.

Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, alovida ritmik-melodik xususiyatlarga ega, xalq donishmandligi mahsuli bo'lgan barqaror birikmalar **maqol** sanaladi. Masalan, *Mehnat, mehnatning*

¹ Nurmanov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Tashkent: N.M. ZIYO, 2010. – B.

*tagi rohat. Ilm ko'p-u, umr oz, keragini ol-u, toshga yoz. Ilm ko'p, umr oz, zarurini o'qi! Ilm olish nina bilan qiduq qazish kabitidir.*¹

Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, hayotiy vogelikni ixcham, lo'nda, ta'sirchan ifodalovchi xalq donishmandligi mahsuli bo'lgan, ko'chma va o'z ma'nosida qo'llanuvchi barqaror birikmalar **matal** deyiladi. Masalan, *Thyaning dumi yerga tekkanda. Qizil qor yoqqanda* kabi.

O'zbek tilida gul tarkibli paremiyalar ham ko'p:

Gul – bahona, diydor – g'animat.

Gul – joyida chiroylı.

Gul – gulga, tikon – tikonga.

Gulni gulga qo'sh!

Guli uchun tikonni ham sug 'orasan.

Gulning ham tikoni bor.

Gul tikonsiz bo'lmas.

Gul qadrin bulbul bilar.

Hikmatli so'zlar (aforizmlar) – grammatik jihatdan gap holida shakllangan, aniq, ixcham, chuqur mazmunli ma'lum shaxs tomonidan yaratilgan barqaror birikmalar. Masalan, ilmnинг qudrati, ulug'ligi, foydasi haqidagi hikmatli so'zlar:

*Ilm hikmatni keltirib chiqardi. Hikmat – falsafa esa ilm sirlarini butun dunyoga yoydi (Abdulqodir Bedil). Ilm insontarning madori, hayoti, rahbari, najotidur (Abdulla Avloniy). Alhosil, butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilma bog'tidur. Millatga ilm kerak, ma'rifat kerak (Abdulla Qodiriy). Ilm o'qishga bog'liq, faxr – ishga, farovon hayot – tirishqoqlikka, mukosot – taqdirga («Avesto»dan)*²

Ikki va undan ortiq so'zning barqaror munosabatidan tashkil topgan, ma'nosi odatda bir so'zga, ba'zan so'z birikmasi, gapga teng keladigan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi, ko'chma ma'noli barqaror (turg'un) birikma **ibora** yoki **frazeologizm** deyiladi. Masalan, 1. *U ilomning yog'ni yalagan odam.* 2. *Bizning orzularimiz ko'p edi, ammio peshonamizga yozilgani shu bo'ldi.*

¹ Shomagsudov Sh., Sherahmedov Sh. Ma'nolar maxzuni. Toshken: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001.

² Uluqov N., Tojiboyev Sh. Ilm hikmati. Namangan, 2014. - b

3. Ikkala do'st gapni bir joyga qo'yib ish boshtashdi. Bu gaplarda ilonning yog'ni yalagan (mug'omibir), peshonamizga yozilgani (taqdir, qismat), gapni bir joyga qo'ymoq (ahdlashmoq, kelishmoq) iboralari qo'llangan.

Frazeologizmlar tilshunoslikda **frazema**, frazeologik birikma, **ibora** deb ham ataladi.

Frazeologizmlar adabiy tilning badiiy va so'zlashuv uslubida keng, ko'proq qo'llanadi va nutqni ta'sirchan, orazli ifodalashga xizmat qiladi.

Oo'ling o'rgilsin, yurak-bag'ri xun, parvoysi palak iboralari belgi bildiradi.

Qulog'dan kun ko'rindi iborasi juda ozg'in ma'nosini anglatadi.

Frazemalar shakl va ma'no xususiyatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Frazeologik sinonimlar. Bir xil umumiy ma'noga ega, ma'no nozikligi, uslubiy bo'yog'i va boshqa jihatlariga ko'ra farqlanuvchi frazeologik birliklar. Masalan, *do'ppisini osmonga otmoq, og'zi qulogida, og'zining tanobi qochmoq* (xursand); *yulduzni benarvon uradigan, tegirmondan butim chiqadigan* (epchil); *yoqasini ushlamoq, og'zi ochilib qolmoq* (hayratlanmoq); *tarvizi qo'lting'idan tushdi, suv tekin* (arzon) kabi.

2. Frazeologik antonimlar. Zid ma'noli frazeologik birliklar. Masalan, *ko'kka ko'tarmoq – yerga urmoq, ko'ngli oq – ichi qora* kabi.

3. Frazeologik ononimlar. Talaffuzi va yozilishi bit xil, ma'nosи har xil birdan ortiq frazeologik birliklar. Masalan, *boshga ko'tarmoq* iborasi *to'polon qilmoq, hurmatlamoq* ma'nolarini anglatadi; *U lo'lilik qilib, hamma yoqni boshiga ko'tardi. Feruza onasini boshiga ko'taradi.*

Frazeologizmlar bir butun, yaxlit holda bir so'roqqa javob bo'ladi, gapda bir gap bo'lagi vazifasida keladi: *Uning oyoq olishi bizga yoqmadi.* Bu gapdagи *oyoq olishi* (yurishi) iborasi ega vazifasida qo'llangan.

Frazeologizmlar ko'chma ma'no ifodalashi, gapda butunicha bir sintaktik vazifada qo'llanishiga ko'ra oddiy so'z birikmalaridan farqlanadi. Iboralarni maqol va matallardan ham farqlash lozim.

Parafraza (grek. *paraprasis* – tavsifiy ifoda, tasvir) – narsa, voqeal-hodisani o‘z nomi bilan emas, balki ularning xarakterli belgi-xususiyatlari asosida tasviriy usul orqali ifodalash va shunday usul jarayonida yuzaga kelgan birlik.¹ Ilmiy adabiyotlarda parafrazaning muqobili sisatida **tasviriy ifoda** termini ham qo‘llanadi.

Parafrazalar narsa, voqeal-hodisalarning o‘z nomi orqali yuzaga chiqmagan muhim xususiyatlarini tasvirlab, bo‘rttirib, izohlab va to‘ldirib ko‘rsatadi, nomni ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi.²

Parafrazalar ham frazeologizmlarning bir turi. Narsa, voqeal-hodisaning o‘z nomi bilan atamay, boshqa narsa va hodisaga o‘xshatish orqali tasviriy ifodalovchi birlik parafraza hisoblanadi.

Parafrazalar narsa va hodisalarning ikkinchi nomi. Parafrazalar morfologik jihatdan asosan ot, qisman sifat turkumiga mansub bo‘ladi. Masalan, *oq oltin* – paxta, *kumush tola* – pilla, *zangori olov* – gaz, *o‘rmon malikasi* – archa, *mo‘yqalam soqibi* – rassom, *millionlar o‘yni* – futbol, *dala malikasi* – makkajo‘xori, *qazal mulkinining sultoni* – Alisher Navoiy, *qanoitu do‘silar* – qushlar kabi.

Parafrazalar narsa va hodisalarning muhim belgi-xususiyatlarini obrazli, ta’sirchan, bo‘rttirib ifodalaydi, asosan badiiy va publisistik uslubda keng qo‘llanadi.

Tildagi barqaror birikmalar: maqol, matal va aforizmlar (hikmatli so‘zlar)ni **paremiologiya** (grek. *paroimia* – hikmat, *logos* – ta’limot), frazeologizmlar esa **frazeologiya** sohasida o‘rganiladi.

O‘zbek frazeologiyasi Sh.Rahmatullayev, A. Mamatov, B.Yo‘doshevlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan.³

Nazorat uchun savollar:

1. Barqaror birikmalar deganda qanday til birliklarini tushunasiz?
2. Barqaror birikmalar sirasiga qanday birliklar kiradi?

¹ Озаров Азимова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва, 1966. – С. 312; Ноjiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1985. – B. 67.

² Озаров, Расулов Р., Умаров І. О‘zbek tili tasviriy ifodalalarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997. – B. 3.

³ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririylari, 1992.

3. Ular qanday xususiyatlarga ega?
4. Barqaror birikmalar qaysi nutq ushublarida faol qo'llanadi?
5. Maqol va matal qanday birlik?
6. Hikmatli so'z qanday barqaror birlik?
7. Paremiologiya qanday soha?
8. Frazeologizm qanday til birligi?
9. Frazeologizm qanday xususiyatlarga ega?
10. Frazeologiya qanday masalalarni o'r ganadi?

Tilning lug'at tarkibi

1. Lug'at tarkibi tushunchasi.
2. Til lug'at tarkibining taraqqiyot manbalari va usullari.
3. Til lug'at tarkibining tasnifi va tavsifi.
4. Til lug'at tarkibining tarixiy-etimologik qatlamlari.
5. Til lug'at tarkibining zamonaviyligiga va iste'mol doirasiga ko'ra turlari.
6. Termin va uning xususiyatlari. Terminologiya.

Tayanch so'z va iboralar: *lug'at tarkibi, til lug'at tarkibining taraqqiyot manbalari, ichki manba, tashqi manba, o'z qatlam leksikasi, o'zlashma so'zlar, eskirgan so'zlar, neologizm (yangi so'z), istorizm, arxaizm, jargo, argo, iste'mol doirasi chegaralangan so'zlar, umumiste'moldagi so'zlar, termin, terminologiya, ilmiy terminlar, kasbiy terminlar.*

Tildagi mavjud so'z va iboralar majmui tilning **lug'at tarkibi** deyiladi. Lug'at tarkibi termini o'mida *so'z boyligi, leksika, lug'at boyligi, lug'at sostavi* kabi terminlar ham qo'llanadi.

Tilning lug'at tarkibi doimo rivojlanib, boyib boradi. Bu jarayon ikki manba asosida amalga oshadi:

- a) ichki manba;
- b) tashqi manba.

Til lug'at tarkibining ichki manba asosida boyishi deganda sheva va lahjalardan so'z olish, yangi so'zlar yasash asosida boyishi tushuniladi. Masalan, *huvi, buva* so'zlati adabiy tilga Andijon sherasidan olingan, *bildirishnomma, dalolatnomma, ma'ruzachi* so'zlari yasama so'zlardir.

Chet tillardan so'z o'zlashtirish asosida til lug'at tarkibining boyishi tashqi omil asosida boyishi deyiladi. Bunda o'zbek adabiy tiliga fors-tojik, arab, rus va boshqa tillardan so'z o'zlashishi tushuniladi.

Chunonchi, *ishq*, *muhabbat*, *hukm*, *ma'no* so'zlari arabcha, *chamadon*, *obra'*, *sartarosh*, *dugona* so'zlari fors-tojikcha, *shkaf*, *ruchka*, *palto*, *kostyum* so'zlari ruscha o'zlashma so'zlardir.

Tilning lug'at tarkibidagi so'zlar tarixiy-etimologik manbalariga ko'ra quyidagi qatlamlarga bo'linadi:

1. O'z qatlamga mansub so'zlar. Tilning o'ziga mansub bo'lgan (boshqa tillardan o'zlashmagan), o'z qatlam va o'zlashma qatlam birliklari, vositalari asosida tilning o'zida yasalgan, hosil qilingan so'zlar o'z so'zlar sanaladi. Masalan, *ish*, *ishchi*, *ishboshi*, *bosh*, *boshliq*, *bog'lamoq*, *bog'liq*, *bog'lam*, *traktorchi*, *dasturchi*, *birjachi* kabi.

2. O'zlashma qatlamga mansub so'zlar. O'zga, xususan, xorijiy tillardan to'g'ridan-to'g'ri yoki biror til orqali qabul qilingan so'zlar o'zlashma so'zlardir. Masalan, forscha o'zlashmalar: *pahlovon*, *puxta*, *puchak*, *ravnaq*, *ravo*, *sarafroz*, *tarona*; arabcha o'zlashmalar: *rafiq*, *rafiqa*, *rasul*, *sehr*, *sinf*, *sulh*, *sunbula*, *suhbat*, *talaba*, *tanaffus*; ruscha o'zlashmalar: *sumka*, *schyot*, *para*, *otkritka*, *norka*, *nabor*; inglizcha o'zlashmalar: *provayder*, *rekord*, *reks*, *rekordsmen*, *reyting*, *reyd*, *regbi* kabi.

Til lug'at tarkibidagi so'zlar zamonaviyligiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Eskirgan so'zlar.

2. Yangi so'zlar.

Bugungi kunda ishlatalmaydigan, iste'moldan chiqib ketgan so'zlar eskirgan so'zlar hisoblanadi.

Eskirgan so'zlar ikki xil bo'ladi:

1) istorizmlar (tarixiy so'zlar);

2) arxaizmlar (eskirgan so'zlar).

Hozirda mavjud bo'lmanan, tarixiy, o'tminshda bo'lgan narsa, voqeal-hodisalarning ifodalovchi so'zlar istorizmlar yoki tarixiy so'zlar deyiladi. Masalan, *kanizak*, *jallod*, *yorg'uchchoq*, *cho'ri*, *mo'ndi* kabi.

Hozirda mavjud bo'lgan narsa va tushunchalarning eskirgan nomlarini bildiruvchi so'zlar **arxaik so'zlar** deyiladi. Masalan, bitik (*kitob, yozuv*), ochun (*dunyo*), shatranj(*shaxmat*), firqa(*partiya*), tilmoch (*tarjimon*), budun (*xalq*), alam (*bayroq*) kabi.

Yangi so'zlarga nisbatan neologizmlar termini qo'llanadi. Tilda narsa, tushunchalarni ifodalash uchun yangi hosil qilingan, boshqa tillardan yangi kirib kelgan, yangilik bo'yog'i sezilib turgan, qo'llanish xususiyatiga ko'ra nosaoi bo'lgan so'z va birikmalar **neologizm** (yun. *neos* – yangi + *logos* – so'z) lar deyiladi. Masalan, «*elektron hukmat*», *elektron kutubxona*, *elektron darslik*, *veb sayt*, *marketing*, *hissadorlik*, *menejer* kabi.

Tildagi so'zlar qo'llanish doirasiga ko'ra ikki turli bo'ladi:

- 1) qo'llanish doirasi chegaralanmagan so'zlar;
- 2) qo'llanish doirasi chegaralangan so'zlar.

Umumxalq tilida keng, faol qo'llanadigan va shu tilda so'zlov-chilarning barchasiga tushunarli bo'lgan so'zlar **qo'llanish doirasi chegaralanmagan so'zlar** hisoblanadi. Bunday so'zlarga kundalik faoliyatda faol qo'llanadigan so'zlar kiradi. Masalan, *non*, *ovqat*, *go'sht*, *choy*, *bormoq*, *kelmoq* kabi.

Ma'lum hududda yoki ijtimoiy guruh tilida qo'llanadigan so'zlar **qo'llanish doirasi chegaralangan so'zlardir**.

Qo'llanish doirasi chegaralangan so'zlar o'z ichida quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Hududiy chegaralangan so'zlar.
2. Ijtimoiy chegaralangan so'zlar.

Faqat ma'lum bir hududda, ya'ni qishloq va shaharda qo'llanadigan so'zlar hududiy chegaralangan so'zlar yoki shevaga xos so'zlar (dialektizmlar) deyiladi. Masalan, Buxoroda: *mak* (sigir), *kallapo'sh* (do'ppi), *mo'recha* (chimoli); Farg'ona vodiysida: *shoti* (*narvon*) kabi.

Ma'lum ijtimoiy guruh tilidagina qo'llanadigan so'zlar **ijtimoiy chegaralangan so'zlar** deyiladi. Ijtimoiy chegaralangan so'zlarga argotizmlar va jargonlar kiradi.

Argotizmlar (fran. *argotisme* – lahja) – birof ijtimoiy guruh, toifaning o'ziga xos, boshqalar tushunmaydigan so'zlari. Masalan, otarchilar tilida: *yakan* (pul), *qistirma* (pul), *ulush* (to'y yakunidagi

taqsimotga ko'ra olinadigan pul va boshha narsalar), o'g'ilar tilida: *xit* (xavf), *loy* (pul) kabi.

Jargonlar – biror guruh, tabaqa vakillarining boshqalardan ajralib turish maqsadida qo'llaydigan so'zları. Masalan, *tavojjuh aylang* (qarang), *padari buzruk vor*, *tahsiri olam* kabi.

Termin (lot. *terminus* – chek, chegara, chegara belgisi) – ilm-fan va kasb-hunar sohalariga oid narsa, voqeа-hodisa haqidagi tushunchalarni aniq ifodalaydigan, ma'nosи maxsuslashtirilgan, qo'llanish doirasи shu sohalar bilan chegaralangan so'z yoki birikma. Har bir fan yoki sohaning o'ziga xos terminlari mavjud.

Ayrim ilmiy manbalarda **termin** o'mida atama, **istiloh** so'zi qo'llanmoqda. Terminlar qo'llanishiga, qanday sohaga oidligiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Ilmiy terminlar.

2. Kasbiy terminlar.

Ilmiy terminlar ma'lum ilm-fan doirasida qo'llanadigan terminlardir. Masalan, tilshunoslik terminlari: *omonim*, *sinonim*, *paronim*, *ega*, *kesim*, *hol*, *morfema*; adabiyotshunoslik terminlari: *obraz* (*timsol*), *tashbeh*, *irsoli masal*, *radif*, *qosiya*, *aruz vazni*; geografik terminlar: *atlas*, *vulqon*, *materiklar*, *kontur karta*, *ekvator*, *biosfera* kabi.

Muayyan kasb-hunar sohasiga oid tushunchalarni ifodalovchi so'z va so'z birikmalari kasbiy terminlardir. Masalan, kosibchilik terminlari: *charm*, *charm rezgisi*, *qolip*, *sirach*, *qo'sh chok*; do'ppido'zlik terminlari: *jiyak*, *jiyak igna*, *kizak*, *pilik*, *taxtakach*, *qaviq chok*, *zira musxa* kabi.

Terminlar quyidagi asosiy lisoniy xususiyatlarga ega:

1. Terminlar ma'lum sohadagina faol qo'llanadi, iste'mol doirasи chegaralangan so'zlar sirasiga kiradi. Masalan, *paronim* termini tilshunoslik sohasida "talaffuzi bir-biriga o'xshash so'zlar, *omonimlarning bir turi*" ma'nosida faol qo'llanadi.

2. Terminlar aniq tushunchani ifodalab, emotsional-ekspressiv ma'no, ya'ni salbiy, ijobiy ma'nolar ifodalamaydi, uslubiy bo'yogqa ega emas.

3. Terminlar o'zi mansub soha doirasida bir ma'noda qo'llanadi, shuning uchun bir ma'noli (monosemantik) so'zlar sirasiga kiradi.

4. Terminlar muayyan soha kishilari tomonidan maxsus qabul qilingan, maxsuslashtirilgan so'zlardir. Shuning uchun terminlarni deyarli boshqa so'zlar bilan almashtirib bo'lmaydi. Masalan, tilshunoslikdagi *turlanish*, *tuslanish*, *fe'l*, *fe'l zamoni*, *bog'lovchi*, *ko'makchi* terminlari kabi.

5. Terminlar tuzilishiga ko'ra so'z va birikma shaklidida bo'лади:

a) so'z shaklidagi terminlar: *to'ldiruvchi*, *hol*, *lug'at*, *morfema*, *fonema*, *harf* kabi;

b) birikma shaklidagi terminlar: *qo'shma gap*, *ikkinchi darajali bo'yak*, *so'z yasovchi affiks*, *shakl yasovchi affiks* kabi.

6. Terminlarning katta qismi tarixiy-etimologik manbasiga ko'ra xorijiy tillarga mansub bo'lib, o'zlashma so'zlar qatlamiga mansubdir. Masalan, adabiyotshunoslik terminlari: *bahr*, *aruz*, *vasla*, *raviy*, *rukni*, *radif* (arabcha); *peyzaj*, *roman*, *remarka*, *portret* (fransuzcha); *tragediya*, *komediya*, *drama*, *trilogiya*, *monolog* (grekcha) kabi.

7. Terminlar asosan ilmiy uslubda, ayrim uslubiy maqsadlarda badiiy uslubda qo'llanadi. Masalan, O'ktam Usmonovning «Girdob» romanida paxtachilik seleksiyasiga oid *vilt*, *nav*, *chatishirish* terminlari qo'llangani kabi.

8. Terminlar ikki xil yo'l bilan hosil qilinadi:

a) umumxalq tilidagi so'zlarning ma'nosini maxsuslashtirish orqali: *son*, *bog'lovchi* (so'z turkumlari), *ega*, *hol* (gap bo'lagi), *o'xshatish* (badiiy-uslubiy vosita, badiiy san'at), *suv*, *ishqor* (kimyoviy elementlar) kabi;

b) xorijiy tillardan so'z o'zlashtirish orqali: *kasr*, *musbat*, *manfiy* (matematik terminlar) kabi.

Terminlar va ularning yaratish tamoyillari hamda tartibga solish masalalarini tilshunoslikning **terminologiya** sohasi o'rGANADI.

Nazorat uchun savollar:

1. Til lug'at tarkibi deganda nimani tushunasiz?
2. Tilning lug'at tarkibining o'zlashma qatlami deganda nimani tushunasiz?
3. Lug'aviy birliklar qo'llanish doirasiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

4. Iste'mol doirasi chegaralangan leksika sırasiga qanday lug'aviy birliklar kiradi?
5. Terninologiya qanday soha?
6. Termin qanday til birligi?
7. Terminning lisoniy belgi-xususiyatlarini izohlang.
8. Terminlar qanday yaratiladi?
9. O'zbek terminolgiyasining manbalarini tahlil qiling.

Leksikografiya (lug'atshunoslik)

1. Leksikografiya sohasi.
2. Lug'at va uning tuzilishi.
3. Lug'atlarning turlari.

Tayanch so'z va iboralar: *leksikografiya, lug'at, ensiklopedik lug'atlar, lingvistik lug'atlar, so'zlik, lug'at maqolasi, izohli lug'at, tarjima lug'ati, imlo (orfografik) lug'at, talaffuz (orfoepik) lug'at, etimologik lug'at, morfem lug'at, chastotali lug'at, ters (chappa) lug'at, dialektologik lug'at, frazeologik lug'at, terminologik lug'at, ma'nodosh so'zlar (sinonimlar) lug'ati, zid ma'noli so'zlar (antonimlar) lug'ati, shakldosh so'zlar (omoniimlar) lug'ati.*

Leksikografiya (grekcha *lexikos* – so'z, *grapho* – chizmoq, yozmoq) tilshunoslikning lug'at tuzish amaliyoti va nazariyasi bilan shug'ullanuvchi bo'limidir. Hozirda leksikografiya o'mida **lug'atshunoslik** terminini ham qo'llanmoqda. Demak, leksikografiya lug'at va uning turlari, lug'at tuzish tamoyillari kabi masalalarni o'rGANADI.

Leksikografiyaning barqaror birikmalar lug'atini tuzish muammlolarini o'rGANUVCHI bo'limi **paremiografiya** (lot. *parema* – barqaror, *grofho* – yozmoq), frazeologik lug'atshunoslik bilan shug'ullanuvchi sohasi **frazeografiya** (lot. *phrasis* – ibora, *grofho* – yozmoq) deb ataladi.

Mahmud Koshg'ariy ibn Husayn ibn Muhammadning XI asrda yaratilgan «Devonu lug'atit turk» («Turkiy so'zlar devoni») asari turkiy xalqlarning ilk lug'atidir. Demak, o'zbek lug'atchiligi ham shu asar bilan boshlandi. «Devonu lug'atit turk» turkiy xalqlar

tarixidagi dialektologik, izohli, etnografik, tarixiy-etnologik lug'at-larning barcha unsurlarini qamrab oluvchi dastlabki universal lug'at hisoblanadi.

O'zbek leksikografiyasini tarixiy nuqtayi nazardan ikki turga bo'lish mumkin:

1. Tarixiy leksikografiya.
2. Zamonaviy leksikografiya.

Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk», muallifi noma'lum Tole Imoniy Hirotiyning «Badoye ul-lug'at» («Ajoyib lug'at»), «Abushqa», Mirza Mehdihonning «Sangloh» lug'atlari tarixiy leksikografiya namunalaridir.

Qadimiy lug'atlardan yana biri «Abushqa» lug'atidir. «Abushqa» izohli lug'atlar guruhiga mansub bo'lib, Alisher Navoiy asarlaridan foydalanuvchilar uchun XVI asrda usmonli turk tilida Turkiyada tuzilgan. Lug'atga Navoiy zamondoshlarining asarlaridan ham ayrim misollar olingan. «Abushqa» lug'ati *abushqa* so'zi izohi bilan boshlangani uchun shunday nomlangan. Bu so'z eski o'zbek tilida «*keksa, qari, nuroniy, chol*» ma'nolarini anglatgan. «Abushqa» lug'atini yaratishda hirolik Tole' Imoniy Hiroviy tononidan XV asrda Navoiy asarlariga tuzilgan o'zbekcha-forscha «Badoye ul-lug'at» («Ajoyib lug'at») dan keng foydalanilgan.

Lug'aviy birliklar – so'z va iboralarning alifbo tartibida joylashtirib, turlicha izohlar berib, kitob shakliga keltirilgan to'plam lug'at deyildi. Lug'atlar turli maqsadlarda tuziladi.

Lug'atlar uch nuqtayi nazardan tasniflanadi:

- 1) hajmiga ko'ra;
- 2) so'zlikning berilish usuliga ko'ra;
- 3) maqsad-mohiyatiga ko'ra.

Lug'atlar hajm xususiyatiga ko'ra ikki turga bolinadi:

- 1) umumiylug'atlar;
- 2) maxsus lug'atlar.

Umumiylug'atlar o'z ichida hajmiga ko'ra uchga bo'linadi:

- 1) katta lug'atlar; 2) o'rtacha lug'atlar; 3) kichik lug'atlar.

Katta lug'atlar ilmiy manbalarda mukammal lug'at, xazima lug'at va akademik lug'at deb ham ataladi.

Lug'atlar mohiyatiga ko'ra ikki asosiy turga bo'linadi:

- 1) ensiklopedik (qomusiy) lug'atlar;

2) filologik (lingvistik) lug'atlar.

Ma'lum bir xalqning madaniy-ma'naviy, ilmiy-amaliy, siyosiy-iqtisodiy hayotiga doir barcha tushunchalar izohi berilgan, turli xil tarixiy voqealar, tarixiy va mashhur shaxslar, joy nomlari haqida ma'lumotlar jamlangan lug'at **ensiklopedik** (qomusiy) lug'at deyiladi.

Demak, qomusiy lug'atga kiritilgan birliklar barcha tushunchalarni o'z ichiga oladi. Masalan, bolalar ensiklopediyasi «**U kim? Bu nima?**» (Toshkent, 1987–1988, 3 jildlik), «**Ўзбекистон миллий енциклопедияси**» (Тошкент, 2001 – 2005, 12 жиллик)¹ kabi.

Tildagi lug'aviy birliklarning ma'nosi, qo'llanishi va boshqa lisoniy xususiyatlari izohlanadigan lug'at **lingvistik lug'at** hisoblanadi.

Lingvistik lug'atlar oldiga qo'yilgan maqsadiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) izohli lug'at;
- 2) tarjima lug'ati;
- 3) imlo (orfografik) lug'at;
- 4) talaffuz (orfoepik) lug'at;
- 5) etimologik lug'at;
- 6) morfem lug'at;
- 7) chastotali lug'at;
- 8) ters (chappa) lug'at;
- 9) dialektologik lug'at;
- 10) frazeologik lug'at;
- 11) terminologik lug'at;
- 12) ma'nodosh so'zlar (sinonimlar) lug'ati;
- 13) zid ma'noli so'zlar (antonimlar) lug'ati;
- 14) shakldosh so'zlar (omonimlar) lug'ati va boshqalar.

Lug'aviy birlik (so'z va ibora)larning ma'nolari, grammatik, uslubiy va boshqa belgilari qayd etilgan lug'at **izohli lug'at** deyiladi. Izohli lug'atlarda so'zлarning qaysi tilga mansubligi, o'z va ko'chma ma'nolari, sinonim va antonimlari ham beriladi.

¹ Lug'atlar qaysi yezavda nashr etilgan bo'ssa, shu yozuvda berildi.

Lug'atlar ma'lum so'zlikdan iborat bo'ladi. **Se'zlik** – lug'at uchun tanlab olingen so'zlar majmui. Masalan, «O'zbek tilining izohli lug'ati» (Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008, 5 jildlik)da 80 000 so'z va birikma izohlangan.

Lug'atlarda bosh so'zni izohlash uchun tuzilgan maqola **lug'at maqolasi** deyiladi. Masalan,

Orol. Atrofi, hamma tomoni okean, dengiz, daryo yoki ko'l suvi bilan o'ralgan quruqlik. *Saxatin oroli. Orim yarim oroli.*

Orolonmoq. poet. Bezanmoq, yasanmoq; go'zallashmoq. *Yaxshi orolan, bezan, e bog'lar, mavsum uchun.* «Guliston». (Ўзбек тилининг изоҳли луг'ати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий енциклопедияси, 2007. – З-ж. – Б. 139.)

Izohli lug'at ma'lum bir yozuvchi yoki shoit asarlari bo'yicha ham yaratilishi mumkin. Masalan, 4 jildlik «Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луг'ати» (Тошкент: Фан, 1983–1984).

Dialektologik lug'atlarda shevalarga xos so'zlar transkriptsiyada beriladi va izohlanadi hamda adabiy tildagi varianti beriladi. Masalan, Ibrohimov S. I. «Фарғона шеваларида касб-хунар лексикаси» (Тошкент: Фан, 1970), Jamoa. «Ўзбек халқ шевалари луг'ати» (Тошкент: Фан, 1971).

So'zlarning amaldagi imlo qoidalariiga binoan to'g'ri yozilish shakllarini qayd etuvchi lug'at imlo (**orfografik lug'at**) deyiladi. Masalan, yangi tuzilgan 2 jildlik kirili va yangi lot alibosiga asoslangan o'zbek yozuvidagi «O'zbek tilining imlo lug'ati» (E. Begmatov, A. Madvaliyev; muhartir N. Mahmudov – Toshkent: Akademnashr, 2013). Lug'atda 85000 dan ortiq so'zlarning imlosi berilgan.

So'zlarning morfem (asos va qo'shimchalardan iborat) tarkibi qayd etilgan lug'at **morfem lug'at**. Masalan, A. G'ulomov, A. N. Tixonov, R. Qo'ng'urovning «Ўзбек тилининг морфем луг'ати» (Тошкент, 1977).

Lug'at so'zligi 40000 dan iborat. Morfem lug'atda so'zlar morfemalar – asos va qo'shimchalarga ajratib beriladi.

Talaffuz lug'ati (orfoepik lug'at) – so'zlarning adabiy talaffuzi qayd etilgan lug'at. Masalan, M. Sodiqova, U. Usmo-

novaning «O'zbek tilining orfoepik lug'ati» (Toshkent: O'qituvchi, 1977). Lug'at so'zligi 3800 dan iborat.

Ters (chappa) lug'at so'zlarning oxirgi harflari bo'yicha alifbo tartibida joylashtirilgan lug'at. Bu tipdagi lug'at R.Qo'ng'irov, A.Tixonovlar tomonidan «Ўзбек тилининг чаппа луг'ати» (Самарқанд, 1967) nomi bilan yaratilgan. Lug'at so'zligi 36000 dan iborat.

Bunday lug'atlardan bir xil qo'shimchali so'zlarni aniqlash mumkin.

Terminologik lug'at ma'lum bir sohaga oid terminlar va ularning izohi qayd etilgan lug'at. Masalan, A. Hojiyevning «Тилшуносликка оид терминларниң изоҳли луг'ати» (Ташкент: Узбекистон миллий енциклопедияси, 2001); N. Hotamov, B. Sarimsoqovlarning «Адабиётшунослик терминларининг русча-узбекча изоҳли луг'ати» (Ташкент: Ўқитувчи, 1983) kabi.

Tildagi ibora (frazeologizm)larning lug'aviy izohi berilgan lug'at frazeologik lug'at deyiladi. Masalan, Sh. Rahmatullayevning «Ўзбек тилининг фразеологик луг'ати» (Ташкент: Комуслар бош таҳририяти, 1992).

Etimologik lug'at – so'zlarning kelib chiqish tarixi-etimologiyasi haqida ma'lumot beruvchi lug'at. O'zbek tilining etimologik lug'ati mustaqillik yillarda yaratildi (Рахматуллаев Ш. «Ўзбек тилининг етимологик луг'ати (туркий сўзлар)» (Ташкент: Университет, 2000). Lug'atda 2400 dan ortiq so'zning etimologik tahlili berilgan.

Yuqoridaqilardan tashqari o'zbek leksikografiyasida sinonimlar (Ножиев А. **Ўзбек тили синонимларининг қисқача луг'ати**. – Ташкент: Фан, 1963.), omonimlar (Рахматуллаев Ш. **Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луг'ати**. – Ташкент: Ўқитувчи, 1984.) va antonimlar (Рахматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Ш. **Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луг'ати**. – Ташкент: Ўқитувчи, 1980) lug'ati ham yaratilgan.

So'nggi yillarda o'zbek leksikografiyasida maxsus izohli lug'atlar yaratish an'anasi ham shakllandi. Natijada o'zbek tilida birinchi marta N. Mahmudov, D.Xudoyberganovalar tomonidan o'xshatishlarning (Ўзбек тили үхшатишларининг изоҳли луг'ати,

— Тошкент: Маънавият, 2013. — 320 б.), N.Mahmudov, Y.Odilovlar tomonidan enantiosemik so‘zlarning (Суз маъно тараққиётида зиддият. Узбек тили енантиосемик сўзларининг изоҳли lug‘ати. — Тошкент: Akademnashr, 2014. — 288 б.) izohli lug‘atlari yaratildi. Hozirga qadar o‘zbek tilshunosligida bunday tipdagi lug‘atlar yaratilmagan edi.

O‘xshatishlarning izohli lug‘atida o‘zbek tilidagi mavjud turg‘un o‘xshatishlarning etalonlari lug‘at maqolasi sifatida berilgan, o‘xshatishlarning barchasi o‘xshatish etalonlaridagi ma’lum tayanch so‘zlar ostida berilgan hamda dalillar asosida izohlangan. Masalan,

Gilos Gilosday(kabi)

Qizil, qip-qizil. Asosan, lab haqida.

Dildor gilosday *qizil*, chiroqli lablariga yoyilgan tabassum bilan boshini silkidi (Oybek, Navoiy). *Gilosday* bir labdan bo’sa olguncha, Ba’zan bir yigitlik ketadi uvol (G.G’ulom. Yoz). (Узбек тили ўхшатишларининг изоҳли lug‘ати. — Тошкент: Маънавият, 2013. — Б. 59.)

So‘zning semantik tuzilishida zid ma’nolarning yuzaga kelishi **enantiosemiya** (yun. *enantios* – qarama-qarshi + *sema* – ma’no) deb yuritiladi. Yuqorida tilga olingan enantiosemik so‘zlarning izohli lug‘atida ana shunday so‘zlar izohlangan. Masalan,

Kamtar. Nominativ, nutqiy enantiosemiya.

1. O‘zini boshqalardan past tutadigan: Xizmat safari davomida muxbir o‘zini nihoyatda *kamtar* tutishi, o‘zi to‘g‘risida yaxshi taassurot qoldirishi, odamlarning matbuotga ishonchini mustahkamlashi zarur (A. Meliboyev. «Qirq beshinchi bekat») Kamtarga – kamol, manimanga – zavol (Maqol).

2. O‘zini boshqalardan baland tutadigan: Shuning uchun ayrim amaldorlar atay stol boshiga yalang stul qo‘yib o‘tirishadiki, qarshisida kreslolarga cho‘kib o‘tirganlarga tepadan qaray oladi. Qolaversa, quruq stulda o‘tirish bilan o‘zlarining «**kamtar**»ligini namoyish ham qiladilar. Ha-a, buyam bir gap-da (Sh. Xolmirzayev. «Qumrilat») (Суз маъно тараққиётида зиддият. Узбек тили

енантиосемик сўзларининг изоһли луг'ати. – Тошкент: Akademnashr, 2014. – В. 188)

Bir tildagi so‘zning ikkinch tilda qanday so‘zga to‘g‘ri kelishini, tarjimaviy muqobillarini ko‘rsatuvchi lug‘at tarjima lug‘ati sanaladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Leksikografiya qanday soha?
2. Lug‘at deb nimaga aytildi?
3. Lug‘atning qanday turlari bor?
4. Lug‘atda so‘zlar qanday joylashtiriladi?
5. Qomusiy lug‘at qanday lug‘at?
6. Qomusiy va lingvistik lug‘at qanday xususiyatlari ko‘ra farqlanadi?
7. Lingvistik lug‘atning qanday turlari bor?
8. Lug‘atga kiritilgan so‘zlar jami nima deb yuritiladi?
9. Lug‘atda so‘zga berilgan izoh nima deb ataladi?
10. O‘zbek leksikografiyasida qanday yangi lug‘atlar yaratildi?

Morfemika. Morfema va uning turlari. So‘z yasalishi. So‘z yasash usullari

1. Morfemika sohasi.
2. Morfemalarning tuzilishi va vazifasiga ko‘ra tasnifi.
3. Yetakchi morfema.
4. Affiksal morfema va uning turlari.
5. Morfemalar zanjiridagi o‘zgarishlarning sabablari va turlari:
 - a) soddalashuv;
 - b) muakkablashuv;
 - c) qayta bo‘linish.
6. So‘z yasalishi sohasi.
7. So‘z yasash tushunchasi.
8. So‘z yasalish qolipi, so‘z yasalish zanjiri.
9. So‘z yasash usullari.

Tayanch so‘z va iboralar: so‘z tarkibi, morfema, leksik morfema, yetakchi morfema, affiksal morfema, so‘z yasovchi affiks,

shakl yasovchi affiks, lug'aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi, morfemika, so'z tarkibi, so'z tarkibining o'zgarishi, soddalashuv, murakkablashuv, qayta bo'linish, so'z yasash, so'z yasalish qolipi, asos, qo'shimcha (affiks), so'z yasash asosi, yasovchi vosita, yasalma, yasama so'z, so'z yasash usuli, so'z yasalishining affiksatsiya usuli (morphologik usul), sintaktik usul (kompozitsiya usul).

Tilshunoslikning morfemika sohasi quyidagi masalalarini o'tganiadi:

- 1) so'zning tarkibiy tuzilishini;
- 2) so'zning eng kichik ma'noli qismlarini;
- 3) qo'simcha va uning turlarini;
- 4) so'zlarning tuzilishiga ko'ra turlarini.

So'z tuzilish tarkibiga ko'ra morfemalar (ma'noli qismlar)ga bo'linadi. Masalan, **suvchi** so'zi **suv**, -chi; **asoslamoq** so'zi **asos**, -la, -moq; **bilimdonlik** so'zi **bil**, -im, -don, -lik kabi ma'noli qismlardan iborat.

A.Hojiyev morfemanining xususiyatlarini tahlil qilar ekan, uni yasovchi til birligi deb ko'rsatadi va quyidagicha ta'riflaydi: «Morfema – o'z ifoda va ma'no jihatiga ega bo'lган, so'z yasash yoki so'z shaklini yasash uchun xizmat qiladigan lisoniy birlik».¹

So'zning eng kichik, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan, yangi so'z va so'z shakli yasash uchun asos bo'ladigan tub ma'noli qismi **yetakchi morfema** deb ataladi.

Yetakchi morfema adabiyotlarda **morfema**, **leksik morfema**, **asos** deb ham yuritiladi.

Demak, yetakchi morfema quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

- lug'aviy ma'noga ega bo'ladi;
- yangi so'z yasash uchun asos bo'ladi;
- so'zning turli grammatik shakllarini yasash uchun asos bo'ladi;
- mustaqil qo'llana oladi.

¹ Hojiyeva A. O'zbek tili morfoloyigasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. – Toshkent: Fan, 2010. – B. 40.

Bir asosdan hosil bo'lgan so'zlar **asosdosh so'zlar** hisoblanadi. Masalan, *o'quvchi*, *o'qituvchi*, *o'qish*; *gulchi*, *gulzor*, *gulli*, *gulsiz*; *yo'l*, *yo'lka*, *yo'llamoq*, *yo'llanma*, *yo'lli*, *yo'llik*, *yo'lma-yo'l*, *yo'lovchi* kabi.

Turkiy, jumladan, o'zbek tilida so'zlar asosdan boshlanadi.

Asosga qo'shib, yangi so'z va so'z shakkleri yasash uchun xizmat qiladigan morfemalar **affiks** yoki **qo'shimcha**, **ko'makchi morfema** deyiladi.

Affikslar tuzilishiga ko'ra ikki turli bo'ladi:

- 1) sodda affikslar;
- 2) murakkab affikslar.

Sodda affiksiar: *-chi*, *-a*, *-la*, *-t*, *-ak*, *-q*, *-siz*, *-chi* kabi.

Murakkab affikslar ikki va undan ortiq qo'shimchalarning qo'shib, bir affiks holiga kelishidan yuzaga kelgan. Masalan, *-chilik*, *-garchilik*, *-lash* kabi.

Qo'shimchalar asosga qo'shilish o'miga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) old qo'shimchalar – prefikslar: *be-*, *ba-*, *ser-*, *no-*;
- 2) asosdan keyin qo'shiluvchi qo'shimchalar – suffiks: *-zor*, *-li*, *-kor*, *-iston*, *-siz*, *-m* kabi;
- 3) so'z o'rtaida qo'llanuvchi qo'shimchalar – infiks. Masalan, *mohichehra*, *dardisar* so'zlaridagi *-i* qo'shimchasi kabi.

Qo'shimchalar vazifasiga ko'ra ikki turli bo'ladi:

- 1) so'z yasovchi qo'shimchalar;
- 2) shakl yasovchi qo'shimchalar.

Yangi so'z yasashga xizmat qiluvchi morfemalar so'z yasovchi qo'shimchalardir. Masalan, *-chi*, *-dosh*, *-li*, *-siz*, *-la* kabi. Bunday qo'shimchalar so'z yasalishida yasovchi qismni tashkil etadi.

So'zning turli grammatik shakklarini bosil qilishga va so'zlarni o'zaro bog'lashga xizmat qiladigan morfemalar **shakl yasovchi qo'shimchalar** hisoblanadi.

Shakl yasovchi qo'shimchalar o'z ichida quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar;
- 2) sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar.

So'zning turli grammatik shakklarini bosil qilishga xizmat qiladigan morfemalar **lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar**dir.

Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalarga quyidagilar kirdi:

- 1) otlardagi ko'plik qo'shimchasi (-lar);
- 2) otlardagi erkalash va kichraytirish qo'shimchalari (-jon, -xon, -oy, -loq, -cha, -chak);
- 3) otlardagi qarashlik qo'shimchasi (-niki);
- 4) sifatlardagi daraja shakli qo'shimchalari (-roq, -mitir, -imtir, -ish);
- 5) son turlarini hosil qiluvchi qo'shimchalar (-ta, -tacha, -lab, -ov, -ovlon);
- 6) fe'llardagi nisbat, mayl, zamon qo'shimchalari.

So'zlarni o'zaro bo'g'lashga xizmat qiladigan morfemalari **sintaktik shakl yasovchi** qo'shimchalar hisoblanadi.

Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalarga quyidagilar kirdi:

- 1) kelishik qo'shimchalari;
- 2) egalik qo'shimchalari;
- 3) shaxs-son qo'shimchalari.

Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar **sintaktik munosabat shakllari** deb ham yuritiladi. Demak, sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar ot va fe'l turkumiga xos.

O'zbek tilida qo'shimchalarning so'z tarkibida joylashuv tartibi quyidagicha: **asos+so'z yasovchi qo'shimcha + lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha +sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha**. Masalan, *gul* (**asos**) + *-zor* (**so'z yasovchi qo'shimcha**) + *-lar* (**lug'aviy shakl yasovchi**) + *-dan* (**sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha**).

Qo'shimchalar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) sinonim qo'shimchalar;
- 2) omonim qo'shimchalar.

Shaklan har xil bo'lib, bir-biriga o'xhash yoki yaqin ma'no bildiruvchi qo'shimchalar **ma'nodosh** yoki **sinonim qo'shimchalaridir**.

Masalan, ot yasovchi *-chi* va *-shunos* (*adabiyotchi* – *adabiyotshunos*), sifat yasovchi *-li* va *ba-* (*ma'noli* – *bama'ni*), *-siz* va *be-* (*odobsiz* – *beodob*) qo'shimchalari sinonim qo'shimchalardir.

Shaklan bir xil bo'lib, ma'no jihatidan turli so'z turkumlariga xos so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar **shakldosh** yoki **omonim qo'shimchalar** deyiladi.

1. Quyidagi so'z yasovchi qo'shimchalarda omonimlik kuzatiladi:

- a) -chi (-ki, -qi): *chopqi, tepki* (ot); *kuzgi, kechki, qishki* (sifat);
- b) -in, -un: *ekin, tugun* (ot); *erkin, yashirin* (sifat);
- v) -don: *kuldon* (ot); *gapdon, bilimdon* (sifat);
- g) -ch: *sevinch, quvonch* (ot); *tinch* (sifat);
- d) -ma: *qatlama, suzma, qovurma* (ot); *yozma, bosma, qaynatma* (sifat) kabi.

2. Quyidagi so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalarda omonimlik kuzatiladi:

- a) -lab: *oylab, yillab* (*ravish yasovchi*); *yizlab, o'nlab* (*son chama shakli yasovchi qo'shimcha*);
- b) -ma: *o'sma, childirma* (ot yasovchi), *tug'ma, bosma* (sifat yasovchi) va *yozma, o'qima* (*fe'lning bo'lishsiz shaklini yasovchi qo'shimcha*).

Til taraqqiyoti davomida ayrim so'zlarning tarkibi, asosida o'zgarish ro'y berishi mumkin. Masalan, avvallari asos va qo'shimchalarga ajralgan quyidagi so'zlar hozirda ma'noli qismlarga ajratilmaydi: *yong'ir, ko'mir, olg'a* kabi.

Ma'lumki dunyoda o'zgarmaydigan narsa yo'q – hamma narsa vaqt o'tishi bilan ma'lum darajada o'zgarib turadi. Til ham bundan mustasno emas. Bu o'zgarish tilning hamma bosqichlariga xos narsa. Tilda sodir bo'layotgan o'zgarisblar so'zning tarkibiga ham o'z fa'sirini o'tkazadi, natijada u ham asta-sekin o'zgarib boradi. So'zning morfemik tarkibi quyidagi uch usul bilan o'zgaradi:

1. Soddalashuv.
2. Murakkablashuv.
3. Qayta bo'linish.

So'zning morfenik tarkibida uchraydigan tarixiy o'zgarishlarning eng asosiylari soddalanish va morfologik qayta bo'linishdir.

Seddalashuv – ko'p morfemali so'zning bir morfemali so'zga o'tib qolish hodisasi. Masalan, *teskari* (*ters* + *-kari* >*teskari*); *yuqori, ilgari, singari*; *qurimoq* (*qurimoq* + *soq* > *qyrimoq*).

sarimsoq (*sarim* +*soq*> *sarimsoq*); *o'pqon*, *chipqon*, *sopqon*, *qalqon* kabi.

Soddalashuv quyidagi omillar asosida sodir bo'ldi:

1) so'zga qo'shimcha qo'shilishi bilan tovush tushishi, ortishi, almashinishi natijasida;

2) u yoki bu morfemaning ma'nosini kuchsizlanishi, iste'moldan chiqa boshlashi va asta-sekin yo'q bo'lib ketishi;

3) asosdosh so'zlar aloqasining uzilishi natijasida;

4) affikslarning o'zaro asosga singishib ketishi va so'z yasovchi sifatida qo'llanmay qo'yishi

Soddalashuvga quyidagilar misol bo'la oladi:

1. *Ayt* fe'li hozirgi tilda morfologik qismlarga ajralmaydi, lekin u aslida ikki morfemadan tashkil topgan bo'lib, qadimda uning ay elementi asos bo'lgan (hozirgi *aydi* fe'li qadimda *aydi* formasida bo'lgan), demak, -t elementi aslida shu asosga qo'shilgan morfema – ortirma daraja affiksidi: *ay+t+ayt*.

2. *Olmosh* so'zi *al-* fe'lining takror ma'nosini ifodalovchi *-ma* qo'shimchasi qo'shilgan *alma-* shaklidan *-sh* harakat nomi qo'shimchasi bilan hosil qilingan, keyinchalik harakat nomi shaklidagi fe'l otga ko'chgan. Hozirgi kunga kelib bu so'z ham tarkibiy qismlarga ajratilmaydi.

3. *Olacha* oti eski o'zbek tilida «*char xil tusli*» ma'nosini anglatgan *ala* sifatidan *-cha* qo'shimchasi bilan yasalgan bo'lib, hozirgi o'zbek adabiy tilida tarkibiy qismlarga ajratilmaydi.

Murakkablashuv – avval tub so'z hisoblangan so'zлarni yasama yoki murakkab so'zlar qatoriga o'tib qolishi yoki murakkab bir morfemali so'zлarni ikki va undan ortiq morfemali so'zlarga o'tib qolishi: golland tilidan rus tiliga o'tgan *zonedek* so'zi *zontik* tarzida o'zlashtirilib, analogiya qoidasiga binoan bu so'zning tarkibi *zont* va *-ik* morfemalariga ajratiladi.

Qayta bo'linish – so'z tarkibidagi morfemalarning ajralish chegarasining o'zgarishi:

1. *Ular* olmoshi hozirgi tilda *u-lar* formasida ajratiladi, lekin bu affiksning boshidagi / tovushi aslida asosnikidir, *u* olmoshi aslida *ul* shaklida bo'lgan. Demak, *ul+ar* – *ular*: asosning bir tovushi affiksga o'tgan, asos morfema qisqargan, affiksal morfema kengaygan.

2. Yozish ma'nosida hozirgi tilda (og'zaki – so'zlashuv nutqida) ba'zan uchrab qoladigan *bitish* so'zi *bit-ish* formasida ajraladi (*bitdim*, *bitding*, *bitdi*; asos – *bit*), eski o'zbek tilida bu element, *biti* shaklida bo'lgan (*biti-dt*, *biti-k*; xat, yozuv).

So'zlar tuzilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) sodda so'z;
- 2) qo'shma so'z;
- 3) jift so'z;
- 4) takroriy so'z.

Sodda so'z – tarkibida birgina lug'aviy ma'noli qism (asos) bo'lgan so'z.

Sodda so'zlar ikki turli bo'ladi:

d) sodda tub so'z – yasovchi qismlarga ajralmaydigan, tarkibida so'z yasovchi qo'shimcha bo'lmasagan so'z: *bosh*, *ish*, *ko'z*, *so'z*, *suv* kabi;

e) sodda yasama so'z – so'z yasovchi qo'shimchalar vositasida yasalgan so'z: *ishchi*, *ishsiz*, *boshla*, *boshliq*, *ko'zla*, *so'zsiz*, *suvchi*, *suvli*, *suvsiz* kabi.

Qo'shma so'z – tarkibida birdan ortiq lug'aviy ma'noli qism (asos) so'z Masalan, *oshqovoq*, *ko'zoynak*, *ishboshi*, *so'zboshi*, *namozshomgul* (qo'shina otlar); *shifobaxsh*, *jigarrang*, *ochiqqo'l*, *ochiqso'z*, *shirinso'z* (qo'shma sifatlar) kabi.

Juft so'z – mustaqil lug'aviy ma'noli yoki lug'aviy ma'noga ega bo'lmasagan ikki qismning teng bog'lanishi asosida tashkil topgan, umumlashtirish, jamlik ma'nolarini ifodalovchi so'z. Masalan, *oshna-og'ayni*, *bog'-rog'*, *temir-tersak*, *bordi-keldi*, *ur-sur* (juft otlar); *alang-jalang*, *oq-qora*, *baland-past* (qo'shma sifatlar); *erta-kech*, *asta-sekin*, *qishin-yozin* (qo'shma ravishlar) kabi.

Takroriy so'zlar – ayni bir so'zning takror qo'llanishidan hosil bo'lgan, ko'plik, davomlilik ma'nolarini ifodalovchi so'z. Masalan, *dasta-dasta*, *ming-ming*, *qop-qop*, *tez-tez*, *baland-balad*, *bora-bora*, *ayta-ayta* kabi.

So'z yasalishi tilshunoslikda so'z hosil qilinishi va u bilan bog'liq masalalar nu o'rjanuvchi bo'lim hamda turli usullar asosida yangi so'z hosil qilish ma'nosida qo'llanadi.

O'zbek tiliga xos so'z yasalishining nazariy va amaliy masalalari Ayub G'ulomov, Azim Hojiyev kabi olimlar tomonidan o'rjanilgan.¹

Tilda mavjud vosita va usul hamda modellar asosida yangi so'z hosil qilish **so'z yasalishi** deyiladi. Masalan, *gul +chi* – *gulchi*, *osh+paz* – *oshpaz*, *ko'z+oynak* – *ko'zoynak*, *bel+bog'* – *belbog'*, *bordi-keldi*, *qo'ydi-chiqdi*, *oldi-berdi* kabi.

So'zning qanday birlik va vositalar bilan yasalishi, yasalish yo'li **so'z yasash usulidir**. So'z hosil qilish usullari so'z yasash modellari hisoblanadi.

O'zbek tilida quyidagi usullar bilan yangi so'zlar yasaladi:

- 1) **affiksatsiya usuli (morfologik usul);**
- 2) **sintaktik usul (kompozitsiya usuli).**

Asosga so'z yasovchi affikslarni qo'shish asosida yangi so'z hosil qilish **affiksatsiya yoki morfologik usul**: *guldon*, *gulli*, *gulsiz*, *guldor* kabi.

Morfologik usul asosida faqat **sodda so'zlar** hosil qilinadi. Ular **sodda yasama so'z** deb yuritiladi.

Morfologik usul bilan so'z yasash modellari quyidagicha:

a) **asos + so'z yasovchi affiks**: *yozuvchi*, *tokzor*, *tadbirkor*, *dasturchi* kabi;

b) **prefiks(*old go'shimcha*) + asos**: *beish*, *sersuv*, *seryog'* kabi.

Ikki mustaqil so'zni qo'shish asosida yangi so'z hosil qilish **sintaktik usulidir**. Sintaktik usul **kompozitsiya usuli** deb ham yuritiladi. Masalan, *sotib olmoq*, *tinchliksevar*, *havorang*, *gultojixoroz* kabi.

Sintaktik usul asosida qo'shma (*jigarrang*, *sotib olmoq*, *sadarayhon*, *sovugmijoz*), just (*oldi-sotdi*, *bordi-keldi*, *achchiqchuchuk*), takroriy (*ko'z-ko'z*, *yor-yor*) so'zlar yasaladi.

Sintaktik usul bilan so'z yasash modellari:

a) **asos+asos**: *beshbarmoq*, *so'zboshi*, *oshqovoq*, *bo'tako'z*, *beshiktebratar* kabi;

b) **asos + asos + asos**: *namozshomgul*, *gultojixoroz* kabi.

Ilmiy adabiyotlarda so'z yasalishining **konversiya**, **fonetik usullari** ham qayd etiladi. So'zning fonetik va morfologik

¹ Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – 168 b.

o'zgarishlarsiz bir so'z turkumidan boshqa bir so'z turkumiga o'tishi asosida yangi so'z hosil qilish konversiya deb ataladi. Masalan, *chol*, *o'g'il*, *qiz*, *xotin* so'zlarini sifat turkumidan ot turkumiga ko'chgani kabi.

So'z yasalishi ot, sifat, *ravish*, *fe'l* kabi mustaqil so'z turkumlariga xos bo'lib, son, olmosh va yordamchi, alohida so'z turkumlarida so'z yasalmaydi.

So'z yasash asosida til lug'at tarkibi boyib boradi. Hozirgi o'zbek adabiy tili quyidagi morfologik usul asosida yasalgan yangi so'zlar bilan boyidi: *bizneschi*, *birjachi*, *tijoratchi*, *kompyuterchi* kabi.

So'z yasash asosida til lug'at tarkibining boyishi ichki manba hisoblanadi.

Tilshunoslikka oid ayrim ilmiy adabiyotlarda abbreviatsiya usuli so'z yasash usuli sifatida qayd etilgani holda so'nggi ilmiy manbalarda abbreviatsiya usuli so'z yasash usullari qatorida qayd etilmayapti.

Abbreviatsiya (ital. *abbreviatura* < lot. *abbrevio* – qisqartiraman) ham yaqingacha qisqartirib so'z yasash usuli hisoblab kelindi, biroq bu usul natijasida yangi so'z yasalmaydi, balki so'zlar qisqartirib qo'llanadi. Demak, abbreviatsiya so'z yasash usuli emas.

Qisqartma qo'shma so'zlar abbreviatsiya usuli bilan hosil qilinadi. Abbreviatsiya usulida turg'un birikma tarkibidagi qismlar qisqartiriladi.

Abbreviatsiya usuli ot turkumi uchun xosdir.

Abbreviatsiya usulining quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1) so'zlarning birinchi harflari olinadi: *BMT* (*Birlashgan millatlar tashkiloti*);

2) birinchi so'zning birinchi bo'g'ini, keyingi so'zlarning birinchi harfi: *NamDU*, *ToshTI*.

3) so'zlarning birinchi bo'g'inlari olinadi: *O'zagrosug'urta* kabi.

Nazorat uchun savollar:

1. So'z tarkibi deganda nimani tushunasiz?

2. Morfema, morf nima?
3. Morfemalar qaysi xususiyatlari ko'ra tasnif qilinadi?
4. Morfemaning qanday turlari bor?
5. Asos (yetakchi) morfema deb nimaga aytildi?
6. Affiks (affiksal morfema) nima?
7. Affikslar qaysi xususiyatlari ko'ra tasnif qilinadi?
8. Vazifasiga va tuzilishiga ko'ra affikslar qanday turlarga bo'linadi?
9. Affikslar qo'llanish darajasiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
10. Morfemika qanday soha?
11. So'z yasalishi deganda nimani tushunasiz? Qanday usullar bilan so'z yasaladi?
12. So'z yasashning morfologik usuli qanday?
13. So'z yasashning semantik usuli qanday?
14. So'z yasashning konversiya usuli qanday?
15. So'z yasashning sintaktik usuli qanday?
16. Abbreviatsiya deganda nimani tushunasiz?

Grammatika va uning tarkibiy qismlari

1. Grammatika va uning tarkibiy qismlari.
2. So'z tushunchasi.
3. So'zlarning turkumlarga ajratish tamoyillari.
4. O'zbek tilidagi so'z turkumlarining tasnifi va tavsifi.
5. Grammatik kategoriya tushunchasi.
6. O'zbek tiliga xos grammatik kategoriylar.

Tayanch so'z va iboralar: *grammatika, grammatick satr, morfologiya, so'z, so'zshakl, grammatick ma'no, grammatick shakl, sintetik shakl, analitik shakl, grammatick vosita, grammatick kategoriya, grammatick vazifa, so'z turkumlari, mustaqil so'z turkumlari, yordamchi so'z turkumlari, oraliq so'z turkumlari.*

Grammatika (*grek. grammatica > harf o'qish va yozish san'ati*) tilshunoslikning so'z shakllarini, so'z bitikmasi va uning turlarini,

gap va uning turlarini, ya'ni tilning grammatik qurilishini o'rganuvchi bo'limi.

Grammatika **morfologiya va sintaksis** kabi bo'limlarni o'z ichiga oladi.

Morfologiya (gr. *morphe* – shakl + *logos* – ta'limot) so'z shakllari haqidagi grammatik ta'limotdir. Morfologiya so'zlarining grammatik shakllari va so'z turkumlarini o'rGANADI.

So'z leksik ma'nodan tashqari grammatik ma'no ham anglatadi.

So'zning grammatik ma'nosini ham morfologiya sohasida o'rGANILADI.

So'zning grammatik ma'nosini haqida gap borar ekan, *grammatik ma'no*, *grammatik shakl*, *grammatik vosita* terminlarining mohiyatini tushunib olish lozim.

Grammatik ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladigan til vositalari grammatik shakldir. Masalan, *borayapman* fe'li tarkibida *hozirgi zamon*, *birinchi shaxs birlik*; *talabalarimiz* oti tarkibida *birinchi shaxs egalik*, *ko'plik* ma'nosini ifodalovchi grammatik shakllar qo'llangan.

So'zning lug'aviy ma'nosini ustiga qo'yiladigan, grammatik shakli ifodalaydigan ma'no **grammatik ma'no** hisoblanadi.

Demak, grammatik ma'no so'zning qaysi so'z turkumiga mansubligi, qanday grammatik shakllarni qabul qilganligi, gapda qanday sintaktik vazifani bajarganligini ko'rsatuvchi, bir qancha so'zlar uchun umumiyligi bo'lgan ma'nodir. Masalan, *do'ppi* so'zining grammatik ma'nosisi: *ot*, *turdosh ot*, *bosh kelishikda*, *birlikda*; *kitoblar* so'zining grammatik ma'nosisi: *ot*, *turdosh ot*, *bosh kelishikda*, *ko'plikda* kabi.

So'zning grammatik ma'nosini lug'aviy ma'nodan umumiyligi bilan farqlanadi. Masalan, *ruchka*, *dastar*, *o'quvchi*, *maktab* so'zlar alohida-alohida lug'aviy ma'no anglatgani holda, bir umumiyligida grammatik ma'noga ega: *ot*, *turdosh ot*, *birlikda*, *bosh kelishikda*.

O'zbek tilida grammatik ma'no quyidagi vositalar bilan ifodalanadi:

1. Affiks (qo'shimcha)lar.
2. Yordamchi so'zlar.
3. So'z tartibi.

4. Takror
5. Ohang.

Grammatik shaklning ikki turi mavjud:

- 1) sintetik shakl;
- 2) analitik shakl.

Affikslar vositasida hosil bo'luvchi grammatik shakl **sintetik** (yun. *synthetikos* – biriktirilgan, qo'shilgan) **shakl** hisoblanadi.

O'zbek tilida shakl yasovchi qo'shimchalar vositasida, ya'ni sintetik usul bilan grammatik ma'no ifodalash keng tarqalgan. Masalan, *bola* – *bolalar* (ko'plik shakli), *bolam* (egalik shakli), *bolamni* (kelishik shakli) kabi.

Yordamchi so'zlar vositasida hosil bo'luvchi grammatik shakl **analitik** (yun. *analytikos* – yoyiq, yoyilgan) **shakldir**.

O'zbek tilida yordamchi so'zlar vositasida, ya'ni analitik usul bilan ham grammatik ma'no ifodalanadi. Masalan, *telfon orgali* (vosita ma'nosi), *otam bilan* (birgalik ma'nosi) birliklarida ko'makchilar ma'lum ma'nolarni ifodalashdan tashqari shu so'zlarni keyingi boshqa so'zlarga tobe bog'lashga xizmat qiladi.

Gapda so'z tartibining o'zgarishi bilan ham ba'zan grammatik ma'no o'zgaradi. Masalan, *keng ko'cha* (so'z birikmasi) – *Ko'cha keng* (gap). Demak, so'zlarning tartibi o'zgarishi bilan sintaktik munosabat o'zgarib, boshqa sintaktik birlik hosil bo'ladi.

Takror (reduplikatsiya) orqali ham turli grammatik ma'nolar ifodalanadi. Bunda bir so'z yoki uning biror qismini takror qo'llash tushuniladi. Masalan, *dasta-dasta gul* (ko'plik ma'nosi), *baland-balando bino* (orttirma daraja shakli) kabi.

Takror boshqa tillarda, jumladan, o'zbek tilida so'z ma'nosini kuchaytirish, bo'rttirish vositasi sifatida ham qo'llanadi.

Takror o'zbek tilida quyidagi maqsad va ma'nolarda qo'llanadi:

5) taqlid;

6) qo'shimcha grammatik ma'no ifodalash uchun: *qip-qizil*, *oppoq*, *qop-qora*, *baland-balando* (sifat darajalari) kabi;

Ohang vositasida ham grammatik ma'no ifodalanadi. Ohang o'zgarishi bilan grammatik ma'no o'zgaradi. Masalan, *Nilufar o'qishga kirdi* (darak gap) – *Nilufar o'qishga kirdi?* (so'roq gap), *Nilufar o'qishga kirdi!* (undov gap) kabi.

So'zlarning lug'aviy, umumiy grammatik ma'no va vazifalariga ko'ra ma'lum guruhlarga bo'linishi so'z **turkumlari** deyiladi. So'zlarni turkumlarga ajratishda quyidagi xususiyatlar hisobga olinadi:

- 1) so'zning ma'noviy xususiyatlari (lug'aviy (leksik) ma'nosi);
- 2) so'zning morfologik xususiyatlari;
- 3) so'zning sintaktik xususiyatlari;
- 4) so'zning yasalish xususiyatlari.

O'zbek tilida 12 ta so'z turkumi bor. Ular quyidagilar: **ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l, bog'lovchi, ko'makehi, yuklama, undov so'zlar, taqlid so'zlar, modal so'zlar**.

So'z turkumlari ma'no va vazifasiga ko'ra quyidagi 3 guruhga bo'linadi:

- I. **Mustaqil so'z turkumlari:** ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish.
- II. **Yordamchi so'z turkumlari:** ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.
- III. **Oraliq (alohida) so'z turkumlari:** undov so'zlar, taqlid so'zlar, modal so'zlar.

Lug'aviy ma'no anglatadigan, ma'lum so'troqqa javob bo'lib, gapda mustaqil ravishda gap bo'lagi vazifasida keladigan so'zlar **mustaqil so'zlar** sanaladi. Mustaqil so'zlar ot, sifat, son, olmosh, ravish kabi mustaqil so'z turkumlariaga mansub so'zlardir. Masalan, *dars, yulduz, go'zal, erta, birinchi, hormoq* kabi.

Mustaqil so'zlar narsa-buyum, belgi, hodisa, miqdor, harakat, holat kabilarni ifodalaydi. Faqat olmoshlar lug'aviy ma'no anglatmaydi, balki ularga ishora qiladi. Shu xususiyati bilan olmosh boshqa mustaqil so'z turkumlaridan farqlanadi.

Ot, sifat, son, olmosh turkumlari ismlar deb ham yuritiladi.

Mustaqil holda lug'aviy ma'no anglatmaydigan, gap bo'lagi vazifasida kela olmaydigan, turli yordamchi ma'no va vazifalarda qo'llanadigan, grammatik ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladigan so'zlar **yordamchi so'zlar** deyiladi. Yordamchi so'zlar **ko'makchi, bog'lovchi, yuklama** kabi yordamchi so'z turkumlariaga mansub so'zlardir.

Oraliq so'z turkumlariaga mansub undov, taqlid va modal so'zlar ham lug'aviy ma'no anglatmaydi, biroq gap bo'lagi vazifasida kela oladi.

Mustaqil va yordamchi so'zlarning xususiyatlari

| Mustaqil so'zlar | Yordamchi so'zlar |
|--|---|
| <ul style="list-style-type: none"> - lug'aviy ma'noga ega; - nominativ vazifa bajaradi; - morfologik jihatdan o'zgaradi; - gapda mustaqil holda gap bo'lagi bo'lib keta oladi. | <ul style="list-style-type: none"> - lug'aviy ma'noga ega emas; - turli yordamchi ma'no va vazifalarda qo'llanadi; - morfologik jihatdan o'zgarmaydi; - gapda mustaqil gap bo'lagi vazifasida kela olmaydi. |

Mustaqil so'z har turkumlarining har biri o'ziga xos grammatik kategoriyalarga ega. Ularning alohida turkumlarga bo'linishida ham ana shu morfologik belgi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, egalik kategoriysi faqat otlarga xos bo'lsa, nisbat kategoriysi yoki zamon faqat fe'llar uchun xarakterlidir.

Grammatik kategoriya – umumiy ma'nosiga ko'ra birlashuvchi grammatik shakllar tizimidir.

Grammatik kategoriya tushunchasi grammatik ma'no bilan uzviy bog'liq. Har qanday grammatik ma'no grammatik kategoriylar orqali ifodalanadi. Demak, grammatik kategoriya umumlashgan grammatik ma'no demakdir.

Umumiy grammatik ma'noni tashkil etuvchi xususiy ma'nolar bir-biriga zid bo'ladi. Masalan, son kategoriyasini olib ko'raylik: *talaba* – *talabalar*, *gul* – *gullar* kabi.

Bunda birlik bilan ko'plik grammatik shakllari zid ekanligi izoh talab qilmaydi. Ko'plik ma'lum grammatik vosita – affiks (-lar) orqali ifodalanmoqda. Birlik esa bunday qo'shimchaga ega emas. Demak, *-lar* morfemasi ko'plikni ifodalamoqda. Ana shu birlik va ko'plik ma'nolari grammatik son kategoriyasini beradi.

Grammatik kategoriylar tillarda uch xil bo'ladi:

- 1) sintetik grammatik kategoriylar;
- 2) analitik grammatik kategoriylar;
- 3) aralash grammatik kategoriylar.

Sintetik grammatik kategoriylar affiksal morfemalar orqali ifodalanadi. Masalan, *universiteming hovlisi*, *kitobni o'qimoq* kabi.

Analitik grammatik kategoriylar yordamchi so'zlar orqali ifodalanadi: *ketmon bilan chopmoq, sovg'a uchun olmoq*.

Aralash grammatik kategoriylar ham sintetik, ham analitik vositalar orqali ifodalanadi: *Biz qishloq tomonga borgan edik*.

Grammatik kategoriylar tillarda bir xil bo'lmasligi eslatilgan edi. Masalan, otga xos grammatik kategoriylarini olaylik. Otning rus tilida son, kelishik, rod kategoriylari, o'zbek tilida son, kelishik, egalik kategoriylari, ingliz tilida son, kelishik, aniqlik-noaniqlik kategoriylari, fransuz tilida ham shu singari kategoriylar mavjud.

Grammatik kategoriylar ma'lum grammatik vosita orqali ifodalanadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Grammatika qanday soha?
2. Grammatika qanday tarmoqlarga bo'linadi?
3. Morfologiya sohasi qanday masalalarni o'rGANADI?
4. So'zning grammatik ma'nosi deganda qanday ma'no tushuniladi?
5. So'z turkumi deganda nimani tushunasiz?
6. So'zlarni turkumlarga ajratishda qanday xususiyatlar asosga olinadi?
7. O'zbek tilida so'zlar qanday turkumlarga ajratiladi?
8. Grammatik ma'no qanday vositalar yordamida ifodalanadi?
9. Grammatik shakl nima?
10. Grammatik ma'no ifodalovchi asosiy vositalar nimalardan iborat?
11. Grammatik kategoriya nima?
12. Sintetik, analitik va aralash grammatik kategoriylarini izohlang.

Sintaksis. Sintaktik munosabat.

Sintaktik birliliklar

1. Sintaksis haqida.
2. Sintaktik munosabat va uning turlari.
3. Tilning sintaktik birliliklari.

4. So'z birikmasi va uning turlari.
5. So'z birikmasida so'zlarning o'zaro birikuv usullari.
6. Gap va uning asosiy xususiyatlari.
7. Gapning tuzilishiga ko'ra turlari:
 - a) sodda gap;
 - b) qo'shma gap.
8. Gap bo'laklari va uning turlari.

Tayanch so'z va iboralar: *sintaksis, sintaktik birlıklar, sintaktik aloqa, sintaktik munosabat, teng bog'lanish, tobe bog'lanish, sintaktik vazifa, so'z birikmasi, sodda so'z birikmasi, murakkab so'z birikmasi, tobe so'z, hokim so'z, boshqaruv, bitishuv, moslashuv, gap, sodda gap, qo'shma gap, gap bo'laklari, ega, kesim, ikkinchi darajali bo'laklar, predikat, predikativlik, matn, tema, rema, makromatin, mikromatin.*

O'zbek tilshunesligida sintaksis sohasiga doir nazariy masalalar Ayub G'ulomov, Mazluma Asqarova, G'anijon Abdurahmonov, Hamid Ne'matov, Abdulhamid Nurmonov, Nizomiddin Mahmudov, Ra'no Sayfullayevalar tomonidan o'r ganilgan.¹

Ma'lumki, sintaksis grammatikaning ikkinchi bo'limini tashkil etadi va unda so'zlarning o'zaro munosabatlari o'r ganiladi. An'anaga ko'ra, sintaksisda so'z birikmalari, sodda va qo'shma gaplar, gap bo'laklari muammolari tekshiriladi.

An'anaviy tilshunoslikda sintaksis doirasida so'z birikmalari va gap o'r ganildi. Lekin bugungi kunda so'z sintaksisi muammolari ham dolzarb bo'lib turibdi. Unga ko'ra, kichik sintaksis deb atalishi mumkin bo'lgan yangi sohaning asoslanishi talab etilmoqda.

Kichik sintaksisning asosiy vazifasi so'z birikmalari shakllanishi masalalarini tadqiq qilishdan iboratdir.

Shu narsa e'tiborga molikki, yasama so'zlarning tarkibiy qismlari, ya'ni morfemalarning o'zaro munosabatlari ham sintaktik qonun-qoidalar asosida ro'y beradi: *ish+chi, til+shunos, tin+ch-lit*.

¹ Qarang: G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. - Toshkent, 1965. - 2-qism.; Abdurahmonov G.; Ne'matov H. O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari. - Toshkent, 1999; Nurmonov A., Mahmudov N. O'zbek tili nazariy grammatifikasi. Sintaksis. - Toshkent, 1993.; Nurmonov A., Mahmudov N. va boshqalar. O'zbek tili nezmuniy sintaksisi. - Toshkent, 1992.

Obyekt va ijrochi o'rtaida harakat mazmuni kuzatiladi. O'qinuvchi so'zini ham bunga misol keltirish mumkin. Qo'shma so'zlar unsurlari o'rtaida esa ega-kesim, aniqlovchi-aniglanmish munosabatlari ham kuzatiladi: *Xudoyberdi, Keldiyor, otboqar, sohibjamol* va boshqalar.

Ana shulaidan kelib chiqib, sintaktik munosabatlarni so'z birikmalari qismlari o'rtaidagi aloqalardan emas, balki so'z unsurlari munosabatlaridan boshlab o'rganish maqsadga muvofiqdir.

So'z birikmasi va gap – tilning sintaktik birliklari.

Ikki va undan ortiq mustaqil so'zning ma'no hamda grammatic jihatdan bog'lanishi so'z birikmasi deyiladi. Masalan, *bizning uy, maktab hovlisi, olma terish, xat yozmoq, tonggi sayr* kabi.

So'z birikmasi hokim (bosh) so'z va tobe (ergash) so'zdan tuziladi. Hokim va tobe so'z doimo tobe bog'lanadi. Demak, so'z birikmasining qismlari o'zaro tobe bog'lanadi.

So'z birikmasi tarkibidagi ma'nosini izohlanayotgan so'z **hokim so'z**, uning ma'nosini izohlab, aniqlab, to'ldirib kelayotgan so'z **tobe so'z** hisoblanadi. Masalan, *oqilona* (tobe so'z) *harakat* (hokim so'z), *zavqli* (tobe so'z) *mehnat* (hokim so'z), *Shahnozaning* (tobe so'z) *yavobi* (hokim so'z) kabi.

So'z birikmasida hamisha **tobe so'z** avval, **hokim so'z** keyin keladi. She'riy va so'zlashuv nutqida ba'zan so'z birikmasi qismlari o'rni almasbgan, ya'ni o'zgargan holda qo'llanishi mumkin: *onajonim manim, kuzatdim seni* kabi. Ba'zan so'z birikmalarining qismlari o'tni almashsa gapga aylanishi ham mumkin: *katta ko'cha* (so'z birikmasi) – *Ko'cha katta* (gap).

So'z birikmalari tuzilishiga ko'ra ikki turli bo'ladi:

- 1) sodda so'z birikmalari;
- 2) murakkab so'z birikmalari.

Ikki mustaqil so'zdan hosil bo'lgan birikmalar **sodda so'z birikmalari** hisoblanadi. Masalan, *shahar ko'chalari, bozor darvozasi, ertangi imtihon, tez yurmoq* kabi.

Tarkibida ikkidan ortiq mustaqil so'z bo'lgan birikma **murakkab so'z birikmasidir**. Masalan, *katta baland bino, yengi katta gulli kuylak, qoraqosh go'zal qiz* kabi.

So'z birikmalari hokim so'zning ifodalanishiga ko'ra ikki turli bo'ladi:

- 1) *otli birikma*;
- 2) *fe'lli birikma*.

Hokim so'z ot va otlashgan so'zlar, sifat, son, olmosh, ravish, modal so'z bilan ifodalansa, **otli birikma** hisoblanadi. Masalan, *erja bahor, qiziqarli kitob, hammadan yaxshi, yugurishda birinchi, bolalarning barchasi* kabi.

Hokim so'z fe'l va uning vazifadosh shakllari: sifatdosh, ravishdosh bilan ifodalansa, **fe'lli birikma** hisoblanadi. Masalan, *kitob o'qimoq, rasm chizmoq, ohista yurib, bozorda yura-yura, alamdan yig'lay-yig'lay, maktabda o'qiyotgan, kuz oftobida toblangan* kabi.

So'z birikmasini qo'shma so'z va iboradan farqlash lozim.

So'z birikmasida ham, qo'shma so'zda ham qismlar bir xil grammatik shaklda bo'lishi mumkin. Lekin so'z birikmasi qismlari ma'no mustaqilligiga ega bo'ladi, uning har bir qismi alohida urg'u bilan aytildi, grammatik bog'langan bo'ladi. Masalan, *ko'zoynak, oybolta, oqqush (qo'shma so'z), ko'zi og'rimoq, o'tkir bolta, oq qushlar (so'z birikmasi)* kabi.

Qo'shma so'z qismlari ma'no mustaqilligiga ega emas, grammatik aloqada bo'lmaydi, bir urg'u bilan aytildi, bir leksik ma'nosiga ega bo'ladi.

Qo'shma so'z tilning lug'aviy birligi, so'z birikmasi tilning sintaktik birligidir. Qo'shma so'zlarning ko'pi so'z birikmalari asosida yuzaga kelgan.

So'z birikmasi tarkibidagi tobe va hokim so'z o'zaro quyidagi usullarda bog'lanadi:

- 1) boshqaruv;
- 2) moslashuv;
- 3) bitishuv.

Tobe va hokim so'zning ko'makchilar va tushum, jo'nalish, o'tin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalari bilan bog'lanishi **boshqaruv** deyiladi.

Boshqaruv ikki xil bo'ladi:

- 1) ko'makchili boshqaruv;
- 2) kelishikli boshqaruv. Masalan, *baxt haqida suhbat, tinchlik uchun kurash, makiab sari bormoq (ko'makchili boshqaruv), mak-*

tabga bormoq, ishdan qaymoq, kitob o'qish (kelishikli boshqaruv).

Ba'zan kelishik belgisiz bo'lishi, ya'ni qo'shimchasi qo'llanmasligi va qisqargan shaklda bo'lishi mumkin: *paxta terish, yer chopish* kabi.

So'z birikmasi tarkibidagi tobe va hokim so'zning qaratqich kelishigi va egalik qo'shimchasi yordamida bog'lanishi **moslashuv** deyiladi. Bunda qaratqich kelishigi qo'shimchasi tobe so'z, egalik qo'shimchasi hokim so'z tarkibida bo'ladi. Masalan, *bizning ko'chamiz, Adhamning ikasi, kitobning sahifasi* kabi.

So'z birikmasi tarkibidagi tobe va hokim so'zning hech qanday qo'shimchasisiz, ohang va ma'nosiga ko'ra bog'lanishi **bitishuv** deyiladi. Masalan, *sekin yurmoq, chiroyli qiz, qiziqarli kitob, erta bahor, shirin taom* kabi.

Grammatik jihatdan shakllangan, tugallangan ohang bilan aytildigan, nisbiy tugallangan fikr ifodalaydigan, aloqa-aratashuv (muomala) ning eng kichik birligi **gap** deyiladi.

Gap fikri ni shakllantirish, ifodalash va bayon qilishga xizmat qiladi. Gapning asosiy funksional belgisi kommunikativlik, ya'ni fikr ifodalash va bayon qilish vazifasidir. Shu jihat bilan so'z va so'z birikmasidan farqlanadi. Ular narsa-buyum, belgi va harakatni nomlashga xizmat qiladi, nominativ, gap esa fikr ifodalash, ya'ni kommunikativ vazifa bajaradi.

Gap boshqa sintaktik birliklardan predikativlik belgisi orqali farqlanadi. Gapning kommunikativ birlik sifatida shakllantiruvchi vosita predikativlidir.

Predikativlik shaxs-son, zamon, mayl, tasdiq-inkor ma'nolari va bu ma'nolar yig'indisidan tashkil topadi.

Gap tarkibidagi so'zlar ma'no va grammatik jihatdan bog'lanadi.

Gap quyidagi belgi-xususiyatlarga ega:

- 1) grammatik jihatdan shakllangan bo'ladi;
- 2) nisbiy tugallangan fikr ifodalaydi;
- 3) tugallangan ohang bilan aytildi;
- 4) aloqa-aratashuv (muomala) ning eng kichik birligi.

Masalan, *Salimjon ikkinchi sinfda o'qiydi*. Bu gapda so'zlar o'zaro -da, -di kabi grammatik vositalar yordamida bog'langan

bo'lib, *Salimjon* – ega, *o'qiydi* – kesim. Demak, gap grammatik jihatdan shakllangan. Gap tugallangan ohang bilan aytilgani uchun gap oxiriga nuqta qo'yilgan. Ma'no jihatdan darak mazmunini ifodalayapti.

Gap uchun ohang eng muhim belgidir. Ohang gaplami mazmunan bir-biridan farqlab turadi. Ayniqsa, bu og'zaki nutqda bilinadi. Gapning ohangini o'zgartirish orqali turli mazmun ifodalash mumkin. Masalan, *Akram ishdan qaytdi* (darak gap), *Akram ishdan qaytdi?* (so'roq gap).

Gaplar o'zaro mantiqiy jihatdan bog'lanib matnni hosil qiladi.

Gaplar sintaktik, semantik va kommunikativ jihatdan bo'laklarga hamda birliklarga ajratiladi.

Gaplar sintaktik tuzilishi jihatidan quyidagi bo'laklarga bo'linadi:

1) sintaktik munosabatga kirishuvchi bo'laklar: *ega, kesini, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol*;

2) sintaktik munosabatga kirishmovchi bo'laklar: *kirishlar, undalmalar, undov so'zlar* kabi.

Gaplar semantik tuzilishi jihatidan esa quyidagi bo'laklarga bo'linadi: *subyekt, borliq, predikat*.

Subyekt (lat. *subjectum*) – gapda ifodalangan harakatni bajaruvchi shaxsni ifodalovchi bo'lak, mantiqiy ega. Grammatik ega.

Predikat (lat. *praedicatum* – aytilgan) gapda ifodalangan harakatni bajarilish tushunchasini ifodalovchi bo'lak. Ayn. Logik kesim.

Borliq – makon va zamonda sodir bo'luvchi narsa-buyum, voqelik tushunchasini ifodalovchi bo'lak.

Gapdagi ana shu *subyekt, borliq, predikat* tushunchalari majmui gap semantikasini tashkil etadi.

A.Nurmonov ta'kidlaganidek, gap bo'laklarini belgilashda uzoq davrlar «tobe-hokim munosabatida bo'lishlik» va bu munosabatda «tobe pozitsiyada turishlik» belgilari tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qildi. Ana shu belgiga muvofiq gap bo'laklarini ikki darajaga – bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga bo'lish an'anasi jahon tilshunosligida L.Teneming «Struktural sintaksis asoslari» asari maydonga kelgunga qadar hukm surdi. Bu asarning paydo bo'lishi sintaktik nazariyada buyuk burilish yasadi. Gapning tuzilishi va mazmuniy markazi sisatida kesimning e'tirof etilishi va egani

kesimning «bo'sh o'rın»larini to'ldirib keluvchi argumentlar qatoriga o'tkazilishi bosh va ikkinchi darajali bo'laklar tushunchasini qayta ko'rib chiqish muammosini keltirib chiqardi. Xuddi shu muammo A.Nurmonov, H.Nematovlar tomonidan 80-yillarda ko'tarildi va hozirga kelib o'zbek tilshunosligida ham kesimning gap qurilishida yetakchi, markaziy bo'lakligi, ega, to'ldiruvchi, hol kabi bo'laklar kesimning «bo'sh o'rın»larini to'ldirib, uni kengaytiruvchilari hisoblanishi tan olindi. Aniqlovchi kesimga emas, balki uning bo'lagiga tobe bog'lanishiga ko'ra bo'lakning bo'lagi deb e'tirof etildi. Natijada gapning bo'laklar ishtirokiga ko'ra turlarini belgilash haqidagi qarashlar ham o'zgardi.

Gapning ichki sintaktik tuzilishi ierarkik tabiatga ega bo'lib, gap bo'laklardan va bo'lakning bo'laklaridan tashkil topadi. Bo'laklarga bo'linmaydigan eng kichik gap *yig'iq*, gapning bo'laklari va bo'lakning bo'lagi bilan kengaygan gap *yoyiq*; uyuşiq, ajratilgan bo'laklar bilan kengaygan gaplar **murakkab-lashgan**; kirish, undalmalar ishtirok etgan gaplar esa **murakkab sodda gaplar** sanaladi.¹

Gaplar kommunikativ jihatdan ikki bo'lakka bo'linadi:

- 1) tema;
- 2) rema.

Tema (yun. *thema* – asos bo'lgan narsa) – gapning aktual bo'linishida ma'lum (tanish) bo'lgan narsani ifodalovchi, yangi narsani ifodalashga o'tish uchun asos vazifasini bajaruvchi qism.

Rema – gapning aktual bo'linishida temadan keyin yangi xabarni bildiradigan qism. Masalan, *Sumbula I-kursda o'qiydi* gapida *Sumbula – tema, o'qiydi – rema*.

Bitta kesimlik belgisiga, mazmuniy va ohang tugalligiga ega bo'lgan gap **sodda gapdir**.

Ikki yoki undan ortiq sodda gapning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topgan, ohang tugalligiga ega bo'lgan butunlik **qo'shma gap**.

Matn – eng yirik sintaktik birlik. Har qanday nutq parchasi, bo'lagi matn hisoblanadi. Masalan, *Hunar, hunardan rizqing umar*. (Maqol)

¹ Qarang, Nurmonov A. Gap va uning bo'laklari haqidagi melohazalar// O'zbek tili va adabiyoti, 2009. - № 2. - B. 35-38.

Hamid Olimjonning «O'zbekiston» şe'ri ham alohida matn hisoblanadi.

Matnlar hajmiga ko'ra ikki turli bo'ladi:

- 1) mikromatn;
- 2) makromatn.

Bir necha gaplarning o'zaro grammatick va mazmuniy bog'lanishidan tashkil topgan, mazmuniy yaxlitlikka ega bo'lgan qo'shma gaplarga nisbatan yirikroq og'zaki va yozma nutq parchasi **mikromatn** hisoblanadi.

Bir umumiy mavzu ostida birlashgan bir necha mikromatnlardan tashkil topgan matn **makromatn** deyiladi. Demak, makromatn mikromatning o'zaro mazmuniy va grammatick bog'lanishidan hosil bo'ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Sintaksis qanday soha?
2. Sintaktik aloqa deganda nimani tushunasiz?
3. Sintaktik birliklarga nimalar kiradi?
4. Sintaktik aloqaning qanday turlari bor?
5. Teng bog'lanish deb qanday sintaktik munosabatga aytildi?
6. Tobe bog'lanish deb qanday sintaktik munosabatga aytildi? Uning qanday turlari bor?
7. Boshqaruv qanday usul?
8. Bitishuv qanday usul?
9. Moslashuv qanday usul?

MUSTAQIL ISH MAVZULARI VA ULAR BO'YICHA TOPSHIRIQLAR

Tilshunoslik va semiotika (1-mavzu)

1. Belgi haqida tushuncha.
2. Belgi turlari.
3. Lingivistik belgi va uning xususiyatlari.
4. Til – belgilar tizimi.
5. Semiotika va u o'rganadigan masalalar.
6. Tilshunoslik va semiotika fanlari bog'liqligi.

Savol va topshiriqlar:

1. Belgi deganda nimani tushunasiz?
2. Belgilar vazifasi va mohiyatiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
3. Lingivistik belgi deganda nimani tushunasiz?
4. Lingivistik belgi boshqa belgilardan nimesi bilan farqlanadi?
5. Nima uchin til belgilar tizimi?
6. Semiotika qanday soha?
7. Tilshunoslik va semiotika fanlari bog'liqligini izohlang.
8. Til mohiyatiga ko'ra nima? Izohlang.
9. Til vazifasiga ko'ra nima?
10. Tilning vazifalarini izohlang.
11. Tilshunoslik fanining soha va bo'limlari haqida ma'lumot bering.

Sharq mutafakkirlarining til haqidagi qarashlari (2-mavzu)

1. Sharqda ilm-fan va til, nutq masalalari talqini.
2. Yusuf Xos Hojibning til va nutq haqidagi qarashlari.
3. Mahmud Koshg'ariy va tilshunoslik.
4. Abu Nasr Forobiyning lingvistik qarashlari.
5. Alisher Navoiyning til va nutq haqidagi qarashlari.

Savol va topshiriqlar:

1. Yusuf Xos Hojibning til va nutq haqidagi qarashlarining mazmun-mohiyati xususida fikr yuriting.
2. Mahmud Koshg'ariyning ilmiy merosi tilshunoslik taraqqiyotida qanday ahamiyatga egaligini dalillar bilan izohlang.
3. Mahmud Koshg'ariy va qiyosiy-tarixiy tilshunoslik taraqqiyoti masalasini tushuntiring.
4. Abu Nasr Forobiyning lingvistik qarashlarini izohlang.
5. Alisher Navoiyning til va nutq haqidagi qarashlarini izohlang.
6. Alisher Navoiy tilning paydo bo'lishi qanday izohlaganligini va buning sabablarini tahlil qiling.

Til oilalari (3-mavzu)

1. Dunyo tillari.
2. Tillar tasnifi.
3. Tasnif turlari.
4. Tillarning geneologik tasnifi.
5. Til oilalari va qarindosh tillar.
6. Turkiy tillar oilasi.
7. Tillarning morfologik tasnifi.
8. Millatlararo tillar.
9. Xalqaro tillar.

Savol va topshiriqlar:

1. Tillar tasnifi deganda nimani tushunasiz?
2. Tillar tasnifining qanday turlari bor?
3. Tillar hozirda qo'llanish-qo'llanmasligiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
4. O'lik til va «tirik til» terminlarini izohlang. O'lik tillar ro'yxatini tuzing. Ularni bunday tillar guruhiga kiritilishi sabablarini izohlang.
5. Tillarning geneologik tasnifi qanday tamoyillarga asoslanadi?
6. Qanday tillar qarindosh tillar hisoblanadi?

7. Til oilasi tushunchasini izohlang.
8. Dunyodagi tillar geneologik tasnifga ko'ra qanday til oilalariga ajratiladi?
9. Turkiy tillar oilasi haqida ma'lumot bering. Turkiy tillari oilasiga mansub tillarning tarqalish areallarini aniqlang. «Turkiy tillar oilasining tarqalish areallari» nomli xarita tuzing.
10. O'zbek tili qaysi tillar bilan bir guruhga kiradi? Nima uchun?
11. O'zbek tili qaysi tillar bilan qarindosh hisoblanadi? Buni izohlang.
12. *Bobotil* tushunchasini, turkiy tillar oilasi uchun asos bo'lgan bobotilning xususiyatlarini izohlang.
13. Tillarning tipologik (morfologik) tasnifi deganda nimani tushunasiz?
14. Elektiv til, agglyutinativ til, o'zak (ajratuvchi) til, polisintetik til terminlarini izohlang?
15. O'zbek tili tillarning tipologik (morfologik) tasnifiga ko'ra qanday tillar sirasiga kiradi? Dalillar asosida izohlang.

Tilning fonemalar tizimi. Fonema nazariyasi tarixidan (4-mavzu)

1. Fonetik-fonologik sathning o'ziga xosliklari.
2. Fonema. Fonemaning vazifasi.
3. Fonema variantlari.
4. Fonema nazariyasi.
5. O'zbek tili fonologiyasi.

Savol va topshiriqlar:

1. Fonetik-fonologik sath tushunchasini izohlang
2. Fonema nima? Fonema qanday til birligi?
3. Fonema va tovush terminlarini izohlang.
4. O'zbek tili fonemalar tizimini tavsiflang.
5. Fonema variantlari deganda nimani tushunasiz?
6. O'zbek tilida qaysi fonemalarning variantlari mavjud?

Izohlang.

7. Fonologiya qanday soha?
8. Qanday fonologik nazariyalar bor?
9. O'zbek tili fonologiyasini kimlar o'rgangan?

Leksemaning semantik tabiatи: leksema va semema (5-mavzu)

1. Leksemaning shakl va ma'no tuzilishi.
2. Leksema va so'z.
3. Leksema mazmuni.
4. Leksema va semema.

Savol va topshiriqlar:

1. Leksema va so'z terminlarining izohlang.
2. Lug'aviy ma'no va uning tarkibi deganda nimani tushunasiz?
3. Leksema va semema terminlarini izohlang.
4. Sema nima? Semema nima? Misollai keltiring
5. Leksemaning shakl va ma'no tuzilishi deganda nimani tushunasiz?
6. Semantika qanday soha?

Lug'aviy sath taraqqiyotining ichki va tashqi manbalari (6-mavzu)

1. Lug'aviy sath birliklari.
2. Lug'aviy sath taraqqiyotida ichki manbalarning roli.
3. Tashqi manbalar.
4. O'z qatlam va o'zlashma qatlam.

Savol va topshiriqlar:

1. Lug'aviy sath tushunchasini izohlang
2. Lug'aviy sath birliklariiga nimalar kitadi?
3. Lug'aviy sath taraqqiyotining ichki manbalari nimalardan iborat?

4. Lug'aviy sath taraqqiyotining tashqi manbalariga nimalar kiradi?
5. Tilning lug'at tarkibining o'zlashma qatlami deganda nimani tushunasiz?
6. Hozirgi o'zbek tili lug'aviy sathi taraqqiyotini dalillar asosida tahlil qiling.

Lug'aviy birliklarning qo'llanish doirasiga ko'ra tasnifi (7-mavzu)

1. Tilning lug'at tarkibi haqida.
2. Lug'aviy birliklarning qo'llanish doirasiga ko'ra tasnifi.
3. Umumiste'mol leksikasi.
4. Iste'mol doirasi chegaralangan leksika.
5. Tarixiy-etimologik jihatdan o'zbek tili leksikasini tasniflang.

Savol va topshiriqlar:

1. Til lug'at tarkibi deganda nimani tushunasiz?
2. Lug'aviy birliklar qo'llanish doirasiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
3. Umumiste'mol leksikasi va uning xususiyatlarini izohlang.
4. Iste'mol doirasi chegaralangan leksika va uning xususiyatlarini izohlang.
5. Tarixiy-etimologik jihatdan til leksikasi tasniflang.

Terminologiya. Terminlar mohiyati (8-mavzu)

1. Terminologiya va u o'r ganadigan masalalar.
2. Termin va uning belgi-xususiyatlari.
3. So'z va termin.
4. Terminlarning qo'llanish xususiyatlari.
5. O'zbek terminologiyasi.
6. O'zbek terminologiyasining manbalari.

Savol va topshiriqlar:

1. Terminologiya qanday soha?
2. Termin qanday til birligi?
3. Terminning lisoniy belgi-xususiyatlarini izohlang.
4. Terminlar qanday yaratiladi?
5. O'zbek terminolgiyasining manbalarini tahlil qiling.
6. So'z va termin tushunchalarini izohlang.

Grammatika va uning tarkibiy qismlari. Morfologiya va sintaksis (9-mavzu)

1. Grammatika va uning tarkibiy qismlari.
2. Morfologiya haqida umumiy ma'lumot
3. So'z turkumlari tushunchasi.
4. So'zlarini turkumlarga ajratish tamoyillari.
5. Grammatik kategoriyalar.

Savol va topshiriqlar:

11. Grammatik sath tushunchasini izohlang.
12. Morfologiya qanday soha?
13. So'z turkumlari tushunchasini izohlang.
14. So'zlarini turkumlarga ajratishda qaysi tamoyillarga asoslaniladi?
15. Grammatik kategoriya deganda nimani tushunasiz?

Grammatik ma'nio ifodalovchi vositalar (10-mavzu)

1. So'zning lug'aviy va grammatik ma'nosи.
2. Grammatik ma'noni ifodalash usullari.
3. Grammatik ma'nio ifodalovchi vositalar.
4. O'zbek tilida grammatik ma'noni ifodalanishi.

Savol va topshiriqlar:

1. So'zning grammatik ma'nosi deganda qanday ma'no tushuniladi? Misollar bilan izohlang.
2. Grammatik shakl nima? Misollar keltiring.
3. Grammatik ma'no qanday usul va vositalar bilan ifodalanadi? Dalillar bilan izohlang.
4. O'zbek tilida grammatik ma'no qanday vositalar bilan ifodalanadi? Ot turkumi misolida izohlang.
5. Grammatik ma'no boshqa tillarda qanday vositalar yordamida ifodalanadi? O'zbek tili bilan qiyoslang.
6. O'zbek tilida keng va ko'p qo'llanuvchi grammatik ma'no ifodalovchi vositalarni fe'l turkumi misolida tahlil qiling.

Referat mavzulari va uni yozish bo'yicha tavsiyalar

Referat mavzulari

1. F.de Sossyur ta'limoti va strukturalizm.
2. Fonema va u haqidagi turli fonologik maktab vakillarining qarashlari (N.S. Trubetskoy, L.V. Shcherba qarashlarini o'rganish).
3. Fonema variantlari.
4. Fonetik hodisalar. Kombinator fonetik hodisalar.
5. Fonetik hodisalar. Pozitsion fonetik hodisalar.
6. Gap bo'laklari tasnifi.
7. Grammatik kategoriylar.
8. Grammatik ma'noning ifodalanish usullari.
9. Grammatik ma'noning ifodalanish usullari.
10. Grammatika – tilning grammatik qurilishini o'rganuvchi soha.
11. Leksema va so'z.
12. Leksemaning semantik tabiat: leksema va semema.
13. Leksemaning shakl va ma'no tuzilishi.
14. Leksikografiya. Lug'at va uninig turlari hamda tuzilishi.
15. Lug'aviy birliklarning qo'llanish doirasiga ko'ra guruhlari.
16. Lug'aviy sath taraqqiyotining ichki va tashqi manbalari.
17. Morfema va uning turlari. Yetakchi morfema.
18. Motfema va uning turlari. Affiksal morfemalar.
19. Nutqning fonetik bo'linishi va birliklari.
20. O'zbek tilining taraqqiyot qonuniyatları va usullari.

21. Sharq mutafakkirlarining (Yusuf Xos Hojib, Koshg'ariy, Abu Nasr Forobiy, Navoiy) til shakllanishiga oid qarashlari.
22. Sintaktik bitliklar.
23. Sintaktik imnosabat va uning turlari.
24. So'z ma'nolarining ko'chish yo'llari. Metafora va metoniiniya.
25. So'z ma'nolarning ko'chish yo'llari. Sinekdoxa va funksiyadoshlik.
26. So'z turkumlari. So'z turkumlari tasnifi va tavsifi.
27. So'zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari.
28. So'zning lug'aviy va grammatik ma'nosi.
29. So'z tarkibining o'zgarish yo'llari.
30. So'z yasash tushunchasi. So'z yasash usullari.
31. Terminologiya. Termin va uning lisoniy belgi-xususiyatlari.
32. Til – belgilari tizimi. Lingvistik belgi.
33. Til oilalari. Turkiy tillar oilasi.
34. Til va jamiyat.
35. Til va nutq.
36. Til birliklari va nutq birliklari.
37. Til va tafakkur.
38. Tilning ichki tuzilishi.
39. Tillar aloqasi. Bilingvizm.
40. Tillar tasnifi. Tasnif turlari.
41. Tilning fonemalar tizimi. Fonologik nazariyalar.
42. Tilning fonetik-fonologik sathi va birliklari.
43. Tilning grammatik sathi va birliklari.
44. Tilning leksik sathi va birliklari.
45. Tilning taraqqiyot qonuniyatları.
46. Tilning vazifalari.
47. Tilshunoslik fani bo'limlari va tarmoqlari.
48. Tovush va fonema.
49. Urg'u va uning tur hamda tiplari.
50. Xalqaro tillar va ularning xususiyatlari hamda qo'llanishi.
51. «Yosh grammaticachilar»ning yutuqlari va kamchiliklari.
52. Adabiy til va uning xususiyatlari.
53. Davlat tili, rasmiy til va ularning xususiyatlari.
54. Tilning taraqqiyot qonunlari va usullari.
55. Tillarning tasnifiy birliklari.

Referat yozish bo'yicha metodik tavsiyalar

Referat va uni yozish jarayoni

Referat – oliy o'quv yurtlarida talabalarning o'quv rejasidagi maxsus yoki umumkasbiy fanlar bo'yicha bajaradigan mustaqil ijodiy va ilniy ishi.

Referat yozdirishdan asosiy maqsad talabalarning o'quv fani bo'yicha olgan bilim va egallagan ko'nikmalarini ilmiy, amaliy jihatdan mustahkamlash hamda nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga, dalillar, misollari bilan asoslashga, aksincha, amaliy dalil va misollar tahlilidan nazariy xulosalar chiqarishga o'rgatishdan iborat.

Referatni yozish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Referat mavzusini tanlash. Referat yozish mavzu tanlashdan boshlanadi. O'quv semestri boshida talaba o'ziga o'qituvchi tavsiyasi asosida ma'lum mavzuni tanlaydi.
2. Ilmiy rahbardan mavzuga doir topshiriq va tavsiyalar olish.
3. Mavzuga oid adabiyotlarni topish, o'qib o'rganish va konseptlar qilish, iqtiboslari olish.
4. Mavzuga oid internet materiallarini o'rganish va to'plash.
5. Mavzu doirasidagi ilmiy-nazariy fikrlarni asoslash uchun dalillar, misollar to'plash va ularni tahlil qilish.
6. Mavzu mohiyati va referat maqsadidan kelib chiqib reja tuzish.
7. Referatni talablarga muvofiq rasmiylashtirish va o'qituvchiga ko'rib chiqish uchun taqdim etish.

Referatning rasmiylashtirish qoidalari

1. Referat mundarija, kirish (so'zboshi), asosiy qism, ya'ni mavzuni yoritishga bag'ishlangan bo'limlar, xulosa, foydalaniilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'ladi.
2. Kirish qismida ishning maqsadi, vazifalari, o'rganish obyekti, manbasi va ahamiyati qisqa, lo'nda, aniq beriladi.

3. Ishning asosiy mazmuni bayonida quyidagilarga amal qilish lozim:

- fikrlar ilmiy, asosli, aniq va izchil bo'lishiga;
- ilmiy-nazariy fikrlar ishonchli dalillar bilan asoslanishiga;
- ilmiy manbalardan olingan havolalarning manbalari aniq va to'la ko'rsatilishiga.

4. Referatni xulosalanishi shart. Xulosada ish mavzusi bo'yicha qisqa umumlashtirilgan natijalar beriladi.

5. Adabiyotlar ro'yxati alifbo tartibida talablarga muvofiq qayd etiladi.

6. Ishda adabiyotlar qaysi yozuvda yozilgan bo'lsa, o'sha yozuvda, ya'ni rus kirill alifbosiga asoslangan yoki lot. alifbosiga asoslangan yangi o'zbek yozuvida beriladi.

7. Ishda keltirilgan manbalarga havolalar «Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati» bo'yicha tartib raqamlari kvadrat qavslarda ko'rsatish yoki satr ostida keltirish mumkin.

8. Referat qo'lyozma (qo'l bilan) yoki kompyuterda yozilishi mumkin.

Referatning hajmi oddiy yozuvda 10-12 bet, kompyuterda 6-8 bet bo'lishi lozim.

Referat kompyuterda WORDning 14 shriftida 1,5 intervalda qog'ozning faqat bir tomoniga yoziladi.

Ishning betlarida matnning chap tomoni 30 mm, yuqori tomoni 25 mm, o'ng tomoni 15 mm, quyi tomoni 25 mm bo'lishi kerak.

GLOSSARY¹

Adabiy me'yor. Til birliklarini u yoki bu ko'rinishda jamiyat tomonidan aniqlangan, belgilangan ishlatalish imkoniyat va qonuniyatlari hamda adabiy til qoida-talablariga mos holda qo'llanishini.

Adabiy til. Umumxalq tilining fonetik, leksik, grammatik jihatdan ishlangan, ma'lum me'yorga solingan, sayqallangan oly shakli.

Affiks (lot. *affixis* – birlashtirilgan). Aynan *qo'shimcha*. Asos morfemaga zid qo'yiladigan, asosga qo'shilib lug'aviy va grammatik ma'nolarni shakllantirishga xizmat qiladigan morfema

Agglyutinativ tillar. So'z yasalishi va shakl yasalishi agglyutinatsiya yo'li bilan bo'ladigan tillar. Masalan, *fin-ugor tillari, turkiy, jumladan, ozbek tili*.

Agglyutinatsiya. (lot. *agglutinare* – yopishtirmoq) 1. So'z yasalish yoki shakl yasalish asosi o'zgarmagan holda yangi so'z yoki so'z shakli hosil bo'lishi.

2. So'zning asosiga turli affikslarni ketma-ket qo'shilish jarayoni: *maktab-lar-imiz-ga*. Bunda har bir affiks ma'lum bir ma'no, vazifa bilan qatnashadi. Mas, turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida yasama so'zlar va so'z shakllari asosga ma'lum izchillik bilan affikslar qo'shish orqali hosil qilinadi va bu affikslarning har biri o'z ma'nosini bilan qatnashadi: *ter-im-chi-lar-imiz-ga*.

¹ Tilshunoslik terminlari lug'atini tuzishda qayrigagi ilmiy manbalarga asoslanildi va ulardan toydaloniildi: A.Bojiyev Tilshunoslik terminlerining izobli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2002. – 166 b.; A.Nurmonov Tanlangan axarlari. III jiddik. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – I, II, III jiddilar; N.Nematov, R.Rasulov O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 128 b.; A.Abduaizov O'zbek tili fonologiyasi va mersonologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 136 b.; A.Sodiqov, A.Abduaizov, M.Irisqulov Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1981.; M.Irisqulov Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. va boshqa manbalar.

Aksentologiya (*lot.* accentus – urg‘u; *yun.* logos – so‘z, ta‘limot). Fonetikaning urg‘uni (urg‘uning tabiatи, tipi, vazifasi va h.) o‘rganuvchi bo‘limi.

Akkomodatsiya. So‘zdagi yondosh tovushlar artikulatsiyaning o‘zaro moslashuvi. Masalan, *qafas* so‘zida *q* chuqur til orqa undosh tovushidan keyin til oldi *a* unli tovushining til orqa unlisi kabi talaffuz qilinishi.

Aksidensiya. Sezgi organlari yordamida his qilish mumkin bo‘lgan belgilar, oraz.

Alifbo. Harflarning muayyan tartibdagi majmui, ma’lum tartibda joylashgan holati. Masalan, yangi o‘zbek alifbosida harflarning *Aa*, *Bb*, *Dd*, *Ee* tartibida joylashuvi.

Allofona (*yun.* *allos* – boshqa; *phone* – tovush). Bir fonemaga birlashuvchi fonalar.

Allomorf (*yun.* *allos* – boshqa; *morphe* – shakl). *ayn.* Allomorfa.

Allomorfa. Morfemaning biri o‘mida ikkinchisini ishlatib bo‘lmaydigan variantlari, uning bir ko‘rinishi, morflari. Masalan, -*ga*, -*ka*, -*qa* jo‘nalish kelishigi qo‘shimchalari kabi.

Alovida so‘z turkumlari. Mustaqil va yordamchi so‘z turkumlariga mansub bo‘limgan so‘zlar gutuhi. Modal, taqlid va undov so‘zlar alovida so‘z turkumlari bo‘lib, bu turkumlarga mansub so‘zlar alovida so‘zlardir. Masalan, *zero*, *jumladan*, *darhaqiqat*, *taq-tuq*, *yalt*, *eh*, *salom*, *ofarin* kabi.

Amaliy tilshunoslik. Tilshunoslikning lingvistik masalalarni amaliy yo‘l bilan o‘rganuvchi sohalari. Amaliy tilshunoslik mashinaviy tarjima va yozuv, imlo masalalari bilan shug‘ullanadi. Amaliy tilshunoslikka eksperimental fonetika, leksikografiya, lingvostatistika, orfografiya kiradi.

Amorf tillar (yun. *amorphos* – shaklsiz). Affikslarga ega bo‘lmanan, so‘zlar orasidagi grammatik aloqalar bitishuv yo‘li bilan yoki yordamchi so‘zlar vositasida ifodalanadigan tillar. Masalan, *xitoy tili*.

An'anaviy tilshunoslik. Tilshunoslikdagi faqat til qismlari va tuzilishining ichki munosabatlarni, bog‘liqliklarini yoritish bilan birga til va tafakkurning o‘zaro munosabati, tilning jamiyat bilan, shu tilda so‘zlashuvchi jamoa bilan aloqasi kabi masalalarni o‘rganadigan yo‘nalishi.

Analitik tillar. Grammatik ma’nolar yordamchi so‘zlar, so‘z tartibi, ohang yordamida ifodalanadigan tillar. Masalan, *ingliz*, *frantsuz*, *ispak tillari* analitik tillar guruhiga kiradi.

Aralash (gibrid) til. Tillarning aralashib ketishi natijasida hosil bo‘lgan sun’iy til. Masalan, *pidgin-english* tili (Yaponiya, Tinch Okeani orollari).

Areal lingvistika. Tilshunoslikning lingvistik areallarni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi sohasi.

Artikulyatsiya (*lot. articulatio* < *articulare* – aniq-ravshan aytmoq). Nutq a’zolarining tovush hosil qilishdagi harakat-faoliyati va holati. Tovushlarning hosil bo‘lishida nutq a’zolarining ishtiroki, holati nuqtayi nazaridan artikulyatsiyada ikki narsa farqlanadi: 1) artikulyatsiya o‘rni (*q.*) 2) artikulyatsiya usuli (*q.*)

Artikulyatsiya usuli. Tovush hosil bo‘lishida ishtirok etuvchi nutq a’zolarining bir-biriga nisbatan olgan holati natijasida havo oqimining sirg‘alib o’tishi, portlab chiqishi. *Oiyos.* Artikulyatsiya o‘rni.

Artikulyatsiya o‘rni. Tovush hosil bo‘lishida qatnashuvchi nutq a’zolarining bir-biriga yaqinlashib, havo oqimiga to’siq hosil etadigan nuqtasi. *Oiyos.* Artikulyatsiya usuli.

Apokopa. So'z oxiridagi undosh tovushlarning tushib qolishi. Apokopa asosan o'zlashma so'zlarda yo'y beradi. Masalan, *to'rt* > *to'r*, *qirq* > *qir*, *xursand* > *xursan*, *farzand* > *farzan* kabi.

Asos morfema. Lug'aviy ma'nolari anglatadigan, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan, so'z va so'z shakli yasash uchun asos bo'ladigan morfema. Masalan, *ishchi*, *suvsiz*, *olmalar*, *bolacha* so'zlaridagi *ish*, *suv*, *olma*, *bola* asos morfemalardir.

Assotsiatsiya. Til birliklarining shakliy yoki mantiqiy-semantic belgisiga ko'ra birlashuvi.

Assimilyatsiya (yun. *assimilatio* – o'xshab ketish). So'z tarkibidagi tovushlarning o'zaro ta'siri natijasida birini ikkinchisiga o'xhashlik tomon o'zgarishi. Masalan, *ishni* – *ishshi*, *ochdi* – *ochti*, *otdan* – *ottan*, *omi* – *otti*, *bizni* – *bizzi*, *ketdi* – *ketti* kabi.

Affiks (*lot. affixus* – birlashtirilgan, biriktirilgan). So'zga (leksemaga) zid qo'yiladigan (leksik ma'noga ega bo'limgan), o'zi qo'shiladigan asosning lug'aviy yoki grammatik ma'nolarining shakllanishiga xizmat qiladigan morfema; qo'shimcha. Mac, bola – cha – lar – ga. So'z tarkibidagi *-cha*, *-lar*, *-ga* lug'aviy va sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar hisoblanadi.

Affikslar vazifalariga ko'ra ikki asosiy turga bo'linadi: 1) *so'z yasovchi affikslar* (*q.*); 2) *forma (shakl) yasovchi affikslar* (*q.*). Affikslar so'zning boshiga, o'rtasiga yoki oxiriga qo'shilishi mumkin. So'zning boshiga qo'shiladigan affikslar *prefiks* (*q.*), o'rtasiga qo'shiluvchilari *infiks* (*q.*), oxiriga qo'shiladiganlari *suffiks* (*q.*) deyiladi. O'zbek tilidagi affikslar asosan so'zning oxiriga, ba'zilari so'z oldiga qo'shiladi, ya'ni suffiks va prefiks holida bo'ladi.

Affiksoid (*lot. affixus* – qo'shimcha + yun. *soidos* – tur). Affiks vazifasida qo'llanuvchi morfema: *taklifnoma*, *dalolatnoma*, *bildirishnoma* kabi so'zlardagi *noma*.

Affrikata (*lot*, affricata – ishqalangan). Qorishiq undosh tovush; paydo bo'lish o'miga va ovozning ishtirokiga ko'ra bir xil bo'lgan portlovchi tovush bilan sirg'aluvchi tovushning yaxlit bitta tovush sifatida talaffuz qilinishiga teng keladi. Mac, *o'zbek tilidagi jurnal, ajdar, jrafa so'zlaridagi j, choy so'zidagi ch* qorishiq undoshlardir.

Bilingvizm. Ikki tillilik.

Binar oppozitsiya. Bir turdag'i ikki hodisaning bir-biriga qarama-qarshi holda guruhlanishi. Masalan, undosh tovushlarda: *jarangli-jarang-sizlik*, unli tovush-larda: *lablangan-lablanmaganlik binar oppozitsiyani hosil qiladi*.

Bobotil. Ma'lum tillar oilasining kelib chiqishi va shakllanish uchun manba, asos bo'lgan til. Masalan, turkiy tillar oilasi uchun *qadimgi turkiy til* bobotildir.

Bosh ma'no. Ko'p ma'noli (so'z, ibora va b.) ma'nolari tizimida markaziy o'rinda turadigan, boshqa ma'nolar unga to'g'ridan-to'g'ri yoki biror ma'no orqali bog'lanadigan ma'no. Mac, *ko'z so'zining odamning ko'zi, derazaning ko'zi, uzukning ko'zi* birikmalaridagi ma'nosи boshqa-boshqa (mustaqil) ma'nolar bo'lib, bulardan *odamning ko'zi* birikmasidagi ma'no, ya'ni "*ko'rish a'zosi*" ma'nosи bosh ma'nodir. Keyingi ikki birikmadagi ma'nosи esa keyin yuzaga kelgan (keyin hosil bo'lgan) ma'nolardir. Q. Leksik ma'no turlari. *Qiyos*. Asos ma'no. Hosila ma'no.

Bo'g'in. Bir havo zarbi bilan aytildigan tovush va tovushlar majmui. Bo'g'in qanday tovush bilan bitganligiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1) ochiq bo'g'in – unli tovush bilan bitgan bo'g'in: *o-i-la, to-la, lo-la* kabi;

2) yopiq bo'g'in – undosh tovush bilan bitgan bo'g'in: *tong, kun-duz, to'p-lam* kabi

Degeminatsiya. So'zdagi cho'ziq undoshlarning cho'ziqlikni yoqotishi. Bu termini o'zbek tilshunosligida dastlab A. Nurmonov qo'llagan. Masalan, *chillaki* > *chilaki*, *kichikkina* > *kichikina* kabi.

Denotat (lot. *denotare* – *belgilamoq*). Leksema orqali nomlanuvchi (ataluvchi) vogelik, narsa-buyum.

Denotativ ma'no. Denotat bilan bevosita bog'liq, uni bevosita bildiruvchi ma'no. Leksemadan anglashiladigan vogelik, narsa-buyum va boshqalar haqidagi tushuncha.

Dialekt (yun. *dialektos* – sheva, labja). *Aynan*. Sheva, labja (q.).

Dialektologiya (yun. *dialekto* – sheva, *lahja* + *logos* – tushuncha, ta'lilot) *Aynan*. Shevashunoslilik. Tilshunoslikning sheva va lahjalarni o'r ganuvchi bo'limi.

Diaxroniya (yun. *dia* – orqali + *chronos* – vatq). Tilning tarixiy tuzilishi, rivojlanishi va taraqqiyotini tarixiy aspektda o'r ganish.

Diereza. So'z tarkibidagi undosh tovushlarning tushib qolishi. Masalan, *go'shi* – *go'sh*, *do'st* – *do's*, *susi* – *sus*, *to'rt* – *to'r* kabi.

Dinamik urg'u. Tovush kuchining o'zgarishiga (intensivligiga) asoslanadigan urg'u. Dinamik urg'uda intensivlik yetakchi bo'ladi. Qiyos. *Kvantitativ urg'u*.

Dissimilyasiya (lot. *dissimilatio* – nooxshash). So'zdagi bir xil yoki o'xshash tovushlardan birining artikulyatsion-akustik jihatdan boshqa bir tovush tomon o'zgarishi. Masalan, *zarur* – *zarul*, *zarar* – *zaral*, *damba* – *danba*, *musul-mon* – *musurmon*, *ambar* – *anbar* kabi.

Eksperimental fonetika. Nutq tovushlari, bo'g'in, urg'u va intonatsiyani maxsus apparatlar (kimograf, spektograf, ossillograf, rentgen va h.k.) yordamida o'r ganuvchi fonetika.

Ekstralolingvistika. Tilshunoslikning etnik, ijtimoiy-tarixiy, geografik va boshqa omillarni tilning taraqqiyoti hamda vazifasi bilan bog'liq hodisalar sifatida o'r ganuvchi tarmog'i.

Etnik (yun. *ethnikos* – qabilaga, xalqqa aloqador). Kelib chiqish jihatidan biror xalqqa oid, mansub, xos bo'lgan. Masalan, *aholining etnik tarkibi*.

Etnonim (yun. *ethnos* – qabila, xalq + *onyma* – nom) Xalq, qabila, urug' va bir xil etnik uyushmalar nomi. Masalan, *turk, o'zbek, uyg'ur, shumer* kabi.

Etnolingvistika. Makrolingvistikaning til bilan xalq o'rta sidagi munosabatlarni, til faoliyati va taraqqiyotida lingvistik hamda etnik omillarning o'zaro ta'sirini o'r ganuvchi tarmog'i.

Etnosotsiolingvistika. Sotsiolingvistikaning nutqni ham lisoniy, ham etnik-etnografik xususiyatlarni hisobga olgan holda tadqiq etuvchi tarmog'i.

Eufemizm (grek. *euphemismos* ← *eu* – yaxshi + *phemi* – gapiraman). Narsa, voqeya-hodisalarни yumshoq ifodasi; qo'pol, beodab so'zlar va tabu o'rniда qo'llanuvchi so'z hamda iboralar. Masalan, *o'ldi so'z o'rniда vafot etdi, ko'z yumiði, joni uzildi* kabi so'z va iboralarni qo'llash.

Farqlovchi sema. Ko'p ma'noli leksema sememalaridan har birining o'ziga xos bo'lgan, ular sememasini bir-biridan farqlaydigan sema. Mas., *yaxshi, yomon* so'zlari ijobiylik-salbiylik semasi bilan; *erkak, ayol* so'zlari jins semasi bilan farqlanadi.

Fleksiya (lot. *flexio* – egish, burish; o'zgarish). Bir necha grammatik ma'noni bir yo'la ifodalaydigan shakl yasovchi morfema.

Flektiv til. Grammatik ma'nolar fleksiya yo'li bilan ifodalananadigan til. Flektiv tillarga *hind-evropa* va *hom-som oilalariga* mansub tillar kiradi.

Fonema varianti. Fonemaning nutqda yondosh tovushlar ta'sirida paydo bo'ladigan ko'rinishi. Masalan, v fonemasining *lab-lab* (ov. *yayov*, ovloq so'zlaridagi) va *lab-tish* (*vagon*, *va'da*, *vafo*, *visol* so'zlaridagi) variantlari.

Fonema. So'z va morfemalarni shakllantiradigan hamda ularning ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiluvchi, boshqa mayda bo'laklarga bo'lmaydigan eng kichik tovush birligi.

Fonetik hodisalar. Nutq jarayonida yuz beradigan kombinator va pozitsion o'zgarishlar.

Fonetik tamoyil. So'z, asos va qo'shimchalarni eshitilishiga muvofiq yozish. Masalan, *burun*, *shahar* so'zlariga egalik qo'shimchalari qo'shilganda, ikkinchi bo'gindagi unlilarni tushib qolishi: *burnim*, *shahrim*, *shahrimiz* kabi yozilishi.

Fonetika (yun. *phonetike* – tovushga *oid* < *phone* – tovush). Tilshunoslikning nutq tovushlari va tovush vositalarini o'r ganuvchi sohasi.

Fonologiya. Tilshunoslikning nutq tovushlarini so'z va morfemalarning tovush qobig'ini farqlovchi vosita sifatida o'r ganuvchi sohasi.

Fonologik oppozitsiya // fonemalar oppozitsiyasi. Fonemalarning farqlovchi fonologik belgilari asosida qarama-qarshi qo'yish. **Fraza.** Har ikki tomondan pauza bilan bo'lingan, o'ziga xos ohangga ega bo'lgan nutqning eng katta fonetik birligi.

Fuziya (frans *fusion* – qo'shilish, tutashish < lot *fusio* – quyish, quyma).

Gap bo'laklari. Ma'lum so'roqqa javob bo'lib, gap tarkibida muayyan bir sintaktik vazifada keluvchi so'z va so'z birikmalari.

Gap. Til qonunlari asosida grammatick va ohang jihatidan shakllangan, fikmi ifodalash uchun xizmat qiladigan sintaktik birlik. Masalan, *Vatan – onaning ko'ksidan boshlanadi*. (M. Xidir)

Gap bo'laklarining tartibi. Gap bo'laklarining o'zaro ma'lum grammatik qonun-qoida asosida, ma'lum sintaktik, mazmuniy, uslubiy qiymati bilan bog'liq holda joylashuvi. Gap bo'laklari tartibining ikki turi bor: 1) *to'g'ri tartib* (q.), 2) *teskari tartib* yoki *inversiya* (q.).

Gaplologiya. So'zdagi bir xil yoki o'xshash bo'g'indan birining tushib qolishi. Masalan, *sariq yog'* – *saryog'*.

Giperonim. Muayyan turlarga nisbatan umumiylar ma'noni ifodalovchi va semantik maydonning yadrosi (markazi)da keluvchi bosh so'z, dominanta; jinsni bildiruvchi so'z.

Grammatika (*yun. grammatike* – harf o'qish va yozish san'ati). 1. Tilshunoslikning so'z shakllarini, so'z birikmasi va uning turlarini, gap va uning turlarini, ya'ni tilning grammatik qurilishini o'rjanuvchi bo'limi. Morfologiya va sintaksis grammatikaning tarkibiy qismlaridir.

2. ayn. Tilning grammatik morfologik va sintaktik qurilishi.

Grammatik kategoriya. Asosida yotuvchi umumiylar ma'nosiga ko'ra birlashuvchi grammatik shakllar tizimi. Grammatik kategoriyaning odatda ikki turi farqlanadi: 1) morfologik kategoriya (q.) 2) sintaktik kategoriya (q.).

Grammatik ma'no. So'zning shakliy qismi, grammatik shakli ifodalaydigan ma'no. Masalan, *talabalar* so'zi *predmetlik*, *bosh kelishik*, *ko'plik* ma'nolariga ega.

Grammatik shakl. Grammatik ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladigan til vositalari. Masalan, *bolalarga* oti tarkibida ko'plik, jo'nalish kelishigi ma'nolarini ifodalovchi shakllar mavjud.

Grammatik shakl qo'shimchalar yoki yordamchi so'zlar vositasida bosil qilinadi.

Ideografik yozuv. Grafik belgilari so'zlarni emas, balki ma'nolarni ifodalovchi yozuv.

Integratsiya. Tillar, shuningdek, dialektlarning o'zaro noo'xhashliklari yo'qola borib, bir umumiy tilga birlashishi.

Interlingvistika. Tilshunoslikning xalqaro aloqa-aratashuv vositalari sifati-da turli yordamchi tillarni yaratish va ulardan foydalanish jarayonini o'rjanuvchi tarmogi.

Intonatsiya // ohang. Frazaga tegishli bo'lgan ovoz sur'ati (tempi), sifati (tembri), nutq ritmi, melodika, iboraviy urg'u, pauza kabi fonetik vositalarning murakkab birligi.

Intralingvistika. Tilshunoslikning til ichki tizimini, uning birliklari va kategoriyalarini, til sathlari va ularning tuzilishini nolisoniy omillarga murojaat qilmay o'rjanuvchi tarmog'i.

Invariant (frans. *invariant* – o'zgarmas). Til birliklari: fonema, morfema, leksema kabilarning nutqdagi muayyan voqelanishidan ajratib, mavhum olingan holati.

Izoglossa (yun. *isos* – bir, o'xshash + *glossa* – til, nutq). U yoki bu til hodisasining tarqalish hududini ko'rsatish uchun geografik xaritalarda tortilgan chiziqlar.

Jonli til. Hozirgi davrda biror xalqning aloqa quroli, so'zlashuv vositasi bo'lgan til.

Kesim. Gapning grammatik asosi, tasdiq-inkor, zamon, mayl va shaxs-son ma'nolarini ifodalalovchi, gapning boshqa bo'laklarini o'z atrofida birlashtiruvchi asosiy, markaziy bosh bo'lagi. Masalan, *Vatan ostonadan boshlanadi*.

Kognitiv tilshunoslik. Bilish nazariyasi asosida tilni ongli his qilishni o'rjanish yo'nalishi.

Kombinator o'zgarishlar. Nutq tovushlarining qo'shni tovushlar ta'sirida miqdor va sifat belgilarining o'zgarishi. Akkomodatsiya, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, diereza, epenteza, gaplologiya, proteza, metateza kombinator o'zgarishlar hisoblanadi.

Kontekst. Nutq jaroyonida so'z yoki so'z birikmasining matndagi qo'llanish o'mi yoki ularning boshqa so'z va so'z birikmalari bilan yondosh kelishi.

Lahja. Fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bir-biriga yaqin hamda o'xhash shevalar yig'indisi, guruhi. O'zbek tili tarkibida quyidagi uchta lahja bor: 1) qarluq-chigil-uyg'ur; 2) qipchoq; 3) o'g'uz.

Leksema. So'zning grammatik ma'no bildiruvchi qo'shimchalarsiz qismi; tilning lug'at tarkibiga xos birlik.

Leksik ma'no turlari. Leksik ma'no bir necha nuqtayi nazardan yondashib turlarga ajratiladi. Jumladan: 1) yasalish munosabatiga ko'ra; 2) obyektni ifoda etishiga ko'ra; 3) nutqda voqelashish holatiga ko'ra.

Yasalish (hosil bo'lish) munosabatiga ko'ra leksik ma'no ikki turga bo'linadi: 1) *asos ma'no* (q.); 2) *yasama (hosila) ma'no* (q.).

Obyektni qanday ifoda etishiga ko'ra leksik ma'no ikki turga bo'linadi: 1) *nominativ ma'no* (q.); 2) *figural ma'no* (q.).

Nutqda voqelashish holatiga ko'ra leksik ma'no ikki turga bo'linadi: 1) *erkin ma'no* (q.); 2) *bog'li ma'no* (q.).

Lingvistik atlas (yun. *atlas* – mifologiyada Liviya podshosining nomidan; go'yo u birinchi bo'lib osmon globusini yaratgan emish). Muyyan maqsadlarda va ma'lum tizim asosida tanlab olingan kartalardan iborat bo'lgan hamda tushuntirish matnlari bilan albom shaklida nashr etilgan to'plam, kitob. Masalan, *urxun-enasoy yodgorliklari atlasi*.

Lingvistik geografiya. Tilshunoslikning har bit alohida til bodisalarining hududiy tarqalishini o'rganuvchi yo'nalishi.

Makrolingvistika. Kishilik jamiyatidagi barcha belgi sistemalarini va ularning o'zaro bog'lanishlarini o'rganuvchi tilshunoslik.

Matematik lingvistika. Tilshunoslikning tilni tadqiq etish va o'rghanishda matematik metodlarni qo'llash imkoniyatlarini o'rjanuvchi sohasi.

Matn tilshunosligi. Tilshunoslikning turli mazmun va uslubdagi matnlarni ilmiy tadqiq qiluvchi sohasi.

Mentalingvistika (lot. *mens, mentis* – ong, tafakkur + lingvistika). Tilshunoslikning til bilan tafakkurning aloqasini va shunga bog'liq masalalarni o'rjanuvchi bo'limi.

Metafora (gr. *metathora* – ko'chirish). Predmetlarning belgi-xususiyatlari o'xshashligiga ko'ra so'z ma'nosining ko'chishi. Masalan, *etak, lab, yoga* so'zlarning *dalaning etagi, piyolaning labi, dala yoqasi* kabi birikmalardagi ma'nosи.

Metateza (grek. *metathesis* – o'rin almashtirish). So'z tarkibidagi tovushlarning o'rin almashinushi. Masalan, *tuproq > turpoq, to'g'ranmoq > to'rg'amoq, qirg'iy > qiyg'ir, supra > surpa, kunjut > kunduch* kabi.

Metatil // etalon til. Turli til sistemalarini tasniflash uchun mezon vazifasini o'tovchi til.

Metod. Muayyan fan sohasida qo'llanadigan vosita va usullar tizimi.

Metadenotat. Muayyan bir so'zning ma'nosini yuzaga chiqarishga xizmat qiluvchi predmetlar to'dasi.

Metadesignat. Tushunchalar to'plami.

Metonimiya (gr. *metonimiya* – qayta nomlash). Bir predmet, belgi, harakat nomini o'zaro tashqi yoki ichki bog'liqlik, aloqadorlik asosida boshqa predmet, belgi yoki harakatga nishbatan qo'llash asosida ma'nosining ko'chishi. Masalan, *piyola* so'zining *choy, samovar* so'zining *choyxona* ma'nosida qo'llanishi.

Me'yor. Til birliklarini u yoki bu ko'tinishida jamiyat tomonidan aniqlangan, belgilangan ishlatalish imkoniyat va qonuniyatları.

Mikrolingvistika. Bir til sistemasidagi aloqalar va qaramaqarshiliklarni o'rghanish tilshunoslik.

Morfa (gr. *morphe* – shakl). Morfemaning so'zshakl tarkibida qatnashayotgan ko'tinishi. Turli so'zshakllarda ishtirok etuvchi bunday morfemalar majmui morfemani tashkil etadi. Masalan, *ko'rgali*, *olgani* so'zshakllaridagi *-gali*, *-gani* qo'shimchalari bir morfema, ya'ni ravishdosh qo'shimchalari hisoblanadi.

Morfemika. Tilning eng kichik ma'noli birliklari – morfemalarning tuzilishi, turlari va vazifalarini o'rGANUVCHI tilshunoslik bo'limi.

Morfologik kategoriya. Bir-biriga qiyosan olinadigan ikki yoki undan ortiq grammatik ma'no va shu ma'nolarni ifodalovchi shakllar tizimi. Mac, o'zbek tilida otlardagi son kategoriysi (*bola* – birlik, *bolalar* – ko'plik), se'lning zamон kategoriysi (*yozdi* – o'tgan zamон, *yozayapti* – hozirgi zamон, *yozadi* – kelasi zamон) va b.

Morfologik tamoyil. So'z, asos va qo'shimchalarni qanday talaffuz qilinishi, eshtilishidan qat'i nazar yagona tarzda yozilishi. Masalan, o'zbek tilida o'tgan zamон shaklini yasovchi *-di*, ravishdosh shaklini yasovchi *-ib* qo'shimchalari morfologik tamoyil asosida yoziladi: *ketti* emas *ketdi*, *olbordi* emas *olib bordi* tarzda yozilishi kabi.

Morfologiya. Grammatikaning so'z turkumlari va so'zlarning grammatik ma'nolarini o'rGANUVCHI bo'limi.

Mustaqil so'z. Mustaqil holda leksik ma'no anglatuvchi, gap bo'laklari vazifasini bajaruvchi so'zlar. Ot, sifat, son, olmosh,

ravish, fe'l mustaqil so'z turkumlari bo'lib, bu turkumlarga mansub so'zlar mustaqil so'zlardir.

Naturalistik oqim. Aynan. Naturalizm. Tilni tabiiy organizm sifatida qaragan XIX asrdagi tilshunoslik oqimi. Namoyandalari: A.Shleyxer, M.Myuller.

Nominatsiya (lot. nominatio – *atash, nom qo'yish*). Tilda nomlash vazifasini bajaruvchi birliklarni (so'z, so'z birikmasi kabilarni) hosil qilish.

Nutq a'zolari. Nutq tovushlari hosil bo'lishida ishtirok etuvchi a'zolar.

Nutq apparati. Nutq tovushlarini hosil qiluvchi a'zolar majmui: *lab, tish, til, tanglay, kichik til, og'iz bo'shlig'*, *burun bo'shlig'i, bo'giz usti bo'shlig'i, o'pka, bo'giz, nafas yo'li*.

Nutq madaniyati. 1. Filologiya fanining jamiyat taraqqiyotining ma'lum davrida nutqdan foydalanish jarayonini o'rghanish, kishilar orasidagi aloqa vositasi bo'lgan tildan foydalanish qoidalarini ilmiy asosda belgilash bilan shug'ullanadigan bo'limi. 2. Nutqning me'yoriyligi, uning ma'lum tarixiy taraqqiyot davrida shu tilda so'zlashuvchi jamoa tomonidan qo'yiladigan talablarga mosligi; talaffuz, urg'u, so'z qo'llash, so'z yasalishi, shakl yasalishi so'z birikmasi va gap tuzish me'yorlariga amal qilish. Nutqning me'yoriyligi fikrning aniq, ravshan va sofligini ham o'z ichiga oladi.

Nutq tovushi. Nutq a'zolarining faoliyati natijasida hosil bo'lувчи, akustik, artikulyatsion, lingvistik belgilarga ega bo'lgan eng kichik nutq birligi.

Nutq. Tilning vogelanishi; so'zlovchining til birliklaridan foydalanib fikr ifodalash jarayoni va shunday jaroyon natijasida yuzaga keladigan hodisa.

Nutqning sonetik bo'linishi. Nutqning tovush, bo'gin, takt va fraza kabi birliklarga bo'linishi.

Oppozitsiya. Ikki yoki undan ortiq bir turdag'i til hodisalarini qarama-qarshi qo'yish, qarama-qarshilik holati. Mas., *undosh tovushlarda jarangli va jarangsizlar oppozitsiyasi*.

Paradigma. Til birliklari, grammatick shakllarning umumiy ma'nosiga ko'ra birlashuvchi, xususiy ma'nosiga ko'ra farqlanuvchi tizimi. Mas., *shaxs-son yo'shimchalari paradigmasi; kelishik yo'shimchalari paradigmasi* kabi.

Paralingvistika. Tilshunoslikning o'zaro aloqa-aratashuvda imo-ishora, mimika, nutq vaziyati kabi omillarni o'r ganuvchi sohasi.

Piktografik yozuv (lot. *pictus* – bo'yoqlar bilan tasvirlangan + *grapho* – yozaman). Nutq mazmuni rasm, shartli tasvir tarzidagi grafik shakllar asosida ifodalanadigan yozuv.

Polisintetik tillar. So'z gap tarkibida o'ziga xos strukturaga ega bo'luvchi tillar. Mas., ba'zi *hindu tillari*.

Pozitsion o'zgarishlar. Tovushlarning ma'lum holatda ro'y beruvchi o'zgarishlari. *Reduksiya, proteza* hodisalari pozitsion o'zgarishlardir.

Psixolingvistika. Tilshunoslikning odam nutqi faoliyatini ruhiy jihatdan o'r ganuvchi bo'limi.

Qiyosii-tarixiy tilshunoslik (komparativistika). Tishunoslikning qarindosh tillarni qiyosiy-tarixiy metod asosida o'r ganuvchi tarmog'i.

Qiyosiy-tarixiy metod. Nisbatan keyingi vaqtlardagi yozma manbalar va jonli tilni qiyoslab o'r ganishi asosida jonli til hamda yozma manbalarda qayd etilmagan qadimgi til faktlarini tiklashdan iborat lingvistik metod.

Qiyosiy-tipologik metod. Tillarning qarindoshligidan qat'i nazar, ulardagi o'xshash va farqli alomatlarni aniqlash metodi.

Rasmiy til. Alohida davlatda rasmiy tan olingan, barcha sohalarda ishlataladigan til.

Reduksiya (*lot. redusio < reducere* – qaytarinoq, qisqartmoq). Unli tovushlarning urg'usiz bo'ginlarda kuchsiz talaffuz etilishi yoki o'zgarishi. O'zbek tilida reduksiya hodisasi juda kam kuzatiladi. Masalan, *og'iz+i* > *og'zi*, *burni+i* > *burni* so'zlarining ikkinchi, *bilan*, *biroq*, *qiziq* so'zlarining birinchi bo'g'inidagi *i* unlisining kuchsizlanishi kabi.

Segment (*lot. segment* – bo'lak) – nutqning fonetik jihatdan bo'laklarga bo'linishi (segmentlash) natijasida hosil bo'lgan bo'lak. Talaffuzdagi nutq bo'lagi. Katta nutq bo'lagi – fraza makrosegment, kichik nutq bo'laklari – takt, bo'g'in, tovush mikrosegment birliklardir.

Sema. Leksik ma'no (semema)ni hosil qiluvchi ma'no bo'laklari.

Semantik maydon. Ma'lum arxisema asosida birlashuvchi so'z va iboralar majmui. Masalan, oziq-ovqat nomlari: *palov*, *lag'mon*, *sho'rva*, *mastava*, *qotirma*, *manti* kabi.

Semantik maydondagi munosabatlar. Semantik maydondagi paradigma a'zolari o'rtasidagi sinonimik (ma'nodoshlik), giper-giponimik (jins-tur) munosabati, xolo-meronimik (butun-bo'lak) munosabati, graduonimik (leksik darajalanish) munosabati, funktsionimik (vazifadoshlik) munosabati, zidlik munosabatlari.

Semantik valentlik. So'zlarning ma'no jihatdan boshqa so'zlar bilan birikuvchanligi. Masalan, *sayramoq* so'zi *yoqimli ohangdor ovoz chiqarmoq*, *xonish qilmoq* ma'nosini bilan *qush*, *yoqimli*, *shirali ovozda qo'shiq aytnoq* ma'nosini bilan *xonanda*

so'zini biriktira oladi: *Sozandalar jo'rligida xonanda bulbuldek sayradi. Gulning har shoxida bulbul sayrardi.*

Semantika (fran. *semantique* – yun. *semantikos* – ifodalovchi). Til birliklarining mazmun-ma'no tomoni va ular bilan bog'liq masalalarni o'rganuvchi tilshunoslik sohasi.

Semasiologiya. Til birliklarining, birinchi navbatda, lug'aviy birliklarning semantik tuzilishi va u bilan bog'liq masalalarni o'rganuvchi tilshunoslik sohasi.

Semema. ayn. Leksik ma'no.

Semiologiya. Aynan. *Semiotika*.

Semiotika. Turli-tuman belgilar (ramzlar) tizimining umumiyligini xususiyatlarini o'rganuvchi fan.

Signifikat (lot. *significatus* – *ishora etuvchi, ayonetuvchi*). Til birligi ifodalaydigan tushuncha.

Sillabik yozuv. ayn. Bo'g'linli yozuv.

Sinekdoxa (yun. *sinekdoche* – birgalikda anglash). Predmetning butuni orqali qismini, qismi orqali butunini ifodalash asosida so'z ma'nosining ko'chishi. Masalan, *Yigit qizning qo'liga uzuk taqdi*. Gapda qo'l so'zining *barmoq* ma'nosida qo'llangani kabi.

Sinkopa. So'z tarkibidagi bir va bir necha tovushlarning tushishi. Masalan,

arslon > aslon, oltmish > otmish kabi.

Sintagma. Nutqning mazmun va ritmo-melodik jihatdan bir butunlikni tashkil etuvchi semantik-sintaktik birligi: *O'zbekiston/ kelajagi buyuk/ davlat. Talabalar / qishki semestrga / puxta tayyorlanmoqdalar.*

Sintagmatika. Til birliklarini nutq zanjiridagi unsurlar sifatida tekshirish aspekti.

Sintaktik kategoriya. Asosida yotuvchi ma'nosiga ko'ra birlashib, sintak-tik munosabatni ko'rsatish uchun xiznat qiluvchi shakllar. Mac, *kelishik kategoriyasi*, *egalik kategoriyasi*.

Sintaktik munosabat. So'z birikmasining tarkibiy qismlari va gap bo'lak-lari orasidagi munosabat.

Sintaktik valentlik. So'zlarning gapda boshqa so'zlar bilan birikuvi.

Sintetik qurilish. Grammatik ma'noning sintetik usul bilan ifodalanishiga asoslangan qurilish.

Sintetik tillar. Grammatik ma'nolar shakl yasovchi affikslar vositasida ifodalanadigan tillar. Mas., *rus va nemis tillari*.

Sintetik usul. Grammatik ma'noning affikslar vositasida hosil bo'lishi, ifodalanishi.

Sinxroniya. Tilning hozirgi tuzilishini, holatini o'rganish.

Sotsiolingvistika (lot. *soci* (*etas*) – jamiyat + *lingvistika*). Tilshunoslikning tilning ijtimoiy yashashi va ijtimoiy taraqqiyoti sharoitlarini o'rganuvchi sohasi.

Sotsiopragmatika. Sotsiolingvistikaning nutqning ham lisoniy, ham ijtimoiy xususiyatlariini hisobga olgan holda tadqiq etuvchi tarmog'i.

Strukturalizm. Tildagi ichki aloqalar va bosqichlar o'rtaсидаги bog'lanish-larni o'rganuvchi tilshunoslik oqimi. Strukturalizmning AQSH, Daniya, Praga, Frantsiya maktablari bor.

Sun'iy til. Insonning tabiiy tilidan farq qiluvchi, biror shaxs tomonidan maxsus ishlab chiqilgan yordamchi til. Mas., *esperanto* (L.Zamengof, 1887), *volapyuk* (I.Shleyer, 1870). XX asrning birinchi yarmida 400 ga yaqin sun'iy tillar ishlab chiqilgan.

Supersegmental fonetika (prosodika). Nutqning bo'gin, takt, fraza kabi birliliklarini o'rganuvchi fonetika bo'limi.

So'z turkumlari. So'zlarning umumiy leksik, grammatik xususiyatlariga ko'ra guruhlari. So'z turkumlari uch guruhga bo'linadi:

- 1) mustaqil so'z turkumlari;
- 2) yordamchi so'z turkumlari;
- 3) oraliq (alohida) so'z turkumlari.

Tabiiy til. Kishilar o'rtaida aloqa, fikr almashuv vositasi sifatida qo'llanayotgan eng muhim aloqa vositasi.

Tabu. Diniy e'tiqod, irim, qo'rqish ta'sirida ayrim so'zlarning qo'llanishini cheklash va man etish; ishlatalishi cheklangan so'zlar. Masalan, *chay'on* so'zi o'rniда *eshak*, *oti yo'q* so'zlarining qo'llanishi.

Talaffuz me'yori. Adabiy tilga xos talaffuzni belgilovchi me'yor; orfoepik me'yori: *oka* emas *aka*; *ena* emas *ona* kabi.

Takt. Yagona urg'u bilan aytildigan bir yoki bir necha bo'g'inning ulanishidan tashkil topgan frazaning bir bo'lagi. Masalan, *Odob salomdan boshlanadi*. Gapda uchta takt bor; *odob, salomdan, boshlanadi*.

Tarixiy-an'naviy tamoyil. So'z, asos va qo'shimchalarni qanday talaffuz qilinishi, eshtilishidan qat'i nazar tarixiy an'analarga muvofiq yozilishi. Masalan, *Bobur*, *Navoiy*, *tagozo*, *musicha*, *kabutar* kabi.

Tarixiy sonetika. Tilning tovush tomonini diaxronik planda o'rjanuvchi fonetika.

Tasviriy (deskriptiv) tilshunoslik oqimi. Tilni formal usullar yordamida o'rjanuvchi oqim. Amerika deskriptiv tilshunosligi: L.Bluemfeld, Z.Xarris, G.Glisson va boshqalar.

Tavsifiy lingvistika. Tilning holatini tavsifiy planda o'rjanuvchi tilshunoslik.

Terinin (*lat. terminus* – chek, chegera, chegara belgisi). Fan, texnika va boshqa sohalarga oid narsa, voqeysa-hodisa haqidagi tushunchalarni ifodalovchi, qo'llanish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so'z va birikmalar. Masalan, *fonema, morfema, leksema, sema, sintagma tilshunoslik, roman, vazn, turoq, radif, bahr* adabiyotshunoslik terminlari.

Terminologiya (*lat. terminus* – chek, chegera, chegara *beltgisi* + *logos* – so'z, ta'limot). 1. Ma'lum sohaga oid terminlar majmui. 2. Tilshunoslikning terminlar yaratish tanoyllari, ularni tartibga solish muammolari bilan shug'ullanuvchi, terminlarga doir ilmiy-nazariy va amaliy masalalarni o'r ganuvchi bo'limi.

Til sathlari. Tilni tekshirish jarayonida, uni tahlil etishning turli usullarida belgilanadigan qatlamlari. Tilning asosiy sathlari: 1) fonetik sath; 2) leksik sath; 3) grammatik sath.

Til shoxobchalari. Genetik jihatdan yaqintik belgilarlga ega bo'lgan til oilalarining ichki guruhlari, shu oila ichidagi til guruhlari. Masalan, *turkiy tillarning qarluq-uyg'ur guruhi*.

Tillar oilasi. Kelib chiqish asosining umumiyligi, sonetik, leksik va grammatik jihatdan o'zaro o'xhashligi, yaqinligi bilan izohlanadigan tillar guruhi. Mas., *turkiy tillar oilasi*.

Tillar tasnifi. Tillarning muayyan belgilar asosida ma'lum oila va guruhlarga ajratilishi.

Tillarning chatishuvi. O'zaro ta'sir etuvchi ikki tildan birining g'olib chiqishi va ikkinchi tilning esa g'olib tilda biror fonetik, leksik, sintaktik izlar qoldirishi. Mas., *kelt tili, frank tili*.

Tillarning genealogik tasnifi – q. *Tillarning shajaraviy tasnifi*.

Tillarning morfologik tasnifi. Tillarni grammatik shakl hosil qilish usullarida farq qilishga ko'ra guruhlarga ajratish. Bu tasnifga ko'ra tillarniig quyidagi turlari ajratiladi: 1) *amorf tillar* (q.); 2)

agglyutinativ tillar (q.); 3) *flektiv tillar* (q.) 4) *polisintetik tillar* (q.).

Yana q. *Analitik tillar*, *Sintetik tillar*.

Tillarning tipologik tasnisi. *Ayn Tillarning morfologik tasnisi.*

Tillarning qarindoshligi. Tillarning bir asos tildan kelib chiqqanligi va ularning fonetik, leksik va grammatic qurilishida umumiylig, izchil mosliklarning mavjudligi.

Tillarning shajaraviy tasnisi. Tillarni kelib chiqish manbaining birligi, umumiyligiga ko'ra guruhlarga ajratish.

Tilning estetik vazifasi. Tilning aloqa-aratashuvda turli hishayajon, ta'sirchanlikni ifodalash vazifasi.

Tilning ifoda jihatasi. Tilning tashqi tomoni, strukturasi, undagi birliklar (tovushlar, morfemalar, so'zlar, so'z birikmalari, gaplar).

Tilning mazmun jihatasi. Tildagi birliklarning ma'no-mazmun tomoni.

Tilning suprasegment elementlari. Bo'g'in, urg'u, ohang tilning suprasegment elementlaridir.

Tipologiya (yun. *typos* – iz, shakl, namuna + *logos* – ta'limonot.)

1. Tilshunoslikning tillarni tipologik tasnif qilish prinsipi va usullarini o'r ganuvchi bo'limi 2. Til birliklarini biron umumiy belgi asosida tasnif qilish.

Undosh tovushlar. Ovoz va shovqindan hosil bo'lувчи tovushlar.

Unli tovushlar. Sof ovozdan hosil bo'lувчи tovushlar.

Uyadoshlik munosabati. Bir sathga mansub, qimmat jihatidan bir xil til birliklarining ma'lum umumiy belgi asosida bir guruh (uya)ga birlashuvi.

Valentlik. So'zning o'z ma'nosi asosida boshqa so'zlar bilan munosabatga kirishuvi; muayyan bir so'zning boshqa so'zlarni biriktira olish imkoniyatlari. Valentlikning quyidagi turlari mavjud: semantik valentlik; sintaktik valentlik.

Xalqaro tillar. Xalqaro kengashlarda, simpoziumlarda ishlataluvchi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan rasmiy tan olingan, xalqlararo faol qo'llanuvch tillar. Bunga *ingliz*, *ispan*, *xitoy*, *frantsuz*, *rus*, *arab tillari* kiradi.

Yordamchi so'zlar. Mustaqil holda leksik ma'no anglatmaydigan, gap bo'laklari vazifasida kela olmaydigan, turli yordamchi ma'no va vazifalarda qo'llanadigan so'zlar. Bog'lovchi, ko'makchi, yuklama yordamchi so'z turkumlari bo'lib, bu turkumlarga mansub so'zlar yordamchi so'zlardir. Masalan, va, *ammo*, *lekin*, *yo*, *yoki* (bog'lovchi), *ilan*, *kabi*, *singari*, *sari* (ko'makchi), *nahot*, *ham*, *faqat* (yuklama) kabi.

Yozuv. Fikrni ma'lum harf va tinish belgilari vositasida qog'ozda ifodalashga asoslangan aloqa vositasi.

Yosh grammaticachilar. Tildagi alohida xususiyatlarni faqat tarixiy jihatdan qarab, sonetik qonuniyatlarning barcha tillar uchun umumiyligi, o'zgarmas tarzda ekanligini taklif etgan XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi tilshunoslik oqimi. Bu mакtabning namoyandalari: rus tilshunoslari: F.F.Fortunatov, A.Shaxmatov, nemis tilshunoslari: I.Schmidt, G.Ostgof, K.Brugman, G.Paul, frantsuz tilshunosi M.Breal va boshqalar.

O'lik til. Hozirgi davrda so'zlashuv vositasi sifatida qo'llanmaydigan, jonli iste'moldan chiqqan (iste'molda bo'limgan) til. Mas., *lotin*, *eski slavyan*, *sankskrit*, *qadimgi turkiy tillari*.

O'zakli tillar. Affikslarga ega bo'limgan tillar. Mas., *xitoy*, *birma*, *vietnam tillari*.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
2. Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
3. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2010. – 176 b.
4. Bobojonov Sh., Islomov I. O'zbek tilining so'zlar darajalanishi o'quv lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 48 b.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2008. – 1-kitob. – 140 b.
6. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2008. – 2-kitob. – 132 b.
7. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 264 b.
8. Mengliyev B., Bahriiddinova B. O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 104 b.
9. Mengliyev B., Bahriiddinova B. O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 104 b.
10. Mengliyev B., Boymatova O., Xudoyberdiyeva M. O'zbek tili iboralari o'quv lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 60 b.
11. Nafasov T., Nafasova V. O'zbek tilining talaffuzdosh so'zlari o'quv lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 122 b.
12. Norxo'jaeva X. O'zbek tilining eskirgan so'zlar o'quv lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 76 b.
13. O'zbek tilining imlo lug'ati/ E.Begmatov, A. Madvaliyev. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 528 b.

14. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2007. – 146 b.
15. Turniyozov N. Tilshunoslikka kirish (ma’ruzalar matni). – Samarqand, 2006. – 80 b.
16. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi (amaliy va seminar mashg’ulotlar). Universitetlarning 5120100 – filologiya va tillarni o’qitish (o’zbek filologiyasi) yo’nalishi I-kurs talabalari uchun o’quv-uslubiy qo’llamma. – Namangan, 2015. – 80 b.
17. Qurbonova M., Yo’ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014. – 116 b.
18. Abduazizov A. O’zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: O’qituvchi, 1992. – 136 b.
19. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2010.
20. Abdumajidov F. «O’zbekiston Respublikasining davlat tili haqida»gi Qonuniga sharhlar. – Toshkent: Adolat, 1999. – 64 b.
21. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 1993. – 224 b.
22. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 1996.
23. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug’atayin. Mukammal asarlar to’plami. – Toshkent: Fan, 2000. – B. 7- 40.
24. Baskakov N. A., Sodiqov A. S., Abduazizov A. Umumiyl tilshunoslik. – Toshkent: O’qituvchi, 1979. – 192 b.
25. Begmatov Э., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. – Toshkent: Navro’z, 1997. – 1-, 2-, 3-qismlar.
26. Berdiyorov H., Rasulov R. O’zbek tilining paremiologik lug’ati. – Toshkent: 1984. – 288 b.
27. Березин Ф.М., Головин Б.Н. Общее языкознание. – Москва: Просвещение, 1979. – 416 с.

28. Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007. – 270 b.
29. Vohidov Ә. So‘z latofati. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – 152 b.
30. Drachuk V. Yozuvlar – o‘tmish sirlari shohidi. – Toshkent, 1980.
31. Дьячок М. Т., Шаповал В. В. Генеалогическая классификация языков. – Новосибирск, 2002. – 32 с.
32. Jamoa. Zamonaviy o‘zbek tili. Morfologiya. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2008. – I jild. – B. 171-207.
33. Jamolxonov H.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talgın, 2005. – 272 b.
34. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 256 b.
35. Iskandarova Sh. Leksikani mazmuniy maydon sifatida o‘rganish muammolari. – Toshkent: Fan, 1998. – 52 b.
36. Yo‘ldoshev B. O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi va taraqqiyoti. – Samarqand, 2007.
37. Лингвистический энциклопедический словарь. – Москва: Энциклопедия, 1990.
38. Lutfullaeva D. Gapni semantik-sintaktik qoliplashtirish muammolari. – Toshkent: Fan, 2005.
39. Маслов Ю.С. Введение в языкознание. – Москва: Высшая школа, 1987. – 272 с.
40. Mahmudov N. Til. – Toshkent: Yozuvchi, 1998. – 40 b.
41. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig‘i. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 152 b.
42. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 188 b.

43. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tili nazariy grammatikasi. – Toshkent, 1995.
44. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013. – 320 b.
45. Mahmudov N., Odilov Yo. So'z ma'no taraqqiyotida ziddiyat. O'zbek tili enantiosemik so'zlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – 288 b.
46. Mirtojiev M. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Universitet, 1998. – 90 b.
47. Mirtojiev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 288 b.
48. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O'qituvchi, 1993. – 32 b.
49. Ne'matov H. O'zbek tili tarixiy fonetikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 96 b.
50. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 128 b.
51. Ne'matov H., Sayfullaeva R., Qurbonova M. O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari. – Toshkent, 1999.
52. Nurmonov A. Lingvistik belgi nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 48 b.
53. Nurmonov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – 48 b.
54. Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 176 b.
55. Nurmonov A., Yo'idoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 160 b.
56. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 232 b.

57. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. III jildlik. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – I, II, III jildlar.
58. Nurmonov A., Mahmudov N. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 230 b.
59. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh., Nabieva D. O'zbek tili nazariy grammatikasi. Morfologiya. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
60. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2001. – 330 b.
61. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992.
62. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati (turkiy so'zlar). – Toshkent: Universitet, 2000. – 600 b.
63. Rahmatullaev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. – Toshkent: Universitet, 2002. – 28 b.
64. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati (arab so'zlari va ular bilan hosilalar). – Toshkent: Universitet, 2003. – 600 b.
65. Rahmatullaev Sh. Sistem tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Universitet, 2007. – 160 b.
66. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati (forscha, tojikcha birliklar va ular bilan hosilalar). – Toshkent: Universitet, 2009. – 284 b.
67. Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. – Москва: Просвещение, 1976. – 544 с.
68. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003. – 112 b.
69. Safarova R. Leksik-semantik munosabatning turlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 48 b.

70. Sobirov A. O'zbek tili leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – 160 b.
71. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1981. – 224 b.
72. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. Tuzuvchi: H. Dadaboev. – Toshkent, 2004.
73. Tojiev Yo. O'zbek tili morfemikasi. – Toshkent, 1992. – 68 b.
74. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 399 b.
75. Uluqov N., Tojiboev Sh. Ilm hikmati. – Namangan, 2014. – b.
76. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 1972. – 208 b.
77. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. – 316 b.
78. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 1–5-jildlar.
79. O'zbek tilining imlo lug'ati / A. Madvaliev, E. Begmatov; – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 520 b.
80. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2000–2005. – 1–12-jildlar.
81. Фердинанд де Соссюр. Заметки по общей лингвистике. – Москва: Прогресс, 1990.
82. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 166 b.
83. Hojiev A. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – 168 b.
84. Hojieva A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. – Toshkent: Fan, 2010. – 256 b.

QAYDLAR UCHUN

MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| So'zboshi | 3 |
| Kirish | 5 |
| Tilshunoslik va uning sanlar tizimidagi o'rni | 5 |
| Tilning ichki tuzilishi va vazifalari. Til va nutq | 15 |
| Til va jamiyat. Sotsiolingvistika | 23 |
| Til va tafakkur | 33 |
| Dunyoning lisoniy xaritasi. Tillar tasnifi | 42 |
| Fonetika. Fonologiya. Nutq tovushlarining tasnifi | 59 |
| Nutqning fonetik bo'linishi | 77 |
| Fonetik hodisalar | 84 |
| Grafika. Yozuv va uning turlari | 91 |
| Orfoepiya va orfografiya | 98 |
| Leksikologiya. Leksemaning ma'no tuzilish | 103 |
| Barqaror birikmalar va frazelogizmlar. Paremiologiya. Frazelogiya | 111 |
| Tilning lug'at tarkibi | 116 |
| Leksikografiya (lug'atshunoslik) | 121 |
| Morfemika. Morfema va uning turlari. So'z yasalishi. So'z yasash usullari | 127 |
| Grammatika va uning tarkibiy qismlari | 136 |
| Sintaksis. Sintaktik munosabat. Sintaktik birliklar | 141 |
| Mustaqil ish mavzulari va ular bo'yicha topshiriqlar | 149 |
| Referat mavzulari va uni yozish bo'yicha tavsiyalar | 155 |
| Glossariy | 159 |
| Foydalilanigan adabiyotlar | 181 |

О ГЛАВЛЕНИЕ

| | |
|--|-----|
| Предисловие..... | 3 |
| Введение..... | 5 |
| Языкознание и его место в системе наук | 5 |
| Структура языка и его функция. Язык и речь..... | 15 |
| Язык и общество. Социолингвистика..... | 23 |
| Язык и мышление..... | 33 |
| Лингвистическая карта мира. Классификация языков. | 42 |
| Фонетика. Фонология. Классификация звуков речи..... | 59 |
| Фонетическая сегментация речи..... | 77 |
| Фонетические процессы | 84 |
| Графика. Письмо и его типы..... | 91 |
| Орфоепия и орфография | 98 |
| Лексикология. Семантическая структура лексема | 103 |
| Паремия и фразеологизм. Фразеология. Паремиология .. | 111 |
| Словарный состав языка | 116 |
| Лексикография | 121 |
| Морфемика. Морфема и его типа. Словообразование. | |
| Способом слово-образования | 127 |
| Грамматика. Морфология. Классификация частей речи .. | 136 |
| Синтаксис. Синтактические связи. Синтактические единства языка | 141 |
| Темы и задание самостоятельной работы | 149 |
| Темы рефератов и рекомендации по их написанию | 155 |
| Глоссарий..... | 159 |
| Литература | 181 |

CONTENTS

| | |
|---|-----|
| Preface..... | 3 |
| Introduction..... | 5 |
| Linguistics and its role in the science system..... | 5 |
| The structure of the language and its function. Language and speech | 15 |
| 23 | |
| Language and society. Sociolinguistics | 33 |
| Language and thinking..... | 42 |
| Linguistic map of the world. Classification of languages..... | 59 |
| Phonetics. Phonology. Classification of speech sounds..... | 77 |
| Phonetic division of the speech..... | 84 |
| Phonetic processes..... | 91 |
| Graphics. Writing and its types..... | 98 |
| Orthoepy and orthography..... | 103 |
| Lexicology. Semantic structure of lexeme | 111 |
| Paremy and phraseological units. Paremiology. Phraseology... | 116 |
| Lexical layer of language and its vocabulary structure | 121 |
| Lexicography | 127 |
| Morphemics. Morpheme and its types. Word-formation. Ways of word-formation..... | 136 |
| Grammar. Morphology. Classification of Parts of Speech | |
| Syntax. Syntactic relations. Syntactic unity of a language..... | 141 |
| Themes of independent works and its related tasks..... | 149 |
| Themes of synopsis and instructions on writing them..... | 155 |
| Glossary | 159 |
| Used literature | 181 |

NOSIRJON ULUQOV

TILSHUNOSLIK NAZARIYASI

Toshkent – «Barkamol fayz mediya» – 2016

| | |
|------------------------------|----------------|
| Muharrir: | D.Baxidova |
| Tex. muharrir: | M.Holmuhamedov |
| Musavvir: | D.Azizov |
| Musahihih: | Sh.Mirqosimova |
| Kompyuterda sahifalovchi: | N.Hasanova |

E-mail: tipografiyaent@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.
Nashriyats. A1N^o284, 12.08.16. Rosishga ruxsat etildi: 05.12.2016.
Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasi.
Olset bosma usulida bosildi. Sharli bosma tabog'i 11,75.
Nashriyot bosma tabog'i 12,0. Tiraji 300. Buyurtma №251.

**«Fan va texnologiyalar Markazining
bosmaxonasi»da chop etildi.**

100066, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-uy.